

2 2021

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


**ILMIY  
AXBOROTLARI  
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC BULLETIN**

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ILMIY-NAZARIY JURNAL  
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-THEORETICAL JOURNAL



ANIQ FANLAR  
TABIY FANLAR  
FALSAFA  
PEDAGOGIKA  
PSIXOLOGIYA  
IJTIMOIY-GUMANITAR  
FANLAR

*ISSN 2181-9580*

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTLARI  
ILMIY-NAZARIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК  
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN  
OF THE TASHKENT  
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

**2021**

**2-son**

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

**MUNDARIJA**

<b>Azimov I.T., Raxmatov U.E.</b> Umumiy oʻrta taʼlim maktablari biologiya kursi biopolimerlar mavzularini oʻqitishda fanlararo bogʻlanishni amalga oshirishda masalardan foydalanishning roli	5
<b>Berikbaev A.A.</b> Boʻlajak tasviriy sanʼat oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish talablari	12
<b>Джуроева Б.А.</b> Роль информационных технологий в формировании химических технологических компетенций студентов	17
<b>Тиллашайхова Х.А.</b> Влияние гендерной идентичности на социально-психологическую адаптацию женщины	23
<b>Kadirova Y.B.</b> Demokratik huquqiy davlat qurishda oʻquvchilarning fuqarolik savodxonligini oshirish afzalliklari	28
<b>Toshxoʻjaeva N.R.</b> Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida tabiatshunoslik fanini oʻqitishga kasbiy jihatdan tayyorlash tizimi	35
<b>Moʻydinov A. A.</b> Milliy maʼnaviyat va uning tadrijiy bosqichlari	44
<b>Хайитов Ф.Ш.</b> Методическая разработка урока химии на тему “Металлы I (B) подгруппы периодической системы Д.И.Менделеева”	52
<b>Djuraeva G.N.</b> Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari	60
<b>Abduvaliyeva D.N., Isroil Sh.B.</b> Masofaviy oʻqitishni joriy etish – oʻquv jarayonini takomillashtirish sharti sifatida	68
<b>Gʻaniyev A.G.</b> “Energiyaning saqlanish qonuni” mavzusini oʻqitishda ijodiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish	76
<b>Abdurahmonova Z.A.</b> Oʻquvchilarda sanogen tafakkur xususiyatlarining ijtimoiy xulq-atvorda namoyon boʻlish mezonlarining oʻrganilishi	82
<b>Акрамова Ф.А.</b> Основные проблемы проведения психологической службы семьям	89
<b>Alimova G.K.</b> Bolada agressiv xulqning shakllanishiga oiladagi munosabatlar tizimining taʼsiri	94
<b>Atabaeva N.B.</b> Oʻquvchilarda kitobxonlik madaniyati orqali altruizm motivlarini rivojlantirishning psixologik jihatlari	98
<b>Dadahodjayeva M.R.</b> Kasb-hunar kollejlarda kimyo fanini oʻqitishning dolzarb muammolari.	103
<b>Raximova I.G.</b> Kichik maktab yoshidagi tortinchoqlik hissining psixologik xususiyatlari	110
<b>Qarshiyeva D.S.</b> Pedagogik jarayonda stress va agressiv xulq-atvorni boshqarish psixokorreksiyasi	116
<b>Adilova S.A., Yunusova Sh.M.</b> Oʻquvchilarning mutolaa savodxonligini	124

rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning oʻrni	
<b>Abdullayeva D.U.</b> Ona va bola munosabatlarida tasavvurlarning oʻrni	130
<b>Saribayeva U.S.</b> Oilada er - xotin gender tengligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida	139
<b>Сулейманова А.Н.</b> Формирование понятия психологического благополучия в современной психологической науке	143
<b>Nasirov A.N.</b> Badiiylik: davr va inson talqini	149
<b>Хисматова Х.Ф.</b> Требования к современному образованию в педагогических вузах	155
<b>Kuchimova N.T.</b> Boʻlajak oʻqituvchilarda kommunikativ-didaktik kompetentlikni shakllantirish muammosining pedagogik amaliyotidagi holati	162
<b>Ishmanova Z.U.</b> Analitik kimyo fanini oʻqitishda innovatsiyalardan foydalanish	166
<b>Mamatqulova M.V.</b> Oʻquv faoliyatida pedagogika oliy oʻquv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari	174
<b>Egamova Sh.D., Narimova G.A.</b> Navoiy asarlari tilida tub va yasama soʻzlarning qoʻllanilish oʻrinlari	181
<b>Курбанова Ш.И.</b> Применение технологической стратегии портфолио в процессе изучения русского языка в иноязычных группах высшего образовательного учреждения	186
<b>Хакимов А.О.</b> Milliy yuksalish sharoitida fuqarolik masʼuliyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	192
<b>Ahmedova N.M.</b> Boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyati	198
<b>Махкамова G.A.</b> Samarqand kashtachiligining oʻziga xosligi	207

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BIOLOGIYA KURSI  
BIOPOLIMERLAR MAVZULARINI O'QITISHDA FANLARARO  
BOG'LANISHNI AMALGA OSHIRISHDA MASALALARDAN  
FOYDALANISHNING ROLI**

**Azimov I.T. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti vazifasini  
bajaruvchi**

**Raxmatov U.E. - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta  
o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biologiya o'qitish tizimida fanlararo bog'lanishga oid ma'lumotlar berilgan. Bayon etilayotgan ma'lumotlar energiya almashinuvi, nuklein kislotalar mavzularini o'qitishda foydalaniladigan asosiy tushunchalarni fizika va kimyo kurslarida qo'llaniladigan tushunchalar bilan bog'lab o'qitishda masalalardan foydalanish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Shuningdek maqolada predmetlararo bog'lanishlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kirish so'zlar:** ta'lim, bilim, fanlararo bog'lanish, biologiya, fizika, kimyo, masala, mashq.

**РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАЧ В РЕАЛИЗАЦИИ  
МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМ  
БИОПОЛИМЕРОВ КУРСА БИОЛОГИИ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ  
ШКОЛ**

**Азимов И.Т. - и.о.доцента Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Рахматов У.Э. - старший преподаватель Ташкентского  
государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Эта статья содержит информацию о межпредметных связях в системе преподавания биологии. Представленная информация направлена на улучшение методологии использования задач в изучении энергетического обмена, нуклеиновых кислот, на связывание основных понятий, используемых в курсах физики и химии. В статье также представлена информация о межпредметных связях.

**Ключевые слова:** образование, знания, межпредметная связь, биология, физика, химия, задачи, упражнение.



**THE ROLE OF USING PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERPRETERIAL RELATIONSHIPS IN TEACHING THE TOPICS OF BIOPOLYMERS IN THE BIOLOGY COURSE OF SCHOOLS**

**Azimov I.T. - Acting Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University**

**Rakhmatov U.E. - Senior teacher Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article contains information about interdisciplinary connections in the biology teaching system. The presented information is aimed at improving the methodology of using tasks in teaching energy exchange, nucleic acids binding basic concepts used in physics and chemistry courses.

The article also provides information about interdisciplinary connections.

**Key words:** education, knowledge, interdisciplinary communication, biology, physics, chemistry, tasks, exercise.

“Joriy yilda matematika, kimyo, biologiya, geologiya kabi yo‘nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag‘larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish kerak”. Prezidentimizning bu murojaati barcha pedagoglarni ruhlantirdi va ular o‘qitishning yuqori samara beradigan, ta‘lim tizimini mukammallashtiradigan texnologiyalar ustida tinmay ishlamoqdalar [1]. Biologiya o‘qitish jarayoniga masala va mashqlar yechish metodikasini tatbiq etish, o‘quvchilarni biologik masala va mashqlar yechish texnikasi bilan qurollantirish, fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi va egallagan bilimlarini mustahkamlaydi. Biologiyadan masala va mashqlar yechish fanlararo bog‘lanishlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar biologik muammoni hal qilish bo‘yicha izlanishlari davomida matematika, kimyo, geografiya va fizika kabi fanlardan olgan bilimlariga ham tayanishadi [2; 3-b].

Ta‘lim jarayonida fanlararo aloqadorlik o‘qituvchining kasbiy, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik tayyorgarligi orqali hamda uning o‘z fanini chuqur anglashi asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun o‘qituvchi faqat o‘zi dars beradigan fanini chuqur va puxta bilib qolmasdan, balki unga yaqin fanlararo bilimlardan ham xabardor bo‘lishi lozim. Bu bilimlarning alohida turlari va ular o‘rtasidagi aloqadorlik shakllarini egallashga yordam beradi. Maktabda o‘qitilayotgan odam va uning salomatligi kursini kimyo va fizika o‘quv fanlari bilan bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarni amaliy va ijodkor o‘quvchilar etib tarbiyalashda yordam beradi [4; 5-b]. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fanlararo bog‘lanish turlari

maxsus bilimlar, yoki tadqiqotlar asosida amalga oshadi. Odam va uning salomatligi kursini tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishda umumiy va xususiy biologik tushunchalar bilan kimyoviy va fizik tushunchalar o'rtasidagi sinxron(gorizontol) va asinxron(vertikal) bog'lanishlar ko'zda tutiladi. Biologiya darslarida masala va mashqlardan foydalanish usullarini yo'lga qo'yish samarali vositadir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan biologik bilimlarni egallashda eng samarali usullardan biri masalalardan foydalangan holda mavzu mazmunini yoritib berishdir. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda masalalarni amaliy ahamiyati nihoyatda kattadir. Biologik ta'limning samaradorligini oshirishda va o'quvchi ma'lum darajada o'z oldiga qo'ygan biologik maqsadlarga erishishda, matematik savodxonlikni oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun biologiya darslarida ko'proq masalalardan foydalanishni yo'lga qo'yish va ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqish biologiya o'qitish metodikasining dolzarb vazifalaridan biridir. Masalalar yechish metodikasini to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchilarda biologik bilimlarni yuqori darajada egallash hamda biologik jarayonlar mexanizmini chuqur anglab yetishlarida alohida ahamiyatga egadir.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Biologik masalalar yechish insonni aniq fikrlarini ajrata olish va xulosalar yasash, ma'lumotlar va ilmiy faktlarni aniqlash, ma'lumotlarni mos keltirish va qarama-qarshi qo'yish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Masala yechish bo'yicha A.Y. Xinchin o'z fikrlarni bayon etgan. Masala yechishda o'quvchilar to'g'ri fikrlashni, eng muhimi to'liq argumentlarni egallashni o'rganadilar. Masala yechishda fikrlar aniq ma'lumotlarga yo'naltirilgan, noqununiy umumlashtirishlarga yo'l qo'yilmagan bo'lishi kerak. Masalada berilgan faktlarni to'liq qamrab olishni talab etilishi, klassifikatsiyalashga to'liq e'tibor berish talab etiladi. Biologik masalalarni yechish davomida o'quvchilarda o'ziga xos fikrlash qobiliyati: ana'naviy fikrlash sxemasidan farq qiladigan fikrlar bayoni, fikrlarni sharxlash, belgilar aniqligi, fikrlash davomida fikrlarni aniq bo'laklarga bo'lib fikrlash shakllanadi.

Hozirgi vaqtda biologiya darslarida masala va mashqlardan foydalanish orqali fanlararo bog'lanishni amalga oshirish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ayniqsa, modda va energiya almashinuvi hamda nuklein kislotalar, oqsillar biosintezi mavzusiga bog'liq masalalar o'quvchilarga biologik jarayon mexanizmini aniq tasavvur etish imkonini beradi. Bunday masalalar guruhiga ayrim misollarni keltiramiz.

1. Noma'lum massali glyukoza parchalanganda 4080 kj issiqlik energiyasi va 118 ATF chiqdi, glyukoza necha foizi to'liq parchalanmagan.

Yechimi:

Biz bilamizki hujayrada glyukoza ikki xil yo‘l bilan parchalanadi, ya’ni to‘liq va to‘liqsiz.

Glyukoza to‘liqsiz parchalanganda 1 molekula glyukozadan 2 molekula sut kislotasi va 2 ATF hosil bo‘ladi. Bu jarayon sitoplazmada kechadi.

Bir molekula ATF hosil bo‘lishi uchun 40 kj energiya sarf bo‘ladi. 2 ATF uchun 80 kj energiya sarf bo‘ladi.

$$2 \times 40 = 80.$$

Bu bosqichda ATF tarkibida to‘plangan energiya umumiy energiya’ning 40% ni tashkil etadi. Qolgan 60 % issiqlik energiyasi sifatida tarqaladi.

$$80 \text{ kj} \text{ --- } 40\%$$

$$X \text{ ----- } 60\%$$

Bu tenglamadan X ni topamiz.

$$X = 120 \text{ kj}.$$

Demak, 120 kj energiya issiqlik sifatida tarqalgan.

Bir molekula glyukoza to‘liqsiz parchalanganda 2 ATF hosil bo‘ladi va 120 kj energiya issiqlik sifatida tarqaladi.

Glyukoza to‘liq parchalanganda 38 ATF hosil bo‘ladi. Bu jarayon kislorodli parchalanish ham deb ataladi va mitoxondriyada kechadi.

$$38 \times 40 = 1520 \text{ kj ATF da to‘plangan.}$$

Bir molekula glyukoza to‘liq parchalanganda 2800 kj energiya hosil bo‘ladi.

$$2800 - 1520 = 1280 \text{ kj}$$

1280 kj energiya issiqlik sifatida tarqalgan.

Bu jarayonni quyidagi jadval ko‘rinishida bayon etilsa o‘quvchi uchun yanada tushunarli bo‘ladi.

<u>Parchalanish</u>	<u>ATF</u>	<u>ATFd</u>	<u>issiqlik</u>	<u>Jami</u>
To‘liq	38	1520	1280	2800
To‘liqsiz	2	80	120	200


Demak, yuqoridagi masaladan bizga necha molekula glyukoza to‘liq va necha molekula glyukoza chala parchalangani noma’lum.

Shuning uchun to‘liq parchalanishni X to‘liqsiz parchalanishni U deb olaylik.

X molekula glyukoza to‘liq parchalanganda 38 molekula ATF ya’ni 38 X ATF hosil bo‘ladi va 1280 kj energiya issiqlik sifatida tarqaladi.


U molekula glyukoza to‘liqsiz parchalanganda 2 ATF ya’ni 2 Y hosil bo‘ladi 120 kj energiya issiqlik sifatida tarqaladi.

Demak to‘liq parchalanishda



$$X \quad \quad \quad 38 X \quad 1280 \text{ kj}$$

To‘liqsiz parchalanishda





$$Y \quad 2 Y \quad 120 \text{ kj}$$

Masalani shartida hosil bo'lgan ATF lar soni 118 ta berilgan. Biz ikkala bosqichda hosil bo'lgan ATF larni qo'shsak 118 ga teng bo'lishi kerak.

$$38X + 2Y = 118$$

Shu jarayonda hosil bo'lgan issiqlik sifatida ajralgan energiya'ning miqdori esa 4080 kj ni tashkil etadi, ya'ni biz ikki bosqichda hosil bo'lgan energiyani qo'shganimizda 4080 kj bo'lishi kerak.

$$1280X + 120Y = 4080$$

Biz X va Y qiymatini topish uchun bu ikki tenglamani birlashtiramiz va sistema tuzamiz.

$$38 X + 2 Y = 118$$

$$1280 X + 120 Y = 4080$$

Tenglamada X yoki Y ni yo'qotishimiz kerak. Buning ikkala sistemadagi sonlarni bir xil songa keltirib olamiz. Y ni yo'qotish uchun yuqoridagi tenglamani 60 ga ko'paytiramiz. Natijada Y 120 ga teng bo'ladi.

Yuqoridagi va pastdagi tenglamadagi Y bir xil bo'lgani uchun ular qisqarib ketadi. Natijada tenglamada faqat X qoladi. So'ngra X ni qiymati topiladi.

$$38X + 2Y = 118 \times 60$$

$$2280 X + 120Y = 7080$$

$$1280X + 120Y = 4080$$

$$1280X + 120Y = 4080$$

120 Y lar qisqarib ketadi. Qolgan ikkita tenglamadagi X larning kattasidan kichigini ayiramiz.

$$2280 X - 1280 X = 1000 X$$

Demak sistemada 1000 X qoldi.

$$7080 - 4080 = 3000$$

Aniq sonlar esa 3000 qoldi.

Endi bir X ni qiymatini topish uchun aniq sonni X ni oldidagi songa bo'lsak X ni qiymati chiqadi.

$$X = 3000 : 1000$$

$$X = 3$$

X ni qiymati aniq bo'lgandan so'ng biz Y ni ham topib olsak bo'ladi. Buning uchun biz X orqali glyukoza to'liq parchalangan molekulalar sonini bilib oldik, ya'ni 3 molekula glyukoza to'liq parchalangan.

$$3 \times 38 = 114$$

Demak, glyukoza to'liq parchalanganda 114 ta ATF hosil bo'lgan. Shundan qolgan 4 tasi to'liqsiz parchalanishga uchragan. Bu ikki molekula glyukozadir.

Natijada 3 molekula glyukoza to'liq parchalangan, 2 molekula esa to'liqsiz parchalangan


$$5 \text{-----} 100\%$$

$$X \text{-----} 2$$

$$X = 200 : 5 = 40\%$$


2. Glyukoza parchalanganda 9320 kj issiqlik energiyasi chiqdi, shu glyukozani hosil qilish uchun o'simlik 180 mol ATF sarfladi. Glyukozaning necha foizi to'liq parchalangan.

To'liq parchalanish



$$X \text{ ----- } 1280 X$$

CHala parchalanish



$$Y \text{ ----- } 120 Y$$

180 ta ATF sarflanishi natijasida 10  $C_6 H_{12} O_6$  hosil bo'ladi.

$$X + Y = 10/120$$

$$1280X + 120Y = 9320$$

$$120X + 120Y = 1200$$

$$1280X + 120Y = 9320$$

$$1160X = 8120$$

$X = 8120 : 1160 = 7$  mol glyukoza to'liq parchalangan

$$10 \text{ mol --- } 100\%$$

$$7 \text{ mol ----- } X \quad X = 70\%$$

Energiya almashinuvi bilan bir qatorda nuklein kislotalarning tuzilishi tarkibi, nukleotidlar izchilligini ko'rsatib beruvchi va nukleotidlar orasidagi vodorod bog'lar sonini aniqlashga oid masalalar o'ziga xos o'ringa ega. Quyida berilayotgan masalalar vodorod bog'lar va nukleotidlar sonini aniqlashga oiddir.

1. 1200 juft nukleotidlar iborat DNK zanjirida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog'i mavjud. Ushbu fragmentda guanin va tsitozin juftligi adenin va timin juftligidan 1.5 barobar ko'p bo'lsa, bu zanjirdagi guanin va tsitozin juftligi orasidagi vodorod bog'lar sonini aniqlang.

$$1200 = 2400$$

$$2400 = 2X (A \text{ va } T) + 1.5 \times 2X (G \text{ va } S)$$

$$2400 = 5X$$

$$X = 480$$

480 ta timinga 480 adenin ular orasida vodorod bog'lar soni 960

$$480 \times 1.5 = 720$$

720 ta G ga 720 S ular orasida vodorod bog'lar soni 2160

javob. 2160

2. DNKning qo'sh zanjirida G nukleotidlari 40% ni tashkil etadi. DNKdagi gen asosida sintezlangan oqsil 400 ta aminokislotadan iborat bo'lsa, shu DNK qo'sh zanjiridagi timin nukleotidlar sonini toping.

Bizga genetik kodga oid ma'lumotlardan ma'lumki uchta nukleotid bitta triplet hisoblanadi, bitta triplet bitta aminokislota kodlaydi. Bu ma'lumotga asosanib 400 ta aminokislota uchga ko'paytirib, oqsil sintezida ishtirok etgan nukleotidlar sonini topamiz.

$$400 \times 3 = 1200$$

Masalani shartida DNKning qo'sh zanjiridagi nukleotidlar sonini topish uchun 1200 ni ikkiga ko'paytiramiz.  $1200 \times 2 = 2400$ .

$$2400 \text{-----} 100\%$$

$$X \text{-----} 40\%$$

$$\text{Javob: } X=960$$

3. DNK molekulasida 1380 ta N bog'i mavjud bo'lib, undagi S nukleotid soni 180ta, Shu DNK asosida sintezlangan oqsildagi aminokislota sonini aniqlang.

Sitozin soni 180 ta bo'lsa unga 180 Guanini komplementar bo'ladi. Ular o'rtasida 3ta vodorod bog'i bo'lsa  $180 \times 3 = 540$

$$1380 - 540 = 840$$

840 ta vodorod bog'i A bilan T o'rtasida bo'ladi.

$$840 : 2 = 420$$

$$420 + 180 = 600$$

DNK asosida sintezlangan oqsil uchun 600 ta nukleotid ishtirok etgan.

$$600 : 3 = 200.$$

Javob: Aminokislotalar soni 200 ta

Modda va energiya almashinuvi, nuklein kislotalar, oqsillar biosintezi bo'yicha mavzularni masalalardan foydalanilib tashkil etish, dars davomida izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlar, o'quvchilarni avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llash o'quv materialini faol o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, masala va mashqlardan foydalaniladigan darslar o'quvchilarning, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini oshirish, aqliy rivojlanishini ta'minlash, aqliy rivojlanishini muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng maqbul yo'lini to'g'ri tanlashga zamin tayyorlaydi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020 - yil.

2. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. (Zoologiya) uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2016-yil.

3. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi) uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2017-yil.

4. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. “Biologiyadan masala va mashqlar yechish” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2017-yil.

5. G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov. “Biologiyadan masala va mashqlar yechish” (Sitologiya va genetika asoslari) uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2018-yil.

## **BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TALABLARI**

**Berikbaev A.A. - Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy asosi keltirilgan. Muammo yuzasidan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari va kompetentligi, kasbiy pedagogik faoliyatidagi obro‘si, dunyo va respublikamiz pedagog-olimlarining izlanishlari tahlil qilingan. Tahlillar natijasida bo‘lg‘usi pedagoglarning kompetentligini rivojlantirish uchun dars mashg‘ulotlarida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash kreativ g‘oyalari haqida ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy kompetentlik, kompetensiya, tanqidiy kompetensiya, badiiy kompetensiya.

## **ТРЕБОВАНИЯ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩЕГО ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

**Берикбаев А.А. - преподаватель Гулистанского государственного  
университета**

**Аннотация.** В статье представлено научное обоснование развития профессиональных компетенций будущего учителя изобразительного искусства. В статье проанализированы исследования зарубежных и отечественных педагогических ученых по проблеме развития профессиональных компетенций и компетенций будущего учителя изобразительного искусства в профессиональной педагогической деятельности.

В результате анализа с научной точки зрения обоснованы творческие идеи развития критического мышления студентов для развития компетенций будущих преподавателей.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, компетенция, критическая компетенция, художественная компетенция.

## **REQUIREMENTS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCES OF THE FUTURE FINE ART TEACHER**

**Berikbaev A.A. – teacher of Gulistan State University**

**Annotation.** The article is a scientific basis for the development of professional competencies of a future drawing teacher. The professional competences and competences of the future teacher of fine arts in professional pedagogical activity on the problem are analyzed in the studies of foreign and domestic pedagogical scientists of our republic. As a result of the analysis, critical thinking from a scientific point of view is based on creative ideas, developing students' competencies in the classroom to develop the competencies of future teachers.

**Key words:** professional competence, competence, critical competence, artistic competence.

Kuzatishlardan ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi tub o'zgarishlarni amalga oshirish, milliy ta'lim tizimini o'zgartirishni taqozo etgan. Zamonaviy siyosat, ta'limni ijtimoiy rivojlanishning muhim manbalaridan biri sifatida baholaydi. Bilim va ta'lim rivojlangan davlatlarning milliy daromadining 40 dan 70 foizgacha o'sishini ta'minlagan, shuning uchun zamonaviy sharoitlarda ta'lim samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan muammolarni hal qilish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Hozirgi kunda davlat, maktab, oila, milliy ta'lim tashabbusi, iste'dodli bolalarni topish, qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish, ijodiy muhitni rivojlantirish har bir ta'lim maktabida, ayniqsa, iqtidorli bolalarni aniqlash, yaratish zarurligini ta'kidlamogda. Ularning badiiy ta'lim va estetik tarbiyasi, tanlangan san'at turi sohasidagi bilim va ko'nikmalari ijodiy faoliyat tajribasi shartlaridan biridir. Ushbu muammolarni hal qilishda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining roli kattadir. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirib borish mutaxassis chiqaruvchi kafedralar zimmasida turibdi. Maktab o'qituvchilarining badiiy va estetik tarbiyasini yuqori darajada olib borishga, ilmiy izlanishlar, yangi texnologiyalarni, axborot tizimlarini o'zlashtirishiga, o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashga



tayyor bo'lgan tasviriy san'at o'qituvchilarini yetishtirishga katta ahamiyat berish kerak.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda fan bloklaridagi modullarni bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan fanlar va ularga moslashtirilgan fan dasturlari ishlab chiqish zarurligini ko'rayapmiz. Endilikda uch yil mobaynida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ikkinchi va uchinchi bosqich talabalarini umumta'lim maktablari bilan muddatli shartnomalar imzolatib haftaning shanba kunlarini umumta'lim maktabida dars o'tishni tashkillashtirish zarur. Chunki, ular nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llasa (sinasa) maqsadga muvofiq bo'ladi va oliy ta'lim yetishtirayotgan kadrlarning ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam berish bilan birga, kelajakda o'qituvchi bilan shartnomani mustahkamlashga sabab bo'ladi. Va eng asosiysi, oliy ta'limda dars berayotgan o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari jarayonlari savol-javobga boy bo'lib, o'qituvchining salohiyatiga va bilimiga baho berib, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglab boraveradi [9;].

O'qituvchining o'rni va obro'si uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi orqali aniqlanadi. Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi na'munali bo'lish bilan birga o'ta sezgir va zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi ham zarurdir. Ya'ni o'qituvchilar ortasidagi ziddiyatlarni hal qila olishni ham bilish kerak demoqchimiz.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi maktabning pedagog jamoa a'zosi sifatida maktab hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita tashkilotchilik qilish, turli fan o'qituvchilari va sinf xonalarining metodik jihozlarining estetik jihatdan joylashuvlarini bilish bilan birgalikda maktabning yoki ta'lim muassasasining dizayneri hisoblanadi [13;].

Yuqoridagi fikrlar ta'lim muassasasining tasviriy san'at o'qituvchisiga qo'yilgan talablar edi. Endi vazifalarning shu qadar ko'pligi uchun ham jamiyatning o'qituvchilar oldiga qo'yadigan talablari tushunarlidir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq hislatlariga qaratilgan [5; 83-b]. Psixologlar, shu bilan birga O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Jahon psixologlaridan

N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, O'zbekistonlik psixologlardan R.Z. Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o'qituvchilik kasbini atroflicha o'rganib, ancha batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratadi. Bunda gap o'qituvchilik kasbining professiogramma (ma'lum tizimga keltirilgan, mehnat psixologik tomonidan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjatga) deyiladi. Kuzatish va izlanishlarimizdan kelib chiqib, o'qituvchining eng muhim hislatlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashi va tarbiyalashdan iboratdir [9];
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
- oliyanobligi, aql-farosatli, ma'naviy pokligi ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;
- o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

I.P.Podlasiyning "Pedagogika" darsligida quyidagicha ta'rif mavjud: "Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir" [9; 68-b]. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, jamiyat ziyoli qatlam bo'lmish biz pedagoglarga quyidagi talablarni qo'ymoqda;

***Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:***

-shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik, g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;
- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi; [2; 33-b]
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida tevarak-atrofidagi kishilar jamoada, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim [1; 56-b]. Bu fikrlar bilan estetik fan o'qituvchisi tevarak atrof deganda, yashab turgan mahalla va ovullarni chiroyini va uning go'zalligiga ham qaysidir ma'noda mas'uldirlar demoqchi. Albatta, biz ta'lim-tarbiya berib kelayotgan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda birinchi kursdan bitiruv kurs oraliqlarida (dala amaliyotlari) talabalarimizni jamiyat oldidagi mutaxassislik kompetensiyalarini, kompetentliklarini jadallashtirib takomillashtirishimiz zarurdir,- degan xulosaga keldik. "Kompetentlik" tushunchasi bilan bir qatorda "kompetensiya" tushunchasi ham qo'llaniladi, u ham turli manbalarda o'zgaruvchan tavsifga ega. Ba'zi odamlar buni "vakolat" tushunchasi bilan aniqlaydilar, boshqalari uni mustaqil tuzilma deb bilishadi [8].

***Kuzatishlarimiz orqali belgilangan oltita kompetensiyalar orqali yanada rivojlantirilishi kerak bo'lgan kompetensiyalarni aniqladik. Bular;***

O'zligini anglash va himoya qilish kompetensiyasi;

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi;

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasi;

Ijodkorlik yoki yaratuvchanlik kompetensiyasi;

Badiiy tahlil qila olish kompetensiyasi;

Tahlil qilish va arifmetik tahlil qilish kompetensiyalaridir.

O'qituvchilar jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarga moslashishi va ko'nikishlari kerak, chunki ta'lim-tarbiya berish og'ir mashaqqatli jarayondir. Tarbiyalanayotgan bolaning oilasida ham ta'limiy va tarbiyaviy muhit hukmronlik qilsa, biz o'qituvchilar yetishtirib berayotgan kadrlarimizni, albatta, raqobatbordoshligini kafolatlaymiz.

### **Adabiyotlar**

1. Azizxodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T., 2000.
2. Volkova O.P. Competence approach in the design of educational programs Higher education in Russia. - 2005.- No.4. -P. 34-36.
3. G'oziev E. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, 1997.
4. G'oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
5. Zunnunov A. "O'zbek pedagogikasi tarixi". Toshkent, 1997.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004.-102-b.
7. Кукушин В.С. Теория и методика воспитания.- Ростовна-Дону.: Феникс, 2006.

8. Кукушин В.С. Теория и методика обучения. - Ростовна-Дону.: Феникс, 2005.
9. Подласый И.П. Педагогика. Учебник. - М: Высшее образование, 2006. - 540 с. Hasanboeva O., Djamilova N., Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. - T.: 2008.
10. Hoshimov K.S., Nishonova, Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. Toshkent.: "O'qituvchi", 1996.
11. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika, darslik. Toshkent, 2009.
12. Xasanov R. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.: "Fan" nashriyoti, 2015.
13. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T., 2004
14. R.Mavlonova va boshqalar. Umumiy pedagogika. T.: "Navro'z" 2016.
15. R.Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., 2008.

## **РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ХИМИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ**

**Джуроева Б.А. - Ассистент Ташкентского химико-технологического  
института**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены содержание и значение формирования химической технологической компетенции студентов. В соответствии с социальным заказом и целями химического образования содержание курса химии определяется состоянием научного знания и химической компонентой его общекультурной составляющей. Показана роль информационных технологий при изучении химии, способствующих более глубокому и доступному изучению механизма химических реакций, составляющих основу химических процессов.

**Ключевые слова:** химия, химическая компетентность, технологическая компетенция, химическое производство, информационные технологии, компьютерные анимации, наглядность, доступность.

## **ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF CHEMICAL TECHNOLOGICAL COMPETENCIES OF STUDENTS**

**Djuraeva B.A. - Assistant of the Tashkent Institute of Chemical  
Technology**

**Annotation.** This article discusses the content and importance of the formation of chemical technological competence of students. In accordance with the social order and the goals of chemical education, the content of the chemistry course is determined by the state of scientific knowledge and the chemical component of its general cultural component. The role of information technologies in the study of chemistry is shown, contributing to a deeper and more accessible study of the mechanism of chemical reactions that form the basis of chemical processes.

**Key words:** chemistry, chemical competence, technological competence, chemical production, information technology, computer animation, visibility, accessibility.

## **TALABALARDA KIMYO TEXNOLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

**Djuraeva B.A. -Toshkent kimyo-texnologiya instituti assistenti**

**Annotastiya.** Ushbu maqolada talabalarning kimyoviy texnologik kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va ahamiyati muhokama qilinadi. Ijtimoiy buyurtma va kimyoviy ta'lim maqsadlariga muvofiq, kimyo kursining mazmuni ilmiy bilimlarning holati va uning umumiy madaniy tarkibiy qismining kimyoviy tarkibiy qismi bilan aloqasi haqida gap boradi. Axborot texnologiyalarining kimyo fanida o'zni ko'rsatilgan bo'lib, kimyoviy jarayonlarning asosini tashkil etadigan kimyoviy reaksiyalar mexanizmini chuqurroq va qulayroq o'rganishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** kimyo, kimyoviy kompetentlik, texnologik kompetensiya, kimyoviy ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, kompyuter animatsiyasi, ko'rgazmalilik, qulaylilik.

В Узбекистане в последние годы проводится масштабная работа по модернизации системы высшего и среднего специального образования, развитию науки, внедрению современных форм. Исходя из потребностей реального сектора экономики и социальной сферы, за истекший период в регионах страны образованы новые вузы, в том числе филиалы ведущих зарубежных высших образовательных учреждений, внедрены современные уровни образования, налажена подготовка кадров по востребованным направлениям образования бакалавриата и специальностям магистратуры. Этому способствует бурное развитие новых наукоемких технологий, ставящее



общество перед объективной необходимостью передачи увеличивающегося объема знаний молодым специалистам [4; с 120-125].

Для успешной реализации реформ в сфере образования принят Указ Президента Республики Узбекистан Мирзиёева Ш.М. «О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования». В документе уделяется особое внимание организации образовательного процесса в соответствии с международной практикой внедрения новых педагогических технологий образования и методов обучения, совершенствованию учебных планов и предметных программ, качественному обновлению учебного процесса с внедрением современных форм обучения и средств информационно - коммуникационных технологий, а также оптимизации направлений образования и специальностей с учетом потребностей развития отраслей экономики, научной и социальной сфер, организации практики студентов на производственных и других предприятиях [6;].

Химические дисциплины всегда играли важную роль в системе профессиональной подготовки будущих инженерных кадров. С одной стороны, обучение химическим дисциплинам направлено на формирование химической картины мира как значимой составляющей естественнонаучного мировоззрения современного инженера, с другой – химическая компетенция является составляющей его профессиональной компетентности. Так, например, инженеру-технологу при оценке эффективности технологических операций комплексной переработки руд, концентратов необходимо решать комплекс проблем, связанных с подбором химических реагентов, с выполнением металлургических расчетов по определению количества сырья, топлива, реагентов с учетом химического состава сырья, физико-химических закономерностей протекающих процессов и др. [3; с 141-145].

В качестве фундаментальной дисциплины химия должна преподноситься не только как сумма знаний и умений, необходимых будущему специалисту, но и как средство, обеспечивающее формирование его интеллектуальных способностей, развитие навыков самообразования и практической работы безотносительно к выбранной специальности. Химия имеет большое значение в профессиональной подготовке специалистов. В процессе учебы они знакомятся с большим количеством веществ, которые являются либо объектами профессиональной деятельности в их будущей работе, либо исходными материалами для получения той продукции, которую они производят в процессе труда. В связи с этим учащимся необходимо знать строение веществ, уметь выявлять зависимость между строением и свойствами, структурой и реакционной способностью веществ [7; с 55-60].

В современных условиях требуется подготовить бакалавра к быстрому восприятию и обработке поступающей информации, успешно ее отображать и использовать, то есть использовать информационные технологии в процессе обучения. Конечным результатом внедрения информационных технологий в процесс обучения химии, является овладение студентами компьютером в качестве средства познания процессов и явлений, происходящих в природе и используемых в практической деятельности.


Информационные компьютерные технологии создают дополнительные возможности для стимулирования у студентов творческого мышления, усиливают значимость их самостоятельной работы, упрощают контроль и самоконтроль достигнутых результатов. Студентов следует учить мыслить для создания у них творческого склада мышления, что позволит им в будущем создавать новые знания и технологии для прогрессивного развития человеческой цивилизации [5; с 123-125]. Широкое использование анимации, химического моделирования с использованием компьютера делает обучение более наглядным, понятным и запоминающимся. Использование виртуальных экскурсий значительно расширяет кругозор студента и облегчает понимание сути химических производств, что является немаловажным для формирования химической компетентности. Например, изучение производства карбамида, минерального удобрения.

По своей природе карбамид - это минеральное удобрение, которое используется на всех видах почв под любые культуры. Такая форма удобрений обеспечивает значительную прибавку урожая сельскохозяйственных культур. По сравнению с другими азотными удобрениями карбамид содержит наибольшее количество азота (46,2%), что в основном и определяет экономическую целесообразность его использования в качестве удобрения для многих сельскохозяйственных культур на любых почвах [1; с.78-80].


**Технология производства.** В настоящее время карбамид в промышленном масштабе производится только прямым синтезом из аммиака и двуокиси углерода. Синтез карбамида, впервые осуществленный А. И. Базаровым в 1870 г., протекает в две стадии: вначале образуется карбамат аммония



Во второй стадии в результате отщепления воды образуется карбамид.



Суммарная реакция синтеза карбамида имеет вид:



Обе реакции обратимы: равновесные концентрации и скорости процессов определяются температурой, давлением, соотношением  $\text{NH}_3$  и  $\text{CO}_2$  и количеством  $\text{H}_2\text{O}$  в смеси.

В промышленности синтез карбамида осуществляется при 100% избытке аммиака, давлении 18-20 МПа и температуре 180-200 °С. Выход карбамида (по  $\text{CO}_2$ ) в оптимальных условиях составляет 60-70% при использовании чистых  $\text{CO}_2$  и  $\text{NH}_3$ . В целях улучшения экономических показателей производства, не вступившие во взаимодействие между собой аммиак и  $\text{CO}_2$  используются для получения других продуктов (разомкнутые схемы), или снова возвращаются в процесс (замкнутые, циклические схемы) [2; с 234-245]. Вышеописанные процессы студенты могут изучать с помощью компьютерных анимаций, виртуальных лабораторных работ, рис.1. Для повышения эффективности поясняемого материала сюжеты анимации разбиты на части, и предоставлена возможность выбора режима проигрывания сюжета – с остановкой на ключевых кадрах или без остановки. Работа с анимацией в режиме остановки на ключевых кадрах даёт возможность учителю сделать дополнительные комментарии или дать возможность студентам сделать записи в тетрадях, а также этот режим позволяет несколько раз проигрывать наиболее сложные фрагменты анимации без особых сложностей поиска необходимого фрагмента сюжета. Все эти приёмы создают возможность квалифицированного объяснения химических процессов с нужными визуальными акцентами.




Рис.1. Производство карбамида

Химическая компетенция в подготовке бакалавров технологических направлений, является показателем качества фундаментальной химической подготовки как одной из фундаментальных основ формирования профессиональных компетенций будущих инженеров, и это актуализирует поиск подходов к её развитию в условиях информатизации образования. Химическая технологическая компетентность рассматривается как личностное качество будущего инженера-технолога, характеризующееся химической

грамотностью и опытом самостоятельной химической деятельности, в том числе, с использованием информационных технологий, готовностью применять химические знания при решении профессиональных задач, нацеленностью на саморазвитие.

Очевидно, что для формирования химической технологической компетентности она должна быть вписана в структуру профессиональной компетентности и являться составной частью процесса формирования профессиональной готовности будущего инженера, в свою очередь возможности информационных технологий способствуют поэтапному усвоению способов применения химических знаний в решении профессиональных задач.

### **Литература**

1. Багрова Н.В. ИКТ как инструмент индивидуализации процесса обучения // Химия в школе – 2012 . - №5 – с.78-80.

2. Борисов Г.С., Брыков В.П., Дытнерский Ю.И.: Основные процессы и аппараты химической технологии: Пособие по проектированию – М: Химия, 1991 – 496с.

3. Вострикова Н.М. Химическая компетенция бакалавров технико-технологических направлений и подходы к её развитию // Современные наукоемкие технологии. – 2019. – № 1. – С. 141-145.

4. Григорьева О.С. Формирование профессиональной химико-технологической компетенции у бакалавров: для направления 240100 "Химическая технология": диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.08 /- Казань, 2012.- 182 с.

5. Карпушина Г.И., Дегтярева О.А., Симакова О.Е. Использование информационных компьютерных технологий при изучении химических дисциплин // Международный журнал экспериментального образования. – 2013. – № 4. – С. 123-125.

6. Мирзиёев Ш.М. О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования Национальная база данных законодательства, 12.07.2019 г., № 06/19/5763/3410

7. Макошина В.Н., Мещерикова Е.В. Использование компьютеров в обучении химии // Химия. Методика преподавания в школе. - 2002. - № 6. - С. 55-60.

## **ВЛИЯНИЕ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ НА СОЦИАЛЬНО ПСИХОЛОГИЧЕСКУЮ АДАПТАЦИЮ ЖЕНЩИНЫ**

**Тиллашайхова Х.А. – заведующая кафедрой Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье автор описывает теоретические аспекты проблемы протекания социально-психологической адаптации женщин в современном обществе. В свете решения задач устойчивого развития общества, в правовом аспекте социальных взаимоотношений, становится актуальным повышение социальной активности женщин в различных сферах общественных отношений. Общественное сознание наделяет современных женщин многими характеристиками: среди которых можно выделить трудолюбие, целеустремленность, терпение, ответственность и конечно же лидерство.

**Ключевые слова:** конфликт, гендер, маскулинный, фемининный, андрогинный.

## **AYOLLARDA IJTIMOY PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONIDA GENDER O'XSHASHLIKNING O'RNI**

**Tillashayxova X.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri**

**Annotatsiya.** Jamiyatni barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida va turli hil yuzaga keladigan muammolarni hal etishda ijtimoiy munosabatlarning huquqiy jihatdan jamoatchilik bilan aloqalarning turli sohalarida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Ijtimoiy ongi rivojlangan zamonaviy ayollar ko'p turli hil xususiyatlarga egadir, ulardan: mehnatsevarlik, qat'iyat, sabr-toqat, mas'uliyat va albatta, liderlikni alohida ajratishimiz mumkin. Maqolada muallif tomonidan keltirilgan zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosining nazariy jihatlari o'rganib gender muammolarga oid tushunchalar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** nizo, gender, maskulinlik, feminlik, androgenlik.

## **THE INFLUENCE OF GENDER IDENTITY ON THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF WOMEN**

**Tillashayxova K.A. – Head of the Department of Tashkent State Pedagogical University**



**Annotation.** In the article, the author describes the theoretical aspects of the problem of socio-psychological adaptation of women in modern society. In the light of solving the problems of sustainable development of society, in the legal aspect of social relations, it becomes relevant to increase the social activity of women in various spheres of public relations. Social consciousness gives modern women many characteristics: among which we can distinguish hard work, determination, patience, responsibility and, of course, leadership.

**Key words:** conflict, gender, masculine, feminine, androgynous.

Анализ проблемы социально-психологической адаптации показал, что все исследователи в качестве основы возникновения адаптационного процесса рассматривают внутри личностный конфликт или конфликт личности с социальным окружением. В целом социально-психологическая адаптация в социальной психологии понимается как сложное явление, связанное с индивидуальными особенностями личности и с позицией личности в обществе, с одной стороны, это процесс взаимодействия личности и социальной среды, который направлен на достижение определенной степени соотношений результаты деятельности, требования социума. С другой стороны, социально-психологическая адаптация представляет собой самореализующуюся систему, основные элементы которой являются как структурные компоненты личности, так и особенности социального окружения.

Анализ проблемы гендерной идентичности указывает на то, что исследователи данной проблемы соотносятся с концепцией идентичности Э.Эриксона, который определяет идентичность как процесс организации жизненного опыта в индивидуальное Я, основной функцией которого является адаптация. Идентичность выполняет экзистенциальную и интегративную функции. В психике, являясь стержнем, вокруг которой объединяется личность и является необходимым условием ее существования.

Гендерная идентичность является одной из форм социальной идентичности и определяет соответствие личности образцу маскулинности – фемининности, включающему более адекватные способы репрезентации себя обществу с учетом имеющейся системы гендерных отношений. Формирование гендерной идентичности – это сложный и многоступенчатый процесс взаимодействия социокультурных и биологических факторов. Являясь одной из структур самосознания личности, гендерная идентичность играет определяющую роль в процессах адаптации и саморегуляции.

Развитие и формирование гендерной идентичности женщин идет неравномерно и линейно, а через преодоление кризисов, и, кроме того, этот процесс связан еще и с тем, что проходит он в условиях трансформации

традиционного патриархального общества, а, следовательно, и образа женственности. С изменением традиционного патриархального строя произошли перемены в оценке роли и статуса женщин в обществе, который держался при традиционном порядке на функциях продолжательниц рода и хранительниц домашнего очага. С изменением традиционной формы произошла и мощная поведенческая трансформация, как у женщин, так и у мужчин, появилась размытость в формировании полового самосознания. Появившиеся в последние годы исследования в рамках парадигмы «андрогинии» показывают, что базовая модель здоровья в современном обществе связана с наличием совокупности маскулинных и фемининных черт независимо от половой принадлежности. Андрогиная личность демонстрирует как маскулинные так и фемининные характеристики и наиболее приспособлена к современной жизни, когда ригидная типизация половых ролей изживает себя [1;].

Следование традиционным стереотипам, которые разграничивают маскулинность и фемининность как две противоположные модели поведения, снижает адаптационные возможности мужчин и женщин и самооценку их во всех сферах жизни, препятствует достижению межличностной адаптации, которые не существовали раньше. Но теоретическое исследование показало, что и традиционные формы поведения женщин могут оказаться достаточно эффективными в социально-психологическом плане.

Системная социальная адаптация показывает способность личности к самоактуализации. В этой связи А.А.Реан подчеркивает важность такого фактора социально-психологической адаптации, как развитая социально-психологическая терпимость. А.А.Реан считает, что адаптированная личность – это личность, которая в адаптированном состоянии обладает высокоразвитыми способностями и умениями к выходу из дезадаптированного состояния [2;].

Одной из наиболее интересных современных адаптационных теорий, на мой взгляд, является предлагаемая К.Уилбером концепция, которую он назвал «спектральной». Ценность этого подхода заключается в том, что в нем сведены воедино теории социально-психологической адаптации когнитивного, гуманистического направления, а также трансперсонального подхода. В данной концепции социально-психологическая адаптация личности рассматривается с позиции структуры сознания и самосознания. Автор указывает на причину полной или частичной дезадаптации: «мы искусственно расщепляем осознаваемое нами на «пары противоположностей», такие как субъект и объект, жизнь и смерть, разум и тело, внутреннее и внешнее, разум и тело, внутреннее и внешнее, разум и инстинкт, мы заявляем

об их раздельности, рассекая тем самым переживаемом опыте, приводит к ограничению сознания и нарушении социально-психологической адаптации. Для того, чтобы преодолеть эти ограничения, необходимо вернуться к природному единому сознанию, которое функционирует на разных уровнях с различными границами самоотождествления.

Одним из главных вопросов в проблеме адаптации является вопрос взаимоотношений «Я» и среда, то есть «я» и «не-я». Уилбер считает, что самоотождествленность человека всецело зависит от того, где он через поле собственного опыта мысленно произносит эту фразу как разграничительную линию между «я» и «но я» [3;]. Уилбер выделяет базовые уровни человеческого сознания.

Первый уровень. Уровень маски. Самый типичный уровень адаптации. На этом уровне человек отождествляет себя лишь с одной из частей своей психики, которую мы называем «маска», где нежелательные аспекты вытесняются психикой и отчуждаются.

На втором уровне спектра сознания уровнено, человек отождествляет себя со своим разумом или оно состоит из частей целостного организма. Граница проводится между разумом и телом.

Третий уровень сознания, где пограничной линией является кожа, отделяющая организм человека в целом от окружающей среды.

Четвертый уровень К.Уилбер назвал надличностным. В этой области сознания пограничная линия постепенно исчезает на уровне сознания единства, где они становятся одним гармоничным целом. На этом уровне достигает высший уровень социально-психологической адаптации.

Особенность пограничной линии состоит и том, что она способна, сметая, изменять границы между «Я» и средой, изменяя тем самым уровень социально-психологической адаптации. Автор концепции считает, что если есть различные уровни «себя», то существуют и разные уровни конфликта, и знакомство человека с возможностями и проблемами различных уровней сознания помогает лучше ориентироваться на пути личностного роста и повышения уровня социально-психологической адаптации.

Приведенный анализ современных теорий социально-психологической адаптации показывает, что не существует единства в рассмотрении этого сложного вопроса психологии, но все исследователи рассматривают социально-психологическая адаптация включает в себя три тесно взаимосвязанных уровня: когнитивный, эмоциональный и поведенческий. Эффективность всего процесса адаптации зависит от эффективности протекания каждого из этих уровней.

Одной из базовых проблем современной женщины, по мнению Т.Д.Зинкевич-Евстигнеевой и Е.А.Тихоновой, становится то, что она стремится реализоваться по «мужскому типу», т.е. стремиться быть активной, подчинять себе ситуации, события и людей. Кроме того, огромный расход энергии возникает у нее при воспитании детей, ведении домашнего хозяйства, распределении времени. В этих условиях основной проблемой, мешающей социальной самореализации женщин является незнание или неосознавание своей гендерной роли и паттернов женского поведения [4;].

На мой взгляд, процесс реализации своего потенциала разворачивается у женщины в трех слоях окружения личности, которые входят один в другой как матрешки с личностью в сердцевине. Во-первых, это самый широкий круг – социальной слой, содержит весь спектр взаимоотношений полов на момент созревания человека, со всеми положительными сторонами и издержками в гендерной политике общества, идеологии, экономике, воспитании и т.п. Второй, культурный слой жизнеустройства, где живет и развивается личность. В него входит весь накопленный багаж знания об отношениях мужчин и женщин, их роль в обществе, семье, соподчиненности и ответственности и воспитании детей, знаний в котором усваиваются ребенком через сказки, былины, мифы. Третий, самый близкий слой к личности, через который в большей степени и происходит трансляция всех накоплений двух предыдущих слоев, - семья.

Теоретические исследования содержания гендерной идентичности женщин и его влияние на социально психологическую **адаптацию** позволяет сделать следующие основные выводы:

1. Одним из условий успешной социально- психологической адаптации женщин в современных социокультурных условиях является интегрированная гендерная идентичность как элемент Я-концепции.

2. Традиционно маскулинно-фемининные формы идентичности в современном обществе являются маргинальными. Она представляет сложный комплекс установок, стереотипов, ролевых представлений имеет сложную внутренне противоречивую структуру. Степень ее выраженности имеет индивидуальный характер. В своих крайних формах андрогенность соприкасается с традиционными представлениями о женском ролевом поведении в терминах «маскулинности-фемининности».

3. В современных условиях жизни при любой форме гендерной идентичности возможны как высокие, так и низкие степени эффективности социально-психологической адаптации. При этом как психологические механизмы адаптации, содержание гендерной идентичности, так и представление женщины о возможном и необходимом для нее поведении при

достижении ее жизненных целей и ценностей различаются при разных типах гендерной идентичности.

4. Система представлений и смыслов женщины о значимых социокультурных ценностях имеет выраженную специфику и не имеет связи ни с уровнем социально-психологической адаптации, ни с индивидуально-личностными особенностями женщин.

5. Представления женщины о способах достижения социальной успешности как в семье, так и обществе имеют скрытую тенденцию к усилению маскулинных форм поведения.

В современных условиях жизни при любой форме гендерной идентичности возможны как высокие, так и низкие степени эффективности социально-психологической адаптации.

### **Литература**

1. Антонов Н.В. Проблема личностной идентичности в интерпретации современного психоанализа и когнитивной психологии // Вопросы психологии, - 1996. - №1. – С. 131-141.

2. Реан. А.А. Психологические учения личности: Учеб. Пособие / А.А.Реан. – СПб., Изд – во Михайлова В.А., 1999. 288с

3. Введение в гендерные исследования: Учеб. Пособие / Под ред. И.В.Костиковой. – М., Изд – во МГУ, 2000. – 224 с.

4. Зикневич –Евстигнеева Т.Д., Тихонова Е.А. Проективная диагностика в сказкотерапии / - СПб,.: «Речь», 2003, - 208 с.

## **DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT QURISHDA O‘QUVCHILARNING FUQAROLIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH AFZALLIKLARI**

**Kadirova Y.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Maqola mamlakatimizda xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning fuqarolik savodxonligini oshirishning hozirgi holati, muammolari va ushbu fanlarni rivojlantirishning ayrim jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Mamlakatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish - demokratik huquqiy davlat qurishning garovi ekanligi haqida gap ketadi.

**Kalit so‘zlar:** demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, fuqarolik savodxonligi, davlat ramzlari, ijtimoiy faollik, huquqiy madaniyat, ta’lim-tarbiya.

**ПРЕИМУЩЕСТВА ПОВЫШЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ  
ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПОСТРОЕНИИ  
ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА**

**Кадырова Я.Б. – исследователь Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** Статья посвящена современному состоянию и проблемам гражданской грамотности в системе народного образования в нашей стране, а также некоторым аспектам развития этих дисциплин. Говорят, что установление в стране духа уважения закона является ключом к построению демократического государства, основанного на верховенстве закона.

**Ключевые слова:** демократическое правовое государство, гражданское общество, гражданская грамотность, государственные символы, общественная активность, правовая культура, образование.

**ADVANTAGES OF INCREASING THE CIVIL LITERACY OF  
STUDENTS IN BUILDING A DEMOCRATIC LEGAL STATE**

**Kadirova Y.B. - researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article is devoted to the current state, problems and some aspects of the development of civic literacy in the public education system of our country. It is said that the establishment of a spirit of respect for the rule of law in the country is the key to building a democratic state governed by the rule of law.

**Key words:** democratic rule of law, civil society, civil literacy, state symbols, social activism, legal culture, education,

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha - Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi [1;]. Mamlakatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish - demokratik huquqiy davlat qurishning garovi hisoblanadi. Shu sababdan, fuqarolik savodxonligini oshirishni maktab ta‘limidan boshlash yuqori samara beradi. O‘quvchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini o‘rgatib borish tizimini yo‘lga qo‘yish birlamchi vazifalardan biri hisoblanadi.



Maktab o'quvchilarida fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati, O'zbekiston mustaqilligi jamiyatni taraqqiyotining insonparvar demokratik tamoyillari asosida qurish borasidagi reja, ijtimoiy-huquqiy islohotlarni o'tkazilishiga bo'lgan ehtiyoj hamda inson omiliga bo'lgan yangicha qarashlar kabi shartlar bilan izohlanadi. Shaxs faoliyatining yuksak ko'rsatkichi sanalgan madaniyat, ijtimoiy hodisa sanaladi. Madaniyat tushunchasi ikki xil ma'noda talqin etiladi: birinchidan, u inson faoliyatining sifat ko'rsatkichi; ikkinchidan, shaxs faoliyatining samarasi natijasidir.

O'quvchining fuqarolik savodxonligi shaxs hosilasi hisoblanadi, chunki o'quvchilarning fuqarolik savodxonligini shakllantirish, birinchidan, ularda fuqarolik jamiyati, fuqaro va uning sifatleri to'g'risidagi, fuqarolik jamiyati qadriyatlari to'g'risida, fuqarolik xulqi va faoliyati hamda boshqalar to'g'risidagi tasavvurlarni (bilimlar) shakllantirishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, o'quvchilarda fuqarolik jamiyatiga, fuqaroga va boshqalarga qadriyatli munosabatni rivojlantirish. Uchinchidan, ularning fuqarolik xulqi va faoliyati tajribasini, "fuqaro", "fuqarolilik" tushunchalari mazmuniga mos munosabatlarni amalga oshirish tajribasini egallashni ko'zda tutadi.

Maktab o'quvchisining fuqarolik savodxonligi, bizningcha, o'quvchilarni fuqarolik mazmunidagi xatti-harakatlarni bajarishga yo'naltiruvchi bilimlar va qadriyatlar majmuini ifodalaydi. Maktab o'quvchilarining fuqarolik savodxonligining strukturaviy komponentlari sifatida o'zaro aloqadorlikda bo'lgan va qo'shimcha ravishda rivojlanuvchi kognitiv, motivatsion-qadriyatli va xulqiy komponentlarni ajaratamiz. Ajratilgan komponentlar miqdori fuqarolik savodxonligining miqdoriy tomonini, yoki tarkibini aks ettiradi. Ammo, A.P.Sheptulin ta'kidlaganidek, qismlarning (strukturaviy komponentlar) o'zida yaxlitning (fuqarolik savodxonligi) ta'sirini aks ettiradi, ular tarkibiga kirgan fuqarolik savodxonligining sifatli tomonini ifodalaydi [17; 173-b]. Maktab o'quvchisining fuqarolik savodxonligining strukturaviy komponentlari mazmunini asoslaymiz.

O'quvchi shaxs hosilasi sifatida fuqarolik savodxonligining kognitiv komponenti mazmuni fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, davlat ramzlari, furoqalarning huquqlari va majburiyatlari, fuqarolilik to'g'risidagi madaniy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar, davlatda sodir bo'luvchi siyosiy hodisalar, partiyalar, qonunlar to'g'risidagi bilimlar; ijtimoiy tizim, ijtimoiy tartib, xulq va munosabatlarni tartibga solishning institutsional va noinstitutSIONAL shakllari, fuqarolik jamiyatidagi aloqalar va munosabatlar to'g'risidagi bilimlar va boshqa bilimlarni tashkil etadi.

Motivatsion-qadriyatli komponentning mazmunini yoritishda tadqiqotchi M.S.Kaganning qadriyat ahamiyat, munosabat to'g'risidagi [5; 205-b] hamda

B.S. Bratusning qadriyat anglangan hayot mazmuni to'g'risidagi [3; 64-b] qoidalariga asoslandik.

Ma'lumki, qadriyatlar shaxs tomonidan anglangan va qabul qilingan bo'lsa, motivga aylanadi. Fuqaro, fuqarolilik, fuqarolik savodxonligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarga asoslanib, biz fuqarolik savodxonligining motivatsion-qadriyatli komponenti mazmunini hosil qiluvchi qadriyatlarni ajratdik. Bular: foyda (ijtimoiy), sodiqlik, insonparvarlik, burch, qadr-qimmat, mehr-shafqat, mustaqillik, mas'uliyatlilik, vatanparvarlik, qarashlar va nuqtayi nazarlarning xilma-xilligi, haqiqat, qonun oldida tenglik, vijdon, erkinlik, adolat, bag'rikenglik, hurmat, sharaf.

Fuqarolik savodxonligining motivatsion-qadriyatli komponentining mazmunini aks ettiruvchi qadriyatlarni aniqlashda, biz tadqiqotchi I.I.Kravchenkning g'oyalariga tayandik. U asosiy ijtimoiy qadriyatlar majmuini quyidagicha ajratadi: fuqarolik qadriyatlari (erkinlik, tenglik va b.q.); axloqiy qadriyatlar (vijdon, sharaf va b.q.); siyosiy qadriyatlar (boshqarish, hal etish qobiliyatlari va b.q.); bilishga oid qadriyatlar (intellektuallik, intuitsiya va b.q.) [8; 6-b]. I.I. Kravchenkning taklif etgan ijtimoiy qadriyatlar majmui to'g'risidagi g'oyalari siyosiy qadriyatlar siyosiy hisoblanmasligi, chunki boshqarish, hal etish va boshqa qobiliyatlar qadriyat emasligini anglatadi.

Fuqarolik savodxonligi amaliy faoliyatda amalga oshirilib, Y.N.Kulyutki va G.S.Suxobskayaning fikricha: "bilimlarni o'zgartirishni talab etadi: bir tomondan, ular sintezlanishi va ko'p tomonlama, hamda yaxlit xususiyatga ega bo'lgan muayyan muammo doirasida birlashtirilishi kerak, boshqa tomondan esa - ular amaliy harakatlar, amaliy vaziyatlar tiliga o'girilishi, ya'ni haqiqiy amaliy vazifalarni hal etish vositasiga aylanishi kerak" [9; 5-b]. Fuqarolik savodxonligining xulqiy komponenti mazmunini biz tadqiqotchi V.A.Slasteninning tayyorgarlikning amaliy komponenti malakalarda ifodalanishi to'g'risidagi qoidasiga asoslanib belgilaymiz [12; 48-b].

Xulq-so'zlardan verbal xulq yuzaga keladi. So'z xulqqa xizmat qiladi. So'zda o'quvchining fuqaro, fuqarolik jamiyati va boshqalar to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlashga imkon beruvchi ma'lumotlar uzatiladi. So'z-xulq kimgadir murojaat etishda qo'llanadi. Uni, V.A. Vasilenko ta'kidlaganidek, amalga oshirilgan xulq doirasida unga yo'naltirilgan ma'lumotni qabul qiluvchi murojaat etilgan tomonda muayyan subyektiv ta'sirlanish bo'lganida amalga oshgan deb hisoblash mumkin bo'ladi [4; 103-b].

S.F.Anisimov yozishicha "Xulq qadriyatli ahamiyatga ega bo'lgan harakat bo'lib, shuning uchun o'zida u yoki bu ijobiy yoki salbiy munosabatni, ma'qullash yoki ma'qullamaslik reaksiyasini uyg'otadi" [2; 370-b]. Ko'rib turganimizdek, biz ajratgan fuqarolik mazmunidagi xatti-harakatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan

ko'nikmalar savodxonlikning turli turlarini tavsiflashda savodxonlik qobiliyat ekanligiga e'tiborlarini qaratgan olimlarning g'oyalariga zid hisoblanmaydi.

Qobiliyatlar va ko'nikmalar S.L.Rubinshteyn ta'kidlaganidek, "ayni bir emasligi yaqqol ayon, ammo ular bevosita bog'liq; bunda bu o'zaro aloqadorlikdir". Bir tomondan, ko'nikmalar, bilimlar va boshqalarni egallash ma'lum bo'lgan qobiliyatlarning mavjudligini nazarda tutadi, boshqa tomondan esa - muayyan faoliyatga (fuqarolik faoliyatiga) qobiliyatlarni shakllantirish u bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar, bilimlar va boshqalarni egallashni nazarda tutadi. Bu ko'nikmalar, bilimlar va boshqalar o'zlashtirilmaguniga qadar, inson qobiliyatlari uchun ma'lum bir tashqi bo'lib qoladi. Ular o'zlashtirilishiga, ya'ni shaxsiy hosilaga aylanishiga ko'ra, ular tashqaridan olingan bilimlar hisoblanmaydi, balki qobiliyatlarning rivojlanishiga olib keladi" [10; 537-b].

Fuqarolik savodxonligi komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning mohiyati fuqarolik savodxonligining kognitiv komponentini tashkil etuvchi, o'quv jarayonida va auditoriya ishlaridan tashqarida shakllantiriladigan o'quvchilarning fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, fuqarolilik, fuqarolarning huquq va majburiyatlari va boshqalar to'g'risidagi tasavvurlari o'quvchining talab etilgan, ma'qullangan xulqini kafolatlamaydi. Ammo xulq va faoliyat determinatsiyasida ular muhimdir, chunki o'quvchining fuqarolik jamiyati, qonunlar, fuqarolarning huquq va majburiyatlari, xulq va munosabatlarni institutsional va noinstitutsonal tartibga solish shakllari va boshqalar to'g'risidagi xabardorligi uning o'z xulqini va faoliyatini qonunlar, huquqlar va majburiyatlarga mos ravishda anglashi uchun asos bo'ladi.

Bilim - bu nafaqat fuqarolik jamiyatidagi hayot meyorlari to'g'risidagi ma'lumotlarning tashkil etuvchisi hisoblanadi, bilimlar o'quvchiga o'z hayotini va faoliyatini bunday jamiyat sharoitlarida baholashi uchun zarurdir. Bilim u anglanganida, "bilimning aynan mazmunli tashkil etuvchisi"ga xos bo'lgan "bilim hodisasi" sodir bo'lganida baholash funksiyasini bajara boshlaydi [7; 67-b].

Shu tariqa, bilim fuqarolik savodxonligining motivatsion-qadriyatli komponentining mazmunini hosil qiluvchi qadriyatlarni yuzaga keltiradi, ular (qadriyatlar) shaxs tomonidan anglanib va qabul etilib, motivga aylanadi. Qadriyatlar o'z navbatida fuqarolik mazmunidagi harakatlar va xulq-atvorni tartibga soladi. V.N. Sagatovskiy yozishicha, "Qadriyatlar o'z tanlovini ko'rsatadi (fuqarolik mazmunidagi harakatlar va xulq-atvor), bilimlar uni asoslaydi" [11; 20-b].

Fuqarolik savodxonligi komponentlari funksiyalarini yoritishda biz tadqiqotchi L.F.Filatovanning bolaning shaxs hosilasi sifatida vatanparvarligi komponentlari funksiyalari to'g'risidagi g'oyalariga asoslanamiz [15; 56-58-b].

L.V.Filatovanning bolaning shaxs hosilasi sifatida vatanparvarligi komponentlari funksiyalari to'g'risidagi g'oyalarini shunchaki qabul qilmaymiz, balki bu qarashlarni yana to'ldiramiz ham. Kognitiv komponentning funksiyasi

refleksiv-baholash funksiyasi hisoblanadi. Refleksiya bu ongdagi mavjud bo'lgan bilim bilan ishlash amalidir. Bu intellektual, ratsional jarayon. Mazkur bilim yordamida uning mazmuniga mos ravishda fuqaro sifatida inson hatti-harakatlari va xulqiga baho beradi.

Motivatsion-qadriyatli komponent motivatsion va tartibga soluvchi funksiyalarni bajaradi. Foyda (ijtimoiy), sodiqlik, insonparvarlik, burch, qadr-qimmat, mehr-shafqat, mustaqillik, mas'uliyatlilik, vatanparvarlik, qarashlar va nuqtayi nazarlarning xilma-xilligi, haqiqat, qonun oldida tenglik, vijdon, erkinlik, adolat, bag'rikenglik, hurmat, sharaf kabi qadriyatlar fuqarolik xulqi motiviga aylanadi.

Maktab o'quvchilarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish vazifasini hal etishga 10-11 sinf o'quvchilarining savodxonliklarini o'rganish, tahlil qilish muhimdir, sababi o'quvchilarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning dastlabki asosi, birinchidan ularning fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat ramzlari, fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari, fuqarolilik va boshqalar to'g'risidagi tasavvurlari, ikkinchidan, o'quvchilar amalga oshirishga moyil bo'lgan va fuqarolik mazmunidagi xulq-atvor motivlariga aylanuvchi qadriyatlar hisoblanadi.

Buning uchun ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning shunday metodlarini tanlash lozimki, ularning (metodlar) yordamida maktab o'quvchilarining fuqarolik savodxonligining kognitiv, motivatsion-qadriyatli va xulqiy komponentlari holatini aniqlash va bunda olingan empirik bilimlarni nazariy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

O'quvchilarning fuqarolik savodxonligi to'g'risidagi olingan empirik bilimning nazariy tahlilini amalga oshirishda biz tizimli hodisalar, obyektlarni o'rganishga funksional yondashuv qoidasiga tayanamiz.

Biz o'quvchilarning fuqarolik savodxonligini o'rganishda qo'llaydigan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodlarini tanlashda, fuqarolik savodxonligi tuzilmasi to'g'risidagi va uning komponentlari mazmuni to'g'risidagi nazariy qoidalarga tayanamiz. Maktab o'quvchilarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirishining sifati quyidagi faoliyatlarni tashkil etishga bog'liq bo'ladi:

1. Muloqot madaniyati opqali madaniy-ijodiy faoliyat sohasida huquqiy muomala qilish;

2. O'quvchilarda keng tafakkurning rivojlantirilishi.

3. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati hamda o'quvchilarning mustaqil ishiga ushbu faoliyatning ijtimoiy ahamiyatliligi g'oyasi, bashariyatning madaniyat tajribasiga hissa qo'shish ehtiyoji;

O'quvchilarning ta'lim-tapbiyasi o'z huquqiy faoliyatining asosiy vositasi sifatida o'z fikrini ayta olishni, g'oyalarga mahliyo bo'lish va ularga qiziqishni,

o'quvchilik faoliyati natijalaridan qoniqishni, qobiliyatli yoshlar bilan doimiy munosabatda bo'lishni ko'psatadi.

Fuqaroga xos bo'lgan sifatlari aniqlandi. Fuqarolik sifatlari bo'lib mustaqillik (siyosiy va iqtisodiy mustaqil va faol; mustaqil va o'zini shunday jamiyat a'zosi deb anglaydigan, ajralmas huquq va erkinliklarga ega bo'lgan inson); o'zini-o'zi amalga oshirish (atrofdagi olam to'g'risidagi chuqur bilimlar asosida o'zining qobiliyatlarini amalga oshirish); vijdonlilik (nafaqat konstitutsion qonunlarni, balki kasbiy majburiyatlarni vijdonli bajarish; jamiyat va davlat oldidagi sodiqlik va haqiqiy majburiyatlarini chuqur tushunish); hurmat (atrofdagilarning va o'zining milliy va shaxsiy erkinliklariga hurmat, davlat qonunlariga hurmat; boshqa mamlakatlar, madaniyatlar va xalqlarga hurmatli munosabat); fuqarolilik shaxs hosilasi sifatida tuzilmaga egaligi aniqlandi. Shaxs hosilasi sifatida fuqarolilikning tuzilmaviy komponentlari axloqiy (o'zini-o'zi fuqaro sifatida anglash, fuqarolik burchi, fuqarolik mas'uliyati), huquqiy (huquqiy madaniyat, davlat qonunlariga rioya etish, shaxsiy erkinlik) va ijtimoiy-siyosiy (fuqarolik qadr-qimmati, fuqarolik faolligi, siyosiy madaniyat, vatanparvarlik va baynalmilallik) komponentlari; fuqarolilikning axloqiy, madaniyatshunoslik, qadriyatli va psixologik jihatlari ajratildi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

2. Анисимов С.Ф. Моральная мотивация // Этика / Под ред. А.А. Гусейнова и Е.Л. Дубко. - М.: Гардарики, 2000. - С. 367-383.

3. Братусь Б.С. Нравственное сознание личности (психологическое исследование). - М.: Знание, 1985. - 64 с. - (Новое в жизни, науке, технике. Сер. «Этика», № 3).

4. Василенко В.А. Мораль и общественная практика. - М.: МГУ, 1983. - 176 с.

5. Каган М.С. Философская теория ценности. - СПб.: Петрополис, 1997. -205 с.

6. Кадирова Х.Б. Главная духовная ценность и личность человека // Фэн-наука 2015. №. 1(40) – С. 29-32.

7. Катречко С.Л. Знание как сознательный феномен // Что значит знать?: сборник научных статей. - М.: Центр гуманитарных исследований, 1999. - С. 60-99.

8. Кравченко И.И. Политические и другие социальные ценности // Вопросы философии. - № 2. - 2005. - С. 3-16.

9. Моделирование педагогических ситуаций. Проблемы повышения ка-



чества и эффективности общепедагогической подготовки учителя / под ред. Ю.Н. Кулюткина, Г.С. Сухобской. - М., 1981. - 120 с.

10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер Ком, 1998.-688 с.

11. Сагатовский В.Н. Философия развивающейся гармонии (философские основы мировоззрения): в 3 ч. - Ч. 1. - Введение: философия и жизнь. -СПб.: СПбГУ, 1997. - 224 с.

12. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений. - М.: Школа-Пресс, 1997. - 512 с.

13. То‘uchiyeva X.N. Huquqiy ta’lim-tarbiyani takomillashtirishning ba’zi masalalari. TDPU. Ilmiy ishlar to‘plami. –Tashkent: 1998. 61-67 b.

14. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001-2006.TOSHKENT B-320

15. Филатова Л.В. Педагогические условия воспитания патриотизма ребенка в дошкольном образовательном учреждении: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук:13.00.01.-Самара, 2007. -238 с.

16. Xalilov E. X. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o‘rni, –Tashkent: O‘zbekiston, 1997. –48 b.

17. Шептулин А.П. Диалектический метод познания. - М.: Политиздат. 1983.-320 с.

18. Abdullaev D. Science, Culture Sponsorship–This Leads to the Development and Well-Being of the People of the Country //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2020. – Т. 20. – №. 1. – С. 279-281.

19. Tashpulatovna T.A. The role of the older generation in protecting the modern youth from social dangers //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 7. – С. 971-981.

## **BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI TABIATSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHGA KASBIY JIHATDAN TAYYORLASH TIZIMI**

**Toshxo‘jaeva N.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tabiatshunoslik fanini o‘qitishga kasbiy jihatdan tayyorlash tizimini takomillashtirishda ularning pedagogik mahorati, ijtimoiy xulq-atvori, pedagogik-psixologik bilimlari, kommunikativ ko‘nikmalari, yuksak tafakkuri, intellektual,



professional salohiyati, ma'naviy-axloqiy sifatlari, siyosiy savodxonligi, o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas'uliyatini yanada rivojlantirish va zamon talablari darajasida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish masalariga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik mahorati, ratsional, master, internal, adaptant, adept, optant

## **СИСТЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРИРОДОВЕДЕНИЮ**

**Ташходжаева Н.Р. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Данная статья посвящена совершенствованию системы профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов преподаванию естественных наук, развитию их педагогического мастерства, социального поведения, педагогических и психологических знаний, коммуникативных навыков, высокого мышления, интеллектуального, профессионального потенциала, духовно-нравственных качеств, политической грамотности и т.д., а также вопросам дальнейшего развития ответственности к своей профессиональной деятельности и развития системы подготовки будущих учителей на уровне современных требований.

**Ключевые слова:** педагогическое мастерство, рациональный, мастер, интернал, адаптант, адепт, оптант.

## **SYSTEM OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF ELEMENTARY CLASSES IN TEACHING NATURE**

**Tashkhodzhaeva N.R. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article is devoted to improving the system of professional training of future primary school teachers in teaching natural sciences, developing their pedagogical skills, social behavior, pedagogical and psychological knowledge, communication skills, high thinking, intellectual, professional potential, spiritual and moral qualities, political literacy, etc. ., as well as issues of further development of responsibility for their professional activities and the development of the training system for future teachers at the level of modern requirements.

**Key words:** pedagogical skill, patsional, master, internal, adapt, adept, optant.

Barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarga bog'liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo'lgan, zamonaviy o'qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O'qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak. O'qituvchi xodimlar o'zlarining kasb-ko'nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonida 2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalardan biri "pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish" ham eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu farmonda mazkur tizimda ta'lim sifati va samaradorligini kafolatlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri – malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, avvalo, pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirish masalasi o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiritilgan [1; 2-b].

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ushbu muammolarning yechimini topishda bir qator fanlarni chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatish, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi.

Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda pedagogik faoliyati jarayonida ta'lim-tarbiyani zamon talablari darajasida olib borishni, o'quvchilarning bilimi, dunyoqarashi, tafakkuri, qobiliyat va ko'nikmalarini har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan kasbiy ko'nikma va malakalarni muntazam egallab borishni taqozo etadigan yaxlit tizimdir. Pedagogik mahorat sohibi – "O'z ishining mohir ustasi yoki yangilik yaratuvchisidir". Mahoratli o'qituvchi – bu yuqori darajadagi madaniyat xodimi, o'z ishining ustasi, o'z fanini mukammal egallagan yetuk tafakkur egasi, ta'lim-tarbiya metodikasini, psixologik bilimlarni, turli fan va texnika sohalaridagi yangiliklarni chuqur biladigan dunyoviy bilimlar sohibi, bolalarni samimiy sevuvchi, vatanparvar, fidoyi insondir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda uni rivojlantirishda mahorat cho'qqisini egallashi uchun bosib o'tadigan yo'li mashaqqatli va uzluksiz jarayondir. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-metodik jihatdan shakllanib borishining asosiy bosqichlarini ta'riflashga

ko'pgina yondashuvlar mavjud. Xususan, tadqiqotchi olim Y.A.Klimov tavsiya qilgan shunday yondashuvlardan birida mukammal pedagogik kasb egasining hayot yo'lida uchraydigan quyidagi davrlarni ajratib ko'rsatadi [3;].

✓ Optant (yoki optanit, optatsiya davri) – yoshlarning kasb tanlash bosqichi.

✓ Adept (adept davri) – inson ongli ravishda o'zi qiziqqan kasbni tanlagan hamda uni maxsus kasbiy ta'lim muassasalarida (kasb-hunar kolleji, akademik litsey, oliy ta'lim muassasasi va boshqalar) egallaydi.

✓ Adaptant (yoki adaptatsiya, yosh mutaxassisning tanlagan kasbi bo'yicha ishga "ko'nikish" davri). Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida bu davr amaliy pedagogik faoliyatga kirish, nostandart, ko'pincha kutilmagan ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda vaziyatdan mustaqil chiqish uchun adolatli yo'l topishi bilan bog'liqdir. O'qituvchi uchun bu davr 3-5 yilga cho'ziladi deb hisoblanadi (shuni ta'kidlash lozimki, yosh o'qituvchilar aynan shu davrda o'z kasbini tashlab ketishadi).

✓ Internal (yoki mutaxassislikka kirishib ketish davri) – boshlang'ich sinf o'qituvchisi asosiy kasbiy vazifalarini mustaqil tarzda va muvaffaqiyat bilan bajara oladigan, ko'nikma va malakalarga ega tajribali pedagog bo'lib yetishadi.

✓ Master (kasbiy mahoratni to'liq egallash davri) – pedagog xarakter xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'zining maxsus fazilatlari, ko'nikma va malakalari bilan ajralib turadi yoki kasbiy faoliyatning turli sohalarida osonlikcha yo'l topib keta oladigan universal mutaxassis bo'lib yetishadi, o'z tabiiy yo'nalishiga, o'ziga xos, takrorlanmas kasbiy faoliyat uslubiga ega bo'ladi, doimo ijobiy natijalarga erishadi.

✓ Nufuz (nufuzga, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lish davri) – o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi sifatida, o'z sohasida yoki undan tashqari biror sohada ulkan yutuqlarga erishadi, jamoada mashhur bo'ladi, unda kasbiy faoliyatiga xos istalgan vazifani hal qila oladigan ulkan pedagogik tajriba to'plangan bo'ladi.

✓ Ustoz (yoki ustozlik davri) – o'qituvchi ta'lim muassasasida pedagogik jamoadagi kasbdoshlari orasidan o'z maslakdoshlariga, izdoshlariga, shogirdlariga ega bo'ladi, ular bilan yillar davomida to'plagan pedagogik tajribasini o'rtoqlashadi, ularning kasbiy omilkorligini va shaxsiy pedagogik mahorat maktabining shakllanishiga yordam beradi.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi shakllantirishda hamda asosiy bosqichlarni muvaffaqiyatli bosib o'tishida uchta tarkibiy qism yetakchilik qiladi: oliy ta'limgacha bo'lgan davr (o'rta maxsus pedagogik ta'lim); oliy ta'lim (oliy pedagogik ta'lim); oliy ta'limdan keyingi (pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida amalga oshiriladigan qo'shimcha pedagogik ta'lim) davr.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi fanini chuqurlashtirib o'qitish asosida zamon talablari darajasidagi bilimli shaxslar etib voyaga yetkazish, hozirgi kunda rivojlanib borayotgan jahon iqtisodiyoti

va erkin mehnat bozorining barcha talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash – oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilaridan juda mukammal pedagogik mahoratga ega bo‘lishni talab qilmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan taniqli pedagog olimlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik mahoratni shakllantirish masalasiga alohida muammo sifatida jiddiy e’tibor bermoqdalar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirib borish hozirgi davr talabida eng ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi. Negaki pedagog o‘z-o‘zidan bo‘lajak yosh avlodni tarbiya qilish, uning kamolotga yetishishidagi jarayonda ildamchi hisoblanadi. Shu o‘rinda boshlang‘ich ta’lim jarayonida bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olishga o‘rgatiladi. Milliy urf-odatlar va an‘analarga rioya etishga, bu urf-odatlarni ardoqlashga, an‘analarni davom ettirishga o‘rganadilar. Birinchi sinfda o‘qitiladigan 1-2 sinf “Atrofimizdagi olam” 3-4-sinf “Tabiatshunoslik” o‘quv fanlari bu sohada keng imkoniyatlarga ega. Bu fanlar tevarak-atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, unda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang‘ich tasvvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg‘otish va undan oqilona foydalanishni o‘rgatish ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida tabiat bilan tanishtirishda, bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda xilma-xil usullardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatlarni o‘stirish, ta’limni hayot bilan bog‘lash va mehnatga tayyorlashga qaratiladi. Darslarni turli usulida tashkil etish o‘qituvchidan ko‘p mehnat talab qilsa-da, o‘quvchilarni shijoatkorlikka undab, fikrlarni vaqtdan unumli foydalangan holda tez, aniq, lo‘nda va ixcham ifodalashga zamin yaratadi. Darslarni ilg‘or ta’lim metodlari va usullarga tayanib tashkil etish orqali o‘quvchilarni faollashtirishga, mustaqil fikr yuritishga, yangi tushunchalarni matn ichidan topib, mazmunini anglab yetishga harakat qilishga yo‘llash mumkin. Agar bola yangilik sari intilmasa, unda qobiliyat, o‘z fikri, nuqtayi nazari ham shakllanmaydi. Bugungi zamonaviy ta’limda bilim va qobiliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Atrofimizdagi olam” darsligi bilan ishlash tabiatga doir bilimlar ta’lim bosqichlaridagi uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga tayanib davom ettiriladi.

Darslikning asosiy g‘oyasi - insonning tabiat bilan o‘zaro aloqasi, inson mehnatining tabiatdagi ahamiyati, unda yurish-turishning qoidalaridir. Ijtimoiy hayotning hodisalariga bag‘ishlangan maqolalari bolalar e’tiborini inson, jamiyat va tabiatning birligiga qaratadi.

Bolalarning xilma-xil hissiyot va qabul qilishlaridan to'laroq foydalanish uchun ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan birga ularni gigiyena qoidalarini amaliy jihatdan bajarishga o'rgatish zarur. Gigiyena bilimlarining muvaffaqiyatli egallab olinishi o'qitishning barcha xilma-xil metodlari hamda uslublarini qo'llanish bilan ta'minlanadi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o'qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi fani boshlang'ich sinf o'qituvchisining tayyorlanishidan tortib, to o'quv materialini o'zlashtirish natijalarini, jumladan, sinfdagi, uydagi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni hisobga olishgacha barcha o'qitish jarayonlarini o'z ichiga oladi. O'qitish amaliyotini har tomonlama o'rgatish va natijalarni ijodiy umumlashtirish asosida o'qitishning muayyan qonuniyatlari belgilanadi hamda uni yanada yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Chunonchi, o'rganilayotgan narsalarni (o'simlik va hayvonlarni) bevosita qabul qilish (bu to'g'ri tasavvur hosil bo'lishini ta'minlaydi) qonuniyati asosida predmetli o'qitishni qo'llash bo'yicha aniq tadbirlar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi fanining maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bugungi kun talablari asosida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, yosh avlodga tabiatshunoslik fanini o'rgatishga tayyorlashdir. Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat [4;].

1. Talabalarga tabiatshunoslik haqida eng zarur ilmiy-nazariy bilimlarni berish.

2. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi fanini ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini yoritib berish.

3. Talabalarga tabiatshunoslik fani bazasida zamonaviy pedagogik texnologiya haqida bilim berish.

4. Talabalarni o'quv metodik adabiyotlar, dastur va darsliklarni tahlil qilishga o'rgatish.

5. Talabalarni tabiatshunoslikni o'qitishning turli uslublari va yo'llari bilan tanishtirish.

6. Talabalarda mazkur fandan o'qitishning turli tashkiliy shakllarini, uslublarini, zarur ko'rgazmali qurollarni to'g'ri tanlash malakalarini hosil qilish.

7. Tabiatshunoslik muammolariga bag'ishlangan maqolalar, adabiyotlarga taqriz, annotatsiya yozishga o'rgatish.

8. Kuzatilgan dars va darslardan tashqari tadbirlarni mustaqil metodik jihatdan to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish.



9. Fanlararo aloqalar va ta'lim-tarbiya integratsiyasi asosida turli dars tiplari uchun ishlanmalar, reja-konspektlar tuzishga tayyorlash.

10. Maktabda tabiatshunoslik darslarini o'tishda ekologik va tabiatni muhofaza qilish jihatlarini ko'ra bilishga o'rgatish.

11. Talabalarni Sharq mutafakkirlarining inson va uni o'rab turgan tabiat bilan aloqalariga bag'ishlangan asarlari, ularning dunyoqarashlari bilan tanishtirish, shuningdek, tabiatga oid aforizm, ruboiy va she'rlardan tabiatshunoslik darslarida foydalanishga o'rgatish.

Bundan tashqari, tabiatshunoslik o'qitish metodikasining umumpedagogik va o'ziga xos metodlari, darsni to'g'ri tashkil etish tarixi va istiqbolli rejalar tuzish, darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish usullarini o'rganish kabi masalalar ham ushbu fanning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi fanining ikkinchi tomoni bu metodikani yaxshi bilish jarayoni hisoblanadi. Metodika o'qituvchi tomonidan o'quv materialni o'qitishning muvofiq (ratsional) ravishdagi metod va vositalari o'quvchilarning tabiat haqidagi eng sodda bilimlarni egallashi, kelajakda hayotda qo'llay olishi, o'quvchilar uchun retseptlar va nasihatlar majmuasi bo'libgina qolmasdan, u fan, uning tamoyillari, tabiatshunoslik o'qitish jarayonining qonuniyatlarini bilishga ham asoslangan. Metodika o'quv fanining mazmuni, ta'lim va tarbiya metodlari hamda shakllarini ko'rib chiqadi. Metodikaning bu bo'limlari bir butun bo'lganligi uchun bir-birini to'ldiradi.

O'quv ishlarining jihozlari hamda vositalari (qo'llanmalar) metodika asosida belgilanadi. Metodika nima uchun tabiatni o'rganish, nimani va qanday o'qitish, nima asosida va qanday tarbiya berish kerak, degan savollarga javob beradi.

Tabiatshunoslik fanini o'qitilishining to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun maxsus o'quv moddiy bazaga, ya'ni o'quv qurollari bilan jihozlangan xona, tirik tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasiga ega bo'lishi kerak. Materialni o'ziga xos bo'lishi faqat tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining o'ziga xosligini emas, balki uning tarbiyaviy imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi maktabda hamma tabiat haqidagi fanlarni o'qitishga oid masalalarni: o'qitishning g'oyaviy yo'nalganligini, o'qitishning mazmuni bilan metodlarning birligini, o'quv ishlarining shakllari o'rtasidagi izchillikni va barcha tarbiyalovchi ta'lim elementlarining yaxlitligini hamda rivojlanishini ko'rib chiqadi. O'qitish tizimi o'quvchilar bilimining puxta bo'lishi va ongiga yetib borishini ta'minlaydi. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi barcha predmetlar uchun umumiy tamoyillarga ega bo'lgan didaktik va tarbiya jihatidan pedagogika bilan chambarchas bog'langan. Maktabda ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladi va o'rganiladigan materialning mazmuni, uni bayon qilish



mantiqi, o'qitish metodlari barcha shakllardagi butun ta'lim jarayonini, o'qituvchi shaxsining o'zi, uning fanga fidoyiligini ham tarbiyalaydi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi pedagogikada qo'llaniladigan tadqiqot metodlaridan foydalanadi. Tadqiqotchi-metodist maktabda tabiatshunoslikni o'qitish jarayonini kuzatadi, kuzatilgan faktlarni tahlil qiladi va taqqoslaydi, hodisalar o'rtasidagi qonuniy bog'lanishlarni aniqlaydi, xulosa va umumlashtirishning to'g'riligini amalda tekshiradi va buning natijasida tabiatshunoslikni o'qitish tamoyillarini belgilaydi. Kuzatish va tajriba tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi sohasidagi eng muhim metodlardir.

Hozirgi kunda metodikaning fan sifatida qaror topishida integratsiya (birlashish), sintez - barcha ilmiy materiallarning muammolar bo'yicha to'planishi hamda tahlil qilinishi, umumlashtirilishi, tizimga solinishi va yagona ilmiy nazariyaga keltirilishi alohida o'rin egallaydi. Metodika o'qituvchi ijodi uchun ta'lim va tarbiyaning boy xazinasidagi xilma-xil metodlar, usullar va vositalarni bilib olishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi, shuningdek, fiziologiya, anatomiya, gigiena, botanika, zoologiya, geografiya, agrotexnika, meteorologiya, mantiq va psixologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Shu fanlar bilan bo'ladigan aloqa o'qituvchining o'sha fanlar asoslarini egallagan bo'lishida, ularning eng muhimlarini ajratib, materiallarni o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos holda tushuntira olish uquvlarida namoyon bo'ladi.

Shaxsning kamol topishi va rivojlanishi uning ayrim ishlar, munosabat va xarakterni o'z ichiga olgan faoliyat jarayonida boradi. Bunda u yoki bu faoliyat turning - o'qish, mehnat, o'yin, muloqotlarning dalillari (motivlari) alohida ahamiyatga ega. Muloqot dalillari har qanday darsning tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Uni o'qituvchi hisobga olmasa, tabiat to'g'risidagi bilimlar imkoniyatini pasaytirib yuboradi. Shunday qilib, tabiat bilan to'g'ri tashkil qilingan muloqot kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida go'zallikni his etishni shakllantiradi, ularda o'z harakati va ishini o'zi baholay olish qobiliyatini rivojlantiradi, bu hislatlar xulq-atvorning odobiy hamda axloqiy me'yorlarini anglash, atrofdagilarga nisbatan mas'uliyat hamda burchni tarbiyalash uchun zarurdir. Tabiat bilan muloqot jarayonida o'rtoqlariga, kattalarga hurmat va mehr vujudga keladi.

Shuningdek, tabiatshunoslikni o'qitish jarayoni faqat o'qituvchinigina emas, balki o'quvchilar faoliyatini ham o'z ichiga oladi. O'qitishning natijasi dasturda mo'ljallangan materialning puxta o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'qitish metodlari va o'quvchilarga o'quv jarayonini tashkil etish shakllarini o'rganish, ularning materialni o'zlashtirib olish jarayonini o'rganishlari bilan birga boradi.

O'qituvchilik kasbini tanlagan ko'pchilik yosh yigit va qizlar o'rta pedagogik ta'limga ega bo'lmasdan pedagogika oliy o'quv yurtlariga intilishadi va kasbiy jihatdan shakllanishdagi dastlabki ma'lumotlarni umumiy o'rta ta'lim maktablari yoki o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi darajasida egallashadi. Kimdir esa kasb tanlash haqida umuman o'ylamaydi va o'qituvchilik kasbining o'ziga xos qiyinchiliklarini o'ylamasdan va butunlay boshqacha, kasbga aloqasi bo'lmagan maqsadlarni ko'zlab pedagogika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga intilishadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda, ularning pedagogik mahoratini, ijtimoiy xulq-atvorini, pedagogik-psixologik bilimlarini, kommunikativ ko'nikmalarini, yuksak tafakkurini, intellektual, professional salohiyatini, ma'naviy-axloqiy sifatlarini, siyosiy savodxonligini, o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas'uliyatini yanada rivojlantirish va zamon talablari darajasida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni maqsadli tashkil etish maqsadga muvofiqdir [3;].

✓ Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini oliy pedagogik ta'limning maqsad va vazifalari bilan uyg'unlashtirish. "Zamonaviy pedagogning ma'naviy qiyofasi"ni yaratish;

✓ Bo'lajak o'qituvchilarning umumiy va kasbiy faoliyatiga xos bo'lgan intellektini, qobiliyatini uyg'unlikda rivojlantirish texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

✓ Ijtimoiy faollikni moddiy va ma'naviy motivatsiyalashning yangi va samarali usullarini ishlab chiqish va keng foydalanish;

✓ Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini hamda kasbiy moslashishga oid qo'shimcha malakalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy chora – tadbirlarni yanada kuchaytirish avlodini shakllantirish.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi hozirgi zamonaviy sharoitda o'zining dolzarbligini yo'qotmagan, balki yanada alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, hozirgi kunda ushbu muammoning nazariy va amaliy darajadagi optimal yechimlari ilmiy tadqiqot ishlarida to'liq o'z ifodasini topmagan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilar kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish zaruriyatini anglash va ushbu maqsadga erishish mexanizmlarining mutlaqo yo'qligi tufayli qarama-qarshiliklarni vujudga keltirmoqda. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mutaxassislik fanlaridan bilimlarni chuqur egallab, kasbiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lmoqdalar. Ushbu mexanizm asosidagi kasbiy-metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi, oliy pedagogik ta'lim muassasasidan keyingi faoliyatda hamisha kutilgan natijalarga erishmaydi, bu esa o'qituvchi egallagan bilimlar va kasbiy ko'nikmalarni pedagogik faoliyati jarayonida samarali qo'llashda qarama-qarshiliklarga uchramoqda, bu esa

fan olimlarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalariga yanada e‘tibor qaratishlarini talab etadi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh. M. Mirziyoyev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 - b.

3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2010. 19,5 b.t.

4. Sharipova D., Xodieva D., Shirinov M. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. –T.: Avto-nashr, 2018. 450-b.

5. Моргачева Н.В. Профессиональная компетентность будущего учителя естествознания в условиях реализации ФГОС // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, № 8(64), 2016. Стр. 158-162.

## **MILLIY MA’NAVIYAT VA UNING TADRIJIY BOSQICHLARI**

**Mo‘yidinov A.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada milliy ma’naviyat va uning tadrijiy bosqichlari haqida so‘z yuritilib, ma’naviyatning milliy taraqqiyotdagi o‘rni masalalariga atroflicha e‘tibor qaratiladi. Milliy ma’naviyatning tadrijiy takomil bosqichlariga e‘tibor qaratilib, birinchi va ikkinchi renessans davrlari ma’naviyatning yuksalishida ham muhim omil bo‘lganligi tadqiq etiladi.

**Kalit so‘zlar:** milliy ma’naviyat, barkamol avlod, yoshlar, ommaviy madaniyat, shaxs, ta’lim, tarbiya, ma’naviy tahdid.

## **НАЦИОНАЛЬНАЯ ДУХОВНОСТЬ И ЭТАПЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ**

**Муйдинов А.А. - исследователь Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье исследуется национальная духовность и этапы ее развития, подробно рассматривается роль духовности в национальном

развитии. Сосредоточившись на этапах постепенного развития национальной духовности, исследуется, что первый и второй периоды Ренессанса также были важным фактором подъема духовности.

**Ключевые слова:** национальная духовность, гармонично развитое поколение, молодежь, «массовая культура», личность, образование, воспитание, духовная угроза.

## NATIONAL SPIRITUALITY AND ITS DEVELOPMENTAL STAGES

**Mo‘ydinov A.A. - researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation:** The article examines national spirituality and the stages of its development, considers in detail the role of spirituality in national development. Focusing on the stages of the gradual development of national spirituality, it is explored that the first and second periods of the Renaissance were also an important factor in the rise of spirituality.

**Key words:** National spirituality, harmoniously developed generation, youth, "mass culture", personality, education, upbringing, spiritual threat.

Milliy ma'naviyat insonning shaxs sifatidagi takomilida muhim o'rin egallab, butun aqliy faoliyat bevosita ushbu omil bilan bog'liq. Zero, har qanday taraqqiyotning asosida aqliy faoliyat, demakki ma'naviyat yotadi. Shu bois, o'z kelajak taraqqiyotini o'ylagan har qanday siyosiy birlik jamiyat a'zolari ma'naviyatiga e'tiborni birinchi o'ringa qo'yadi. Ana shu nuqtayi-nazardan mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ma'naviyatga e'tibor berilayotganligi quvonarlidir. Bugungi kunda O'zbekistonning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borayotgan islohotlari haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" yoki "Uchinchi Renessans" iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bu taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofidir. Darhaqiqat, "Yangi O'zbekiston"da hamma sohalar kabi ajdodlar merosini o'rganish, xalqimizga, dunyoga yetkazish, e'tirof va ehtirom ko'rsatishda ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Vatanimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ikki marta Renessans davri bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bular: O'zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'ldi. Ijtimoiy sohaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib-tamoyillar asosida qurilishi, shahar-u viloyatlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, ilm-ma'rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar o'rta asrlarda yurtimizda davlatchilikning o'ziga

xosligini belgilovchi tamoyillar bo‘lib, bir tomondan o‘ziga xos taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan har bir ijtimoiy-tarixiy davrda ma’naviyatga berilgan e’tibor bilan o‘lchanadi.

Ma’lumki, ikkinchi Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tariladi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me’morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallashdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san’at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo‘ladi.

Tasodif emaski, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ajdodlar merosini keng targ‘ib qilish maqsadida Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Yoshlar akademiyasi va boshqa tadqiqot markazlari, akademiyalar, maxsus maktablar tashkil etildi. Ushbu dargohlarda ajdodlar ilmiy merosi tizimli tadqiq etilib, zamonaviy taraqqiyot yutuqlari bilan hamohang hayotga tadbiiq etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi” [1; 256-b].

So‘nggi yillarda jamiyatda ma’naviy muhitni yaxshilash, ayniqsa, yoshlarni ma’naviyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida qayd etilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida ham bu masalani alohida tanqidiy ko‘rib chiqdilar. Unda Prezidentimiz “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”, [1; 1-b] - deb barchaning diqqat e’tiborini jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasini yuksaltirishga qaratdi. Darhaqiqat, bu yig‘ilish davlatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishni yangi bosqichga olib chiqdi.

Insoniyat ma’naviyatsiz bo‘lmaydi, chunki aslida inson mohiyati moddiy va ma’naviyatning tutashuvidadir. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlarining o‘ziga xos ma’naviy olami mavjud. Ushbu ma’naviy olamlar doimo bir xil saqlanmaydi, zamon va makonda o‘zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi. “Ma’naviyat” bizning millat uchun yangi tushuncha emas. Bizning xalqimiz tarixning barcha davrlarida o‘zining ma’naviyati, ma’rifati bilan boshqa xalqlarda ajralib turgan. Milliy ma’naviyatimiz manbalari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu manbalardan eng birinchi va asosiysi buyuk ajdodlarimiz merosidir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros



milliy ma'naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo'yipti, faqat uni xolis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya [2; 351-b]. Haqiqatdan ham ajdodlar merosini o'rganish birinchi navbatda xalqning ma'naviyatini tahlil etishda asosiy manba hisoblanadi. Xalqning ma'naviyati shakllanishida shu xalq e'tiqod qilib kelgan din va undagi g'oyalar, yashash sharoiti va xalqning joylashgan geografik muhiti muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma'lumki, har bir xalqning o'ziga xos va o'ziga mos milliy mentaliteti bor. Shu mentalitet asosida shu xalqning milliy tarbiyasi shakllanadi. Xalq mentalitetining tarkib topishi uzoq davom etadigan ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. U tarixan tarkib topgan xalqning tafakkur darajasi va ma'naviy salohiyatining mahsulidir. O'zbek xalqining noyob milliy mentaliteti bo'm-bo'sh joyda, g'oyibdan paydo bo'lgan emas. Milliy udum va urf-odatlarimiz ming yillar davomida hayot achchiq-chuchuklarini totib, o't olovda toblanib, mashaqqatli turmush imtihonlaridan o'tib mukammallashgan [3; 57-b]. O'zbek millatining bosib o'tgan tarixiy yo'li, yashash sharoiti: quyoshli kunlari, hosildor zamini, sersuv daryolari, xalqining mehnatsevarligi, odamoxunligi xalq aqliy salohiyati va ruhiy quvvatini yuksalishiga olib kelgan. Xalqimizning hayotga, jamiyatga, tabiatga va sharoitga munosabati ko'p ming yillar davomida unga yaratuvchanlik, mehr-shafqat, sermulohazalik va osoyishtalik ato etgan. Har bir keskin sharoitda ham kattaga hurmat, kichikka izzat, muloqotdoshiga murosa-yu madora, andisha-yu mulohazaga o'rin va vaqt topgan. Shu tufayli xalqimiz mentaliteti shakllangan va sayqal topgan. Akademik Asqarovning ma'lumot berishicha o'zbek milliy mentaliteti 4 ta yirik diniy-mafkuraviy bosqichni bosib o'tdi va ular millat fe'l-atvorida o'chmas iz qoldirdi [4; 320-b]. Bular:birinchi diniy-falsafiy mansublik Zardushtiylik bo'lib, bu dinning axloqiy falsafasi odamlarni ezgulikka chorlash, boshqalarga yaxshilik qilish insoniy fazilatlarining kamolot cho'qqisi ekanligiga ishontirishdan iborat. Ma'lumki yurtimizdagi bizga ma'lum ilk shakllangan yaxlit ma'naviyat tizimi "Avesto" kitobida o'z aksini topgan. "Avesto" kitobi Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, shu dindagi xalqlarning axloq, odob, diniy qonun-qoidalar majmuasidir. Dastlab "Avesto" 21 ta kitobdan iborat bo'lgan. Bizgacha uning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan. "Avesto"dagi axloqiy-falsafiy qarashlarni tahlil qiladigan bo'lsak, islom dini g'oyalari bilan ko'p jihatdan o'xshash ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Avesto"da yerda inson hayotining paydo bo'lishi, Gavomardning shakllanish davri, Islomdagi Odam Atoning paydo bo'lishi to'g'risidagi qarashlarga o'xshash hisoblanadi. Yovuzliklar ilohi Axriman faoliyatini esa, islom dinidagi yovuzlik timsoli shayton misolida o'xshashligini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchi diniy falsafiy mansublik – buddaviylikdir. Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining shakllanishida buddaviylik muayyan o'rin egallagan. U zardushtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma-yon shakllangan dinlardan biri



bo'lgan buddaviylik miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonning shimolida vujudga kelgan; keyinchalik Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan [5; 52-b]. Buddaviylik g'oyalariga ko'ra har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatni chuqurlashtiradi: "borliq girdobi" dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan ko'ngilhushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim, faqat shundagina "najot topish yo'li"ga kirish mumkin. Buddaviylikning aqidasi, islom dini aqidasi zid bo'lsa ham, lekin bu dinning axloq-odob borasidagi falsafiy qarashlari deyarli bir xil. Milliy ma'naviyatimizga buddaviylikka xos fazilatlar – xotirjamlik, har bir inson o'z hayotida juda ko'p ezgulik qilishi va bu ezgu amallari uning hayot mazmuniga aylanishi kerakligi singib ketgan.

O'zbek xalqi ma'naviyati takomillashuvining muhim bochqichlaridan biri - islom dini va uning axloqidir. O'tmishda ajdodlarimiz e'tiqodidan joy olgan zardushtiylik va buddaviylikning inson fazilati xos eng yaxshi ibratli axloq va odob normalari – ezgulik yo'lidagi inson kamoloti: ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amal islom ma'naviy dunyosida ham tarbiya va ta'lim maktabining asosi sifatida yanada rivojlandi. Islom dini mintaqamizga kirib kelgandan so'ng mintaqa xalqlari ma'naviyatida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davr ma'naviyatimizni rivojlanishidagi eng muhim davr sifatida e'tirof etiladi. Avvalo, dinning asosi bo'lgan bosh g'oyasi "Tavhid e'tiqodi" milliy ma'naviyatga singdirildi. Bu davrga kelib ma'naviyatimizda sayqallanish jarayoni avj oldi. Ya'ni, islom ma'naviyatiga mos kelmaydigan qadriyatlardan voz kechildi va hozirgi o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi shakllandi. Islom dini ta'siri ostida bizning mintaqamizda buyuk alomalar yetishib chiqdi.

To'rtinchi mafkuraviy e'tiqod – kommunistik g'oya bilan kirib keldi. Akademik Asqarov bunga shunday ta'rifni keltirib o'tadi. "Eng achinarlisi shuki, kommunistik mafkura xalqimiz ma'naviy-axloqiy olamiga yangilik (innovatsiya) sifatida kirib kelgan hayosizlik, g'arb dunyosiga xos axloqiy odobsizlik, sudxo'rlik, ta'magirlik, loqaydlik va boqimandalik, har bir jabhaga nopoklikning suqilib kirib borishi o'zbek milliy mentalitetining fojiasiga aylandi" [6; 322-b]. Haqiqatdan ham bu davrga kelib asrlar davomida shakllangan milliy ma'naviyatimizga ziyon yetdi. Qadriyatlarimiz oyoq osti qilindi. Shunday siyosat yuritildiki, xalqimizning hayotidan milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimiz siqib chiqarildi. Xalqimizning ruhiyatiga singib ketgan «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g'urur», «milliy iftixor» kabi atamalarni ishlatish u yoqda tursin, ularni hatto o'zbekcha lug'at boyligidan surib chiqarishga harakat qilindi. Bunga dalil sifatda 1988-yili O'zSE Bosh tahririyati chop etgan 50 ming so'zlik «O'zbekcha-ruscha lug'at»ga ham «qadriyat», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy iftixor» kabi tushunchalarning

kiritmaganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, 1981-yili Moskvada «Rus tili» nashriyoti tomonidan chop etilgan, 60 ming so'zni qamrab olgan ikki jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham bu so'zlar uchramaydi[1; 2-b]. Biroq sabr-bardoshli xalqimiz bu davrda ham o'zligini yo'qotmadi. Mustaqillikdan so'ng milliy ma'naviyatimizni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Hozirda shu sohada ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mustaqillikni mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash jarayonlariga turli ma'naviy tahdidlarning salbiy ta'siri oshib borayotgan bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishlari mamlakatimizdagi yangilanish sur'atlari, islohotlar ta'labidan ortda qolmoqda. Bu esa yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayoniga yangidan-yangi ustuvor vazifalarni qo'yimoqda.

Bugungi kunda ma'rifiy adabiyotlarda "ma'naviy tahdidlar" tushunchasi keng ishlatib kelinmoqda. Avvalo bu tushunchaning mohiyatini anglab olish zarur. Ma'naviy tahdidlar - shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg'ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki "tahdid" so'zi xavf-xatar, xuruj va buzish ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda ma'naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi[1; 3-b].

Jamiyatimiz oldida ma'naviy tahdidlarning oldini olish yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasini shu kabi tahdidlardan asrash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarimiz ma'naviy olamini turli mazmundagi ma'naviy tahdidlardan himoyalash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar yechimiga e'tiborni kuchaytirish lozim:

Birinchi, yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini zamon talablariga mos holatda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bo'yicha Prezidentimizning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarorida "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish" [7; 2-b] kabi vazifalar belgilab qo'yildi. Bu esa o'z navbatida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko'lamini va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borishni taqozo etadi. Yoshlarimizda vatanparvarlik hissini yanada kuchaytirish uchun ta'sirli va samarali bo'lgan metodlardan keng foydalanishni takomillashtirish, bunda bugungi zamon texnologiyalaridan oqilona foydalanish katta samara beradi. Yoshlarimiz qiziqib

tomosha qiladigan vatanparvarlik mavzusidagi filmlar va multfilmlarning ma'naviy-tarbiyaviy saviyasini oshirish eng ta'sirchan usullardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bugungi globballashuv davrida yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Prezidentimizning Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi qarorda "dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish" bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Biz yoshlarimizni fan-texnika, axborot texnologiyalari yutuqlaridan, keng bahramand bo'lishini, shu bilan birga bu davrning tahdilari ularning ongini zaharlashining oldini olishimiz, buning uchun ular ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishimiz lozim.

Uchinchidan, milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizdan qolgan milliy ma'naviy meroslarimizga nisbatan yoshlarda hurmat ruhini tarbiyalash "ommaviy madaniyat" tarzidagi turli tahdidlarga qarshi kurashda alohida o'rin tutadi. Bu sohada o'rnak bo'la oladigan davlatlarning tajribasidan foydalanish lozim. Prezidentimizning 2017-yil 23-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida yoshlarni milliy va diniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari yechimiga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Qarorda "jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi olim va mutafakkirlar merosining tarixiy va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib singari mumtoz adabiyot va san'at namoyandalari ijodining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish"[8; 5-b] ga alohida muhim vazifa sifatida aytib o'tilgan. Bu allomalarimizning ijtimoiy-falsafiy merosida vatanga muhabbat, mehnat, tinchlik mavzusi, ijtimoiy hamkorlikka oid qarashlari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu sohada rivojlangan davlatlarning, Yaponiya, Xitoyning milliy qadriyatlarini asrashdagi boy tajriba va metodlardan foydalanish ularning bu sohadagi yutuqlaridan foydalanish lozim.

Toʻrtinchidan, yoshlarimizga taʼlim-tarbiya berishda islom dinining manbalari Qurʼoni Karim oyatlari va hadislardan oqilona foydalanish, yoshlarda axloqiy qadriyatlarni yuksaltirishda diniy tashkilotlar imkoniyatidan unumli foydalanish har qachongidan muhimdir. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 23-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oʻzbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qarorida “Islom dini rivojiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk vatandoshlarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq Gʻijduvoni, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Margʻinoniy, Bahouddin Naqshband, Xoʻja Ahror Valiy kabi allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, ularning ilmiy-maʼnaviy jasorati, ulugʻ insoniy fazilatlarini keng targʻib qilish”boʻyicha vazifalar belgilab berilgan.

Beshinchidan: Yoshlarimizning maʼnaviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega boʻlgan kitobxonlik madaniyatini oshirish ishlariga alohida toʻtalib oʻtish zarur. Prezidentimizning 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida” [9, 6-b] gi Qarori bu sohadagi eng ahamiyatli ishlardan biri boʻldi. Bu qaror xalqimiz, avvalo, yoshlarning maʼnaviy-maʼrifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, taʼlim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob oʻqish koʻnikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bogʻliq muhim masalalarni hal etishga xizmat qilib kelmoqda.

Bu vazifalarni jamiyatda ijrosini taminlash uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib kelmoqda. Yoshlarimiz maʼnaviy olamini turli mazmundagi buzgʻunchi tahdidlardan himoya qilishda buyuk ajdodlarimiz merosini targʻib qilishda oila, mahalla, taʼlim, nodavlat tashkilotlari faoliyatini faollashtirish, targʻibot tizimining institutsional tuzilmasi faloyatini yanada uygʻunlashtirishga erishish lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. M. “Barqarorlik va taraqqiyotni taʼminlash – asosiy vazifamiz” // “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.” Tom 2. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2018. – B. 405.

2. Imomnazarov. M., “Ma’naviyatning rivojlanish tarixi.” O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2008-y. 356-b.
3. Xalimbetov Y. M. “Milliy mentalitetimiz – istiqbolimiz tayanchi.” “O‘zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metadologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. Toshkent - 2004 , 359-bet
4. Asqarov A. “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. “ O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Universitet” 2007-y. 350-b.
5. E.A.Abdusamedov. “Dinshunoslik.” O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2008-y. 52-b.
6. Asqarov A. “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.” O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Universitet” 2007-y. 350-b
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori (PQ-3160) 28-iyul 2017-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017-yil 23-iyun’ PQ-3080-son.
9. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017-yil 13-sentabr.

**МЕТОДИЧЕСКАЯ РАЗРАБОТКА УРОКА ХИМИИ НА ТЕМУ  
«МЕТАЛЛЫ I (B) ПОДГРУППЫ ПЕРИОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ  
Д.И.МЕНДЕЛЕЕВА»**

**Хайитов Ф. Ш. - преподаватель Академического лицея при Ташкентском  
государственном юридическом университете**

**Аннотация.** Новые изменения в высшем образовании предусматривают обеспечение преемственности и непрерывности образования, переход от образования, ориентированного на теоретические знания, к формированию практических навыков, а также подготовку высококвалифицированных кадров, которые могут найти место на рынке труда.

В данной статье представлен план урока с использованием информационных технологий, игровых технологий, графического органайзера кластер на уроках неорганической химии. Эта разработка помогает развить у



студентов знания и творческий интерес к науке, активизировать их умственную деятельность.

**Ключевые слова:** образование, педагогическая технология, кластер, игровая технология, информационная технология, коммуникативность, металл, периодическая система, элемент, электронное строение.

## **KIMYO FANIDAN “D.I.MENDELEYEV DAVRIY JADVALINING I (B) GURUHCHASI METALLARI” MAVZUSIDA DARSNING METODIK ISHLANMASI**

**Xayitov F. Sh. –Toshkent davlat yuridik universitet qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Oliy ta’limda amalga oshirilayotgan yangi o‘zgarishlar ta’limning uzviylik va uzluksizligini ta’minlash, nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga o‘tish va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ko‘zda tutadi. Maqolada anorganik kimyo darslarida axborot texnologiyasidan va o‘yinli texnologiyadan, Klaster grafik organayzeridan foydalanilgan holda tayyorlangan dars ishlanmasi ko‘rsatib berilgan. Ushbu ishlanma talabalarning fanga bo‘lgan bilim va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish, aqliy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, pedagogik texnologiya, klaster, o‘yin texnologiyasi, axborot texnologiyasi, kommunikativlik, metall, davriy jadval, element, elektron tuzilishi.

## **METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF THE LESSON ON CHEMISTRY ON THE TOPIC “METALS I (B) OF THE SUBGROUP OF THE PERIODIC SYSTEM OF D. I. MENDELEEV”**

**Khayitov F.Sh. - teacher of Academic Lyceum at the Tashkent State University of Law**

**Annotation.** New changes in higher education include ensuring the continuity and continuity of education, the transition from education focused on theoretical knowledge to the formation of practical skills, as well as the training of highly qualified personnel who can find a place in the labor market.

This article presents a lesson plan, using information technology, gaming technologies, a Cluster graphic organizer in inorganic chemistry lessons.



This development helps to develop students' knowledge and creative interest in science, to activate their mental activity.

**Key words:** education, pedagogical technology, cluster, game technology, information technology, communication, metal, periodic system, element, electronic structure.

В Узбекистане в условиях реализации реформ, отвечающих требованиям рыночной экономики, необходимо уделить серьезное внимание подготовке кадров, соответствующих требованиям времени. Следует полностью пересмотреть систему, определяющую не только иные формы подготовки кадров, но и цели, задачи образования.

Применение элементов педагогической технологии на уроках позволяет учителю точно и конкретно определить место и значение каждого урока в теме, устанавливает логические связи между уроками по всем компонентам процесса обучения (целевому, содержательному, операционно-деятельностному, контрольно-регулирующему, оценочно-результативному), что обеспечивает повышение эффективности учебного процесса. Кроме того, происходит перевод обучения на субъект-субъектную основу, что обеспечивает ученику развитие его мотивационной сферы, интеллекта, самостоятельности, чувства коллективизма, способности контролировать и управлять своей учебно-познавательной деятельностью.

Педагогическая технология – это строго научное проектирование и точное воспроизведение, гарантирующее успех педагогических действий – это система функционирования всех компонентов педагогического процесса, построенная на научной основе, запрограммированная во времени и в пространстве и приводящая к намеченным результатам. (Г.В.Селевко) Необходимо сделать из ученика активного соучастника учебного процесса. Ученик может усвоить информацию только в собственной деятельности при заинтересованности предметом [1; с. 66-67]. Поэтому учителю нужно забыть о роли информатора, он должен исполнять роль организатора познавательной деятельности ученика. Необходимо, чтобы в результате деятельности, студент самостоятельно приходил к каким-либо выводам, чтобы сам для себя создал знание. Важнейшим принципом дидактики является принцип самостоятельного созидания знаний, который заключается в том, что знание студентом не получается в готовом виде, а создается им самим в результате организованной учителем определенной познавательной деятельности. Развитию познавательных и творческих интересов у учащихся способствуют различные виды технологий [4; с.125-137].

При использовании информационных технологий изменяется стиль общения: учитель, скорее выступает в качестве консультанта, собеседника, эксперта, исследователя, организатора и т.д., чем носителя информации. Требования к обучающимся также изменяются: в современных условиях необходимо формирование таких качеств личности, как самостоятельность, инициативность, способность к творчеству [5; с. 436-452]. И начинать развивать эти качества нужно как можно раньше. Использование информационных технологий в образовании – совместная активная творческая деятельность преподавателя и студента [6; с. 45-50]. Или, например, использование проблемного метода.

Учитель ставит проблему, ученики самостоятельно или под его руководством находят решение; он же направляет самостоятельные поиски путей решения (частично-поисковый метод). Таким путем учащиеся знакомятся с основными методами исследования в химии, овладевают умениями самостоятельно добывать новые знания, постоянно обращаясь к теории. Привлечение опорных знаний для решения проблемных ситуаций предполагает формирование и совершенствование как общеучебных, так и специальных умений учащихся (проводить химические опыты, соотносить наблюдаемые явления с изменениями состояния молекул, атомов, ионов, проводить мысленный химический эксперимент, моделировать сущность процессов и т. п.). Игровые технологии сохраняют познавательную активность, облегчают сложный процесс обучения, способствуют как приобретению знаний, так и развитию многих качеств личности. Игровые технологии активизируют внимание и снимают психологическое и физическое напряжение, облегчая восприятие нового материала.

В предлагаемой нами разработке использованы следующие технологии: игровая технология, графический органайзер кластер [1; с.117], частично-поисковый, ИТ. В процессе такого обучения студенты учатся мыслить логично, научно, диалектически, творчески; добытые ими знания превращаются в убеждения; они испытывают чувство глубокого удовлетворения, уверенности в своих возможностях и силах, самостоятельно добытые знания более прочные [2; с. 225-230].

#### **Урок по теме: Металлы I (B) подгруппы.**

**Цель:** познакомиться с физическими и химическими свойствами элементов-металлов, находящихся в ПСХЭ в I (B) группе, продемонстрировать взаимосвязь характеристик данных элементов со строением их атомов и простых веществ.

#### **Задачи:**

а) Образовательные: освоить новый материал, систематизировать ранее полученные знания по темам: «Периодическая система химических элементов Д.И. Менделеева», «Металлы», «Строение атома».

б) Развивающие: развивать мышление, развивать умение формулировать и аргументировать собственное мнение, развивать аналитические способности.

в) Воспитательные: совершенствовать коммуникативные навыки при работе в малых группах.

**Тип занятия**: освоение нового материала.

**Вид занятия**: комбинированный.

**Межпредметные связи**: биология, физика, геология, география.

**Методы**: игровая технология, графический органайзер кластер, частично-поисковый, ИТ.

**Оборудование**: ТСО: мультимедийный проектор, ноутбук. **Ход урока**:

Организационный момент.

Приветствие обучающихся и учителя. Анализ домашних работ. Актуализация знаний. Проведение самостоятельной работы по теме: «Свойства металлов». Изучение нового материала.

Для построения темы урока и нахождения объектов изучения, необходимо ответить на загадки [7; с. 3-4] и вопросы.

<p>Металл красой своей пленил и первым в топку угодил. (Медь) Если в соль добавить щёлочь, На пробирку посмотреть – Синий выпадет осадок – Значит соль содержит (медь).</p>	<p>Пахать и строить, все он может, Если огонь ему в этом поможет. (Металл). Серебра нитрат – прозрачен, говорят, Натрия хлорид – бесцветен на вид, Но из них легко получу «молоко». (нерастворимый осадок хлорид серебра).</p>
<p>Давно известно человеку, Она тягуча и красна, Ещё по бронзовому веку Известна в сплавах всем она. С горячей серной кислотой Дает нам синий купорос. (Медь) Меня любит человек! Мною назван целый век! Я блестяща и рыжа, Очень в сплавах хороша! (Медь)</p>	<p>Красноватый будто цветом Мягкий, ковкий он металл. Из кислот же он при этом Водород не выделял. Только может окисляться, Коль нагреем в кислоте. Право, можно догадаться Вам теперь уже вполне. (Медь). Шуточные загадки: Как из меди и мышьяка получить золото?</p>

Тесты по теме:

1. Расположите периоды истории человечества в хронологической последовательности: 1) бронзовый век, 2) каменный век, 3) железный век, 4) медный век:  
а) 2,4,1,3; б) 2,4,1,3; в) 3,2,1,4; г) 2,3,4,1.
2. Какой из металлов не встречается в природе в свободном состоянии:  
а) медь, б) серебро, в) алюминий, г) золото.
3. Укажите лишний с точки зрения состава материал:  
а) золото, б) медь, в) олово, г) бронза.
4. Какой из перечисленных металлов человечество научилось использовать позже других: а) ртуть, б) олово, в) алюминий, г) свинец.

Запись темы урока на доске и в тетради. Деление обучающихся на три группы, закрепление за каждой группой объекта исследования (одного из металлов (солей) I и (V) группы).

Объяснение хода работы каждой группой, составление плана описания каждого объекта исследования.

Первоначальные представления о свойствах каждого элемента мы можем получить из сведений по строению атома каждого элемента. Каждой группе предлагается заполнить таблицу, отражающую положение металла в ПСХЭ, порядковый номер и количество элементарных частиц в составе атома, электронное строение, число валентных электронов и принадлежность элемента к определенному типу семейства [3; с. 131-137].

Каждая группа, опираясь на полученные ранее знания, заполняет таблицу, по очереди фиксируя записи на доске. После чего предлагается сравнить полученные записи с данными на слайде. Медь не реагирует с водородом, азотом, углеродом и кремнием. После рассмотрения строения атомов трех элементов, обучающимся предлагается сравнить металлические свойства элементов этой группы.

Обучающимся предстоит заполнить таблицу, для этого заранее выдается литература с информацией, отражающей этот пункт, обучающиеся находят ее и фиксируют в таблицу-1.


**Таблица-1**

	Au	Ag	Cu
радиус атома, валентные электроны, энергетический уровень, восстановители.			

история открытия элементов			
современные способы получения			
применение			
физические свойства			
химические свойства			
тип связи			
тип решетки металлов			

Учитель демонстрирует необходимость знаний физических свойств элементов, объектов нашего исследования. В рамках данного изучения, обучающимся предстоит вспомнить тип связи и тип решетки металлов, их структурные единицы и основные свойства металлов. Каждая группа фиксирует данные по своим элементам, делает выводы об изменении свойств по подгруппе.

Наблюдение, выводы, запись уравнений реакций. «Осуществление цепочки химических превращений металлов».



**Цель работы:** научиться осуществлять цепочки химических превращений, исходя из предложенных веществ; закрепить практические навыки проведения химических опытов; повторить технику безопасности при проведении практических опытов по химии.

**Реактивы и оборудование:** сульфат меди  $\text{CuSO}_4$ , щелочь  $\text{NaOH}$ , серная кислота  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ; спиртовка, штатив с набором пробирок, спички, держатель для пробирок

**Инструктаж по технике безопасности**

Опыт №1. Получение  $\text{Cu(OH)}_2$

В пробирку с  $\text{CuSO}_4$  добавить  $\text{NaOH}$ . Что наблюдаете?

Составьте уравнение реакции в молекулярном и ионном виде. Укажите тип химической реакции.

Опыт №2. Получение  $\text{CuO}$

Пробирку с  $\text{Cu(OH)}_2$  нагреть. Что наблюдаете?

Составьте уравнение реакции.

Опыт №3. Получение  $\text{CuSO}_4$

В пробирку с полученным осадком добавьте кислоту и при необходимости немного нагрейте.

Что наблюдаете? Составьте уравнение реакции в молекулярном и ионном виде. Укажите тип химической реакции.

После выполнения работы составьте отчет в виде таблицы-2.

**Таблица-2**

Что делаю?	Что наблюдаю?	Уравнения реакции или выводы

Сделайте вывод о проделанной работе и дополните Кластер.



**Рисунок 1. Кластер по теме I В подгруппы металлов.**

Каждая группа фиксирует свойства металла, изучение которого они проводили. Обучающимся предлагается ответить на вопросы о различиях в свойствах металлов.

На каком месте Узбекистан по запасам меди (10-11)

На каком месте Узбекистан по запасам (4) и добыче золота(7)

**Заключение.**

Применение графического органайзера кластер и частично-поискового метода придаёт урокам химии особую привлекательность, является одним из способов развития познавательных и творческих интересов учащихся к химии как к науке, а также способствует активизации мыслительной деятельности



учащихся. В тоже время при использовании игровых технологий на уроках учащиеся смогут лучше запоминать материал, поданный в ходе игры, что способствует повышению эффективности обучения предмету химии. Использование компьютерных презентаций на уроках химии позволяет сообщать информацию с выделением самого существенного, осуществлять связь теории с практикой, прорабатывать учебный материал по степени его значимости, добиваться прочности знаний на основе принципа повторения материала, повышать уровень наглядности урока и повысить познавательную активность учащихся.

### **Литература**

1. Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006, 160-b.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016. 279-b.
3. I.R.Asqarov, K.G.G'opirov, N.X.To'xtaboyev Kimyo 9-sinf darslik. Toshkent “O'zbekiston” 2019. 206-b.
4. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании: Учебное пособие.–М.: Изд. МГТУ им. Н.Баумана, 2002.-336ст.
5. Павленко И.И. Влияние информатизации на социальные системы и процессы и на системы и процессы социального управления. European Social Science Journal. 2012. № 4 (20). С. 436-452.
6. Уразова М.Б., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014-yil. 5-6 b.t.
7. <https://infourok.ru/podborka-zagadok-o-himicheskikh-veschestvah-1843856.html>.

## **TALABALARDA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**Djuraeva G.N. - Ipak Yo'li xalqaro turizm universiteti o'qituvchisi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning chet tilga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish, shaxslararo muloqotda talabalar imkoniyatlaridan foydalanish, muloqot vositasida ijtimoiy subyektlarda tolerantlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishu haqida gap ketgan. Shu bilan birga talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini

aniqlash, etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida turli ta'lim muassasalari o'rtasida bilim almashish, standartlarni takomillashtirish, ta'lim maqsadlariga erishish bilan bog'liq yutuqlar haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, umumiy va huquqiy, madaniyat, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, monitoring.

## **ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО - КУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ**

**Джуроева Г.Н. - преподаватель Международного университета туризма Шелкового пути**

**Аннотация.** В данной статье проводятся исследования по вопросам развития иноязычной коммуникативной культуры студентов в высших учебных заведениях, использования возможностей студентов в межличностном общении, развития толерантности к социальным предметам через общение. В то же время проводятся исследования по выявлению перспективных направлений для развития культуры общения между студентами, обмена знаниями и студентами между различными учебными заведениями, повышения стандартов, мониторинга прогресса в достижении образовательных целей в условиях усиленной этнической культурной связи.

**Ключевые слова:** компетенция, общеправовая, культура, социокультурная компетенция, мониторинг.

## **OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING SOCIAL - CULTURAL COMPETENCES IN STUDENTS**

**Djuraeva G.N. - Djuraeva G.N. - teacher of the Silk Road International Tourism University**

**Annotation.** This article conducts research on the development of a foreign language communicative culture of students in higher educational institutions, using of students' opportunities in interpersonal communication, the development of tolerance to social subjects through communication. At the same time, research is being carried out to identify promising areas for the development of a culture of communication between students, the exchange of knowledge and students between various educational institutions, raising standards, monitoring progress in achieving educational goals in an environment of enhanced ethnic and cultural ties.

**Key words:** competence, general and legal, culture, socio-cultural competence, monitoring.

Zamonaviy jamiyatda globallashtirish muhim rol o'ynashi bilan bog'liq bo'lib, bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy va shaxsiy millatlararo aloqalarni kengaytirish, mamlakatlar o'rtasidagi madaniyatlar dialogini faollashtirishni anglatadi. Chet tilini egallash mutaxassisning mehnat bozoridagi qiymatini oshiradi, bugungi kunda ko'p hollarda ishga qabul qilishda majburiy shartlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish bir vaqtda ta'limni insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish zamonaviy tendensiyasini aks ettiradi va mos maqsadlarga erishishga olib keladi – boshqa madaniyat bilan tanishtiradi, chet tilini o'rganuvchilar yangi ijtimoiy-madaniy bilimlarni egallash jarayonida ma'lumotlilik umumiy darajasini oshiradi, uning dunyoqarashini kengaytiradi, uning kommunikativ faoliyatini hamda shaxsiy xulqini samarali boshqarishni ta'minlaydi[1;].

Amaldagi dastur tilga oid bo'lmagan oliy ta'lim muassasalari bakalavrlarga chet tilini o'qitish bo'yicha chet tilini egallash maqsadini qo'yadi va "Yetuk fuqarolik shaxsini" shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur umumiy maqsad doirasida "bakalavrlarning kasbiy maqsadlarda madaniyatlararo aloqalarni amalga oshirish qobiliyati, raqobatbardoshlik, doimiy o'zgaruvchi ko'p tilli va ko'p madaniyatli dunyoda o'zini-o'zi takomillashtirishga intilish, ishlab chiqarish va ilmiy sohadagi vazifalarni hal etishda faollik, mustaqil ta'lim olish ehtiyoji va boshqalar ustuvor hisoblanadi". Bakalavrlarni chet tilidan tayyorlash zamonaviy fanda madaniyatshunoslikning (E.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, G.D.Tomaxin) va mos ravishda ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning tashkil etuvchisi sifatida qaraladigan ta'limning ma'lum mazmunini, jumladan, mamlakatshunoslik bilimlarini egallashni nazarda tutadi[2; 3-b].

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya o'qitishning mazmun komponenti va obyekt sifatida kommunikativ funksiyani bajarib, o'zga tilli suhbatdoshning xulqi, xatti-harakatlari, fikri va his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'qitishning mazmun komponenti va obyekt sifatida kommunikativ funksiyani bajarib, o'zga tilli suhbatdoshning xulqi, xatti-harakatlari, fikri va his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. Chet tilini o'rganuvchilarning boshqa madaniyat xususiyatlarini ijtimoiy-madaniy mazmuni o'rganish sharoitlariga anglashlari orqali dunyoqarashlarini ijtimoiy-madaniy boyitish, chet tilini zamonaviy dunyoda madaniyatlar dialogida muloqot vositasi sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish vazifalarini hal etish hisoblanadi. Bunda olimlar ko'p bor madaniyatlararo muloqot uchun zarur bo'lgan mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyani egallashlarining muhimligini ta'kidlaganlar. Chet tilini o'rganuvchilarda (jumladan, tilga oid bo'lmagan oliy ta'lim muassasasida bakalavriat darajasida) ijtimoiy-

madaniy kompetensiyani rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalarining tahlili mazkur muammo to'liq hal etilmaganligini ko'rsatdi.

Jumladan, biz mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyani egallashlarining umumtan olingan ahamiyatiga qaramay mazkur muammoning ta'lim oluvchilarning turli kontingentlariga nisbatan, shuningdek, tilga oid bo'lmagan oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilariga nisbatan hal etilgan ishlarni uchratmadik, shu jumladan, chet tilini o'rganuvchilarda maqsadga muvofiq ravishda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish metodikalarining ilmiy asoslangan bayoni mavjud emas.

Shunga ko'ra, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish hozirga qadar ko'rsatilgan turli ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish amaliyotida maqsadga muvofiq va tizimli amalga oshirilmagan. Natijada amaldagi tilga oid bo'lmagan oliy ta'lim muassasasi uchun chet tili bo'yicha dasturda mazkur fanni bo'lajak bakalavrlarga o'rgatish, jumladan, ularda sifatli madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish oldida turgan belgilangan maqsadlarga to'liq erishilmagan.

Mazkur muammoni hal etishning dolzarbligi metodikaning nazariy va amaliy masalalarining yetarli ishlab chiqilmaganligida chet tilidan tayyorgarlik komponenti sifatida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning zarurati bilan tushuntiriladi.

Pavlova L.P. hozirgi vaqtda chet tilini o'qitish maqsadini o'z ichiga muloqotda ishtirok eta oladigan va buni istaydigan o'quvchi shaxsini rivojlantirish va o'quvchida murakkab integrativ yaxlitni tashkil etuvchi, madaniyatlararo kompetensiyaga kiruvchi ikkinchi tilli shaxs sifatlarini rivojlantirishni qamrab oladi[4;].

“Kompetensiya” tushunchasini tavsiflagan tadqiqotchilar uni quyidagilarga imkon beradi deb hisoblaydilar:

- faol hayotiy va kasbiy vaziyatga ega bo'lib, o'z farovonligi va jamiyat holati uchun mas'uliyatni yaratish, o'zini-o'zi amalga oshirish qobiliyatini ta'minlash;
- ijtimoiy va kasbiy o'zini-o'zi aniqlash hamda o'zini-o'zi amalga oshirishga yo'naltirish;
- ochiq axborot hamjamiyati, globallashtirilgan dunyoga kirib borish qobiliyatini ta'minlash;
- chet tilli suhbatdosh bilan o'zaro tushunishga erishishda bag'rikenglik, dialog olib borishni tarbiyalash;
- umumiy va huquqiy madaniyatning zamonaviy darajasiga erishish.

Tadqiqot ishining asosiy vazifasini hal etish uchun “kommunikativ kompetensiya” tushunchasining turli tadqiqotchilar talqinlariga asosan ta’riflarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

“Kommunikativ kompetensiya” atamasi Passov E.I. tomonidan kiritilgan bo‘lib, “vaziyatli grammatikada o‘rganiladigan, vaziyatli, ijtimoiy yoki boshqa tilga oid bo‘lmagan omillarga bog‘liq bo‘lgan variantlarni tanlash ko‘nikmasi sifatida tushuniladigan, til bilish”ni anglatgan [5;].

Mazkur kompetensiya individ tomonidan ijtimoiylashuv jarayonida egallanadi va insonga o‘zini ijtimoiy shartli muloqot tizimining a‘zosi deb his etishiga imkon beradi.

M.N.Vyatyutnev kommunikativ kompetensiyani “fikr-mulohazalar ko‘rinishidagi nutq xulqi dasturlarini og‘zaki yoki yozma shaklda idrok etish va tuzish uchun insonning xotirasidagi til vositalarining kommunikativ usullaridan (jamiyatning ijtimoiy va madaniy me‘yorlariga mos ravishda) foydalanishning dinamik ijodiy va individual maxsus qobiliyatlari” chet tilini o‘qitish muammosiga asosan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasining ta’rifi “chet tili vositalari bilan o‘quvchilar uchun maishiy, o‘quv, ishlab chiqarish va madaniy hayotdagi dolzarb vazifalarni yechish imkoniyati, o‘quvchilarning til va nutq dalillaridan muloqot maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanish malakalari, shuningdek, turli nutqiy muloqot sharoitlarida lingvistik kompetensiyani amalga oshirish qobiliyatini” anglatadi, bu “ta’lim oluvchiga kommunikativ maqsadga muvofiq ravishda o‘z nutqiga oid xulqini muloqot vaziyatiga asosan o‘zgartirishga imkon beruvchi tilga oid, nutqiy va ijtimoiy-madaniy bilimlar, ko‘nikma va malakalarning muayyan darajasi”, “insonning ko‘p madaniyatli jamiyatda yashash, boshqa madaniyat vakillari va o‘z madaniyati vakillarini muvaffaqiyatli tushunishga erishish qobiliyati”dir.

“Ijtimoiy-madaniy kompetensiya” tushunchasining mazmuni (madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalar tarkibida) o‘quvchi shaxsining rivojlanishi maqsadini, unda hamkorlik, o‘zaro hurmat, madaniy farqlarga bag‘rikenglik va madaniy to‘siqlarni yengish prinsiplari asosida madaniyatlar dialogida ishtirok etish qobiliyati va tayyorligini rivojlantirishni aks ettirishini ta’kidlash lozim.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning mazkur ma’nosi psixologlar tomonidan ham ta’kidlanadi (B.V.Belyaev, L.S.Vigotskiy, T.G.Egorov, I.A.Zimnyaya va boshqalar), ular muloqot har bir ishtirokchisining o‘z madaniyati (olaning individual manzarasi) mavjudligi begona olaning (boshqa ongning obrazi) ziddiyati bilan shaxsning dialogik holatini yaratishini bayon etadilar. Aynan shaxsning dialogga kirisha olishi uni oqibatda madaniyatlar dialogiga kirishishga tayyorligini hosil qiladi[7;].

“Ijtimoiy-madaniy kompetensiya” tushunchasi so‘nggi vaqtlarda chet tillarini o‘qitish nazariyasida paydo bo‘lgan yangi tushuncha – ijtimoiy-madaniy ta’lim bilan bog‘liq.

Mazkur tushunchaning paydo bo‘lishi ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni – madaniyatlararo muloqot maqsadida ijtimoiy-madaniy bilim, ko‘nikma, malakalar va boshqalarning muayyan hajmini rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq.

Ijtimoiy-madaniy ta’lim asosida yotuvchi ijtimoiy-madaniy yondashuv, tilni o‘rganish strategiyasini va mazkur fanni o‘qitish mazmunini milliy madaniyat nuqtayi nazaridan belgilaydi va nutqiy hamda ijtimoiy-madaniy muhitning bevosita aloqadorligi, til va jamiyat rivojining o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi ma’lumotni egallashni ko‘zda tutadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya atamasi mazkur tushunchada “madaniyat” hodisasi murakkab ko‘p jihatli hodisaning mavjudligini ko‘zda tutadi, u madaniy antropologiya, etnologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik kabi turli gumanitar fanlar tomonidan o‘rganiladi. Mazkur fanlar umumiy masalalar doirasi bilan shug‘ullanadi (inson va uning olami, madaniyatlararo o‘zaro aloqalar, madaniyat genezisi va boshqalar).

Yuqorida ifodalangan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z tarkibiga ega va alohida qismlarning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlitning integrativ xususiyatlariga ega bo‘lgan qator komponentlarni o‘z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga egalik umuminsoniy va milliy madaniyatga qadriyatli munosabatning rivojlanganligi, boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan dialogik muloqotga intilishni anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning rivojlanganligi madaniyatlararo muloqot ishtirokchilariga, bir tomondan, boshqa xalq hissiyotlari va fikrlarini tushunishni hamda milliysentrizimlikni yengishga, boshqa tomondan – o‘zini-o‘zi yaxshiroq aniqlash, tili o‘rganilayotgan mamlakat va xalqning madaniyatiga nisbatan o‘z madaniyatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Shu tariqa, yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha kompetensiyalar (kommunikativ, madaniyatlararo kommunikativ), qator tadqiqotchilar isbotlaganlaridek, o‘z ichiga muayyan komponentlarni kiritadi.

Mazkur komponentlar har biri ko‘rsatib o‘tilgan kompetensiyaning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar tarkibiga kiradi va u o‘z navbatida ma’lum tashkil etuvchilar (komponentlar)ni kiritadi. Bunda tashkil etuvchilar (komponentlar) ro‘yxati va ularning tarkibi turli olimlarda turlicha hisoblanadi. Shu bilan birga barcha tadqiqotchilar asosiy komponentlar sifatida quyidagilarni ajaratadilar:



- ma'lum tilga oid materialda ifodalangan ijtimoiy-madaniy bilimlar (ensiklopedik va boshqalar) va ularni qo'llash usullari (muloqot sohasi, vaziyati va mavzusiga ko'ra);

- kommunikantlarning muloqot tajribasi va shaxsiy munosabatlari.

Turli mualliflar tomonidan sanab o'tilgan ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar komponentlari ajratilishini to'g'ri deb hisoblab, ilmiy tadqiqotlarda berilgan ta'riflar ortidan mazkur komponentlarni umumlashtirish va aniqlashtirish mumkin bo'ladi[8;].

Mazkur ishlarda ifodalangan ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar komponentlari (tashkil etuvchilari)ga yondashuvlarga mos ravishda, quyidagilarni aniqlashtirish orqali madaniyatlararo kompetensiyalar komponentlari bilan bog'lanishi mumkin: yuqorida ko'rsatib o'tilgan beshta komponentlardan (mazmunli, faoliyatli, kognitiv, strategik va affektiv) har biri yorqin ifodali ijtimoiy-madaniy tusga ega bo'lib, bu mazkur komponentlarni tilga oid ifodalashda aks etadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning mazmunli hamda kognitiv komponentlari quyidagilarni tashkil etadi: madaniyat, madaniy qadriyatlar va an'analar, milliy mentalitet xususiyatlari to'g'risidagi ma'lum ensiklopedik va asosiy bilimlar, muloqotning an'anaviy mavzulari; o'z mamlakatining va tili o'rganilayotgan mamlakatning qadriyatli yo'nalganligini ifodalash usullari, shuningdek, chet tilini o'rganayotganlarda shakllanadigan olam manzarasi.

Yuqorida keltirilgan nuqtayi nazarlardan ko'rinib turganidek, hozirgi vaqtda «kommunikativ kompetensiya» tushunchasining mazmuniga kiruvchi komponentlarga nisbatan yagona fikr mavjud emasligini ta'kidlash zarur. Olimlar tomonidan kommunikativ kompetensiya uni tashkil etuvchi komponentlar o'rtasidagi ierarxik munosabatlarni nazarda tutuvchi ichki strukturaga egaligi aniqlangan.

Shunga qaramay, kommunikativ kompetensiya ko'p aspektli tushuncha hisoblanganligi sababli, mazkur tushunchaning tarkibiy kompetensiyalariga nisbatan yagona fikr fanning hozirgi rivojlanish davrida mavjud emas [9; 10-b].

Yuqorida ko'rib chiqilgan muammoning mazkur jihatida nuqtai nazarlarni o'rganish kommunikativ kompetensiyalar komponentlari quyidagilar bo'lishi mumkin deb hisoblash imkonini beradi:

1) lingvistik (yoki tilga oid) kompetensiya, til tizimi to'g'risidagi bilimni, chet tilidagi gaplarni tushunish va tuzish, o'rganilayotgan chet tili tashuvchilari bilan nutqiy va nonutqiy muloqotni amalga oshirishga imkon beruvchi, shuningdek, "o'rganilayotgan til to'g'risidagi ma'lumotlar tizimini egallash"ni nazarda tutuvchi ko'nikma va malakalar. Mazkur kompetensiya leksik, grammatik, semantik, fonologik, orfografik va orfoepik kompetensiyalarni o'z ichiga oladi, bu o'rganilayotgan til tizimi to'g'risidagi bilimni va muloqotning tilga oid vositalarini qo'llash ko'nikmalarini ko'zda tutadi;

2) muloqotning tilga oid me'yorlari va qoidalarini, nutqiy va nutqqa oid bo'lmagan axloq qoidalarini bilishni anglatuvchi va "tilni ijtimoiy mazmunda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar"ni kirituvchi ijtimoiy-lingvistik kompetensiya, bu chet tilidagi gaplarni tushunish va tuzishni ko'zda tutadi;

3) pragmatik kompetensiya, bilimlar, gap tuzish, ularni matnda (munozarada) birlashtirish, qoidalari, turli kommunikativ funksiyalar uchun gaplardan foydalanish malakasi, "kommunikantlarning o'zaro munosabatlari xususiyatlari"ga mos ravishda chet tilida gap tuzishni malakalarining majmuini tashkil etadi;

4) ijtimoiy-madaniy kompetensiya, tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligini bilishni anglatadi;

5) strategik kompetensiya, o'zining nutqiy chet til tajribasidan tilni bilishdagi bo'shliqlarining o'rnini to'ldirish uchun foydalanish malakalarida ifodalanadi.

Sanab o'tilgan ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar rivojlanganligi sifatini ifodalovchi mazmun va muammolar mazkur kompetensiyalarni chet tilini o'rganuvchilarning ixtiyoriy qatlamida rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalarni takomillashtirishda yo'nalish sifatida qabul qilinishi mumkin.

Tizimlilik va izchillik, qiyinchiliklarning ortib borishi va boshqa prinsiplarga muvofiq ravishda, chet tilini o'rganishning har bir bosqichida yuqorida sanab o'tilgan har bir komponentlarga mos ravishda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish ta'limning ma'lum bosqichi bilan bog'liq va mos metodika yordamida, jumladan, kommunikativ mashqlar va nazorat topshiriqlari seriyasi yordamida amalga oshiriladi.

Shu tariqa, "ijtimoiy-madaniy kompetensiya" tushunchasi, mazkur tushunchaning mazmunini, uni tashkil etuvchi komponentlari tavsiflarini belgilash, shuningdek, "ijtimoiy-madaniy kompetensiya" hodisasini aks ettiruvchi mazmunini ifodalash bakalavriat bosqichida chet tilini o'zlashtirayotgan nofilologik Oliy ta'lim muassasalarida talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini hal etishga o'tish hamda olingan ma'lumotlardan dissertatsiyaning asosiy muammosi – bo'lajak bakalavr-nofilologlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishni hal etish uchun foydalanish imkonini berdi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyarbda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'limi Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: монография / Е.М.Верещагин, Костомаров В.Г. –М.: Русский язык, 1983, С. 269.

3. Томахин Г.Д. Лингвострановедение: что это такое? /Г.Д.Томахин// ИЯШ. -1996. –№6. –С. 22-27.

4. Павлова Л.П. Исследование влияния игровой учебной деятельности на формирование межкультурной компетенции студентов вуза: На материале иностранного языка: Дис ... канд.пед. наук: - Ставропол, 2004. С.176
5. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению: учебное пособие / Е.И.Пассов. –М.: Просвещение, 1991. С. 223
6. Вятютнев М.Н. Теория учебника русского языка как иностранного (методические основы): учебное пособие / М.Н.Вятютнев. –М.: Русский язык, 1984. С. 144
7. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебное пособие / И.А.Зимняя. –М.: Логос, 2005. С. 348
8. Землянова М.П. Проектирование формирования социокультурной компетенции учащихся: школа с углубленным изучением английского языка: дисс.канд.пед.наук: 13.00.02 / Землянова Мария Петровна. Волгоград. 2008. С. 243
9. Азимов Э.Г., Шукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам): научно-методическое издание / Азимов Э. Г., Шукин А.Н. –М.: Икар, 2010. С. 448
10. Шукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика: Учебное пособие для преподавателей и студентов / А.Н.Шукин. -4-е изд. –М.: Филоматис, 2010. С. 480

## **ВНЕДРЕНИЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ КАК УСЛОВИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА**

**Абдувалиева Д.Н. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета, PhD**

**Исроил Ш.Б. - магистрант Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассмотрены основные положения теории дистанционного обучения. Особое внимание уделено разработке информационно-обучающих технологий с целью создания программно-методических материалов. В работе сформулированы базовые принципы, на основе которых создаются системы дистанционного обучения студентов. Дистанционное обучение повышает качество самостоятельной работы студента. В результате проведенного исследования понятно, что за счет использования информационных технологий происходит сокращение реальной нагрузки преподавателя, но при этом сохраняется значительная доля групповых занятий.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, информационно-обучающие технологии, дифференциация и индивидуализация процесса обучения, информатизация образования.

### **MASOFAVIY O‘QITISHNI JORIY ETISH – O‘QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHARTI SIFATIDA**

**Abduvaliyeva D.N. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, PhD**  
**Isroil Sh.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti**

**Annotatsiya.** Maqolada masofaviy o‘qitish nazariyasining asosiy qoidalari muhokama qilingan, dasturiy va uslubiy materiallarni yaratish maqsadida axborot va o‘quv texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada talabalarni masofadan o‘qitish tizimlarini yaratishning asosiy tamoyillari shakllantirilgan. Masofaviy o‘qitish talabaning mustaqil ishi sifatini yaxshilaydi. Tadqiqot natijasida ma’lum bo‘ldiki, axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida o‘qituvchining haqiqiy ish yuklamasi kamayadi, ammo shu bilan birga guruh darslarining sezilarli qismi saqlanib qoladi.

**Kalit so‘zlar:** masofaviy o‘qitish, axborot va o‘qitish texnologiyalari, o‘quv jarayonini differentsiallashtirish va individuallashtirish, ta’limni axborotlashtirish.

### **IMPLEMENTATION OF DISTANCE LEARNING –AS A CONDITION FOR IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Abduvaliyeva D.N.- Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences of  
Tashkent state pedagogical university**  
**Isroil Sh.B. – Master student of Tashkent state pedagogical university**

**Annotation.** the paper discusses the basic propositions of the theory of remote training. The special attention is given to working out information-training technologies for the purpose of creation of program-methodical materials. The author formulates the main principles on the basis of which systems of student remote training are created. Remote training raises the quality of independent work of the student. The results of the conducted research show that use of an information technology leads to a reduction of real loading of the teacher, but the considerable share of group studies remains.

**Key words:** remote training, information-training technologies, differentiation and an individualization of process of training, education informatization.

Важнейшей задачей высшего образования в современном динамически развивающемся мире становится обеспечение доступа к образованию независимо от обстоятельств жизни, возраста, материального состояния, места жительства, культурной и этнической принадлежности, семейного положения и т.д. Одной из наиболее перспективных форм получения качественного образования становится дистанционное обучение. Актуальность использования дистанционного обучения в настоящее время уже не вызывает сомнений. Более значимым является вопрос о механизмах его реализации.

Информационная интеграция вуза в компьютерные сети позволяет развивать межвузовские связи, организовывать информационное обеспечение учебного процесса по конкретным дисциплинам и дистанционное обучение студентов. В стадии активного формирования находятся научные основы дистанционного обучения. Все более четкими становятся представления о дистанционном обучении как о социокультурном феномене и его возможностях на общеобразовательном и институциональном уровнях в высшем (А.А. Андреев, АА. Ахаян и др.) и среднем (О.В. Акулова, М.Ю. Бухаркина, Ю.П. Господарик, Е.С. Полат и др.) образовании, в организации изучения конкретных предметов (С.А. Бешенков, М.В. Моисеева, Н.Н. Петрова, О.Н. Шилова и др.), о дидактических возможностях применения средств новых информационных технологий в системе дистанционного обучения (А.А. Андреев, Власова, И.Б. Готская, В.В. Лаптев, Т.Н. Носкова, А.Е. Петров, Е.С. Полат и др.). Вместе с тем понимание отдельных задач часто носит дискуссионный характер, в их практическом решении наблюдается ситуативно-организационная и часто дидактическая направленность, а порой и недостаточная научная обоснованность, что требует уточняющих и дополняющих проработок [1;].

Изучение состояния проблемы организационно-дидактического обеспечения дистанционного обучения студентов позволило выявить следующие противоречия:

- между нарастающей потребностью практического развития отечественного дистанционного обучения как условия совершенствования учебного процесса и недостаточной сформированностью в отечественной педагогике научного базиса его системного осуществления;

- между признанием сохранения в дистанционном обучении компонентов традиционной дидактической системы и отсутствием доказательного рассмотрения специфики ее реализации в условиях дистанционного обучения математическим дисциплинам;

- между практическим осуществлением подготовки, проектирования и проведения дистанционного обучения и недостаточной проработанностью

вопроса взаимосвязи, согласования и взаимовлияния перечисленных этапов друг на друга.

Дистанционная система обучения позволяет человеку не только усваивать знания, но и приобретать умения для их творческого применения, для получения новых знаний. Данная система обучения рассчитана на большую самостоятельную познавательную деятельность студента, а это влечет за собой интеллектуальное и творческое развитие обучающегося. Данное направление предполагает использование современных средств и технологий обучения. Однако, прежде чем коснуться их, необходимо рассмотреть сам термин «дистанционное обучение». Само это выражение подразумевает под собой «обучение на расстоянии» [4;], т.е. студент и преподаватель общаются друг с другом посредством различных средств связи, практически не контактируя на близкой дистанции. Но это определение не совсем подходит к дистанционной системе обучения, которая развивается в современном мире. В данной системе все еще существуют понятия «лекции», «семинары» и др., традиционные для высшей школы, однако время непосредственного общения преподавателя со студентом сведено до минимума. При обучении широко используются видео лекции, аудио курсы, лекции спутникового телевидения, IP-консультации через Интернет, автоматизированные обучающие системы и компьютерные тренажеры и т.д. На сегодняшний день именно такая система получила название «дистанционная система обучения» и развитие по всему миру. На данный момент она широко распространена в США, Великобритании, России, Украине, Белоруссии, Казахстане и других странах мира и СНГ, в частности.

В нашем исследовании были выявлены преимущества использования дистанционного обучения студентов:

1. Это удобная форма заочного и экстернатного обучения, в частности, при получении второго образования и для лиц с особыми образовательными потребностями, не имеющих возможности очного и даже заочного обучения.
2. Повышается качество самостоятельной работы студентов. Работа на компьютере позволяет качественно выполнить вычисления, оформить работу, использовать информационные ресурсы сети для углубленного изучения темы.
3. Возможна быстрая корректировка на основе новых научных данных содержания курса лекций, практических заданий и т.п.
4. Создание электронного варианта курса лекций для преподавателя доступнее, чем публикация собственного учебника или учебного пособия.
5. Не следует забывать и психологический момент: современному студенту интересно работать за компьютером, предоставляющим возможности для развития образного и абстрактного, пространственного мышления.



В нашем исследовании целью дистанционного обучения определено предоставление обучающимся непосредственно по месту жительства или временного их пребывания возможности освоения основных и (или) дополнительных профессиональных образовательных программ высшего и среднего профессионального образования (далее – образовательные программы), соответственно в образовательных учреждениях высшего, среднего и дополнительного профессионального образования (далее – образовательные учреждения).

Функции дистанционного обучения заключаются в обеспечении всех возможностей, необходимых для ведения образовательной деятельности на расстоянии, для решения следующих проблем:

- совершенствование содержания образования и организации учебного процесса, повышение уровня теоретической и прикладной подготовки обучающихся;

- обеспечение методологического единства содержания, методов и средств обучения в системе непрерывного многоуровневого образования;

- внедрение эффективных методов и средств обучения: вычислительной техники, программного обеспечения, информационных и коммуникационных технологий;

- подготовка предложений по созданию учебной литературы, мультимедийных и аудиовизуальных пособий;

- совершенствование содержания, форм и методов переподготовки, повышения квалификации преподавателей.

В основу дистанционного образования была положена такая модель передачи знаний, в которой источниками знаний являются разнообразные информационные ресурсы Сети, как специальным образом подготовленные обучающие курсы, так и ресурсы, уже существующие в базовой телекоммуникационной среде, например, базы данных, энциклопедии, справочники, словари и другие информационные источники. Телекоммуникации обеспечивают доступ студентов к изучаемому материалу и работу с ним, интерактивное взаимодействие преподавателя и студента в процессе обучения, возможность работы в группе и самостоятельной работы с информационными источниками Сети, оперативную оценку знаний и умений, личностных качеств обучающихся [2;].

В целях оказания студентам помощи в освоении образовательных программ непосредственно по месту их работы и месту жительства высшее учебное заведение вправе осуществлять консультации, текущий контроль успеваемости и промежуточную аттестацию обучающихся путем привлечения штатных научно-педагогических работников высшего учебного заведения на

основе учебно-материальной базы представительства. При этом образовательные программы признаются реализуемыми с использованием в полном объеме дистанционного обучения в том случае, если не менее 70% объема часов учебного плана обучающиеся осваивают посредством дистанционных образовательных технологий реализуется не менее 80% объема часов общих гуманитарных и социально-экономических, математических и общих естественнонаучных дисциплин.

Наша работа посвящена исследованию внедрения компьютерных технологий дистанционного обучения при изучении фундаментальных математических дисциплин на примере курсов «Алгебра и геометрия», «Линейная алгебра и аналитическая геометрия», «Высшая алгебра», «Общая алгебра»:

1. Возведение мнимой единицы в натуральную степень. Возможность наглядной демонстрации возникающего цикла длины четыре в процессе возведения мнимой единицы в натуральную степень с шагом один.

2. Решение системы линейных уравнений методом Гаусса. Возможность для пользователя ПК, выполняя элементарные преобразования заданной системы, получать результат на экране компьютера. При этом наглядно иллюстрируется приведение системы уравнений к ступенчатому виду.

3. Вычисление детерминантов путем приведения их матриц к треугольному виду первого типа.

4. Вычисление по определению детерминантов четвертого порядка.

5. Исследование кубических уравнений. Изменяя дискриминант (в случае его вещественного значения), можно показывать изменение графика функции и соответственное изменение корней рассматриваемого уравнения.

6. Основная теорема алгебры и прилегающие вопросы. В случае, когда уравнение не решается в радикалах, можно продемонстрировать его численное решение.

7. Разделы аналитической геометрии можно наглядно иллюстрировать при помощи различных графических приложений. К примеру, можно демонстрировать изменение формы гиперболы и эллипса при изменении эксцентриситета, изменение формы параболы при изменении ее параметра и т.д.

8. Демонстрация действий над матрицами достаточно большого размера.

9. Вычисление значений полиномов в точках-матрицах.

10. Вычисление обратной матрицы методом Гаусса. Возможность демонстрации процесса преобразований.

11. Иллюстрация к понятию группы: группа само совмещений ромба может быть пояснена наглядными рисунками и их преобразованиями.

12. Наглядный материал могут дать различные группы преобразований плоскости и пространства.

Преподавание математических дисциплин по дистанционной форме обучения предъявляет особые требования к уровню подготовки и методике обучения преподавателя, который должен обладать солидным багажом знаний, уметь применять теоретические знания на практике, быть в курсе последних достижений науки и техники, а также обладать свойствами мобильности и коммуникабельности. Связано это, прежде всего, с тем, что математика с практической точки зрения наиболее интересна результатами ее применения, а объемы данных, обрабатываемых в настоящее время при решении различных задач, огромны и их обработка ограничена умственными и временными вычислительными способностями человека. Конечно же, хорошее преподавание и, как результат, усвоение материала учащимися невозможны без применения иллюстративных материалов и ТСО.

Мультимедийные курсы для дистанционного образования по различным специальностям физико-математического, естественнонаучного и гуманитарного циклов дисциплин могут существенно различаться по соотношению в них видео лекций, видео-слайд лекций, слайд-лекций, лабораторных демонстраций, справочных и тестовых блоков. Общим для этих курсов является традиционная схема упаковки в софт-продукт всей необходимой для обучения информации в форме готовых к демонстрации файлов того или иного стандарта. При этом вся проблематика касается лишь выбора конкретного пакетного инструментария, удобного для работы разработчика в определенной среде программирования и/или воспроизведения пользователем учебного материала с помощью доступных для него средств мультимедиа. Типичным примером является известный пакет Ispring Suite, позволяющий производить мультимедийные интерактивные курсы с достаточно широкой функциональностью [3;].

Внедрение дистанционной формы обучения математическим дисциплинам позволило выявить соотношение учебной нагрузки студентов и преподавателей при дистанционном и очном обучении по формам организации учебной деятельности. Проведение лекций, практических и семинарских занятий, лабораторного практикума при дистанционном обучении сопровождается сокращением непосредственных аудиторных занятий и перераспределением дидактических функций между организационными формами учебной деятельности. Часть задач по усвоению теоретического материала и выработке практических навыков решается с помощью консультаций и контроля, которые также расширяют свои дидактические возможности. Общий объем групповых занятий при дистанционном обучении

составляет 26-43% от объема групповых занятий при очном обучении. При этом необходимость в организации групповых занятий при изучении естественно-научных и физико-математических дисциплин значительно выше, чем гуманитарных.

Проведенные расчеты показали, что при сохранении нормативной учебной нагрузки студентов (54 часа в неделю) затраты рабочего времени преподавателя при дистанционном обучении в отношении к очному обучению по формам учебной деятельности существенно изменяются и составляют:

- лекций – 19-34%;
- для практических занятий – 44-72%;
- для семинаров – 41%;
- для лабораторных работ – 89%;
- для консультаций – 47-100%;
- для текущего и промежуточного контроля – 50-89%;
- для итогового контроля – 100%;
- для НИРС – 100%.

Эти данные позволяют сделать вывод о том, что общее сокращение нагрузки преподавателя при дистанционном обучении происходит главным образом за счет сокращения лекционных и частично практических занятий. В этих формах организации учебного процесса мы наблюдаем наиболее высокие коэффициенты эффективности работы преподавателя: 66-81% по лекциям и 28-59% по семинарским и практическим занятиям. Коэффициент эффективности при проведении практических занятий по решению задач, например, при дистанционном обучении составляет от 28 до 56% по отношению к очным практическим занятиям. Эффективность достигается главным образом за счет использования компьютерных тестирующих программ, а также других организационных форм и технологий для решения задач, стоящих обычно перед практическими занятиями.

Более низкий коэффициент эффективности при проведении лабораторных работ (11%) объясняется спецификой этой формы учебной деятельности, предполагающей обязательные аудиторные занятия. При этом основная нагрузка по проведению лабораторного практикума при дистанционном обучении ложится не на преподавателя, а на тьютора. Функции преподавателя теперь главным образом заключаются в том, чтобы подготовить методическое обеспечение и поддерживать учебный процесс консультациями. Эффективность текущего и промежуточного контроля измеряется 11-50%, что зависит от характера дисциплины и степени разработанности учебно-методических материалов.

Таким образом, внедрение дистанционного обучения студентов дисциплинам математического цикла показало, что объем реальной нагрузки преподавателя на практических занятиях при дистанционном обучении остается достаточно высоким в сравнении с другими формами учебной деятельности. На проведение общих текущих консультаций по учебной дисциплине при дистанционном обучении отводится значительно меньше времени, чем при очном обучении: коэффициент эффективности составляет до 53% в зависимости от дисциплины и общего объема курса. При этом общее количество консультаций увеличивается за счет проведения специальных тематических консультаций, позволяющих создать систему поддержки учебного процесса при изучении теоретического и практического материала.

Результаты проведенного анализа показывают, что в целом при дистанционном обучении происходит сокращение реальной нагрузки преподавателя за счет использования информационных технологий, но при этом сохраняется значительная доля групповых занятий, реализуемых как в традиционной аудитории под руководством преподавателя или тьютора, так и с помощью онлайн-технологий (сетевые семинары, консультации, коллоквиумы).

### **Литература**

1. Агафонов С.В. Средства дистанционного обучения. Методика, технология, инструментарий /С.В.Агафонов, З.О.Джалиашвили, Д.Л. Кречман. - СПб.: «БХВ-Петербург», 2003. – 336 с.
2. Андреев А.А., Солдаткин В.И. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация. М.: МЭСИ, 1999. – 196 с.
3. Андреев А.А. Средства новых информационных технологий в образовании: систематизация и тенденции развития [Текст] / А.А. Андреев – М.: ВУ, 2011. – 153 с.
4. Андреев А.А., Введение в дистанционное обучение [Текст] / А.А. Андреев. - М.: МЭСИ, 1997. – 254 с.

### **«ENERGIYANING SAQLANISH QONUNI» MAVZUSINI O‘QITSHDA IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

**G‘aniyev A.G. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali  
direktori, Fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent**

**Annotatsiya.** Maqolada idrok qilish uchun ma'lumotlar sensor kanallari orqali olinishi va ularni xotirada saqlash uchun nimalarga e'tibor berish zarurligi qayd etilgan. Shu maqsadda verbal ma'lumotlarni vizuallashtirish uchun «Intellekt xarita» (Mind Map) dan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. «Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni» intellekt xaritasi yordamida katta miqdordagi ma'lumotlarni bir joyga jamlash va ularga aloqador jarayonlarni tasavvur qilish mumkinligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** sezgi, diqqat, xotira, tasavvur, bosh miya, makon, zamon, energiya, saqlanish, aylanish, qonun, massa, jarayon, maydon.

## **РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ «ЗАКОН СОХРАНЕНИЯ ЭНЕРГИИ»**

**Ганиев А.Г. - директор Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат физико-математических наук, доцент**

**Аннотация.** В статье отмечается, что информация для восприятия может быть получена по сенсорным каналам и на что необходимо обратить внимание, чтобы сохранить ее в памяти. С этой целью были изучены возможности использования “Карты интеллекта” (Mind Map) для визуализации вербальной информации. Закон сохранения и циркуляции энергии показывает, что с помощью интеллектуального картографирования можно объединить большие объемы данных и визуализировать процессы, связанные с ними.

**Ключевые слова:** интуиция, внимание, память, воображение, мозг, пространство, время, энергия, сохранение, вращение, закон, масса, процесс, поле.

## **DEVELOPING CREATIVE THINKING SKILLS IN TEACHING THE LAW OF CONSERVATION OF ENERGY**

**G'aniyev A.G. - Director of Shahrisabz branch of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor**

**Annotation.** The article explains that information for perception is received through sensory channels and what to look for in order to store it in memory. For this purpose, the possibility of using the “Mind Map” to visualize verbal information was studied. The law of conservation and circulation of energy shows that with the help of



a mind map it is possible to gather a large amount of data and imagine the processes associated with it.

**Key words:** Intuition, attention, memory, imagination, brain, place, time, energy, avoidance, rotation, law, mass, process, space.

Odam obyektiv olam tog'risidagi dastlabki ma'lumotlarni sezgilari orqali oladi. Boshqacha aytganda sezgi odamni voqelik bilan bog'lovchi vositadir. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va tuyish (his qilish) bilishning boshlang'ich vositalaridir. Sezish hali ma'lumotlarni o'zlashtirish degani emas. Sezgilar orqali olingan ma'lumotlar bir necha xususiyatlariga ko'ra yaxlit holga olib kelinadi. Bunga ma'lumotlarni idrok qilish deyiladi.

Ta'lim oluvchilarning diqqatlarini jamlash va ta'lim samaradorligini oshirish uchun mashg'ulotda ta'lim metodlaridan uyg'unlikda foydalanish tavsiya etiladi. Idrok qilish paytida qancha ko'p sensorlik (sezgi) kanallaridan foydalanilsa, xotirada olib qolinadigan bilimlarning miqdori va sifati shuncha yuqori bo'ladi.

Agar bilimlar faqat ma'ruzalar orqali berilgan bo'lsa, (faqat eshitish) 25% ma'lumotlar xotirada qoladi.

Agar bilimlar ma'ruza va namoyish orqali berilgan bo'lsa, (ko'rish+eshitish) 50% ma'lumotlar xotirada qoladi.

Agar bilimlar ma'ruza, namoyish va amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlari orqali berilgan bo'lsa, (ko'rish+eshitish+laboratoriya ishi) 75% ma'lumotlar xotirada saqlanadi.

Agar amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning faoliyatlariga aloqador bo'lsa, xotirada saqlash ko'rsatgichini 80% gacha ko'tarish mumkin.

Agar ta'lim jarayonida bir necha sensorlik kanallaridan foydalanilsa, ma'lumotlarni qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi.

- "ko'rsam va o'zim bajarsam eslab qolaman" - amaliyot yordamida olingan bilim kishi ongida muhrlanib qoladi.

Ta'lim jarayonida quyidagi faktorlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq [1;]:

- diqqatni jamlash ma'lumotlarni xotirada saqlashga yordam beradi. O'quvchilar mavzuni xotirada yaxshi qoldirishlari uchun turli usullar bilan ularning qiziqishlarini orttirish va diqqatlarini jamlash kerak;

- ko'rish va eshitish orqali qabul qilingan ma'lumotlardan ko'ra, tovush chiqarib o'qilgan ma'lumotlar xotirada yaxshi saqlanadi;

- matnni xotirada saqlashdan ko'ra uni savol va javoblar sifatida eslash oson;

- ma'lumotlarning ma'nosini tushunish ularni xotirada saqlanishiga yordam beradi; - ma'lumotlarni boshqa xotiradagi ma'lumotlarga o'xshatish (analogiyadan foydalanish) ham ularning xotirada saqlanishiga yordam beradi;

- odam kuchli emotsional holatda va juda yaxshi kayfiyatda bo'lganida ro'y bergan voqeaning tafsilotlarini xotirada saqlashi va qayta tiklashi oson bo'ladi;
- tasavvurning rivojlanishi xotiraning mustahkamlanishiga yordam beradi;
- xotirada yaxshi saqlash uchun ma'lumotlarni uyqudan oldin qaytarish tavsiya etiladi. Shunda u xotirada yaxshi saqlanadi. Chunki boshqa ma'lumotlar ularni siqib chiqara olmaydi.

Verbal ma'lumotlarga vizual ko'rinish berish ta'limning samaradorligini bir necha marta oshiradi. Shu nuqtayi nazardan "Intellekt xarita" "ijodiy fikrlash" ga o'rgatishning ideal vositasidir.

"Intellekt xarita" jarayonlarni vizuallashtirishga ehtiyoj katta bo'lgan fizika, kimyo, biologiya fanlari va xorijiy tillarni o'rganishning sermahsul qurolidir. U yangi chet tili so'zlarini o'rganishning eng zo'r usuli hisoblanadi. Chunki "intellekt xarita" "inson tilining" mahsuli bo'lib kishi intuitiv darajada tillarning bo'linishini (o'ziniki va chet tili) inkor etadi. Shuning uchun ham «intellekt xarita» yordamida xorijiy tilni o'rganish yaxshi natija beradi.[2,3]

"Intellekt xarita"dan foydalanish nafaqat xorijiy tillarni o'rganishga yordam bermasdan 5-6 yoshli bolalarda "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Sperry Rodjerning "bosh miya yarimsharlarining mutaxassisliklarga aloqadorlik kashfiyotiga" asosan intuitsiya, tasavvur va "ijodiy fikrlash" bosh miya o'ng yarimsharining mahsulidir.[4;]

Bosh miyaning o'ng yarimsharini faollashtirish, har ikkala yarimsharlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish va "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish, miya faoliyati unumdorligini oshirishga imkon beradi. Bosh miya po'stlog'i har ikkala yarimsharlarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydi. Chap va o'ng yarimsharlarning birgalikdagi faoliyatiga, ya'ni miya yarimsharlarining birgalikdagi fikrlashiga -"To'la fikrlash" deyiladi. [5;]

«Intellekt xarita» o'quvchilarning "tasavvur" qilish va "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarining rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Uni tuzish yangi g'oyalarning tug'ilishi, diqqatning jamlanishi va "To'la fikrlash"ni rivojlantirish imkonini beradi.

### **Natijalar. "Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni intellekt xaritasi".**


Modomiki, materiyaning harakati makon va zamonda ro'y berar ekan, bu universal qonunlar ham makon va zamonga tayangan, ya'ni ularning biror xossasiga asoslangan bo'lmog'i kerak. Bu xossalar: makonning, ya'ni fazoning bir jinsliliigi va izotropligi, zamonning, ya'ni vaqtning esa bir jinsliliigidir. Bu fikrni fanga kiritgan E. Netter vaqtini hisoblash, kordinata sistemasini ko'chirish va burash fizik jarayonning xossalariga ta'sir qilmaydi, sistemaning har bir simmetriyasiga ma'lum saqlanish qonuni mos keladi deb hisoblagan.

**Vaqtning bir jinsliliği.** Vaqtning bir jinsliliği deyilganda uning har bir onining teng kuchliliği tushuniladi. Boshqacha aytganda, fizik jarayonning ro‘y berishi tajribaning qachon boshlanishiga (ertalab soat sakkizdami yoki kechqurun soat o‘ndami) mutlaqo bog‘liq emas. Energiyaning saqlanish qonuni vaqtning bir jinsliliğining natijasidir.

**Energiya — turli shakldagi harakatlar va o‘zaro ta’sirlarning miqdoriy o‘lchovidir** (u yunoncha energie — ta’sir so‘zidan olingan). Materiya harakatining shakliga qarab, energiya ham turlicha bo‘ladi. Masalan, mexanik, issiqlik, elektromagnit, yadro energiyalari va hokazolar. O‘zaro ta’sir natijasida bir turdagi energiya boshqasiga aylanadi. Lekin bu jarayonlarning barchasida, birinchi jismdan ikkinchisiga berilgan energiya (qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar) ikkinchi jism birinchisidan olgan energiyaga teng bo‘ladi [6;].

**Tabiatda energiyaning saqlanish qonuni bajariladimi?** O‘tkazilgan ko‘plab tajribalar, nazariy xulosalar tabiatda energiyaning saqlanish qonunini qat’iy bajarilishini ko‘rsatadi. Faqatgina tabiatda energiyaning bir turdan boshqasiga (masalan, mexanik energiyadan issiqlik energiyasiga) aylanishi ro‘y beradi. Shuning uchun ham bu qonunga energiyaning saqlanish va aylanish qonuni ham deyiladi. U tabiatning asosiy qonunlaridan bo‘lib, nafaqat makroskopik, balki mikrojismlar sistemasi uchun ham o‘rinlidir. Shunday qilib, energiya hech qachon yo‘qolmaydi ham, yo‘qdan paydo ham bo‘lmaydi. U faqat bir turdan boshqasiga aylanishi mumkin. Yopiq sistemada to‘la energiya saqlanadi.

Hali tabiatda energiyaning saqlanish qonuni bajarilmagan jarayon ma’lum emas. Energiyaning saqlanish qonuni neytrino  $\nu$  ning kashf qilinishiga yordam berdi. Energiyaning saqlanish qonuni R.Mayer, G.Gelmgols, Dj.Djoul ochishgan.  $E=mc^2$  ifodadan ko‘rinib turibdiki, massa va energiya bir-birlari bilan chambarchas bog‘langan va yorug‘lik tezligi  $c=1$  bo‘lgan sistemada ular teng. Bu esa o‘z navbatida massaning xalqaro birliklar sistemasi (SI) dagi birligi kilogramning (kg) Plank doimiysi orqali ifodalanishini eng maqbul variant ekanligini ko‘rsatadi.[7;]



Shu bilan birga, energiya bir turdan ikkinchi turga aylanadi. Masalan elektr energiyasi – issiqlik energiyasi, yorug‘lik energiyasi, tovush energiyasi, mexanik energiya va hokazolarga aylanadi.[8;]

Yadro energiyasi – yadroda nuklonlarning joylashuviga bog‘liq energiya.

Yadro portlaganda energiya o‘z shaklini o‘zgartiradi va yadro ichida mujassamlashgan energiya – parchalarning kinetik energiyasiga, elektromagnit maydon energiyasiga, jumladan, yorug‘lik energiyasiga aylanadi. Lekin umumiy massa ( $mc^2$  dagi massa) o‘zgarmaydi.

Chunki massa materiya emas uning xarakteristikalaridan biridir. [9; 10-b]

Yonish va portlashdagi kimyoviy energiya atomlardagi elektronlar qobiqlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Kimyoviy energiya-atomlarning bir-birlariga tortishish energiyasi va elektronlarning protonlarga tortilish energiyalarining yig‘indisiga teng. [11;]

Ushbu intellekt xaritada tabiatda energiyaning aylanish jarayoni ko‘rsatilgan. U o‘quvchida bu turli-tuman jarayonlarning tasavvur qilishiga va uning kundalik hayotimizda, texnikada ro‘y berishi haqida tasavvurlar shakllanishiga xizmat qilib, «tasavvur» va «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.[12;]

- Odam obyektiv olam haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni sezgilari orqali oladi. Bu ma‘lumotlar bir necha xususiyatlariga ko‘ra yaxlit holga keltiradi. Bunga ma‘lumotlarni idrok qilish deyiladi.

Verbal ma‘lumotlarga vizual ko‘rinish berish ta‘limning samaradorligini bir necha marta oshiradi. Shuning uchun ham bunday vazifani o‘tovchi vosita “Intellekt xarita” “ijodiy fikrlash”ni o‘rgatuvchi ideal vosita hisoblanadi.

“Intellekt xarita” bosh miya yarimsharlarining har ikkala yarim sharlarini ham faollashtirib “to‘la fikrlash” jarayonining amalga oshirishini ta‘minlaydi. «Energiyaning saqlash va aylanish qonuni» intellekt xaritasi bu qonunga aloqador barcha verbal ma‘lumotlarni vizuallashtirishga va ularni bir joyga jamlashga imkon beradi. Keltirilgan intellekt xarita na faqat fizik jarayonlarni tushunishga imkon berib qolmasdan u o‘quvchilarning “tasavvur”larini yaxshilash, “ijodiy fikrlash” va “to‘la fikrlash” ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga imkon beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Фарберман Б. Педагогические технологии. Тошкент «ФАН» Академи наук Узбекистан. 84 стр. 2000 г.
2. G‘aniyev A.G., Ganieva Sh.A., Abdunazarova Z.Sh. Formation of "creative thinking" skills in 5-6-year-old children with the help of mind maps a Multidisciplinary Peer Reviewed Journal Researchfor Revolution ISSN No-2581 – 4230 Impact Factor-7.223 2020.

3. Ganiyev A.G. and other. Using Mind Maps in Formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year old children. European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume7 Issue 11 2020 (339-343 p).
4. Эдвардс Б. Откройте в себе художника. М. Попурри. 2017 г.
5. Зденек М. Развитие правого полушария. Издательство Поп., 2004 г.
6. G'aniyev A.G. va boshqalar. Fizika 10.T. «Niso Poligraf» 2017-y. 170-bet.
7. G'aniyev A.G. Normurodova S. Kilogramning Plank doimiysi yordamida aniqlanishi haqida. N. Kasb-hunar ta'limi/ № 2019. 72-75-betlar.
8. Платунов Е. и др. физика. Словарь справочник. ПИТЕР.2005 г.
9. Барашенников В.С. Кварки, протоны, вселенная М. «Знание» 1987 (с 10).
10. Бальва О.П. Справочник школьника. Физика 5-11 классы. М. Ees.Edu. 2008 г.(84-86 стр)
11. Фейнман Р. и др. Фейнмановские лекции по Физике. М. «МИР» 1977 г. (стр 72-75)
12. G'aniyev A.G., Abdunazarova Z.Sh. Biophysics of brain activity. Brain activity in the developement of “Creative thinking” “Mind map”. Turkish Journal of Compyuter and mathematics education, April 2021, Volume 12, N 4 ISSN 1309-4653, pages 1-6.

## **О‘QUVCHILARDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI IJTIMOIY XULQ-ATVORDA NAMOYON BO‘LISH MEZONLARINING O‘RGANILISHI**

**Abdurahmonova Z.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti  
vazifasini bajaruvchi, PhD**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanogen tafakkur muammosining shaxs ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlarning muhim ahamiyati, mamlakatimiz psixolog olimlari qarashlari, tajribasi, o‘quvchilarda sanogen tafakkur rivojlanishida ta’sir etuvchi omillarning ijtimoiy faoliyatda namoyon bo‘lish hamda patogen tafakkurning ijtimoiy-psixologik jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tafakkur, sanogen tafakkur, shaxs, o‘quvchi, ma’naviy axloqiy qadriyat, ma’naviyat, moddiy, estetik, sog‘lom fikr, fazilat, xususiyat.

## **ИЗУЧЕНИЕ КРИТЕРИЕВ САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЦИАЛЬНОМ ПОВЕДЕНИИ У СТУДЕНТОВ**



**Абдурахманова З.А. – и.о доцент Ташкентского государственного педагогического университета, PhD**

**Аннотация.** В данной статье проблема саногенного мышления заключается в важности социальных привычек в регулировании и управлении социальным поведением личности, взглядах и опыте психологов нашей страны, проявлении факторов, влияющих на развитие саногенного мышления у школьников и социологов – психологические аспекты патогенного мышления освещены.

**Ключевые слова:** мышление, саногенного мышление, личность, читатель, духовно-нравственная ценность, духовность, материальный, эстетический, здравый смысл, качество, особенность..

## **STUDYING THE CRITERIA OF SANOGENIC THINKING IN SOCIAL BEHAVIOR IN STUDENTS**

**Abdurahmanova Z.A.- Acting Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University, PhD**

**Annotation.** In this article the problem of sanogenic thinking is the importance of social habits in the regulation and management of social behavior of the individual, the views and experience of psychologists of our country, the manifestation of factors influencing the development of sanogenic thinking in students and the socio-psychological aspects of pathogenic thinking illuminated.

**Key words:** thinking, sanogen thinking, personality, reader, spiritual moral value, spirituality, material, aesthetic, common sense, quality, feature .

Jahonda o'smir yoshdagi o'quvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishning kreativ, modulli texnologiyalari amaliyotga kiritilgan. Respublikamizda pozitiv, kreativ, mantiqiy, tarixiy, ma'naviy tafakkurlarni rivojlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, muloqotga intilish, bilishga intilish, o'zini-o'zi namoyon etish, irodalilik sifatleri, ehtiyojlar, motivlarni rivojlantirish masalalarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilgan. Ta'kidlash joizki, sanogen tafakkur – muloqotga intilish, bilishga intilish, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, o'zini-o'zi namoyon etish, shukronalik tuyg'ulari, irodalilik sifatleri, ehtiyojlar, motivlar majmuidan iborat bo'lgani bois, u o'quvchilarni o'quv faoliyati davomida aqliy, anglanilgan muloqot jarayoniga o'tishga undaydi. Bizga o'z mustaqil pozitsiyasiga ega kommunikativ, shu jumladan, fuqarolik jamiyatini barpo etishda o'z hissasini qo'shuvchi kreativ va



pozitiv fikrlovchi zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish imkonini beradi.

Professor V.Karimovanning o‘z tadqiqotlarida ta’kidlashicha yoshlarning ilmi, ma’rifatli, sog‘lom ruhiyatli bo‘lib voyaga yetishlarida jamiyatdagi, oiladagi sog‘lom psixologik muhit asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi [1;]. Undan tashqari ijtimoiy jamiyatda shaxslararo munosabatlarda muloqot masalasiga bevosita va bilvosita yondashish zarurligini o‘z ilmiy qarashlarida keng yoritib bergan.

Shaxs ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xulq namunalarining ko‘p marta takrorlanishi odat tusiga kiradi. Shaxs ijtimoiy xulqi, odobini tartibga solishda sanogen tafakkurni rivojlantirish bilan birgalikda milliy urf-odatlarining ham xizmati katta bo‘lib, ular ongni ortiqcha zo‘riqishdan holi qiladi va kishilardagi istak va maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Tashqi stimullar hisoblangan milliy urf-odatlar, an’analar ijtimoiy xulqni barqarorlashtiradi, barkamol shaxs qiyofani shakllantirishga asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsning axloqiy normalari, albatta, muayyan oila muhitida tarkib topadi.

Sanogen tafakkurga ega bo‘lgan o‘quvchi yoshlarni shakllantirishda jamiyatimizning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarining tutgan o‘rni beqiyosdir. Bunda, ayniqsa, axloqiy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o‘zlikni anglash, ong-tafakkur, yangicha dunyoqarash, ruhiy teranlik, aqliy yetuklik, axloqiy mukammallik ma’naviyatning o‘zagi va intellektual salohiyatning asosiy tamoyiliga aylanmoqda. Insonning axloqiy yetukligi, kamoloti jamiyatni ma’naviy-ruhiy va axloqiy sog‘lomlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz juda boy axloqiy qadriyatlarga ega. Bu qadriyatlar har bir fuqaro, ayniqsa, barkamol avlod uchun oila, ibrat maktabidir. Ko‘pgina psixologik adabiyotlarda «ma’naviylik» tushunchasi tahlil qilinganda, mas’uliyatlilik, xushmuomalalik va jamoaviylik kabi kategoriyalarga alohida urg‘u beriladi. Sababi, aynan bu fenomenlar yetuklik darajasiga yetgan shaxsgagina xos bo‘lib, ijtimoiylashuvning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy funksiyasi - oldindan oqibat sabablarini ko‘ra bilish asosida xulq-atvor muomala va faoliyatni muvaffaqiyatli boshqarishdir.

Masalan, o‘zbek xalqiga xos shunday axloqiy qadriyatlar mavjudki, ularning nomi ham, mazmun-mohiyati ham boshqa millatlar ma’naviyatida hamisha ham mavjud bo‘lavermaydi. O‘zbek xalqiga xos axloqiy fazilatlar: mehr-oqibat, mehr-shafqat, qadr-qimmat, muruvvat, himmat, oriyat, iffat, ibo, tavoze, mulozamat, nazokat, halimlik, hushfe’llik, latofat, dahldorlik, qanoat, diyonat, insof, oilaparvarlik, qaramlilik kabilarni axloqiy qadriyat sifatida ifodalash mumkin.

V.Karimovanning ilmiy qarashlariga ko‘ra “Bola o‘smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta’qib qilavermaslikni da’vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro‘si, kerakligi darajasi pastlay boshlaydi.

Bu davrga kelib ota ham ona ham o'zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo'lishga intilishlar paydo bo'ladi [2;].

Yoshlarning mikro va makro muhitga nisbatan ijtimoiy-psixologik jihatdan moslasha olmasliklari ularning yot g'oyalar va guruhlar ta'siriga tushishi ehtimolini oshirishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida nafaqat insonning bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirishga, balki undagi assertivlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ham e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda tanqidiy tafakkur, refleksiya va assertivlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, psixologik manipulyatsiya va uning ta'sirini bartaraf etish vosita va usullarini tadqiq etish, yoshlarda zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish, hozirgi davrda ahamiyat berilishi zarur bo'lgan muhim vazifalardandir.

O'zbek psixolog olimi B.Umarov tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida yoshlar tirbiyasida ijtimoiy muhit hamda oilaviy tarbiyaning o'rnini ilmiy jihatdan o'rgandi va tahlil qilgan. Bugungi kunda jamiyatda turli jinoyatlarni sodir etayotgan, voyaga yetmagan yoshlarning xulqini motivatsion aspektlarini ilmiy jihatdan yoritib bergan. Olimning olib borgan tadqiqotlari natijasida ilmiy qarashlariga ko'ra, oilaning ma'naviy va axloqiy ta'sirchanlik va o'rnak ko'rsatish darajasining tushib ketishi ham yoshlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lar ekan [3;].

Professor V.Karimova ijtimoiy muhitdagi nosog'lom muhit kishi ongi va xulqida turli og'ishishlarni keltirib chiqaradi. Shaxsni manipulyativ tarzda boshqarishda avvalo, ong faoliyatining o'rnini, mexanizm va qonuniyatlarini nazariy va amaliy talqin qilib, so'ng antimanipulyativ xulqni shakllantirish, yoshlarda sanogen tafakkurni rivojlantirish ijtimoiy zarur vazifa hisoblanadi. Bu esa, mamlakatimizning ertangi kuni - ma'naviy-madaniy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash va faoliyatga kirishish qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos, "...kasb-kor mahoratini o'zida mujassam etgan, g'ururi baland, iymoni butun, irodasi baquvvat, chinakam vatanparvar, insofli va oriyatli insonlar qo'lida deb aytsak, aslo mubolag'a bo'lmas" – deb ta'kidlagan[2;].

Umumiy o'rta ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchida shakllanishi lozim bo'lgan unsurlar: o'ziga ishonch, xavfsizlik hissi, mag'lubiyatga dosh berish istagi va boshqa psixik holatlarni o'rgandik (1-jadvalga qarang).

### **1-jadval.**

#### **Umumiy o'rta ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchida shakllanishi lozim bo'lgan sanogen tafakkur unsurlari**

	<b>O‘quvchi shaxsi Yosh davrlari</b>	<b>Sanogen tafakkur</b>	<b>Patogen tafakkur</b>
	10-11 yoshli o‘smirlar	o‘ziga ishonch	Maqtanchoqlik, yolg‘onchilik
	11-12 yoshli o‘smirlar	xavfsizlik hissi	Pessimistik fikrlarning paydo bo‘lishi
	12-13 yoshli o‘smirlar	mag‘lubiyatga dosh berish istagi(iroda)	Jizzakilik, hasad, qo‘rqoqlik
	13-14 yoshli o‘smirlar	Tartiblilik, muloqatmandlik, boshqa psixik holatlar	o‘z imkoniyatlarini ortiqcha o‘lchash, vijdotsizlik

Jadvaldan ko‘rib turganimizdek, tafakkur insonning aqliy va jismoniy faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. O‘smir yoshidagi o‘quvchilar ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, o‘zlari sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqiqiyliги yoki ularning voqelikka mos tushishini aniqlaydi. Ta’lim jarayonida o‘smirlarda tanqidiy tafakkur, refleksiyanı rivojlantirishga e’tibor berilishi, psixologik manipulyatsiya va uning ta’sirini bartaraf etish vosita va usullariga batafsil to‘xtalish lozim. Chunki, o‘smirlarga psixik ta’sir ko‘rsatish holatlari ham mavjud bo‘lib, ularga “.. ma’lum maqsadni ko‘zlab, boshqa insonning hissiy holati, xulq-atvori, ongi, tafakkurini o‘zgartirish singari g‘arazli niyatda amalga oshiriladigan manipulyativ ta’sir aholiga katta xavf tug‘diradi” [4;]. Shuning uchun o‘smirlarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish ijtimoiy zarur hisoblanadi.

Fikrimizcha, oilaviy munosabatlarda ota-onalar o‘smir shaxsining sog‘lom tafakkurli qilib voyaga yetkazishlarida uning dunyoqarashi, e’tiqodi, ongi, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadigan, informatsion-psixologik vositalarni o‘rganishlari lozim. Oilaviy munosabatlar, tashqi muhit va o‘smir shaxsining ichki dunyosi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning xulq-atvori xarakterini belgilovchi asosiy omildir.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda ota-onalar bilan o‘tkaziladigan trening mashg‘ulotlarida quyidagilarga ahamiyat qaratildi:

1. Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va uning bola shaxsi rivojlanishidagi ahamiyati.
2. Er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot.
3. Ota-onalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish.
4. Farzandlar bilan muomala jarayonini qiyinlashtiruvchi ustanovkalar.

5. Farzand hayotidagi qiyinchilik va muammolar borasida ota-onalar bilan ish olib borish.

6. Ota-onaning farzandiga nisbatan pozitsiyasi, munosabatini korreksiyalash va h.k.

Ota-onaning farzand tarbiyasiga mas'ulligi borasida respondentlar fikri o'rganilganda, so'ralganlarning 90% bola tarbiyasiga ota-ona, 10% esa mahalla-maktab mas'ul, deb javob berishgan. Bu esa farzand tarbiyasiga birinchi navbatda ota-ona mas'ulligi, qolaversa jamoatchilik, ta'lim muassasalarining ham bu muhim ishdan chetda turishi mumkin emasligi xususida samarali tushuntirish, targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi zaruriyatini ko'rsatadi.

Oiladagi tarbiyaviy jabhalarning saviyasi uning tuzilishiga, oiladagi farzandlar soniga, ikki yoki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onaning mavjudligi yoki ulardan birortasining yo'qligi, har ikki jinsdagi (o'g'il-qiz) bolalarining borligiga, ota-onalarning ma'lumot saviyasiga, oila a'zolarining ijtimoiy ahvoriga, bolalar tarbiyasi bo'yicha o'z burchlarini his etishlari, er va xotinning tarbiyaga munosabati kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda oila tuzilishining milliy o'ziga xosligi va milliy an'analardan foydalanish darajasini hisobga olish lozim.

Shaxsning psixologik salomatligi, himoyasi murakkab, ko'p darajali ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual-shaxsiy mexanizmlarning mavjudligida namoyon bo'lib, shaxs psixologik himoyasining shakllanishi, faoliyatining ba'zi yo'nalishlari va asosiy darajalari tadqiqi o'z navbatida uning tizim sifatida xarakterini tasavvur qilishga imkon beradi.

V.Frankl uzoq vaqt izlanishlari va kuzatishlaridan kelib chiqib sanogen tafakkurni namoyon etuvchi ba'zi xususiyatlarni izohlagan: "O'z-o'zini kuzata olish, xafagarchilik holatidan chiqib olish, tushkunlik holatlarida rasm chizish, musiqa tinglash, maktub yozish, raqsga tushish kabi harakatlar bilan shug'ullanishini kuzatish mumkin. Shunisi e'tiborga loyiqki, yumorga moyilligi bilan ham namoyon bo'ladi" [5;].

Patogen tafakkur ostida fikrlovchilar ko'proq o'tmish xotiralarni eslashga moyil bo'lishadi, ular kamdan-kam hollarda bugungi kun bilan yashaydi, o'tmishdagi xatolar, baxtsizliklar, ko'ngil voqealarni eslab doimo afsus nadomatda yurishadi. O'zlarining xatti-harakatlari, xatolari uchun o'zgalarni ham aybdor hisoblaydi.

Shaxs ongining chetdan boshqarilishi va axboriy ta'sirning yemiruvchi oqibati, ta'siriga nisbatan immunitetni shakllantirishda, psixologik qaramlik, insonning manipulyatsiya etilishi, ongning nazorat qilinishi profilaktikasida eng asosiy e'tibor tanqidiy tafakkur va refleksiyaning rivojlantirish, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda omillari: tafakkur xususiyatlarini o‘stirish, o‘quv jarayoniga nisbatan bilish jarayonlarini mustahkamlash va shaxsning tafakkur xususiyatlari bilan bog‘liq ko‘nikma-malakalarni, emotsional bilimdonlikni shakllantirish, oilada ma‘naviy sog‘lom muhitni yaratish, bolaga uning shaxsi shakllanishiga yordam berish omili, bolani yoshligidan o‘qib o‘rganishga odatlantirish omili; yoshlikdan halollik, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik fazilatlarini, inson qadr-qiymati, vafo, sadoqat, sabr-qanoat, shukronalik tuyg‘ularini shakllantirish omili; oilaviy munosabatlardagi ta‘lim-tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi; jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy tartib-qoidalarga rioya qilish, empatiya, ta‘lim muassasalarida kuchli bilimlarning berilganligi va ustoz-shogird tizimining ratsional ravishda kechishi kabi omillarga e‘tiborni qaratish lozimligi, komponentlaridan: refleksiv, regulyativ, maqsadga yo‘nalganlik, muvaffaqiyat motivi, sanogen tafakkur darajasi, ijtimoiy fikr, tobelik, mustaqil, kirishimli va kurashuvchan, hayot mazmunini anglash, ijtimoiy sharoit kabilarni rivojlantirish, mezonlaridan: shaxsning anglangan faoliyati, hissiy iroda, hissiyotlarini nazorat qilishi, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, bilim ko‘nikma egallash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xulq-atvor, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, muloqotmandlik, jamoaviylik psixologiyasi, insoniy munosabatlar va ijtimoiy qoidalarni va ehtiyojlarni anglash, to‘g‘ri xulosa chiqarishga bog‘liq mavjud ijtimoiy xulqni boshqarish mezonlari o‘rganildi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash mumkinki, o‘smirlar tarbiyasida ota-onalar, o‘qituvchilar, ijtimoiy institutlar shaxsning insonparvarlik xususiyatlari, axborot iste‘moli madaniyatini shakllantirish bilan birga, xulq-atvoriga e‘tibor berilishi, tashqi ta‘sirlarga berilish ehtimolini o‘rganishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘smirlar tarbiyasida ota-onalar, o‘qituvchilar, ijtimoiy institutlar shaxsning insonparvarlik xususiyatlari, axborot iste‘moli madaniyatini shakllantirish bilan birga, xulq-atvoriga e‘tibor berilishi, tashqi ta‘sirlarga berilish ehtimolini o‘rganishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Karimova V.M. Yoshlarda o‘zbek oilasi to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar: Psix.f.d. dis. – T.: ToshDU, 1994. – B.309.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanmasi. - T.. 2006. – B.142.
3. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy–psixologik muammolari: Psix.f.d. dis.- T.:TDPU 2009. 2013. – B.125-128.
4. Alimbaeva Sh. “O‘smirlar o‘quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” nom. Dis. T.: 2012,- B.149.
5. Франкл В. Человек в поисках смысла. М.: Прогресс, 1990. – 336 с.

## ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ СЕМЬЯМ

**Акрамова Ф. А.** – доцент Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В статье приведены основные социально-психологические постулаты функций семей, типология социального риска семьи, необходимость проведения психологической службы с учетом знаний и навыков о семье и, в первую очередь, её типологии, даны необходимые рекомендации.

**Ключевые слова:** семья, функции семьи, правовые основы семьи, семейное воспитание, типы семьи, психологическая служба семье, психологическая консультация семье.

## OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT O‘TKAZISHNING ASOSIY MUAMMOLARI

**Akramova F.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Maqolada oila funksiyalarining asosiy ijtimoiy-psixologik postulatlarini, oilaning ijtimoiy xavfliligi tipologiyasi, oila va birinchi navbatda uning bilimlari, ko‘nikmalarini hisobga olgan holda psixologik xizmatni o‘tkazish zarurati keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila, oilaning vazifalari, oilaning huquqiy asoslari, oilaviy ta’lim, oila turlari, oilaga psixologik xizmat, oilaga psixologik maslahat.

## MAIN PROBLEMS OF CONDUCTING PSYCHOLOGICAL SERVICE FOR FAMILIES

**Akramova F.A. - associate professor of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article presents the main socio-psychological postulates of the functions of families, the typology of the social risk of the family, the need to conduct a psychological service, taking into account the knowledge and skills about the family and, first of all, its typology, and the necessary recommendations are given.

**Key words:** family education, types of family, psychological service to the family, psychological counseling to the family.



В человеческом обществе семья является естественной первичной ячейкой, важнейшей социальной ценностью и огромным богатством страны. Роль семьи в жизни человека настолько важна, что она справедливо рассматривается как основа любого общества. Ведь семья представляет собой особую сферу социальной жизни, где происходит зарождение, становление и формирование человека, которому предстоит жить в обществе и стать гражданином государства. Семья оказывает большое воздействие на социальное, духовное развитие общества, а также на психологию формирования семейно-брачных отношений населения [5;].

Положение семьи, уровень её благополучия и стабильности являются важнейшими социальными индикаторами, определяющими жизнестойкость нации, общества и государства [4;].

Правовые основы семьи определены в Конституции и Семейном кодексе Республики Узбекистан. Регулирование семейных отношений в Узбекистане осуществляется на основе принципа добровольности брачного союза мужчины и женщины [1;].

Семья – это малая ячейка общества, очаг раннего воспитания, основное богатство и опора могущества Родины. От того, какое воспитание получит человек в семье, какие нравственные убеждения он приобретёт, насколько благоприятными окажутся условия для развития личности в семье, зависит состояние общества. Семья – это своеобразное общественное учреждение, где интересы неразрывно связаны с интересами общества [4;]. Также семью можно представить как единый организм, в котором все жизненные процессы взаимосвязаны и взаимообусловлены. Когда семья полна жизненных сил, наполнена радостью, открыта будущему, то каждому человеку, вписанному в этот организм, словно живая клеточка живётся легко и свободно, ему хватает тепла и света, он чувствует себя безопасно и уверенно смотрит в завтрашний день.

Семьей также называется “социальный институт, то есть устойчивая форма взаимоотношений между людьми, в рамках которого осуществляется основная часть повседневной жизни людей: сексуальные отношения, деторождение и первичная социализация детей, значительная часть бытового ухода, образовательного и медицинского обслуживания, особенно по отношению к детям и лицам пожилого возраста” [2;].

Семья - своеобразная система поддержки прав каждого ее члена. Для выполнения этих функций большое значение имеют семейные и родственные связи, взаимодействие семейных групп. Семья обеспечивает своим членам психологическую, социальную, экономическую и физическую безопасность;

заботу о малолетних, престарелых и больных; условия для социализации детей и молодежи.

Задачи семьи – воспроизводство населения, накопление и передача опыта трудовой деятельности родителей детям, определенные формы и способы удовлетворения первичных (естественных) и вторичных (социальных) потребностей, воспитание определенных нравственных норм поведения, формирование конкретных психологических отношений [3;].

К основным функциям семьи относятся: поддержание биологической непрерывности благодаря рождению детей и обеспечению биологического существования (пищи, жилища, одежды); создание культурной непрерывности, передача новому поколению своего наследия. Материальное состояние, образование родителей во многом определяют будущую карьеру детей; создание эмоционального комфорта и безопасности для своих членов, таким образом, предотвращают дезинтеграцию личности.

В разные периоды жизни семьи изменяется иерархия семейных функций: то одна, то другая занимает приоритетное место. Так, для молодой семьи наиболее важной является биологическая функция, тогда как для пожилой важнее эмоциональная. В своем единстве перечисленные функции представляют систему семейных отношений, возникновение в этой системе дисфункции, т.е. рассогласования в их взаимодействии как целого, приводит систему в аномальное состояние. Игнорирование, а порой и полный отказ семьи по тем или иным причинам от выполнения какой-либо функции дестабилизирует семейный образ жизни, возникает угроза ее распада. Семьи, социальное функционирование которых по субъективным или объективным причинам затруднено, характеризуются как семьи социального риска.

Существует также типология социального риска, т.е. выделение семей, где по объективным или субъективным условиям социальное функционирование затруднено, и они практически неизбежно находятся в состоянии жизненного затруднения. В настоящее время социальная защита семьи, в отличие от действующей прежде системы социального обеспечения, представляет собой многогранную деятельность, дифференцированную по отношению к различным группам населения и структурированную по разным министерствам и ведомствам, общественным организациям и учреждениям.

К сожалению, в условиях глобализации возникают проблемы в семье. Это изначально отразилось в семейном воспитании: расширились источники культурной и познавательной информации, влияющие на формирование мировоззрения людей; участие родителей в воспитательном процессе снизилось, особенно влияние внешних факторов негативно отразилось в жизни семей. Следует отметить, что характер и стиль воспитания в семье резко меняются в

случаях развода родителей. Дети крайне болезненно воспринимают разлуку и нарушение контактов с одним из родителей. Развод нарушает прежние привычные отношения с родителями, ставит перед ребенком непосильные для его возраста задачу выбора новых отношений с разведенными родителями, особенно трудный в случае повторного брака одного из них. В случаях развода родителей у детей появляются чувства одиночества, неприкаянности, ощущения своей неполноценности и второсортности. Исходя из этого, необходимо проводить психологическую службу семье. Одним из видов психологической службы является психологическая консультация. При проведении психологической консультации необходимо наличие знаний и навыков работы с семьями, в первую очередь, знание их классификации. Семьи подразделяются на следующие типы:

1. Полные, неполные и реорганизованные (второй брак) семьи – по признаку полноты.
2. Нуклеарные (родитель и ребенок) и многопоколенные семьи (два или более поколений живут вместе) – по количеству поколений проживающих в семье.
3. Семьи без детей, семьи с одним и двумя детьми, семьи с более детей - по количеству детей в семье.
4. Семья рабочих, служащих, предпринимателей, фермеров и т.д. - по социальному происхождению.
5. По региональному признаку: городская, сельская, смешанная.
6. По уровню удовлетворенности браком: с низким уровнем удовлетворенности браком, с высоким уровнем удовлетворенности браком.
7. По стилю управления семьи - авторитарная, демократическая, либеральная и семья смешанного типа.
8. По национальной принадлежности: интернациональные, семьи одной национальности [5;].

В современных условиях вышеуказанные все типы семьи нуждаются в оказании психологической помощи.

Психологическое консультирование, психологическая поддержка семье предъявляет к консультанту определенные требования, без следования которым работа не может быть успешной. Прежде всего он несет ответственность перед семьей, перед клиентом, который находится в системе разнообразных отношений, поэтому консультант ответственен и перед членами семьи клиента, перед организацией, в которой работает, и наконец, перед своей профессией. Такая ответственность обуславливает особую важность проведения психологического консультирования, психологической помощи. Надо отметить, учитывая эту особенность, что в настоящее время во всех странах

уделяется внимание профессиональной этике консультанта-психолога, особенно семейного психолога [4;].

Однако семейному психологу проводить психологическую консультацию не так просто, т.к. существуют некоторые объективные причины:

1. Трудно соблюдать стандарты установленного поведения в семейной консультации, т.к. каждый объект консультации индивидуален.

2. Большинство консультантов практикуются в определенных учреждениях (клиниках, центрах, школах, частных службах и пр.). Но в случае психологической консультации семье психолог-консультант оказывается перед сложным выбором.

3. Семейный психолог-консультант нередко попадает в противоречивые ситуации, когда, придерживаясь требований одной нормы, он нарушает другую [4;].

Например, в работе с клиентами, имеющими суицидные намерения, в семейном разводе и других негативных ситуациях трудно полностью придерживаться определенных принципов. Если стараться обеспечить безопасность клиента, то трудно не нарушить его автономию, право на свободное самоопределение, а следовательно, не посягнуть на его личностное достоинство и ценности. С другой стороны, если ничего не делать и охранять автономию клиента, возникнет угроза его благополучию и даже жизни.

Можно сформулировать следующие основные проблемы в ведении семейной консультации психолога: неправильное применение психологических знаний, влияние личных проблем на профессиональную деятельность, отношения с клиентами, использование полученной информации в ходе профессиональной деятельности, осуществление консультации с клиентами, рекомендованные другим психологом, стремление давать советы по шаблону, не учитывая особенность взаимоотношений и типа семьи.

### **Литература**

1. Конституция Республики Узбекистан. Т. 2013 г.3-раз, глава XIV, -65 с.
2. Андреева Т.В. Психология современной семьи. - СПб.:Р., 2005.- 436 с.
3. Дружинина В.Н. Психология семьи. – 3-е изд. – СПб.: П., 2006. 176 с.
4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - М.: Гардарики, 2008. - 320 с.
5. Психология семейных отношений: конспект лекций //Сост. С.А.Великова. – М.: АСТ; - СПб.: Сова, 2005. – 127 с.
6. Шнейдер Л.Б. Психология семейных отношений: курс лекций. - М.: Апрель-Пресс. Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000. – 512 с.

**BOLADA AGRESSIV XULQNING SHAKLLANISHIDA OILADAGI  
MUNOSABATLAR TIZIMINING TA’SIRI**

**Alimova G.K. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti  
vazifasini bajaruvchi**

**Annotatsiya.** Odatda agressiv bolalar ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarda yaqinlik bo‘lmagan, bola taraqqiyoti bilan unchalik qiziqmaydigan, oilaviy munosabatlarda mehr va muhabbat yetishmaydigan, bolalarning agressiv reaksiyalariga bee’tibor yoki umuman bu holatni me’yorda deb qabul qiladigan, tarbiyaviy ta’sirda g’amxo‘rlik qilish va sabr bilan tushuntirish ishlarini olib borishdan ko‘ra jismoniy, qattiqqo‘llik bilan jazo berish usulini ma’qul ko‘ruvchi oilalarda voyaga yetadilar.

**Kalit so‘zlar:** agressiya, agressivlik, axloqiy dunyoqarash, o‘quvchi yoshlar.

**ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ  
АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ**

**Алимова Г.К. - и.о. доцента Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** Агрессивные дети, как правило, вырастают в семьях, где дистанция между детьми и родителями огромна, где мало интересуются развитием детей, где не хватает тепла и ласки, отношение к проявлениям детской агрессии безразличной или снисходительной, где в качестве дисциплинарных воздействий место заботы и терпеливого объяснения предпочитают силовые методы, особенно физические наказания.

**Ключевые слова:** агрессия, агрессивность, нравственное мировоззрение, школьник.

**THE EFFECT OF THE FAMILY RELATIONSHIP ON THE FORMATION  
OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN**

**Alimova G.K.- Acting Associate Professor of Tashkent State Pedagogical  
University**

**Annotation.** Aggressive children, as a rule, grow up in families where the distance between children and parents is huge, where they are little interested in the development of children, where there is not enough warmth and affection, an attitude to manifestations of child aggression is indifferent or condescending, where as

disciplinary influences there is a place of care and patient explanation prefer forceful methods, especially physical punishment.

**Key words:** aggressive, aggression, moral worldview, pupil.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti shu jamiyatdagi sogʻlom oila muhitiga bogʻliqdir. Sogʻlom oila muhitida sogʻlom avlodlar tarbiyalanadi va kamol topadi. Maʼlumki dunyoga kelgan goʻdakning ijtimoiylashuvi, dastavval oilada amalga oshadi. Aynan shu maskan quchogʻida bola ijtimoiy muhitga moslashib, ijtimoiy meʼyorlar va qadriyatlarni oʻzlashtiradi. Shular asosida ijtimoiy hayotga kirib boradi. Farzand oilada kamol topar ekan, u oila aʼzolarining oʻzaro munosabatlaridan doimo ibrat oladi. Shular zaminida u boshqa kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini oʻrganib, farqlay boshlaydi va ular bilan munosabatga kirishishi, muloqatda boʻlishining usul va shakllarini oʻrganib boradi.

Afsuski, ayrim oilalarda oʻz ota-onasining mehr-oqibatidan bebahra oʻsayotgan bolalar ham yoʻq emas. Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, achinarli holdir, albatta.

Aksariyat ota-onalar oʻz farzandlarini tarbiyaga chaqirishda gʻamxoʻrlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashishi oʻrniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan taʼsir oʻtkazadilar. Oʻz navbatida bu kabi xatti-harakatlar bolalarda agressiv xulq-atvorini shakllanishiga zamin boʻladi.

Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar soni ortib borayotganligi, psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab boʻldi. Bolalarda agressiv xatti-harakatlarni vujudga kelish murakkab va koʻp qirrali jarayon boʻlib, unga koʻpgina omillar oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Agressiv xatti-harakatlar-oila, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositasi taʼsirida aniqlanadi.

Bola agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib toʻplaydi [1;]:

1. Nosogʻlom oila muhiti. Bu kabi oilalarda ota-ona bilan farzand oʻrtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar oʻrtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikni mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorni shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon boʻlishi oilaviy muhitning taʼsir darajasiga bogʻliq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida oʻz tengqurlari bilan boʻlgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni oʻzlariga singdiradilar. Koʻpgina hollarda bolalar tengdosh doʻstlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, oʻzlarini agressiv boshqarishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar oʻz tengdoshlari orasidan siqib chiqariladilar. Bunday bolalar oʻzlarini hoʻrlangandek his



qilib, o‘zlari kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammoning ustiga yana muammo tug‘dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositasi. Bugungi kunda bolalarga ta’sir etayotgan eng kuchli quoldir. Bu borada internetning ta’siri kuchayib bormoqda. Bolalar internet aloqalari orqali o‘zlarining xususiyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shu o‘rinda oynayi jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, ko‘rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishiga ta’sir qilmoqda.

Bir qator psixologlarning ta’kidlashicha, oiladagi iqlim, ota-ona o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, ota-ona bilan bola o‘rtasidagi munosabat, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillari, aka-ukalari bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomonidan qilingan noto‘g‘ri, yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning ta’sirlanishi – oilada shakllanib kelayotgan bolaning agressiv xatti-harakatlarini belgilab beruvchi omillar bo‘lib hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda har yili uch mingdan besh minggacha bolalar o‘z ota-onalarining ularga nisbatan qaratilgan shavqatsiz munosabatlari natijasining qurboni bo‘lmoqdalar. Shu bilan bir qatorda 16% bolalar o‘z aka-opalari tomonidan jismoniy jazo usuli: ya’ni savalash, kaltaklash bilan jazolanmoqdalar. Aniqlanishicha, AQShda o‘gay ota-onalar 1 yilda 400 marta jinoyat sodir etadilar. Ular o‘z farzandlarini o‘lishiga sabab bo‘layotganliklari achinarli holdir.

Ma’lumki, oilaning to‘liqligi, noto‘liqligi yoki qayta tuzilganligi ham bolalardagi agressivlikni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardandir. Mashhur psixolog Gettingning “Oiladagi agressiv bolalarni o‘rganish” bo‘yicha olib borgan maxsus tadqiqotining natijalariga ko‘ra, noto‘liq oilalarda o‘ta qaxrli, qo‘pol, agressiv va shu bilan birga voyaga yetmagan jinoyatchilar kelib chiqayotganligini alohida ko‘rsatib, e’tirof etdi. Gettingning ta’kidlashicha to‘liq bo‘lgan oilalarda ham, noto‘liq oilalarda ham sog‘lom yoki nosog‘lom oilaviy muhit mavjud bo‘ladi [2;]. Oiladagi doimiy janjallar, mojarolar oilada nosog‘lom muhitni vujudga keltiruvchi bosh omillardir. Nosog‘lom oila muhitida asosiy e’tibor o‘zaro ziddiyatlarga qaratilganligi sababli ularda bola tarbiyasi ko‘pincha tahdid va jismoniy jazolashdan iborat bo‘ladi. Ruhan nosog‘lom oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar oiladagi doimiy ziddiyatlardan bezib ketib, ko‘pincha ko‘chaga chiqib ketadilar. Bevaqt ko‘chada yurgan bolalarning aksariyati bilmasdan sodir etilgan jinoyatlarning ishtirokchilari bo‘lib qolmoqda. Bunday holat ularning ruhiyatidagi buzilishlar ta’sirida yuz bermoqda.

Mak-Karti tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar orasidagi munosabat bolalarda hissiy tasavvurlarni shakllantiradi [3;]. Ota-onalarning bir-biriga bo‘lgan hurmatlari bola uchun o‘z-o‘zini hurmat qilishga, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga undaydi. Aksincha, ota-onalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar

bolalarda nerv-psixik buzilishlarga olib keladi. Agressivlik natijasida bolalarda asab tizimini buzilishi, nerv-psixik kasalliklar, o'z-o'zini boshqara olmaslik, xavotirlanish darajasining ortishi, ishonch hissini yo'qolishi, o'z-o'ziga adekvat baho bera olmaslik, kommunikativ malakalarni pasayishi, qaysarlik, jizzakilik, zo'rvonlik kabi salbiy oqibatlar namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shu bilan birga, agressiv bolalar o'ta shubhalanuvchan va ehtiyotkorroq bo'ladilar. Hatto, bunday bolalar janjalni boshlashga – boshlaydilaru, nojo'ya xatti-harakatlari, xatolarini tan olmay boshqa kishilar zimmasiga yuklaydilar. E'tirof etishimiz lozimki, agressiv bolalar tobelikka sira toqat qila olmaydilar. Shu bois ham, o'z ota-onalarini o'zlariga bo'ysindirishga intiladilar. Oila a'zolari, tengdoshlari, do'stlariga yon berishni sira ham istamaydilar. Agressiv bolalar doimo qo'rquvni his etgan holda atrofdagi kishilarga nisbatan nafrat bilan munosabatda bo'ladilar. Bugungi kunda bu masala psixologlarni xavotirga solayotgan muammolardan biridir. Psixologlarning ta'kidlashicha, ota-onalar o'z farzandlaridagi agressiv holatga e'tibor bilan yondashishlari lozimdir. Eng avvalo, ota-ona o'z farzandi bilan yaqin do'stona munosabat o'rnatib, iloji boricha boladagi qahr, g'azab hislarini yo'qotishga urinishi darkordir. Agressiv bolalarda mas'uliyat hissini rivojlantirish, o'z hissiy holoatlarini anglashga o'rgatish ijobiy natija beradi. Bu borada ota-onalarning e'tibori va mehr-muhabbati juda ham zarurdir. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy munosabatlarda sog'lom muhitning yuzaga kelishiga, bolalarda ijobiy fazilatlar va individual psixologik xususiyatlarni shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bu muammoni bartaraf etishda psixoprofilaktik ishlarni yo'lga qo'yish muvofiqdir:

- Agressiv xulq-atvorli bolalarning ota-onasi bilan ish olib borish;
- Agressiv bolalarni o'z-o'zini boshqarish usullari bilan psixologlar tomonidan qurollantirish, bunday bolalar bilan individual ishlash;
- Turli salbiy xulq-atvor shakllarini yuzaga keltirib chiqaruvchi ijtimoiy omillarni nazorat qilishni yo'lga qo'yish lozimdir.

Shunday ekan, bu masalani o'rganish, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatni yaxshilash, shu orqali bolalarni barkamol inson bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash bugungi kunda har bir oila a'zosining, mahalla ko'yning, rahbariyatning asosiy vazifasi bo'lishi darkordir.

### **Adabiyotlar**

1. Берон Р., Ричардсон Д. Агрессия. - СПб.: Речь. 2000. – 340 с.
2. Komilova N.G'. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. - T.: 2008. 87-104-b.
3. Можгинский Ю.Б. Агрессия подростков эмоциональный и кризисный механизм. – СПб.: 1999. – 128 с.

## **O‘QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI ALTRUIZM MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI**

**Atabaeva N.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti vazifasini  
bajaruvchi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “kitobning – beminnat ustoz” ekanligini hisobga olib, o‘quvchilarda altruistik xulq motivlarini shakllantirishda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyati o‘rnidan foydalanishning samaradorlik jihatlari tahlil qilib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kitob, kitobxonlik, altruizm, axloqiy dunyoqarash, o‘quvchi yoshlar.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ АЛЬТРУИСТИЧЕСКИХ МОТИВОВ У УЧЕНИКОВ В БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЕ**

**Атабаева Н.Б. – и.о. доцента Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** В данной статье анализируется эффективность использования места чтения книг и культуры чтения при формировании альтруистических мотивов у студентов, учитывая, что «книга является бескорыстным учителем».

**Ключевые слова:** книги, чтение, альтруизм, нравственное мировоззрение, школьник.

## **PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF ALTRUISM MOTIVATIONS IN PUPILS THROUGH LIBRARY CULTURE**

**Atabaeva N. B. - Acting Associate Professor of Tashkent State Pedagogical  
University**

**Annatation.** This article analyzed the effectiveness of the use of book reading and reading culture in the formation of altruistic behavioral motives in pupils, given that “the book is a grateful teacher...”

**Key words:** book, reading, altruism, moral worldview, pupil.

Yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O‘zbekistonda katta e‘tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma‘nan yetuk, barkamol avlodni va

raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsata oladigan ko'ngilli, milliy g'urur hissi ustun bo'lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda "biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" [1;] va o'sib kelayotgan yosh avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda.

Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa, albatta, maktab ta'limining o'rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari bu borada maktab o'qituvchilarining oldiga o'quvchilarda milliy xususiyatlardan bo'lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga urg'u bermoqdalar. Ma'naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo'jizaga ta'rif berib "...yetti mo'jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsa-da, olamda yana bir mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi. Bu mo'jiza – kitob. Kitobning mo'jiza, mo'jiza bo'lganda ham birinchi mo'jiza ekanligini ko'pgina buyuk odamlar qayd qilgan", – deb yozadi. Jumladan, yozuvchi va dramaturg C.Sveyg "Qayerdagi kitob bor ekan, u yerda odam o'zi bilan o'zi uzlatda, o'z ko'lami doirasida qolib ketmaydi, u o'tmish va bugungi kunning barcha olamshumul yutuqlariga, butun insoniyatning fikr va tuyg'ulariga oshno bo'ladi", – deb yozadi. Yozuvchi va faylasuf J.Svift "Kitoblar aql farzandlaridir" desa, pedagog va yozuvchi Ya.Komenskiy "Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir", – deydi, faylasuf va tarixchi F.Bekon esa "Kitoblar zamon to'lqinlarida suzuvchi va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir", – deb yozadi. Shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar va yozuvchi-yu olimlar kitobning mo'jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va ma'naviyat timsoliga, bilim manbayiga, sodiq do'stga, davr ko'zgusiga o'xshatganlar. Eng muhimi, kitob jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir.

O'quvchi yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish ko'pgina zararli illatlarni oldini olishga sabab bo'ladi. I.S.Zbarskiy shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning uch muhim komponenti bor ekanligini ta'kidlab o'tgan [2;]:

- 1) Kognitiv komponent – o'quvchilarda ma'naviy ongini, badiiy eruditsiyani, dunyoqarashini shakllanishi bilan tavsiflanadi.
- 2) Emotsional komponent – o'quvchilarda estetik hislar, emotsional qadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi.
- 3) Xulq-atvor komponenti – o'quvchilarning ijtimoiy xulq me'yorlariga rioya etish ko'nikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.

Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilmu ma'rifatda". Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta, baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Kitoblarda yashirin ezgulik motivlaridan biri altruizmdir.

Altruizm tushunchasi lotincha "alter" – "boshqalar" so'zidan olingan bo'lib, fransuz faylasufi O.Kont tomonidan egoizmga qarama-qarshi atama sifatida fanga kiritgan. Altruizm – bu o'zga insonlar manfaati yo'lida ularga beg'araz g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilgan faollikdir [5;].

Umuman olganda kitob mutolaasi shaxsning kompleks taraqqiyotiga ta'sir etadi. Y.P.Suvorov, M.P.Voyushina, Y.A.Kupirovalar [6;] kitobxonlik faoliyat yo'nalishiga qarab shaxsning taraqqiyotiga ta'sir etishini asoslab berganlar. Jumladan, kitobxonlik o'quvchida konstruktiv, tarbiyaviy, qadriyatli, kommunikativ, analitik faoliyatni jadallashtiradi. Birgina "Sinchalak" qissasini oladigan bo'lsak, "o'zi kichkina, nimjon bo'lsa ham osmonni ko'targulik quvvati, g'ayrati bor" Saida Alieva va "xotin kishi rahbarlik qilsa kalavasi uchini yo'qotib qo'yadigan" Arslonbek Qalandarov, "gapga kelganda burganing yo'talidan bo'ron qo'porishga qodir" [7;] bo'lgan Eshon obrazlari o'quvchilarda shaxslararo munosabatlarni konstruktiv asosda qurish, jamiyat va shaxs orasidagi munosabatlarda axloqiy tamoyillarni, milliy qadriyatlarni tahlil qilish asosida ratsional altruistik pozitsiyani shakllanishiga ichki motiv vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda keltirilgan qahramonlarning o'zaro ta'siri va munosabatlarini aks ettirgan syujetlar o'quvchida dastlab, badiiy idrokni faollashtirib, o'quvchining kuzatuvchanligi, empatiya qobiliyati, ijodiy xayolini, emotsional obrazli xotira va ravon nutqini faollashtiradi hamda shaxsning ichki altruistik qarashlarini yuzaga kelishiga olib keladi.

Altruizm motivlari insonning dunyoqarashi, e'tiqodi va axloqiy prinsiplarida namoyon bo'ladigan umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Bizga ma'lumki, har bir xalq, millatning etnik tarkib topishida muhim diniy mafkuraviy (zardo'shtiylik, buddaviylik, nasroniylik, islom) aqidalar o'z ta'sirini o'tkazgan va mazkur diniy ta'limotlarning barchasida o'zgalarga yordam berishdek ezgu ishlar ulug'lanadi. O'zbek xalqida ham o'zgalarga yordam berishga qaratilgan har qanday xulq-atvor shakli axloqiylikning yuqori cho'qqisi sifatida qadrlanadi. Shu boisdan, azal-azaldan o'zbek xalqi farzandlarini altruistik motivlar asosida tarbiyalashga katta ahamiyat qaratgan. Tarixdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan,



insonparvarlikning yuksak namunasi ko'rsatgan Shomahmudovlar oilasini olaylik. 2-jahon urishi vaqtida toshkentlik temirchi oilasi turli millatning evakuatsiya qilingan qarovsiz va yetim qolgan 16 nafar bolalarini farzandlikka olib, ta'lim-tarbiya berishgan. Urush deb atalmash ofat ta'sirida jang maydonidagi ahvol og'ir, front ortidagi holat esa undanda og'ir bo'lgan. Barcha mahsulotlar jang maydoniga safarbar etilgan, oddiy aholi esa ocharchilikdan qiynalayotgan bir davrda 16 nafar murg'ak go'dakka mehr-muhabbat berib, ularga g'amxo'rlik qilish orqali "hazrati inson" degan ulug' nomga erishish uchun kishida beg'arazlilik, beminnatlilik, muruvvatlilik kabi altruistik motivlar qadriyat sifatida shakllangan bo'lishi kerak.

Altruizm motivlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar barcha fan sohalari doirasida uch yo'nalishda olib borilgan. Bular:

a) Dj. Rayt qarashlariga asoslangan axloqiy xulq mezoni sifatida o'rganuvchi yo'nalish;

b) L.Kolberg va T.Laykon tadqiqotlariga asoslangan shaxs taraqqiyotining eng oliy namunasi sifatida tadqiq etuvchi yo'nalish;

v) Sharq allomalari, faylasuflarning g'oyalariga asoslangan komil inson xususiyatlari yo'nalishidagi tadqiqotlar [3;].

Zero, mazkur yo'nalishlarning barchasida altruizm shaxs akmeologik rivojlanishining yuqori cho'qqisi sifatida ko'rib chiqilgan. Mazkur akmeologik rivojlanishning yuqori cho'qqisiga kitobxonlik madaniyati orqali ham erishish mumkin. Masalan, xalqimizning milliyligi ufurib turgan J.Rumiyning "Oqibat tuproq bo'lurmiz: "Masnaviyi ma'naviy" hikmatlaridan", A.Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Xamsa", A.Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", T.Malikning "Odamiylik mulki", Oybekning "Navoiy" asarlarini, "To'maris", "Shiroq" afsonasini oladigan bo'lsak, ularning barchasida altruizm g'oyalari targ'ib qilingan obrazlarni uchratishimiz mumkin.

Sharq allomalari o'zlarining nodir asarlari ila dunyo taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishgan. Shu boisdan, ularning asarlarini mutolaa qilsak, barcha sohaga oid pedagogik-psixologik qarashlarga to'qnash kelamiz. Shu jumladan, altruizm motivlarini futuvvat ilmi negizida tizimli yoritilganligini guvohi bo'lshimiz mumkin. Sharqning buyuk allomalaridan biri Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini mutolaa qilsangiz altristik xulqning sharqona tavsifini ko'ramiz: "Saxiylik kishilik bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir; odamgarchilik o'lkasining to'lqini, daryosi, balki u to'lqin daryosining asl gavharidir. Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam bironing mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik. Muruvvat karamning urug'-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu hislatlarga ega bo'lsa, izzat va hurmatga



sazovor bo‘ladi” [4;]. Bunday tavsiflar Forobiy, Beruniy, Rumi, Koshifiy, A.Avloniy asarlarida ham keng uchraydi. Mazkur manbalarni o‘qish, o‘rganish orqali o‘quvchilarda nafaqat altruistik motivlarni, balki milliy g‘urur, iftixor, vatanparvarlik tuyg‘ularini ham shakllantirish mumkin.

Altruizm motivlariga asoslangan xulq g‘oyalari jadid adabiyoti qarashlarida ham aks etgan. Jumladan, A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi Yusufbek xoji obrazini olsak. Asar muallifining o‘zi Yusufbek xojiga “... xalq, el-yurt manfaatini o‘ylaydigan fidoyi shaxs” [8;], deb ta’rif beradi. Mazkur obraz orqali A.Qodiriy millatning birdamligi, Vatanning yaxlitligi uchun kurashishni hayotining ma’nosi deb bilgan; qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik qilib o‘zaro nizolashib yurgan maydakashlarni katta ishlarga undab, agar vaziyat shu holda davom etsa; millatning xarob bo‘lishini, yurt tuprog‘ining bosqinchilar oyog‘i ostida xor bo‘lishini bashorat qilgan buyuk siymoni tasvirlab beradi. Bu “millat fidoyisining” xulq-atvori negizida altruistik motivlar yashiringanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki, mazkur obrazning axloqiy dunyoqarashida shaxsiy manfaatlardan yuqoriroq qadriyatlar ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Yana bir sevimli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasini olsak. Hikoya o‘quvchilarda urushning nafaqat front maydonlarida, balki har bir qishloqda, har bir xonadonda kechgani, urush qurbonlari esa har bir oilada topilgani haqida tasavvurlarni shakllantiradi [9;]. Shu bilan bir qatorda asar qahramoni Shoikrom urushga bormagan bo‘lsa-da, uning dahshatini, achchig‘ini o‘z uyida turib totishiga to‘g‘ri kelganligi bayon qilingan. Oilasi koriga yarab turgan birgina sigiri o‘g‘irlab ketilgan, ukasi og‘ir betob bo‘lib to‘shakka mixlanib yotibdi, bu ham yetmagandek, bolalarining so‘nggi rizqi – hovli chetidagi bir hovuch qulupnayga ham o‘g‘ri oralagan. Yetishmovchilik va xudbinona harakteri Shoikromni qaltis qaror qabul qilishga majbur qiladi. Shoikromning xudbinligi ayanchli holatni keltirib chiqaradi. Asar qahramonining ayanchli taqdiri orqali o‘quvchilarda o‘z muammolariga o‘ralib yashash oqibatida atrofidagi yaqinlarining holidan xabar olmaslik, ularga yordam bermaslik qanday natijalarga olib kelishi targ‘ib qilinadi. Adib hikoyadagi voqealar syujeti orqali o‘quvchilarni hudbinlikdan qochib, altruist bo‘lishga, yaqinlariga himmatli bo‘lishga undaydi.

Umuman olganda yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak:

- O‘quvchilardagi kitobxonlik madaniyati ularning ma’naviy dunyoqarishi, axloqiy ongining oshishiga xizmat qiladi;
- Sharq allomalari asarlari, afsonalardagi futuvvat ilmi negizida altruistik motivlarning namoyon bo‘lishini kuzatishimiz mumkin;
- Altruizm o‘zgalarga beg‘araz yordam ko‘rsatishga asoslangan milliy xususiyatlardan biridir;

- Maktablarda murabbiylik soatlarida baddiy asar mutolaasini targ'ib qilish orqali o'quvchilarda altruistik xulq motivlarini shakllantirish mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston-2017. – B. 48.
2. Збарский И.С. Внекалассная работа по литературе(4-8): пособие для учителя\И.С.Збарский. В.П.Полухина. – М.: Просвещение. 1980. – 208 с.
3. Кравченко С. Предвосхишение. Том 2. Словарь с комментариями. – М.: ЛитРес. 2018. – 465 с.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15 tomli. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1966. 13-tom. B. 92-95.
5. Psixologiya fanidan izohli lug'at / M.G.Davletshin tahriri ostida –T.: TDPU. 1992. – 6-b.
6. Суворова Е.П. Формирование интеллектуально-речевой и читательской культуры школьников: науч-метод пособие \ Суворова Е.П., Воюшина М.П., Купирова Е.А. – Спб.: ООО Книжный дом. 2008. – 248 с.
7. Qahhor A. Sinchalak. Qissa. – T.: Ziyo nashri. 2019. – 160-b.
8. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – T.: Sharq nashriyoti. 2014. – 400-b.
9. Xoshimov O'. Urushning so'nggi qurboni. Hikoya. – T.: Ziyo nashri. 2019. -160-b.

## **KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**Dadahodjayeva M.R. - 2-Respublika tibbiyot kolleji kimyo fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kasb-hunar kollejlarida kimyo fanini o'qitishning dolzarb muammolari va ularning yechimlari haqida so'z yuritilgan. O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarida kimyo fanini o'qitishning uslubiy ta'minoti, dolzarb muammolari, pedagogik sinflar uchun o'quv-uslubiy majmuaning o'zgarmas va o'zgaruvchan tarkibiy qismlari tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy ta'lim, pedagogik sinflar, axborot texnologiyalari, uzluksiz pedagogik ta'lim.

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОЛЛЕДЖАХ.**

**Дадаходжаева М.Р. - преподаватель по химии 2-Республиканского  
медицинского колледжа**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются актуальные проблемы преподавания химии в профессиональных колледжах и пути их решения. Описаны методическое обеспечение, актуальные проблемы преподавания химии в профессиональных колледжах Республики Узбекистан, неизменные и изменяющиеся компоненты учебно-методического комплекса для педагогических классов.

**Ключевые слова:** профессиональное образование, педагогические классы, информационные технологии, непрерывное педагогическое образование.

**ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING CHEMISTRY IN PROFESSIONAL  
COLLEGES.**

**Dadakhodzhayeva M.R. - Chemistry teacher of the 2nd Republican Medical  
College**

**Annotation.** This article discusses the current problems of teaching chemistry in professional colleges and ways to solve them. The article describes methodological support, current problems of teaching chemistry in professional colleges of the Republic of Uzbekistan, unchanged and changing components of the educational and methodological complex for teacher classes.

**Key words:** professional education, pedagogical classes, information technologies, continuous pedagogical education.

An'anaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarning fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini pasayish muammosiga duch kelmoqda. Aniq fanlarni, jumladan kimyo fanini, jamiyat azaldan murakkab deb tasniflagan. O'quvchini fan murakkabligi bilan qo'rqitmasdan, mavzuga qiziqishini uyg'otish vazifasi qo'yildi. So'nggi o'n yilliklarda o'quvchilar o'rtasida tabiiy fan mavzulariga qiziqish asta-sekin pasayib bormoqda. Zamonaviy sharoitda bunday hodisa paradoksal ko'rinadi. Ushbu jarayonni talabalarining o'zlari qanday izohlaydilar? Ba'zilar kelajakda ushbu narsaga muhtoj bo'lmasliklariga ishora qiladilar. Boshqalar, sinfda allaqachon kitoblar, jurnallar, televizion dasturlar, internetdan ma'lum bo'lgan savollar o'rganiladi, deb hisoblashadi. Boshqalar esa mavzuning murakkabligidan shikoyat qiladilar va o'zlarini formulalarni o'rganishga va misol va masalalar ustida ishlashga majbur qilishning manosi yo'q deb hisoblaydilar. Boshqalar bu ta'lim jarayonining asosiy

qismi uchun kerak emasligi, shuning uchun uni tanlov asosida o'rganish kerak, deb ta'kidlaydilar [1;].

O'rta kasb-hunar ta'limi tizimida kimyo o'qitishni tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'rta kasb-hunar kollejlarda kimyo o'qitish jarayonida (ayniqsa, asosiy bo'lmagan ixtisosliklar bo'yicha) ko'pincha quyidagi muammolar kelib chiqadi:

- o'quvchilarning turli xil va ko'pincha past darajadagi tayyorgarligi ularning turli dasturlar va darsliklar asosida o'qigan turli maktablardan kelganligi bilan izohlanadi;

- agar maktabning 10-11-sinflarida o'qituvchilar kuchli va "o'rtacha" bilimga ega o'quvchilar bilan ishlasa, unda kollejda biz "o'rtacha", zaif va juda zaif o'quvchilar bilan ishlaymiz, bu ayniqsa malakali ishchilarni tayyorlash dasturi bo'yicha talabalar guruhlarida yaqqol ko'rinadi;

- mustaqil ish ko'nikmalarini rivojlantirish, malakali mutaxassis tayyorlashning asosiy omili hisoblanadi, ammo o'quvchilarning aksariyati mustaqil ish hajmining oshishiga tayyor emasligi;

- o'qituvchiga, o'quvchilarga moddalarning xususiyatlarini, olinishini va ulardan foydalanish usullarini to'liq namoyish etish uchun laboratoriya uskunalari bilan ishlash imkoniyatini berishga ixtisoslashgan laboratoriya mashg'ulotlarining yetarli emasligi;

- zamonaviy sharoitda hayot ma'lum bir kimyoviy bilimlar va kimyoviy moddalar bilan ishlash qobiliyatlari mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Agar o'quvchi uchun dars qiziqarli bo'lsa va u "Nega buni bilishim kerak?" degan savolga javob ola bilsa, shundagina zamonaviy pedagog o'quvchini e'tiborini darsga qarata olishi mumkin. Bugungi kunda o'quvchilarga bilimning o'zi kerak emas, uning hayotiyligi kerak. Shuning uchun, darsning asosiy maqsadlaridan biri: "Biz olgan bilim va ko'nikmalarni kundalik hayotimizda qayerda qo'llaymiz?", "Kelajakdagi kasbim uchun kimyo fanidan bilim talab etiladimi?,"- degan savollarga javob tayyor bo'lishi kerak. Hozirgi kunda kimyo, fan sifatida, professional yo'nalishga ega bo'lishi kerak, sababi jamiyatning turli sohalarida kimyoviy jarayonlarga duch kelinadi.

Kimyoni sifatli o'zlashtirishning asosiy muammosi - bu tobora ko'payib borayotgan yangi fakt va materiallarning ta'lim standartining qat'iy qoidalari o'rtasidagi ziddiyatlaridan kelib chiqmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qitish metodikasida, o'quv jarayonini tashkil etish shakllarida sezilarli o'zgarishlar kiritish zarur, bu esa faqat zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Bizning o'qitish tajribamizning belgilovchi g'oyasi - amalda isbotlangan va katta salohiyatga ega bo'lgan zamonaviy ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali kimyo fanini o'rganish motivatsiyasini oshirishga asoslangan.

**1. Muammoli o'rganish.** Muammoli o'rganish usulining mohiyati shundan iboratki, biz tuzgan yoki boshqalar tomonidan tuzilgan tadqiqot muammosini olamiz va o'quvchi uni yechish yo'lini izlaydi. Muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish sinfda o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyati uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Katta hajmdagi o'quv materialini ma'nosiz yodlashga hojat yo'q. Uy vazifasini tayyorlash vaqti qisqaradi, chunki o'quv materialining asosiy qismi darsda o'zlashtiriladi. Sinfda o'quvchilarning bilim faoliyati darajasi o'qituvchi darsda qanday usullarni qo'llaganiga bog'liq bo'ladi. Muammoli o'qitish kimyo darslarida o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasining motivatsion tarkibiy qismining paydo bo'lishini ta'minlaydigan eng muhim pedagogik texnologiyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi [6;]. Ushbu texnologiya bizni nostandartligi bilan o'ziga jalb qiladi, shu bilan birga bizga katta amaliy imkoniyatlar ochadi, ijodkorlikni rivojlantirishga, o'quvchilarning sinfdagi passivligini yengishga va mavzu bo'yicha bilim sifatini oshirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyadan foydalanganda biz o'quvchilarni nafaqat ta'lim standartlarini o'zlashtirishga, balki ularni yanada yuqori darajaga ko'tarilishga imkon beradigan bilimlarga ega bo'lishga erisha olamiz.

**2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.** Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonida tobora ko'proq o'rin egallamoqda. Ushbu texnologiyalarning asosiy afzalligi aniqlikdir, chunki ma'lumotlarning katta qismi vizual xotira yordamida o'zlashtiriladi va unga ta'sir etish orqali o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyo darslarida AKTdan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: multimedia imkoniyatlarining boyligi tufayli o'quv jarayonini yanada qiziqarli, yorqin, hayajonli qilish; treningni vizualizatsiya qilish muammosini samarali hal qilish; o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli va ravshan qilib, o'quv materiallarini vizualizatsiya qilish imkoniyati darsni o'quvchilar uchun yanada tushunarli va qulay bo'lish imkonini beradi [6;]. Dars jarayonida taqdimotlar muhim rol o'ynaydi. Ular mavjudlik va ravshanlik tamoyillarini amalga oshira oladi. Ular samarali estetik jozibaga ega; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida vositachi sifatida kompyuter o'zaro aloqalarni osonlashtiradi. Dars mashg'ulotida qo'llanilgan taqdimot qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumot va topshiriqlarni ham taqdim eta oladi. Bundan tashqari, siz har doim oldingi slaydga qaytishingiz mumkin. Oddiy doskada dars uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar sig'dira olish imkoni mavjud emas. Slayd ushbu imkoniyatni amalga oshiradi[4;].

Hozirgi ta'lim jarayonida axborot tarkibiy qismlari kimyoviy ta'limga kiritilishi kerak. O'quvchilar, avvalambor, kompyuterda tabiatda yuzaga keladigan va amaliy faoliyatda ishlatiladigan jarayonlar va hodisalarni bilish vositalaridan biri



sifatida o'zlashtirishi kerak. Axborot texnologiyalari nafaqat o'quv jarayonida kompyuterdan foydalanishni o'z ichiga olgan texnologiyadir, [7;] balki, axborotni qayta ishlash bilan bog'liq har qanday jarayonni axborot texnologiyalari deb atash mumkin, ammo yanada aniqrog'i, axborot texnologiyalari deganda obyekt, jarayon yoki hodisaning (axborot mahsuloti) yangi sifat ma'lumotlarini olish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullari to'plami sifatida tushuniladi [2;].

3. Ilmiy-tadqiqot va loyiha faoliyati. Loyiha usuli o'quvchilarning mustaqil ishlarini amalga oshirishga qaratilgan. Loyihani yaratish o'quvchilarga o'zlarining ijodlarini to'liq ochib berishga imkon beradi. Loyiha ustida ishlash barqaror qiziqishlarni, ijodiy izlanishga bo'lgan doimiy ehtiyojni, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatlarini rivojlantiradi, shaxsning ijodiy o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Kimyo fanini o'qitishda tadqiqot usulidan foydalanish o'quvchilarni maksimal darajada mustaqil, ijodiy faol bo'lishga imkon yaratadi. Tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun krossvordlar va turli xil topshiriqlar tuzish, ertaklar tuzish, turli xil grafiklar chizish, ma'ruzalar, tezislar yozish va tadqiqotlar o'tkazish kabi ijodiy ishlar muhim ahamiyatga ega. Loyiha faoliyati barcha o'quvchilarni o'quv ishlariga jalb qilishga imkon beradi, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantiradi va o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro faol munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

**4. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar.** Zamonaviy darsda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlash texnologiyasi yordamga keladi. Ushbu texnologiya matn bilan ishlashda, dizayn va tadqiqot ishlarida yuqori samara beradi. Bu o'quvchilarga talqin qilish, tahlil qilish, baholash, xulosa qilish, tushuntirish qobiliyatlarini o'zlashtirishga imkon beradi.

Texnologiya shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, faoliyatga asoslangan yondashuv asosida, aloqa prinsipi asosida, ta'lim holatidagi faoliyatdan hayotiy vaziyatga o'tishning komplementarligi tamoyiliga asoslanadi. O'z vaqtida E.Glaser ismli pedagog tanqidiy fikrlash texnologiyasi bilan shug'ullangan va tanqidiy fikrlash dasturini ishlab chiqqan bo'lib, bu dastur fikr yuritish, xulosa chiqarish, taxminlarni tan olish, xulosalarni baholash qobiliyatini sinash uchun testlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bu o'quv predmetlari va ta'lim mavzularining bir-biri bilan birlashishi bo'lib, bu bilimlarning izchilligiga, dunyoning yaxlit rasmini idrok etishga yordam beradi va mavzularni o'rganish uchun motivatsiyani oshiradi [9;]. Mavzu doirasidagi integratsiya mavzular va bo'limlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatadi. Buni anglagan holda o'quvchilar ushbu mavzu bo'yicha bilimlar tizimini o'zlashtirishga intilishadi. Har qanday



o'rganilmagan mavzu unda bo'shliq hosil qiladi va keyingi tushunishni murakkablashtirishi mumkin.

**5. Fanlararo aloqalarni amalga oshirish.** Fanlararo aloqalarga bo'lgan ehtiyoj g'oyasi yangi emas. Bu haqda K.D.Ushinskiy ko'p marotaba aytgan. U yetakchi g'oyalar va umumiy tushunchalarga asoslangan obyektlar o'rtasidagi bog'liqlik juda dolzarb va istiqbolli deb hisoblagan. Bularning barchasi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga, hamda yakuniy natijada ularni dunyoqarashga aylantirishga yordam berishini alohida ta'kidlagan. Hech kimga sir emaski, zamonaviy maktab o'quvchilarda ikki holatga ega bo'lish imkonini beradi: bilimning mavjudligi va uning yetishmasligi. Bilimlarning aksariyati o'quv xarakteriga ega, ularning amaliy qo'llanilishini ko'rmaganlari bois, keyinchalik o'quvchilar bu mavzuga qiziqishni yo'qotadilar. Shu sababli, o'qitishning ajralmas vazifasi - bu o'quv bilimlarining xayoliy dunyosidan atrofdagi dunyo bilan aloqalarni o'rnatishga o'tish, ya'ni o'zlashtirilgan ma'lumotlarni faol jarayonga tadbiiq etishni ko'zda tutadi.

**6. O'qitishda o'yin usullaridan foydalanish texnologiyasi.** Bu rol o'ynash, ishbilarmonlik va boshqa o'quv o'yinlari turlari bo'lishi mumkin. Ushbu texnologiya fikrlashning kengayishini, bilish faoliyatini rivojlantirishni, amaliy faoliyatda zarur bo'lgan ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishni, ta'lim qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Dars-o'yinlar (intensiv o'qitish texnologiyalari) nafaqat o'quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirishga, balki xotirani rivojlantirishga, turli xil hayotiy vaziyatlarni va shaxslararo munosabatlarni modellashtirishga, hayajonni yengishga yordam beradi, har doim hayajonli, o'quvchilarni o'z qobiliyatlarini, tashabbuskorligini, komplekslarni yengib o'tish, jamoada ishlashga yordam beradi.

**7. Sog'liqni saqlash texnologiyalari.** Ushbu texnologiyalardan foydalanish dars davomida har xil turdagi topshiriqlarni bir tekis taqsimlash, murakkab o'quv materialini topshirish vaqtini belgilash, mustaqil ish uchun vaqt ajratish va texnik o'qitish vositalarini me'yoriy ravishda qo'llashga imkon beradi, bu esa ijobiy natijalar beradi.

**8. Masofaviy o'qitish texnologiyasi.** Masofaviy ta'lim texnologiyasi zamonaviy ta'limda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiya sog'lig'i yomon bo'lgan bolalar yoki turli sabablarga ko'ra darslarga qatnay olmaydigan o'quvchilar uchun to'laqonli ta'lim olish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiya ayniqsa hozirgi epidemiologik notinch davrda juda dolzarbdir. Ushbu texnologiya elementlari o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi masofaviy aloqa uchun ham ishlatilishi mumkin: uy vazifasini bajarishda (masofaviy o'qitishning individual konsultativ usuli) yoki loyiha ustida ishlashda qo'llanilishi mumkin [3:].

Kimyo kursining mazmuni o'qituvchiga o'quvchilarning estetik, ekologik, mehnat, axloqiy va ijtimoiy-psixologik ta'limiga katta hissa qo'shish imkonini beradi, chunki u nafaqat atrof-muhitdagi kimyoviy hodisalarni talabalarga tushuntiruvchi

ma'lumotni, balki kimyo fanining haqiqiy jihati haqida ma'lumotni ham o'z ichiga oladi. Bularning barchasi fanlararo aloqalarni nafaqat tabiiy fanlar sikli doirasida, balki gumanitar mavzular: adabiyot, tarix, ijtimoiy fanlar bilan ham bog'lash sharti bilan amalga oshiriladi. Integratsiya jarayoni nafaqat ta'lim mazmunini, balki o'quv ishlarini tashkil etish shakllarini ham qamrab oladi [10;].

“Ilm-fan va ijod festivallari”, “Seminarlar”, “Ikkilik darslar”, “Ta'lim tadqiqotlari va loyiha faoliyati”, “Fanlararo konferensiyalar” - bu o'quv faoliyatini yaxlit tashkil etish shakllarining kichik bir namunasi. Ta'lim ishlarini tashkil etishning ushbu shakllari mashg'ulotni intensivlashtirishning eng muhim omili hisoblanadi, chunki ular o'quv jarayonining barcha ichki zaxiralaridan oqilona foydalanishga, o'quv vaqtining zaxiralarini bo'shatishga va o'quv materialining takrorlanishini yo'q qilishga imkon beradi. O'quvchilarning turli mavzulardagi bilimlari va qiziqishlariga asoslanib, subyektlararo aloqalarni o'rnatish orqali ta'lim, taraqqiyot va tarbiya muammolarini har tomonlama hal qilish mumkin. O'qituvchilik faoliyatning maqsadi sifatida har tomonlama yetuk va ongli faoliyatni amalga oshirishga qodir bo'lgan ko'p qirrali shaxsni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish lozim. O'qituvchi va inson sifatida biz pedagoglarning vazifasi o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishdir.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5349-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni. Qonun hujjatli ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-coH, 29.04.2019-y.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. ”Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti” – Toshkent: Fan, 2009. –145- b.
4. Abdullayeva N. Kimyo fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni turli shakl va usullari. - Urganch, 2011.
5. Anvarova N.A. Kasb-hunar kollejlari kimyo darslarini kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi. Dis. ...ped.fan.nom.- Toshkent: O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti, 2007. –155-b.
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2003.

7. Алимova Ф.А. Повышение эффективности обучения химии с использованием компьютерных технологий. Дис.канд. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ им. Низами. 2009. – 183 с.

8. Алейникова И.И., Савенков А.А. «Использование компьютерных технологий на уроках химии». Учебное пособие. - М.: Вентана. -2006.– 45 с.

9. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / “Xalq ta’limi” jurnali, 2006, № 6. - b. - 25-28.

10. Белов П.С. Формирование химических компетенций обучаемых на практических занятиях по химии. Дисс.на соис. уч. ст. канд. пед.наук. Нижний Новгород. 2012.

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI TORTINCHOQLIK HISSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Raximova I.G. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Kichik maktab yoshidagi davr inson hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu davrdagi bolalarda o‘ziga xos bo‘lgan, ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, o‘z-o‘ziga past baho berish, xavotirlanish, soddalik xislatlari shakllanib borib, shu bilan birga ularda tortinchoqlik hissi ham namoyon bo‘la boshlaydi. Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan tortinchoqlik xususiyati, kelib chiqish omillari, ularning ko‘rinishlari hamda ijobiy tomonlarini ham ko‘rish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** kichik maktab yoshi, tortinchoqlik hissi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, tortinchoqlikning tashqi alomatlari, tartib intizomli, ehtiyotkor, shubhali, saranjom.

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЧУВСТВА ЗАСТЕНЧИВОСТИ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Рахимова И.Г. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Ранний школьный возраст имеет большое значение в жизни человека, когда у детей этого периода развиваются качества уверенности, открытости, чувствительности к внешним воздействиям, заниженная самооценка, простота тревожности, а также чувство застенчивости. В статье также рассмотрены характеристики застенчивости у детей младшего школьного возраста, факторы ее происхождения, внешний вид и положительные стороны.

**Ключевые слова:** младший школьный возраст, чувство застенчивости, неуверенность в себе, внешние признаки застенчивости, осторожный, скептический, порядочный.

## **PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FEELING OF SHYNESS IN YOUNG SCHOOL AGE**

**Rakhimova I.G. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** Early school age is of great importance in human life, when children of this period develop the qualities of confidence, openness, sensitivity to external influences, low self-esteem, simplicity of anxiety, as well as a feeling of shyness. The article also discusses the characteristics of shyness in children of primary school age, the factors of its origin, appearance and positive aspects.

**Key words:** primary school age, feeling of shyness, self-doubt, external signs of shyness, decent, cautious, skeptical, decent.

Ma'lumki, psixologiya sohasida inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayondir. Aynan kichik maktab yosh davri inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu davrdagi bolalarda o'ziga xos bo'lgan, ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, o'z-o'ziga past baho berish, xavotirlanish soddalik xislatlari shakllanib borib, shu bilan birga ularda tortinchoqlik hissi ham namoyon bo'la boshlaydi. Bolalarda namoyon bo'layotgan yuqoridagi salbiy hissiyotlar bilan birgalikda, hozirgi kunda jamiyatda kam o'rganilgan va shu bilan birga, jamoada, ayniqsa, bolalar orasida ancha keng tarqalgan tortinchoqlik hissi ham bola shaxsi rivojlanishida global muammo hisoblanadi. «Tortinchoqlik» – bu tushuncha bugungi kunda har bir insonda turlicha va har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lganidek, bu so'zning mazmun - mohiyatini ham hamma har xil qabul qiladi. Dunyo ilm fan sohalari ko'rsatishicha, tortinchoqlik muammosi hozirgi kunda kam o'rganilgan real psixologik hodisa hisoblanadi.

Amerikalik psixolog, Stenford universitetining professori Filip Zimbardo bu tushunchaga o'zining izlanishlari oqibatida ilk bor o'z fikr va qarashlarini bildirdi. U tortinchoqlikning insonlar orasidagi rolini aniqlashda, ijtimoiy - psixologik izlanishlar o'tkazgan bo'lib, uning fikricha, tortinchokliqning eng sodda mazmuni bu - insonlar oldida namoyon bo'ladigan qo'rquv holatidir. Ko'pchilik olimlar tortinchoqlik hissi to'g'risida o'z fikrlarini bildirishgan:

S.Jonson ingliz tili lug'atida (1804) tortinchoqlikni uchta so'z bilan ifodalagan, «odamovi», «ehtiyotkor», «shubhali». Ingliz tilida «Shy» tortinchoq so'zi dastlab «oson qo'rqituvchi» ma'nosini anglatgan. Hozirda tortinchoq so'zi, odamlar orasida

asabiy (bezovta), o'ziga yetarlicha ishonchi bo'lmagan inson, ilgari omadsiz tajribaga ega bo'lgan va kelajakka nisbatan ehtiyotkor bo'lib qolgan, yig'ilishlar va odamlar bilan muloqot chog'ida asabiylashish va noqulaylikni his etuvchi, biron-bir harakatni amalga oshirishdan cho'chiydigan insonlar sifatida keltiriladi.

Tortinchoqlikka berilgan ta'rifni K.K. Platonovda ham ko'rishimiz mumkin. «Tortinchoqlik - bu boshdan o'tkazish og'ir bo'lgan, muloqot qilishga halal beruvchi psixologik to'siqdir, o'zining mukammal inson emas ekanligi to'g'risidagi xayollari hamda muloqot obyektlarining salbiy munosabatlari to'g'risidagi xayollarga sabab bo'luvchi, yorqin ko'rinishda izohlanuvchi hissiy holatdir». Tortinchoqlik kommunikativ qobiliyatlarni tezda pasaytiradi, muloqot qilishni qiyinlashtiradi va uning qobig'ini toraytiradi [1;].

P.Pilkonis va F.Zimbardolar tortinchoqlikni, ijtimoiy vaziyatlardan o'zini tortishga urinish, noformal muomalada ishtirok etish qobiliyatining yo'qligi, shaxslararo o'zaro muloqot jarayonida xavotir va bosimga moyillikni his qilishda namoyon bo'luvchi, ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan yodlangan javob reaksiyasi deb hisoblaydi. Ular tortinchoqlikni «insonlarning, shaxsiy xulq-atvori, atrofdagilar tomonidan salbiy baholanadi deb tushunishidan kelib chiquvchi, ijtimoiy tashvishdan cho'chishi» sifatida belgilaydilar.

Bundan tashqari, P.Pilkonis qo'shimcha o'rinda, tortinchoqlikni, ijobiy tomonlarining soni kam bo'lgan ijtimoiy xavotirlanish shakli sifatida tushunish mumkin, deydi.

Tortinchoqlik nafaqat katta yoshdagi insonlar, balki o'sib kelayotgan yosh bolalar orasida ko'plab uchratish mumkin. Chunki tortinchoqlikning boshlang'ich negizi aynan bolalarda ko'p va tez namoyon bo'ladi. Birinchi o'rinda, bolalarda tortinchoqlikni kelib chiqishi va rivojlanish tomonlarini ko'rib chiqish kerak.

Maktab bola hayotida burilish davri hisoblanadi va u yangi hayot faoliyatiga, yangi muhit sharoitiga kirib keladi. Kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar o'rnatish, ularning orasida bo'lish, bola butun bir yangi jamoalar tizimiga qo'shib boradi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham, tevarak atrofdagi narsalarga munosabati ham o'zgaradi.

Aynan mana shu kichik maktab yoshidagi bolalarda, ichki ruhiy kechinmalarida o'zgarishlar ham sodir bo'ladi. Ko'pchilik bolalarda mavjud bo'lgan hayajonlanish, xavotirlanish, o'ziga ishonmaslik, qo'rquv, muloqotga kirisha olmaslik, o'zini chetga tortish, maktab muhitiga moslasha olmaslik holatlari ko'proq kichik maktab yoshidagi bolalarda uchraydi. Bolada sodir bo'layotgan, bu hissiy holatlarni bir so'z bilan aytganda tortinchoqlik deb ataymiz.

Kichik maktab yoshidagi tortinchoq bolalar o'zlarini yoqimsiz, nozik tabiat, tortinchoq bo'lmagan bolalardan aqli pastroq deb hisoblashadi. Bu o'zini ulardan past darajaga qo'yish hisoblanadi. Chunki ularning o'ziga bo'lgan ishonchi sust, jur'atsiz,



o'zini kamchiligini sezadigan, xayolparast, o'zgalari oldida kulgili bo'lib ko'rinishdan qo'rqadigan, har qanday tanqidga ta'sirchan bo'lishadi.

Tortinchoqlik hissi ularga qattiq ta'sir qilishi oqibatida, ular o'zlarini idora qila olmay, xatti-harakatida tabiiylik yo'qoladi, mimika va ovoz tovushlarida ham o'zgarish paydo bo'ladi.

Tortinchoqlik ta'sirida bo'lgan bolalarda xavotirlanishni keltirib chiqaruvchi uchta omilni ko'rishimiz mumkin:

1. O'zining tashqi ko'rinishi va xatti-harakatlari orqali bola atrofdagilarga «Men tortinchoqman» kabi holatida signal beradi;

2. Fiziologik jihatdan paydo bo'ladigan alomatlar, ya'ni xavotirlanish va qizarish holati.

3. O'zini noqulay his qilishi va uyali holatlari;

a) Tortinchoqlikdan darak beruvchi bolalarning xarakteridagi asosiy belgilari: muloqotga kirishishga hoxish yo'qligi va suhbatdoshning ko'zlariga qaray olmaslik, o'z ovoz tovushining o'ziga yoqimsizligi, o'zini atrofdagilardan tortish, tashabbus ko'rsatmaslik. Bunday xatti-harakatlar hamma bolalarga zarur bo'lgan, jamiyat bilan aloqa va o'zaro muloqotni o'rnatishda qiyinlashadi.

Tortinchoq bolalar har safar o'zlarini namoyon qila olmasliklari oqibatida, o'zlarining ichki dunyosini yaratishga moyil bo'ladi. Bularning hammasi esa bolani mavhumlikka olib keladi. Mavhumlik bu - turtki bo'lmaguncha gapirishga xohishning yo'qligi, gaplashmaslik moyilligi ustun kelishi, mustaqil, erkin fikr bildira olmaslikdir. Ammo mavhumlik - nafaqat muloqotdan qochish, balki umumiy bo'lgan va chuqur muammodir. Bu muammo muloqotchanlik malakalarining yo'qligi bo'libgina qolmay, balki shaxslararo muloqotchanlik to'g'risida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishidir. Mavhum bolaning xatti-harakatlarida ishonchsizlik namoyon bo'ladi.

b) Jismoniy tashqi alomatlar ko'rinishida, kichik maktab yoshidagi tortinchoq bolalar quyidagi holatlarni his qiladi; pulsi tezlashadi, yurakning qattiq urishi, terlash holati, qorin qismlarida og'riqni his qiladi. Biroq bunday ta'sirlanishlar, biz kuchli hissiyotlarni boshdan kechirganimizda ro'y beradi.

Tortinchoqlik hissini boshdan kechirayotgan bola yuz qismining qizarib ketishi tashqi alomatning ilk belgisidir. Tortinchoqlikni his qilmaydigan bolalar bunday holatlarni yengil qabul qiladi, ammo tortinchoq bolalar aynan o'zida sodir bo'layotgan fiziologik holatiga ko'proq diqqatini qaratadi.

v) Tortinchoq bolaning eng diqqatga sazovor xususiyati - o'zini noqulay his qilishi. Noqulaylik - bu o'zining ichki holatidan qayg'urish oqibatidagi tashqi ko'rinishdir. Noqulaylik hissi jamoa orasida va o'zi yolg'iz qolgan paytda ham namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zida noqulaylik va hijolat chekishining o'zi ham tortinchoqlikni keltirib chiqaradi. Ular bunday holatlarni faqat salbiy tomonlarini o'ylab, uzoq vaqt siqilib yurishadi.



Bolalarga notanish insonlar bilan tanishish va munosabat o'rnatishga, o'z haquqlarini, o'z shaxsiy fikr mulohazalarini gapirishga, bolaning odamovi bo'lib shakllanishiga, ortiqcha o'z harakatlaridan tashvishlanishga tortinchoqlikning ham ta'siri katta.

Tortinchoqlik kelib chiqishining asosiy omillaridan biri, bolaning o'z-o'ziga qanday baho berishiga ham bog'liq. O'z-o'ziga baho berish, avvalombor, dastlabki vazifani bajaradi. Maktab o'quvchisining o'quv faoliyatining samarasi yaxshi o'zlashtirilgan bilimlar va aqliy faoliyat yaxshi bo'lishi emas, balki o'z-o'zini baholash darajasiga ham bog'liqdir.

Bola ehtiyoji uchun kerak bo'lgan ijobiy bahoning balandligi turlicha bo'lishi mumkin. Kingadir uning ishi boshqalarnikidan yomon emas deyilganda, bu ularni bemalol qanoatlantiradi. Boshqalar odatiy bahodan ko'ra balandroq bahoga talabgor bo'ladilar. Uchinchilar esa, boshqa barchadan ham ko'ra balandroq bahoga talabgor bo'ladilar.

Kichik maktab yoshida bolalarni o'z-o'ziga baho berishi, asosan, o'qituvchining baholari ta'siri ostida shakllanadi. Bunda bolalar o'zlarining intellektual imkoniyatlari va boshqalar ularga qanday baho berishiga alohida ahamiyat beradilar. Ijobiy bahoni barcha tan olishi bolalar uchun muhimdir. Shuning uchun psixolog va pedagog uning shakllanishini kuzatib, turli xil metodikalar yordamida maktab o'quvchisining o'z-o'ziga baho berish darajasini kuzatib borishi lozim.

Ko'pgina tortinchoq bolalarga o'z xohishlarini amalga oshirishga, o'z qobiliyatlarini namoyon qilishga tortinchoqlik halaqit beradi. Lekin shunday bolalar borki, ularni tortinchoqlik bezovta qilmaydi, aksincha, bu holat ularga ma'qul keladi.

Birinchi ko'rinishga tortinchoqlik bolalarga faqat salbiy ta'sirlarni ko'rsatadi. Biroq yanayam izlanishlar oqibatida shu narsa ma'lum bo'ldiki, uning ijobiy tomonlarini ham ko'rish mumkin ekan.

“Og'ir vazmin”, “Jiddiy”, “Kamsuqum”, “Kamtar” kabi ijobiy baholar, odatda, tortinchoq bolalarga qarab beriladi. Tortinchoq bolalarni tashqi tomondan kuzatganda, gapini o'ylab gapiradigan, kamgap, o'z xatti-harakatlarini nazorat qiladigan, ozoda bolalar kabi ijobiy taassurot qoldirishadi.

Kichik maktab yoshidagi tortinchoq bolalar birovlarni xafa qilisha olmaydi. Uning yana ijobiy tomoni shundaki, tengqurlari bilan munosabatda bo'layotganda ularni yaxshi-yomonini farqlay olib, eng asosiysi, nizoli vaziyatlarda ular o'zlarini chetga olishadi, doim o'zlari bilan band bo'lib, hech kimga zararlari tegmaydi.

O'quv faoliyatida erishilgan yutuqlar va shaxsning rivojlanishi o'zaro chambarchas bog'liqdir. Buni shunday tushuntirish mumkinki, unda bola erishgan hamda u bajarishga intilayotgan narsalar, ya'ni uning kelajagining ko'rinishidir.

Tortinchoq bolalarga yordam berishda, avvalo, ota-onalar o'zlarining xulq-atvorlariga e'tibor berishlari lozim. Turli xil vaziyatlarda bolaga ishongan holda u yoki bu vazifani mustaqil bajarishga imkon yaratish kerak. Arzimagan hodisalardan janjal ko'tarib, yaqin qarindosh yoki atrofdagi do'stlari orasida bolaga ko'p tanbeh berish, bolaga kattalar tomonidan ortiqcha talabchan bo'lish va o'z aytganini qaysarlik bilan qildirish, bu faqatgina bolani o'z-o'ziga ishonchining susayishiga va mustaqil bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Har doim ham bolaga boshqa bolalarni taqqoslab, "tartibli bola", "sendan ko'ra aqli" mazmunidagi so'zlarni aytish doimiy holatga aylanib qolsa, siz va farzandingiz o'rtasida yaqinlik, iliqlik munosabat uzoqlashib boradi.

Bolalar bilan to'g'ri muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda, bolalarda atrofdagi odamlarga nisbatan qiziqishni uyg'otish, kattalar, ya'ni ota-onasi bilan birgalikda o'qituvchi va tarbiyachilari ham bolaning muloqotiga kirishuvchanligini rivojlantirish uchun hamkorlikda harakat qilishlari ayni muddao bo'ladi.

Yoshlar bizning ertangi kunimiz ekan, biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, har jihatdan barkamol bo'lib, ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liqlik ekanini hamisha yodda tutishimiz va biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur.

Bolalar dunyoning bezagi va gurkirayotgan chechagidir. Uning ruhiyati esa nozik va yozilmagan oppoq qog'oz kabidir. Biz ularni yorqin xotiralarga boy qilib o'stirishimiz uchun, o'sib kelayotgan nihol kabi har tomonlama asrashimiz va avaylashimiz kerak.

## **Adabiyotlar**

1. Зимбардо Ф. Застенчивость (что это такое и как с ней справиться). – СПб.: Питер Пресс, 1996г
2. Галигузова Л.Н. Психологический анализ феномена детской застенчивости // Вопросы психологии. – 2000г- №5.
3. Зимбардо Ф. Застенчивость: / Пер. с англ. - М.: Педагогика, 1991г.
4. Зимбардо Ф., Рэдл Ш. Застенчивый ребенок: как преодолеть детскую застенчивость и предупредить ее развитие / [Пер. с англ. Е.Долинской] - М.: АСТ:Артель, 2005г.
5. Дубровина И.В. Психокоррекционная и развивающая работа с детьми //Под редакцией – М., 1998 г.

## **PEDAGOGIK JARAYONDA STRESS VA AGRESSIV XULQ-ATVORNI BOSHQARISH PSIXOKORREKSIYASI**

**Qarshiyeva D.S. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti vazifasini  
bajaruvchi**

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada pedagogik faoliyat jarayonida bolalar agressiyani boshqarishning psixologik xususiyatlari tahlil qilib berilgan. Pedagoglar tomonidan bolalardagi agressiya darajasini aniqlash, uni keltirib chiqaradigan omillarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, bolada stressning paydo bo‘lish sabablari va ularni bartaraf etish bo‘yicha psixologik tavsiyalar ham keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** agressiya, stress, pedagog, oilaviy muhit, pedagogik jamoa.

## **ПСИХОКОРРЕКЦИЯ СТРЕССА И УПРАВЛЕНИЯ АГРЕССИВНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ**

**Каршиева Д.С. – и.о. доцента Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** В данной статье анализируются психологические особенности управления детской агрессией в педагогической деятельности. А также педагогами определена степень агрессии у детей, глубоко проанализированы причины проявления стресса у ребенка и даны психологические рекомендации по его устранению.

**Ключевые слова:** агрессия, стресс, педагог, семейная атмосфера, педагогический коллектив.

## **PSYCHO CORRECTION OF STRESS AND AGGRESSIVE APPEARANCE MANAGEMENT IN THE PEDAGOGICAL PROCESS**

**Karshiyeva D.S - Acting Associate Professor of Tashkent State  
Pedagogical University**

**Annotation.** In this research thesis analyses the psychological features of management of children's aggression in the pedagogical activities. It was carried out by teachers through an in-depth analysis of omillarni, which produced it when determining the degree of aggression in children. There are also psychological recommendations regarding the causes of stress in the child and their elimination.

**Key words:** aggression, stress, pedagogue, family atmosphere, pedagogical team.

Inson qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar u kasbiy faoliyat bilan bog'liq stressogen omillarga to'qnash keladi. Pedagog kasbi esa "inson-inson" tizimidagi faoliyat sohasi bo'lganligi bois kasbiy stressorga boydir. Stress turli xildagi psixik buzilishlarning kelib chiqishiga sabab bo'layotganligini, natijada xodimlarning ish qobiliyati susayib, ish samaradorligi pasayib ketayotganligini ko'rsatmoqda. Xalqaro stressni boshqarish asossatsiyasi mutaxassislari tomonidan ish jarayonida yuzaga keladigan negativ psixik zo'riqishlar, bolalardagi agressiya, ishchi-xodimlarda kasbiy charchoq, surunkali toliqish, emotsional-irodaviy jarayonlardagi buzilishlar aynan kasbiy stresslarni keltirib chiqaruvchi omil ekanligi asoslanilgan.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Maktabgacha davr bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrdir. Aynan shu davrda bola barkamol shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor qo'yiladi [1;].

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va tarbiyasi – bir butun va uzluksiz jarayon bo'lib, u doimo pedagog va ota-onalarning diqqat e'tiborida bo'lishi zarur. Bola qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanayotganligi, ijtimoiy taraqqiyot yo'lini egallash jarayonida qanday to'siqlar uchrashi mumkinligini oldindan tushunish malakaviy yondashishni talab etadi. Shaxs rivojlanish jarayonida turli o'zgarishlarni boshidan o'tkazadi. Turli xarakter-ga ega bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida, xususan maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvorida o'zgarishlar, jumladan agressiv holatlar kuzatiladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, pedagoglar tomonidan bolalardagi agressiya va uning psixologik jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda "agressiya"ga (lotin. aggressio – hujum) "yo'naltirilgan salbiy xulq-atvor, ijtimoiy muhitdagi qoidalar, normalarga amal qilmaslik, insonlarga jismoniy va ruhiy zarar keltirish",- deya ta'rif beriladi.

"Bolalar agressiyasi – bolalarga xos tajovuzkorona xatti-harakat. U bolalar alam yoki g'azab tuyg'ularini boshlaridan kechirib, ularni izhor etishning ijtimoiy maqbul usullarini topa olmagan yoki kattalarga taqlidan yo'l tutgan paytlarda namoyon bo'ladi. Bola o'z qo'rquvini yashirishga intilgan holatlarda psixologik jihatdan o'zini himoyalash reaksiyasi bo'lishi ham mumkin".

Agressivlik holati ko'pchilik kichik yoshda-gi bolalarga xos bo'lib, ko'p hollarda agressiv xatti-harakat o'tish davrida kuzatiladi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baro' bo'ladi, natijada uning xatti-harakatlarida agressiya elementlari kuzatiladi. Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o'tishi qiyin kechadi.

Agressiv bolalarning xususiyatlari:

- har bir vaziyatda xavf-xatar sezish;
- o'ziga nisbatan salbiy munosabatni his etish;
- atrofdagilarni salbiy idrok qilish;
- o'zini nazorat qila olmaslik;
- salbiy xatti-harakatlarning oqibatlarini o'ylamaslik;
- insonlar va hayvonlarga nisbatan bag'ritoshlik;
- agressiyadan zavqlanish, u yordamida kuchli bo'laman, deb o'ylash.

Agressiv xatti-harakatlar:

- boshqalarga (og'zaki, imo-ishoralar orqali) tahdid;
- jismoniy zo'ravonlik;
- zo'ravonlik qilishda buyumlardan foydalanish, zarar keltirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Nosog'lom oila muhiti:

- oilada mehr-muhabbatning yetishmasligi;
- oilada o'zini ortiqcha, keraksiz his etish;
- hissiyotlariga nisbatan befarqlikni sezish;
- oiladagi notinchlik, urish, janjallar.

2. Kattalarning munosabatlari:

- bolalar bilan negativ muloqot;
- ko'p buyruq berish, ayblov va tahdidlar;
- bolani tanqid va haqorat qilish;
- bolaning xohish-istaklariga qarshi chiqish, hisobga olmaslik. Bu holat bolalarda qasosni rivojlantiradi.

3. Televideniya:

- jangari filmlar;
- multfilmlar.

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaning tengdoshlari bilan munosabati:

- guruhdagi o'rni;
- tengdoshlarining munosabatlaridan qoniqmasligi.

Yuqoridagi holatlardan shu ma'lum bo'ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi.

Bolalardagi agressiv munosabatlar, xatti-harakatlarni bartaraf etishni avvalo oiladagi munosabatlarni o'rganish, ota-onalar bilan hamkorlik qilishdan boshlash lozim. Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishlash qiyin jarayon. Buning asosiy sababi o'sha ota-onalar ham o'z vaqtida agressiv farzand bo'lgan. Ruhiiy qiyinchiliklar esa farzandlarga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi ishni ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishdan boshlashi tavsiya etiladi.

Birinchiidan, ota-onalar bolaga nisbatan fikrini o'zgartirish kerak. Chunki, ota-ona agressiv bolasini noshud deb hisoblaydi, bola ularning hissiyotlari va ro'kachlariga javoban afsuslanadi, o'z aybini his qiladi, kechirim so'raydi va ularni tinchlantiradi, deb kutadi. Ota-onada bolaga nisbatan rahm uyg'otish kerak, sababi agressiv bola har doim baxtsiz bola hisoblanadi.

Ikkinchiidan, ota-onalardan o'zlarining bolaligini eslashni so'rash, yoshlik davridagi agressivliklarining sabablarini yodga solish zarur.

3-7 yoshdagi agressiv bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.

Agressiv bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan usullar hozirgi kunda eng ommalashgan psixoterapevtik ishlarning guruhiiy usulidir.

Boladagi agressivlikni bartaraf etish, ya'ni korreksiya qilishni uning sabablari, kelib chiqishini aniqlashdan boshlash lozim.

Korreksion uslub har bir bolaga alohida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Buni quyidagi korreksion ishlarni ko'rib chiqishda hisobga olish kerak:

1. Agressiyani bartaraf etishda o'yindan foydalanish, yangi ijtimoiy yondashishni tatbiq etish, ma'noni emotsional to'ldirish.

2. Bolaning agressiv harakatlarini taqiqlash (bolaga agressiyani ko'rsatishga yo'l qo'yimaslik).

Psixolog korreksion ishlarni faqat bola bilan emas, parallel ravishda ota-onalar va tarbiyachilar bilan hamkorlikda olib borishi maqsadga muvofiq. Bola har doim uni yaxshi ko'rishlarini sezishi va tushunishi lozim. U ota-onasiga kerakligini his qilishi darkor.

3-7 yoshdagi agressiv bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning vazifalari:

- boshqa shaxs holatini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- ijtimoiy maqbul tarzda o'z his-tuyg'ularini ifoda qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- autorelaksatsiyani o'rgatish;
- muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- shaxsiy yutuqlari asosida o'zini ijobiy tasavvur qilishni shakllantirish;
- atrofdegilarga nisbatan iliq munosabatni shakllantirish;
- zo'riqishlarni bartaraf qilishni o'rgatish.

Bolalarda agressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- jismoniy harakatli o'yinlardan foydalanish;
- qog'oz yirtish;
- urishgisi kelayotgan odam rasmini chizish va yirtib tashlash;
- psixogimnastika bilan shug'ullanish;



- ertakterapiya, izoterapiya (loy, suv bilan ishlash), artterapiya (rasm chizish), musiqiy terapiya, animaloterapiya (uy hayvonlarini silash, erkalash)dan foydalanish.

Agressiv xulqni “yomon” xulq bilan bir xil hisoblash mumkin emas. Og‘ir, xavfli vaziyat paydo bo‘lganida agressivlik himoya vazifasini, ba’zida esa vaziyatni bartaraf etuvchi vazifasini ham bajaradi. Agressiv xulq, ayniqsa, bolada yoshga xos bo‘lgan o‘tish davrida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, o‘tish davrida bola har qanday murakkab vaziyatda qiyinchilikni his qiladi va shu sababli unda agressiv xulqning unsurlarini kuzatish mumkin. Bu shu davrni boshdan kechirayotgan barcha bolalarga birdek tegishli. Bola hissiy olamida buzilish bo‘lganida agressiya odatiy hodisaga aylanadi, hatto xulq-atvorning birdan bir shakli bo‘lib qoladi. Biroq, shunga qaramasdan, bola xulqida agressivlikning bor bo‘lishi ular bilan o‘zaro munosabatda qiyinchilik tug‘diradi. Har zamonda kuzatiladigan agressiv tug‘yonlarni tasodifiy salbiy holat deb baholab bo‘lmaydi.

Shuni esda tutish kerakki, bola hissiy olamining rivojlanishi jarayonida uning faolligi qonuniy ravishda ortishi mumkin. Odatda, kattalar yordamida o‘tkazilgan ruhiy tuzatishning bu zaruriy bosqichida bola o‘zini qurshagan reallikka mos keladigan muloqotni o‘zlashtirishi mumkin.

Bola agressiyasini bartaraf etishni uning sababini aniqlashdan boshlashi lozim. Agar agressiya hissiy olamning buzilishi sababli bo‘lmasa, tuzatish ishlarini uni yo‘qotishga emas, balki salbiy oqibatlarga olib keluvchi agressiv xulqni yumshatish va uning namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratish lozim. Shu bilan birga, kattalarning o‘zini ham boladagi agressiv harakatni ijobiy idrok qilishga tayyorlash lozim.

Boshqa holatda, ya’ni agressiya bola hissiy olamidagi buzilishning namoyon etilishi bo‘lsa, ota-ona harakati bolaning mustahkamlanmagan agressiv harakatiga yo‘naltirilishi lozim. Ularga quyidagicha ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘ladi:

- Agressiyaga moyillikni e’tiborga olmay qo‘yish, unga atrofdagilarning diqqatini qaratmaslik.
- Agressiv harakatlarni o‘yin mazmuniga kiritish va unga yangi hissiy mazmun berish.

Bu orqali bolaning atrofdagilarga zarar yetkazmagan holda agressiv moyilligini chiqarib yuborish (masalan, qaroqchi va kazaklar o‘yinida agressiv xulqli bolaga qaroqchi rolini berish). Eslatma. Agressiya – shaxsning buzg‘unchilikka intilishi bilan xarakterlanuvchi xususiyati bo‘lib, asosan shaxslararo munosabatlar sohasida namoyon bo‘ladi.

O‘smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba’zi olimlar “krizislar”, “tanazzullar” davri ham deb ataydilar. Sababi o‘smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro‘y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o‘zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, o‘zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi. Psixologik

jihtadan o‘shida uning ruhiyatida keskin burilishlar yuz beradi. Bu ko‘rinishlarni biz ularning harakter xususiyatidagi “og‘ish”liklarda ko‘rishimiz mumkin va bu og‘ishliklar ularning xatti-harakatlaridagi “portlash” va agressiyaga (tajovuzkorlikka) moyil bo‘lgan affektiv qo‘zg‘aluvchanlikdir. Bu holat ko‘pincha ijtimoiy adaptatsiyaning (moslashishning) buzilishini, jumladan qonunbuzarlikning sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki affektiv qo‘zgaluvchanlik ko‘p jihatidan o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ endokren sistemaning qayta qurilishi bo‘lsa psixologik o‘zgarish portlash va agressiyaga (tajovuzkorlik) moyil bo‘lgan affektiv qo‘zg‘aluvchanlikdir. Bu holat ko‘pincha ijtimoiy adaptatsiyaning (moslashishning) buzilishini, jumladan, qonunbuzarlikning sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ammo psixik sog‘lom atrof-muhitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o‘smirlarda affektiv qo‘zgaluvchanlik adaptatsiyaning buzilishiga olib kelmaydi.

O‘smir shaxsi xarakteridagi og‘ishlarning shakllanishi ularning tiplarini aniqlash, tibbiy psixologik va tibbiy pedagogik ishlarni aktiv olib borish uchun zarurdir. Xulq-atvori og‘ir o‘smirlarning shaxsi shakllanishiga ko‘pchilik hollarda oilaviy shart-sharoitlar, ota-onaning yoki qarindoshlarning ichkilikbozligi, ularning axloqqa zid xatti-harakatlari salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar uchun odatda o‘qishga, umume’tirof etgan qoidalarga nisbatan zid munosabat bo‘lib, oxir-oqibatda bu uni sinfiga, maktabiga, bilim yurti jamoasiga, qarama-qarshi qilib qo‘yadi. Aksariyat hollarda tarbiyasi qiyin o‘smirlar ichki salbiy munosabatlar natijasida maktab jamoasida o‘z o‘rnini topa olmagan o‘quvchilar bo‘lib chiqadi. O‘smirlik yoshida katta yoshdagilar, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan kelishmovchiliklar ro‘yobga chiqadiki, bu faqat tabiiy o‘sh jarayoni bilangina emas, balki, o‘smirni katta yoshdagilar va tengdoshlararo munosabatlari o‘zgarishi bilan izohlanadi [2;].

Tengdoshlar bilan doimiy muloqotga ehtiyojning kuchayishi, o‘zligini tasdiqlashga intilish, tengdoshlarining o‘zi haqidagi fikr mulohazalariga ta’sirchanlik o‘smirlik davriga xos xususiyatlardir. Psixolog tadqiqotchilar tarbiyasi qiyin o‘smirlarning vujudga kelishiga ijtimoiy muhitdan tashqari, pedagogik, psixologik sabablar ham borligini ko‘rsatadi. Nazariy mulohazalar analizi, o‘smirlarning xatti-harakatlari motivini sistemali o‘rganish jarayoni tarbiyada me’yordan chetga og‘ish sabablari, xilma-xil ekanligini ko‘rsatadi. Balog‘at davrida o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o‘smirni nazoratsiz qoldirishi, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri uyushtirmaslik va o‘qishga nisbatan salbiy munosabat, sinf jamoasi bilan aloqani yomonlashuvi, spirtli ichimlikka o‘rganish, tajovuzkor, serzardalik tarbiyasi qiyin o‘smirlarni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni o‘rganishda ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik sabablar mavjudligini hisobga olish, qonunbuzarlikni kelib chiqish

sabablarini diagnostika yordamida aniqlash, tarbiyasi qiyin o'quvchilar shaxsini o'rganish, ularning psixologik munosabatlarini inobatga olgan holda tipologiyasini tuzish, tipologik xususiyatlarga binoan individual ish olib borish, qonunbuzarlikni oldini olib va tarbiyasi qiyin bolalarni qayta tarbiyalash metodlarini amalga tadbii qilish, bu muammoni yechilishiga yordam beradi. Yuqorida ta'kidlangan nomaqbul oilaviy shart-sharoitlar sirasiga tarbiyasizlikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida maktab, qarindosh-urug', mahallalarni ham kiritishimiz mumkin. Biroq, yomon otanonaning bolasi, albatta, yomon bo'ladi deb hisoblash xatodir. O'smir nomaqbul tashqi ta'sirlarni o'z istaganicha rang-barang tarzda idrok etadi va o'zlashtiradi. U salbiy ta'sirlarni qabul qilmasligi, rad etishi, ularga qarshi kurashishi ham mumkin.

Bolalarning tajovuzkorligini kuchayishi nafaqat o'qituvchilar va psixologlar, balki butun jamiyat uchun eng muhim muammolardan biridir. Ushbu maqolada tajovuzkor bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarining yo'nalishlari haqida gap bordi. Salbiy holatlarga munosabatni ko'rsatadigan tuzatish usuli va texnikasi ko'rsatildi. Agressiv bolalar bilan ishlashning ushbu korreksion yo'nalishining maqsadlari va vazifalari bolani muammoli vaziyatda o'zini nazorat qilishning turli usullarini ko'rishga o'rgatish, shuningdek, bolaga konstruktiv xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berish, shu bilan muammoli vaziyatda uning xatti-harakatlariga ta'sir qilish doirasini kengaytirish va minimallashtirish (ideal holda olib tashlash) dan iborat [3;].

Agressiyaga moyillikni bartaraf etishning ilmiy va uslubiy jihatlari o'smirlarning tajovuzkor xatti-harakatlarini psixokorreksiya qilish masalalari, ushbu ishning metodologiyasi, mashg'ulotlarning tabiati va ularning natijalari keltirilgan. Bunda kognitiv terapiya, gestalt terapiyasi, xulq-atvor terapiyasi va psixoterapiyaning boshqa sohalarida qo'llaniladigan hissiy kasalliklarni tuzatish bo'yicha uslubiy yondashuvlar tahlili keltirilgan. Xususan, kognitiv, gestalt va xulq-atvorli yondashuvlar asosida "Xulq-atvorni modifikatsiya qilish treningi" dasturi ishlab chiqilgan. Trening davomida quyidagi vazifalar hal qilinadi: o'z ehtiyojlarini anglash; salbiy his-tuyg'ularga javob berish va hissiy holatni tartibga solishni o'rganish; yetarlicha o'zini o'zi qadrlashni shakllantirish; maqsadli xulq-atvor, ichki o'zini o'zi boshqarish va salbiy ta'sirlarni oldini olish usullariga o'rgatish; ijobiy, axloqiy pozitsiyani shakllantirish, hayot istiqbollari va kelajakni rejalashtirish shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan holatlarni hisobga olgan holda pedagoglarda kasbiy stressni bartaraf etish va stressga barqarorlikni shakllantirish uchun biz eksperimental guruhga mansub pedagoglarimizda quyidagi xususiyatlarni rivojlantirdik: o'z-o'ziga adekvat baho, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, analitik tafakkur, psixosotsial salomatligiga nisbatan refleksiv munosabat, shaxslararo munosabatlarda tolerantlik, ratsional kun tartibiga rioya etish, emotsional intellekt, ijtimoiy intellekt,

konformlikka intilish hissi, vaziyatga adekvat baho berish, ijtimoiy persepsiya, o'z emotsiyalarini boshqarish.

Agressiv bolalarning ota-onalariga maslahatlar:

Farzandingiz bilan birga o'ynang, farzandingiz salbiy hissiyotlarini o'yin orqali chiqarib yuborsin.

Bolaga agressiv harakatlarining oqibatlarini bosiqlik bilan tushuntiring, agressiv harakatlarga nisbatan javobgarlikni sezishga ko'maklashing.

Farzandingizni kamsitmang, haqorat qilmang.

Uning yutuqlarini, ijobiy xislatlarini ayting.

Bolaga haddan tashqari ko'p to'siqlar qo'ymang, ovozingizni balandlatmang.

Vaziyatni nazorat qilishga harakat qiling, vaziyatni tinchlik bilan tushuntiring.

Jismoniy jazo qo'llamang.

Farzandingizni yaxshi ko'rishingizni aytib turing, mehrlil nigohlaringiz, shirin so'zlaringizni ayamang.

Atrofdagilarga g'amxo'rlik qilishiga imkon yaratib bering.

Bolangizga e'tiborliroq bo'ling, uning emotsional qo'rquvini his qiling.

Bolangizni eshitishni o'rganing, qiziqtirgan savollariga javob bering.

Oiladagi agressiv munosabatlarga barham berishga harakat qiling[4;].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasasida psixolog, tarbiyachi va oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, mehribonlik, g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lsa, agressiv xatti-harakatlarini kamaytirish va yengib o'tishiga imkoniyat yaratiladi. Mashhur oilaviy terapevt Virdjiniya Satir bolani kuniga bir necha marotaba quchoqlashni tavsiya etadi. Uning fikricha, 4 marotaba bag'irga bosish har bir insonga faqatgina yashash uchun kerak ekan, yaxshi kayfiyat uchun esa kuniga 8 marotaba bag'irga bosish kerak ekan! Bola intellektual rivojlanishi uchun esa kuniga 12 marotaba uni quchoqlash kerak! Va shuni bilingki, bu nafaqat bolaga, kattalarga ham kerak[5;]. Bola ota-onasi uni doim tushunishlari va nima bo'lganda ham qabul qilishlarini his etishi kerak. Bolaga ushbu narsalar o'sayotgan organizmga ovqat kerak bo'lganidek judayam zarur. Ular bolani psixologik rivojlantirib, hissiy oziqlantiradi. Agar bola shu qo'llab-quvvatlashni olmasa, hissiy muammolar, xulqida kamchiliklar, agressiv harakatlar kuzatiladi, hattoki, asab-psixik kasalliklar vujudga keladi. Shu sababli agressiv bola bilan ishlash jarayoni—ota-onalar va pedagoglardan sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvni talab qiladi. To'g'ri yo'sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola o'zini nazorat qilish, atrofidagi insonlarga mehrlil munosabatda bo'lishni o'rganadi, ruhiy jihatdan sog'lom o'sadi, mustaqil fikr yuritadi va katta hayotga dadil qadam qo'yishga tayyorlanadi.

## **Adabiyotlar**

1. Rakhmankulova Z.A., Rakhimova S. The Causes Of Aggression Of Preschool Age Children And The Ways Of Correction. *Замонавий Таълим / Современное Образование* 2016, 1.
2. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To'uchiyeva S. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. – T., 2004.
3. Rasulova F. Psychocorrecional Work Of A Practical Psychologist With Aggressive Behavior Of Children And Teenager. *The Light of Islam*, Vol. 2020, Iss. 1, Art. 20
4. Musurmonova O. va boshqalar. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim atamalarining izohli lug'ati*. – T.: "Bekinmashoq-Plyus", 2011.
5. Vahobova F., Zaynutdinova D. *Rivojlantiruvchi o'yinlar*. – T.: «Bekinmashoq-Plyus», 2009.
6. Nishonova Z., Alimova G. *Bolalar Psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi muammolari*. – T.: "Fan" nashriyoti 2005.
7. Sirliyev B., Ismailova N. *Stress va agressiya*. – T., 2014.

## **O'QUVCHILARNING MUTOLAA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TADQIQOTLARNING O'RNI**

**Adilova S.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi**

**Yunusova Sh.M. - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy jamiyatda yashash va mehnat qilishga tayyorgarlikning asosiy parametrlaridan biri sifatida mutolaa savodxonligi, O'zbekiston o'quvchilarining PIRLS xalqaro imtihonidagi ishtiroki, undan kutiladigan natijalar xususida fikr yuritiladi. Mazkur imtihonda ishtirok kichik yoshdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarini maqsadli rivojlantirishda muhim tadbir bo'lishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** mutolaa savodxonligi, kitobxonlik madaniyati, savodxonlik, xalqaro tadqiqot, PIRLS – mutolaa va matnni tushunish sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot.

## **РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИТИИ ГРАМОТНОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ**



**Адилова С.А. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат педагогических наук**  
**Юнусова Ш.М. - старший преподаватель Ташкентский государственный педагогический университет**

**Аннотация.** В статье читательская грамотность рассматривается как один из самых важных параметров готовности к жизни в современном обществе. Участие Узбекистана в международном исследовании предполагает, прежде всего, модернизацию национальной системы образования в соответствии с современными требованиями к качеству образования. Участие узбекских школ в предстоящем международном экзамене PIRLS станет одним из механизмов целенаправленной работы по развитию учебно-информационных умений младших школьников.

**Ключевые слова:** читательская грамотность, международное исследование, PIRLS - международное исследование, по оценке качества чтения и понимания текста.

## **THE ROLE OF INTERNATIONAL RESEARCH IN THE DEVELOPMENT OF STUDENT LITERACY**

**Adilova S.A - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Pedagogical Sciences**

**Yunusova Sh. M. - senior teacher of the Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** In this article reading literacy is considered as one of the most important parameters of readiness for life in modern society. The participation of Uzbekistan in international research presupposes, first of all, the modernization of the national education system in accordance with modern requirements for the quality of education. The participation of Uzbek schools in the upcoming international PIRLS exam will become one of the mechanisms for focused work on the development of educational and informational skills of primary school students.

**Key words:** reading literacy, international research, PIRLS - international study to assess the quality of reading and understanding of the text.

Kishining mutolaa (kitobxonlik) kompetensiyalari uning kommunikativ ko'nikmalarini belgilashi haqidagi fikr munozara qilinmaydi. O'qimishli (ko'p mutolaa qilgan) kishi bilan suhbatlashish hamisha maroqli. Pedagogik amaliyotda mashhur fikr, o'ziga xos trend: boshlang'ich maktabda mutolaa



kompetentsiyalarining yuqori darajasi – o‘rta maktabda muvaffaqiyatli o‘qish garovi ekani haqida ortiqcha gapirish o‘rinsiz.

O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiyalash, birinchi navbatda, ta’lim muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan. Bunda ta’lim jarayonining natijaviyligi ta’lim oluvchini tashqi va ichki baholash natijalarini boshqarishning samarali, professional darajada qurilgan tizimi bilan bevosita bog‘liq.

O‘quvchilar ta’limining muvaffaqiyatliligi faqat milliy imtihonlar emas, ta’lim oluvchilarning ta’limiy muvaffaqiyatlari, mustaqil xalqaro qiyosiy monitoring tadqiqotlari bilan ham bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limini rivojlantirishning 2030 - yilgacha konsepsiyasida o‘zbekistonlik o‘quvchilarning *PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)* mutolaa va matnni tushunish sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotda ishtirok etishi belgilangan. Bu noyob tadqiqot ko‘proq mamlakatda bolalarning elementar ko‘nikmalari va kitobxonlik madaniyati qay darajada tarbiyalanganligini aniqlashga qaratilgan. Dunyo kontekstida kitobxonlik madaniyati, savodxonlik zamonaviy jamiyatda yashashga tayyorlikning eng muhim parametrlaridan biri sifatida qaralmoqda [1;].

Boshlang‘ich maktabdayoq bolalarning ta’limda muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biri – o‘quvchilarning axborotga oid kompetentligi shakllantiriladi, chunki boshlang‘ich maktabda olingan sifatli ta’lim keyingi barcha ta’limning mustahkam poydevori sanaladi. Zamonaviy o‘qituvchidan ta’lim oluvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga maksimal darajada ko‘maklashadigan o‘quv faoliyati shakl, metod va usullarini topish va qo‘llash talab qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kichik yoshdagi o‘quvchilarda matn bilan ishlash asosi: axborot manbasini bilish, o‘zini qiziqtirgan savolga javob izlash, tanlangan materialni savodli rasmiylashtirish va taqdim qilish malakalarini shakllantirishi katta ahamiyat kasb etadi. Olingan bilim va o‘zlashtirilgan turli axborot manbalari bilan ishlash malakalari bolalarga axborotni savodli idrok qilish, uning sifatini baholash, uning yashirin mazmunini tushunish va anglashda ko‘maklashadi. Mutolaa savodxonligi bilan bog‘liq malakalarni shakllantirish o‘quv jarayoni komponentlari, tarbiyaviy tadbirlar va qo‘shimcha ta’limning uzviy o‘zaro aloqadorligi sharoitida muvaffaqiyatli kechadi. Ota-onalar, jamoatchilik bilan oilaviy mutolaani kengaytirish va rivojlantirishga oid ishlarni maqsadli olib borish ham muhim.

O‘zbek maktablarining oldinda turgan xalqaro imtihonda ishtiroki kichik o‘quvchilarning o‘quv-axborot malakalarini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ishlarning yana bir mexanizmi bo‘ladi, u nafaqat boshlang‘ich maktab bitiruvchisiga ta’limning keyingi bo‘g‘inida bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish, balki o‘zbek yoshlarining mutolaa savodxonligini shakllantirishga ham ko‘maklashadi.

PIRLS – mutolaa va matni tushunish sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot – *IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement)* ta'limiy muvaffaqiyatlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi dasturi. PIRLS tadqiqotining maqsadi dunyoning turli mamlakatlari to'rtinchi sinf o'quvchilarining matni tushunish darajasini qiyoslash, shuningdek, milliy ta'lim tizimlarida mutolaa savodxonligiga o'rgatishdagi tafovutlarni aniqlashdan iborat.

Mazkur tadqiqotning yetakchi ekspertlari tomonidan tayyorlangan xalqaro glossariyga ko'ra, mutolaa savodxonligi – insonning hayotda o'zini to'laqonli realizatsiyalashi va o'z maqsadlariga erishishi uchun zarur yozma nutqning turli shakllarini tushunish va mantiqiy anglashga qodirligi. Bu bilan ta'limga oid siyosatning muhim bo'lgan inson va jamiyat manfaati uchun prinsipi realizatsiya qilinadi.

PIRLS tadqiqoti doirasida mutolaaning darslarda va maktabdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar tomonidan boshqalariga qaraganda ko'proq qo'llanadigan ikki turi baholanadi:

- badiiy adabiyotni mutolaa qilish tajribasini egallash uchun mutolaa;
- axborotni o'zlashtirish va qo'llash maqsadida mutolaa.

Test o'tkazish jarayonida o'quvchilarga ikkita (bitta badiiy va bitta axborotli) matni o'qib chiqish va matn yuzasidan 14-16 ta topshiriq taklif qilinadi. Topshiriqlar javob shakliga ko'ra turlicha: taklif qilingan to'rtta javobdan birini tanlash kerak bo'lgan topshiriqlar; hodisalar ketma-ketligini aniqlashga oid topshiriqlar; erkin tuziladigan javobni ko'zda tutadigan topshiriqlar.

Ishni bajarish uchun o'quvchilarga 80 daqiqa (40 daqiqadan ikki qismga bo'lingan holda tanaffus bilan) beriladi.

Tadqiqotning konseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborotli (ilmiy-ommabop) matnlarni mutolaa qilishda kitobxonlik (mutolaa) malakalarining to'rtta guruhi baholanadi:

- oshkor ko'rinishda taqdim qilingan axborotni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- axborotni talqin qilish va umumlashtirish;
- matn mazmuni, tilga oid xususiyatlari va strukturasi tahlil qilish va baholash [2; 11-b.].

Qatnashchilarning o'quv va mutolaa (kitobxonlik) muvaffaqiyatlarini baholash maktab ta'limi sifatini baholash sohasi xalqaro ekspertlari tomonidan qabul qilingan, o'quvchilarning kitobxonlik malakalarini egallaganligi asoslangan muayyan darajalariga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur darajalar o'quvchilarning tadqiqotda taklif qilingan matn bilan ishlashda murakkablik darajasiga ko'ra turlicha o'quv faoliyatini tavsiflaydi. Darajalarning aniq mezonlari bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlariga ajratish imkonini beradi, ularning mutolaa savodxonligi

jihatidan tayyorgarligi ma'lum darajani tavsiflaydigan muayyan topshiriqlar yordamida tavsiflash mumkin [3; 16-b.].

PIRLS tadqiqoti quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- ta'lim sohasida dunyo miqyosidagi ustuvorliklarni aks ettiradigan obyektiv o'lchovlar va instrumentariyni ishlab chiqish;
- mamlakatda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish samaradorligini qiyosiy baholash;
- tadqiqot yakunlariga ta'sir o'tkazgan kontekst omillarni aniqlash;
- ilmiy asoslangan, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof qilingan axborot ma'lumotlarini olish;
- tadqiqot qatnashchilariga nafaqat mamlakatdan mustaqil natijalar, balki ta'limga oid siyosatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar taqdim qilish va sh.k.

Tadqiqot obyekti boshlang'ich maktab bitiruvchilarining ta'limiy yutuqlari hisoblanadi, chunki aynan ta'limning to'rtinchi yili o'qishga oid barcha ko'nikma, malakalar va bilimlarni akkumulyatsiyalaydi. Bu davrga kelib, o'quvchilar asosiy maktabda ham mazmuni, ham formatiga ko'ra turli matnlardan ta'limni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun foydalanadigan darajada mutolaani egallashi lozim. Tadqiqot besh yilda bir marta o'tkaziladi. PIRLS tadqiqotida dunyoning 50 dan ortiq mamlakatining ishtirok qilishi shu bilan belgilanganki, tadqiqotni professional tashkiliy darajada metodologik va texnik qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi. Ko'rsatkichlar talqinning universalligi va ishonchliligini, olingan ma'lumotlarni tezkor jamlash va qayta ishlash imkonini beradi. Mutolaa savodxonligining asosi matn bilan to'laqonli ishlash uchun zarur kitobxonlik malakalarining shakllanganligi hisoblanadi. Bu o'quvchining zarur axborotni topishi va qayta yaratishi, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalarni shakllantirishi, bosh qahramonlarning xatti-harakatlarini talqin qilishi, matndan misollar bilan tasdiqlashi va matn tuzilishini dastlabki tahlil qila olishidir.

Turli mamlakatlarda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotidan olingan natijalar pedagogik hamjamiyat tomonidan keng muhokama qilinadi. Masalan, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Singapur o'quvchilarining TIMSS, PISA, PIRLS xalqaro imtihonlarida muvaffaqiyati formulasi ularning "Qat'iyat va yetakchilik, matematikani bilish, fizikadan kuchli bo'lish va albatta, kitobxonlik ko'nikmalari!" degan shiorida mujassam. O'quvchilar muvaffaqiyatining olingan natijalari oqibatlarini monitoring mexanizmlari amalga oshiradi, ta'lim texnologiyalari va kichik yoshdagi o'quvchilarning ta'limiy yutuqlariga talablar qayta ko'rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida o'tkaziladigan o'quvchilarning mutolaa savodxonligiga oid xalqaro test topshiriqlari asosida pedagogik jamoalar va novator o'qituvchilar nafaqat o'quvchilarning o'quv faoliyati muvaffaqiyatlarini baholash, balki, avvalo, kitobxonlik malakalari va madaniyatini mamlakat yoshlarining ta'limiy

muvaffaqiyatining muhim omili sifatida shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan savollarning milliy bazasini shakllantiradi.

Yuqorida tilga olingan milliy bazaga kiritilishi mumkin bo'lgan savollarga misol keltirish uchun quyidagilarni bayon etamiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun yaratilgan "O'qish kitobi"da berilgan "Kichik vatan" matnini olaylik. Matnda tug'ilib o'sgan hovlisidan ko'chib ketayotgan Jo'ra boboning kechinmalari uning nabirasi tilidan berilgan. Odatda bunday matnlar ustida ishlashda quyidagicha savollar beriladi:

*Ushbu hovli boboga kimdan meros bo'lib qolgan edi?*

*Erdon tog'a kim?*

*Jo'ra bobo nimani ko'rib ko'ziga yosh oldi?*

*Jo'ra bobo shu hovlida qanday kunlarni o'tkazgan?*

Mazkur savollarning javobi quruq faktlarni takrorlash, matndan tayyor gaplarni topish kabi holatlarni ta'minlaydi xolos.

Savollar matnning mazmunini anglash va qayta hikoyalashga yo'naltirish bilan birga o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ham o'rgatishi kerak. Yuqorida berilgan savollarga o'quvchilar ko'p o'ylamay ham "otasidan", "uyning yangi egasi", "uyning yangi egalari ko'chlarini tushirish va kiritishini ko'rib", "yaxshi va yomon kunlarni" degan javoblarni matnning o'zidan osongina olib berishlari aniq.

O'quvchilarning matn mazmunini to'liq tushunishlariga xizmat qiladigan, ularni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka chorlaydigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

*Jo'ra bobo nega g'amgin bo'lib qoldi?*

*Nega boboning ko'zlari aynan uyning yangi egalari o'z ko'chini tushirayotgan paytda namlandi, nega avvalroq emas?*

*Nima deb o'ylaysiz, nega faqat bobo xomush ko'rinyapti, nega oilaning boshqa a'zolari u qadar xomush emas?*

*Sizningcha, Erdon tog'a qanday odam? Fikringizni izohlang.*

*Nima uchun bobo hovlini kichik vatan deb atadi?*

*Siz «kichik vatan» deganda nimani tushunasiz?*

*Sizning kichik vataningizda siz uchun nimalar qadrli? (yoki Uyingizdagi nimalarni, qaysi joylarni ko'proq yaxshi ko'rasiz? Nima uchun?)*

*Siz yashab turgan uyingizdan boshqa uyga ko'chishni istaysizmi? Nega?*

*Hikoyaning asosiy g'oyasi nima?*

O'ylaymizki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda ularga aynan tuyg'ularni junbushga keltiradigan savollar bilan murojaat qilish yaxshi samara beradi. Bu esa o'z o'rnida O'zbekiston o'quvchilarining xalqaro imtihonlarda munosib ishtirok etib yuqori natijalar ko'rsatishiga olib keladi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi
2. PIRLS tadqiqoti haqida to‘liq axborot. Институт стратегии развития образования Российской академии образования Центр оценки качества образования <http://centeroko.ru>
3. Оценка качества чтения и понимания текста учащимися начальной школы PIRLS. - Астана: НЦОСО, 2013.
4. Оценка влияния родителей на формирование функциональной грамотности школьников. Аналитическое заключение. - Астана: АО «ИАЦ», 2015. - 64 стр.
5. S.Matchonov [va boshq.]. O‘qish kitobi 4-sinf: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik - Qayta ishlangan va to‘ldirilgan oltinchi nashr. - Toshkent: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. 17- b.

## **ONA VA BOLA MUNOSABATLARIDA TASAVVURLARNING O‘RNI**

**Abdullayeva D.U. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsent  
vazifasini bajaruvchi, PhD**

**Annotatsiya.** Maqolada ona individual psixologiyasi negizida ota,ona,farzand munosabatlari ko‘rib chiqilgan. Onaning ayol ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari uning farzandi bilan bo‘lgan munosabat xususiyatlarini belgilashi empirik tadqiqotlar natijalari asosida ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tasavvur, psixologik omil, ijtimoiy rol, o‘smir farzand, ota-ona - bola munosabatlari, ona munosabati.

## **РОЛЬ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ В ОТНОШЕНИЯХ МАТЕРИ И РЕБЕНКА**

**Абдуллаева Д. У. - и.о. доцента Ташкентского государственного педагогического университета, PhD**

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема детско-родительских отношений в контексте индивидуальной психологии матерей. На основе эмпирических данных раскрывается роль представлений матерей о социальных ролях женщин в определении особенностей их отношения к детям.



**Ключевые слова:** представления, психологический фактор, социальная роль, подростки, детско-родительские отношения, материнское отношение

## **THE ROLE OF IMAGINATION IN MOTHER-CHILD RELATIONSHIPS**

**Abdullayeva D.U. - Acting associate professor of Tashkent State Pedagogical University PhD**

**Annotation.** Parents and children relations are learned on the basis of individual mother psychology in the article. Imaginations about woman social roles of mother and defining the features of attitudes with her child are revealed by empiric researches.

**Key words:** Imagination, psychological factor, social role, teenage children, relations of parents and children, attitudes of mother.

Shaxslararo munosabatlarda odam xulq-atvorining boshqarilishi murakkab ichki mexanizmga ega bo'lgan psixologik jarayondir. Ushbu jarayonning sifat samaradorligi ko'plab ijtimoiy va individual-psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Odamlar o'zaro ta'sirlashuv jarayonida bir-biriga nisbatan namoyish etadigan munosabat xususiyatlarini belgilab beruvchi muhim subyektiv omillardan biri ular egallagan ijtimoiy rollarga muvofiq talablardan iboratdir. Darhaqiqat, odamning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'zni asosida undan kutilayotgan xatti-harakatlarning meyoriy tizimi sifatida gavdalanuvchi rol [7; 383-b.] uning doirasida o'zaro ta'sirlashuvga kirishayotgan tomonlar bu jarayonda xulq-atvorning tegishli shakllarini namoyon etishga, ba'zilaridan saqlanishga majbur bo'ladi. Chunki, har qanday ijtimoiy rol bajarilishi va bajarilmasligi shart bo'lgan hamda muayyan vaziyatda bajarilishi ma'qul ko'riladigan talablar tizimidan tashkil topadi[2],[4]. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy rol shaxslararo munosabatlar davomida ro'yobga chiqariladigan xulq-atvorning vektorini belgilab beradi va undan chetga chiqmasligining o'ziga xos nazoratchisiga aylanadi. Bunda rol ijtimoiy nazoratchi sifatida namoyon bo'ladi. Zero, u odamning ijtimoiy aloqalar tizimidagi o'zni bilan belgilanib, uning individual-psixologik xususiyatlaridan nisbatan mustaqildir [2], [4], [7].

Ijtimoiy rol uning egasiga o'z xulq-atvorini tegishli kutilmalarga moslashtirishni talab qilishi ushbu psixologik tuzulmaning shaxslararo munosabatlarda namoyon etadigan regulyativ funksiyasining bir tomoni xolos. Qator maxsus tadqiqotlar[2], [4], [7] ning natijalari hamda kundalik turmushda shaxslararo munosabatlarni kuzatish yuzasidan hosil bo'lgan xulosalar shuni tasdiqlaydiki,



odamning boshqalarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlari ularning xatti-harakatlarini avvaldan bashorat qilishi hamda tanqidiy jihatdan baholashi uchun asos bo'ladi. Haqiqatdan ham shaxslararo munosabatlarning muayyan aniq vaziyatda ma'lum shaxs qanday ijtimoiy rol talablari darajasida harakat qilishi lozimligi haqida tasavvurga ega bo'lishi u bilan o'zaro ta'sirlashuv jarayoni modelini avvaldan tuzish, uning xatti-harakatlarini baholash uchun mezonlarning oldindan shakllantirib olishga imkoniyat beradi.

Har qanday ijtimoiy rolni egallash jarayoni dastlab uning mazmuni haqida turli manbalar yordamida bilimning to'planishi, so'ngra internalizatsiya, ya'ni yig'ilgan ma'lumotlar asosida rol mohiyatini anglash, uni qabul qilishga va uning talablariga monand yo'l tutishga tayyorlikning shakllanishi bosqichlarini o'z ichiga oladi [7; 388-b.].

Ijtimoiy rol uning egasiga o'z xulq-atvorini tegishli kutilmalarga moslashtirishni talab qilishi ushbu psixologik tuzulmaning shaxslararo munosabatlarda namoyon etadigan regulyativ funksiyasining bir tomoni xolos. Qator maxsus tadqiqotlarning natijalari hamda kundalik turmushda shaxslararo munosabatlarni kuzatish yuzasidan hosil bo'lgan xulosalar shuni tasdiqlaydiki, odamning boshqalarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlari ularning xatti-harakatlarini avvaldan bashorat qilishi uchun asos bo'ladi. Masalan, K.N.Belogay o'z tadqiqotida onalik munosabati tarkibida emotsional komponent markaziy o'rinni egallashini, uning tuzilishida esa onaning o'z roli, undan qoniqish darajasi bilan bog'liq kechinmalar yetakchilik qilishini isbotladi [1].

R.V.Ovcharova ota-onalarning bolalarga nisbatan namoyon etuvchi munosabatini ko'p jihatdan ularning o'z ota-onalik rolini qanday qabul qilishi belgilab berishiga e'tibor qaratib, bunda rol yoki shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun to'siq yoki yangi imkoniyat sifatida idrok etilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Mutaxassisning qayd etishicha, ota-onalik rolini shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun to'sqinlik sifatida tushunayotgan odamlarni farzand bilan bo'lgan munosabatda odatda ayni vaqtdagi holatlardan ko'ra ko'proq e'tiborni taxminiy kelajak yoki o'tmishdagi vaziyatlarga qaratish xususiyati ajratib turadi. Bunday sharoitda, R.V.Ovcharovanning fikricha, ertami-kechmi ota-ona va farzand munosabatlarida buzilish ro'y beradi [6; 46-b.].

Ona-bola munosabatlari psixologiyasini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari orasida ushbu hodisani bevosita tasavvurlar bilan bog'lab tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Onalarga xos bo'lgan tasavvurlar muammosi bevosita bola bilan munosabatlar nuqtayi nazaridan asosan, turli narsa-hodisalar haqida ikkala tomonning tasavvurlari naqadar bir biriga mosligi, bunda qanday omillar rol o'ynashi ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqotlarda xavotirli vaziyatlar haqida ona va bolaning tasavvurlari bir-biriga qanchalik o'xshashligi tekshirilgan [9]. Albatta, bu kabi tadqiqotlar ona va bola o'rtasidagi munosabatlar ularning turli masalalarda o'xshash va yaqin tasavvurga egaligiga qanchalik bog'liqligini tushunishda yordam beradi.

Bu yo'nalishda ota-ona va bola munosabatlarida kattalarning tasavvurlari o'zini qanday namoyon etishi ham alohida o'rganilgan. Xususan, hamkorlik strategiyasi asosida bola bilan munosabat qurishga intiluvchi ota-onalarning real va ideal farzand haqidagi tasavvurlarida uyg'unlik mavjudligi qayd etilgan. Aksincha, bola bilan munosabat uchun nazorat uslubini tanlangan ota-onalar bolaning obrazida ko'proq "ko'ngilchan", "bo'shang", "diqqat-e'tiborsiz", aqlli va maqsadga intiluvchan bolani ko'rishlari aniqlangan[3].

Farzand bilan munosabatlarni aynan tasavvurlar prizmasi ortidan o'rganishga qaratilgan yana bir qator tadqiqotlarda, tasavvurlar munosabat omili sifatida emas, balki munosabatlarning ta'sirida o'zgaruvchi hodisa sifatida ko'riladi. Masalan, A.S. Eisenhower, B.L.Baker, J.Blacher nafaqat bola bilan bo'lgan munosabat xususiyatlari, balki bolaning jismoniy rivojlanishida orqada qolishi onaning o'z salomatligi haqidagi tasavvurlariga ta'sir ko'rsatishini, jumladan, onalar o'z salomatligiga past baho berishini aniqlaganlar [8;].

Demak, qator psixologik tadqiqotlarning natijalarida ijtimoiy rollar haqida onada shakllangan tasavvurlar uning farzandiga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga ishoralar mavjud. Biroq, aynan onaning o'z ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari uning o'smirlik yoshidagi farzandi bilan bo'lgan munosabatida qanday aks etishi mumkinligini tekshirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan. Bizning tadqiqotimizda aynan shu yo'nalishda, ya'ni onalarning o'smir farzand bilan bo'lgan munosabatiga ularda o'z ijtimoiy rollari haqida shakllangan tasavvur xususiyatlari qanday ta'sir o'tkazishini tekshirishga qaratilgan empirik izlanish natijalari bayon etilgan.

O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalarida onalarning ayollarga xos ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari bilan ularning o'z o'smir yoshidagi farzandlariga bo'lgan munosabati xususiyatlari o'rtasida o'ziga xos aloqa-bog'lanishlar mavjudligi qayd etildi.

### **1 – jadval**

**Ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvur bo'yicha farqlanuvchi onalarning o'smir farzandga munosabat xususiyatiga ko'ra nisbati (% hisobida)**

		Farzandga munosabat xususiyatlari
--	--	-----------------------------------

№	Ayol ijtimoiy rollari haqidagi tasavvur bo'yicha farqlanuvchi shartli guruhlar	Emotsional rad etish	Kooperatsiya	Cimbioz	Avtorita rizm	Infantilizatsiya
1	Ayolni ko'proq "uy bekasi" rovida tasavvur qiluvchi onalar	1 3,1 %	8 ,3 %	3 2,8 %	1 4,7 %	1,1 %
2	Ayolni ham "uy bekasi" ham "faol ayol" rovida tasavvur qiluvchi onalar	1 2,5 %	3 3,3 %	8 ,35 %	3 7,5 %	,35 %

Tadqiqotimiz natijalari tahlilidan, ayol kishining ustuvor ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlarga ko'ra farqlanuvchi onalar o'z o'smir farzandlariga bo'lgan munosabati mezon bo'yicha differensial ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, ayolning ijtimoiy rollarini ko'proq "uy bekasi" roli bilan chegaralangan holda tasavvur qilishga moyil ayollar o'smir farzandiga munosabatda simbioz-haddan tashqari bog'lanib qolish (32,8 % ayolda) hamda infantilizatsiya - yosh boladek munosabatda bo'lish (31,1% ayolda) uslubiga moyilliklari qayd etildi. Ayolning ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlarida uning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ham salmoqli o'rin beradigan ayollar farzandiga nisbatan munosabatda kooperatsiya-hamkorlik qilish (33,3 % ayolda) hamda avtoritarizm-o'z ustunligini namoyon etish (37,5 % ayolda) xususiyatlarini o'z ichiga olgan munosabat uslubini ma'qul ko'rishlari kuzatildi. Ayol kishining ijtimoiy rollari xususida ega bo'lgan tasavvurlarida tafovut qayd etilgan ikki shartli guruhga kiruvchi onalarning farzandga munosabat ko'rsatkichlarida aniqlangan farqning statistik ahamiyat darajasini tekshirish amaliyoti ham o'rtadagi differentsiatsiya ahamiyatli darajada ekanini ko'rsatdi

Qayd etilgan natijalarni, bizning fikrimizcha, tasavvur mazmuni va ko'lamining inson shaxs sohasi bilan chambarchas bog'liqligi, uning kundalik xulq-atvorida anglangan yoki anglanmagan holda, albatta, namoyon bo'lishi bilan tushuntirish kerak. Ushbu postulatga tayanib shuni taxmin qilish mumkinki, ayol kishini "uy bekasi" roli bilan cheklab idrok etishga moyil onalarda uning faolligi to'liq oila, uy, ro'zg'or sohasida ro'yobga chiqarilishi adekvatligi to'g'risidagi qarash yaqqol ustun bo'ladi. O'z-o'zidan ayonki, bu sohada shaxs faolligi asosan oila a'zolarining oiladagi va undan tashqaridagi ko'rinishi, uy-joyning o'zi, undagi odamlar ehtiyojlariga xizmat qilishi uchun mavjud ashyolar va vositalardagi tartibni

ta'minlashga, oilada uning a'zolari o'zlarining qandaydir asosiy faoliyatiga mukammal tayyorlanishiga sharoit yaratish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitda, tabiiyki, oilaning o'z farzandi bilan makon va vaqt nuqtayi nazaridan aloqalari chastotasi yuqori bo'ladi. Shuning uchun, nazarimizda, ular o'rtasida simbioz tipidagi, ya'ni ona o'zini farzandi bilan yakdil, bir butun his eta boshlashi, uning barcha ehtiyojlarini qondirishga, uning qiyinchiliklardan chegaralashga intilishi bilan tavsiflashuvchi munosabat ustunlik qiladi.

Farzandning har kuni bevosita zich tartibda nazoratda bo'lishi uning kichik va kuchsiz tarzda idrok etilishiga, bu esa unga nisbatan infantilizatsiyalashtiruvchi munosabat shakllanishiga qulay sharoit yaratadi. Ehtimol, aynan shu sababli tasavvurida ayol uy bekasi roli bilan chegaralanadigan onalarda simbioz uslubidagi munosabatdan tashqari infantilizatsiya tipidagi, ya'ni bolani ojiz, hayotga yaxshi moslashmagan, salbiy ta'sirga nisbatan ta'sirchan odamdek idrok etishiga asoslangan munosabat ustuvorligi kuzatilmogda. O'zaro munosabatlarda bunday yondashuv ustun bo'lganda ona bolaning ish yumushlardagi no'noqligi, noqobilligida diqqatini jamlashga, bu holatni e'tiborga olib uni hayot qiyinchiliklaridan chegaralashga va xatti-harakatlarini tinimsiz nazorat qilishga moyil bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarida ayol nafaqat uy bekasi, balki ijtimoiy-siyosiy faol shaxs sifatida aks etadigan onalarning o'z farzandiga bo'lgan munosabatida kooperatsiya va avtoritarizm unsurlari ustunlik qilishi aniqlandi.

Bunday natijani ham, bizning fikrimizcha, mazkur toifa onalarda zamonaviy jamiyatda ayolning o'rniga nisbatan shakllangan o'ziga xos ustanovkalar bilan tushuntirish mumkin. Ayol jamiyatning faol a'zosi sifatida ushbu ijtimoiy mavqega mos rollarni bajarishi kerak deb hisoblaydigan onalarga shaxs darajasida tashabbuskorlik, hayotda yorqin iz qoldirishga intilish, yangilik uchun ochiqlik, ijtimoiy fikrdan nisbiy avtonomiyani saqlay olish, yuqori talabgorlik darajasi xos bo'lishini kutish o'rinli. Shubhasiz, bunday sifatlar bilan onaga farzandga bo'lgan munosabatda uni o'ziga teng olishi, unda mustaqillikni rivojlantirishga intilishi, bahsli vaziyatlarda uning tomonini olishi, ya'ni kooperatsiyaga asoslangan o'zaro ta'sirlashuvga kirishi oson kechadi.

Alohida e'tiborga loyiq jihatlardan biri shundaki, ayollarning ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari ta'kidlangan yo'nalish bilan tavsiflanuvchi onalarning natijalarida, shuningdek avtoritarizmga asoslangan munosabatga moyillik ko'rsatkichlari yuqoridir. Bizning fikrimizcha, ayollar nafaqat "uy bekasi", balki ijtimoiy-siyosiy faol shaxs rolini o'zlashtirishi mumkinligi haqida mulohaza yurituvchi onalar orasida farzandga munosabatda kooperatsiya uslubidan tashqari avtoritarizm unsurlariga ega o'zaro ta'sirlashuv modeli ustun onalarning ko'pchilikni tashkil etishi o'ziga xos psixologik bog'lanishdan darak beradi. Nazarimizda,

o'zining kasbiy va ijtimoiy faolligi hisobiga oila yumushlarini bajarish uchun vaqt taqchilligiga uchrayotganda onalar o'z individual-psixologik xususiyatlari, qurshab turgan ijtimoiy muhit sifatlariga bog'liq ravishda farzandga bo'lgan munosabatda ikki qarama qarshi qutbdagi uslublardan birini tanlaydi: yoki bolasining ishlari, rejalariga yanada kattaroq qiziqishni, yordam berish uchun yanada ko'proq tayyorlikni namoyon etadilar (kooperatsiya) yoki uning qat'iy bo'ysunishini, belgilangan intizomga so'zsiz rioya etishini talab qiladilar (avtoritarizm).

Muhokama etilayotgan toifa onalarning bunday munosabat strategiyasi asosida, shubhasiz, chuqur subyektiv kechinmalar mavjud bo'lib, ular orasida fikrimizcha, aybdorlik hissi markaziy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, tadqiqotlarda ishlaydigan ayollar uchun o'ziga xos rollar kurashi, ya'ni uy bekasi va ishchi xodim rollari o'rtasida kurash bo'lishi mumkinligi hamda buning oqibatida unda bir tomondan oila a'zolari oldida, ikkinchi tomondan, ishdagi rahbariyat oldida aybdorlik hissi uyg'onishi xosligi aniqlangan. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanuvchi ayollarda, haqiqatdan ham aybdorlik hissi uyg'ongan taqdirda, bizningcha, uning aynan kim oldida kuchliroq ekani yakunda farzand bilan munosabatda qanday strategiya tanlanishini belgilab beradi. Agar aybdorlik hissi farzand oldida bo'lsa giperkompensatsiya mexanizmi onani kooperatsiyani kuchaytirishga, vaziyat vujudga kelganda bolaga yanada g'amxo'rlik, e'tibor bilan munosabatda bo'lishga undaydi. Lekin bunday his mehnat faoliyati oldida bo'lsa, ona bolani muayyan kasbiy maqsadlarga erishishni qiyinlashtirayotgan odam sifatida idrok etib, uning ta'sir ehtimolini pasaytirish uchun avtoritar tarzda faollik chegaralarini o'ziga qulay ko'lamda, qattiq nazorat qilish imkoniyatini beradigan darajada belgilashga moyil bo'ladi. Albatta, onaning bunday munosabati mustaqillikka erishish ehtiyoji birinchi o'ringa ko'tariladigan, tobelik o'ta yoqimsiz idrok etiladigan o'smirning e'tiroziga sabab bo'ladi va natijada nizoli vaziyat yetiladi.

Tadqiqotlarda erkak va ayollarning an'anaviy rollari transformatsiyasi bilan shaxsning ichki hamda shaxslararo nizolari ortishi o'rtasida bog'lanish mavjudligi aniqlangan [5; 130-b.]. Bizning tadqiqotimiz natijalari esa er va xotin ijtimoiy rollaridagi o'zgarishlar nafaqat ularning o'zaro, balki farzandlariga bo'lgan munosabatida nizoli holatlar ehtimolini oshirishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

Ayol kishining ijtimoiy rollari xususida ega bo'lgan tasavvurlarida tafovut qayd etilgan ikki shartli guruhga kiruvchi onalarning farzandga munosabat ko'rsatkichlarida aniqlangan farqning statistik ahamiyat darajasini tekshirish amaliyoti ham o'rtadagi differentsiatsiya ahamiyatli darajada ekanini ko'rsatadi.

## **2 - jadval**

**Ayolning ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlari o'zaro farqlanuvchi onalarning farzandga munosabat xususiyatlari bo'yicha tafovut ko'rsatkichlari**

( Styudentning t-mezoni bo'yicha)

	Farzandga munosabat xususiyatlari	Shartli guruh a'zolarining o'rtacha ko'rsatkichlari		Statistik tafovut ko'rsatkichlari	
		M <sub>1</sub>	M <sub>2</sub>	t	p
	Emotsional rad etish	18,23	17,41	1,39	$p \geq 0,005$
	Kooperatsiya	2,78	5,12	3,07	$p \leq 0,001$
	Simbioz	5,85	3,31	2,72	$p \leq 0,001$
	Avtoritarizm	1,82	4,63	2,70	$p \leq 0,001$
	Infantilizatsiya	5,67	3,42	2,02	$p \leq 0,005$

Tadqiqotda qo'lg'a kiritilgan natijalar orasida alohida e'tiborga loyiq yana bir jihatni shundakit, ikki shartli guruhni tashkil qilgan ayollarning ko'rsatkichlarida birgina shkala-emotsional rad etish shkalasi bo'yicha ahamiyatli tafovut aniqlanmadi. Bizning fikrimizcha, buning boisi ushbu shkalada aks etgan bolaga nisbatan integral emotsional munosabat "ona - farzand" tizimidagi o'zaro ta'sirlashuvning o'ta chuqur va nozik qirralariga, onalik mehri, muhabbati bilan chambarchas bog'liq jihatlariga aloqador ekanligidadir. Mutaxassislar onaning farzandga mehr - muhabbati bola hayotining dastlabki bosqichlaridanoq yuksak ahamiyat kasb etishini qayd etadilar. R.V.Ovcharovning ta'kidlashicha, bunday mehr-muhabbat homiladorlik, tug'ruq va bolani oziqlantirishning tarkibiga shu qadar chuqur kiritib qo'yilganki, faqat o'ta og'ir ijtimoiy ustanovkalar uni o'zgartirishga qodir bo'lishi mumkin [6; 214-b.]. Shunga ko'ra, nazarimizda, bolaning emotsional qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi onaning ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlari bilangina emas, balki butun individualligi bilan bog'liq bo'lgani sababli tasavvurlarning yetarlicha ahamiyatli sohasida differentsiatsiya aniqlanadigan onalar o'rtasida bu borada tafovut sezilarli darajaga yetmaydi.

Demak, onalarning ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlari va ularning farzandlariga bo'lgan munosabati ustuvor xususiyatlarini o'zaro aloqadorlikda empirik jihatdan o'rganish quyidagi xulosalar uchun asos bo'ldi:



1. “Ona-bola” tizimidagi munosabatda onalarning nafaqat ega bo‘lgan ijtimoiy rollari, balki ularning ayol kishi egallashi mumkin bo‘lgan rollar haqidagi tasavvurlariga xos xususiyatlar aks etadi.

2. Ayolning ijtimoiy rollarini asosan “uy bekasi” roli bilan chegaralangan holda tasavvur qiluvchi onalarning farzandga munosabatida simbioz va infantilizatsiyaga asoslangan, ayol kishini ijtimoiy-siyosiy faol rollarda tasavvur qiluvchi onalar munosabatida kooperatsiya va avtoritarizmga tayanuvchi o‘zaro ta’sirlashuvga moyillik qayd etiladi.

3. Onaning farzandga munosabatida uni emotsional qabul qilishi yoki rad etishi unda ayollarning ijtimoiy rollari haqida shakllangan tasavvurlarga ahamiyatli darajada bog‘liq bo‘lmay, bu sifat ona individualligining chuqur sohalari bilan aloqador ekanini taxmin qilish o‘rinli.

### **Adabiyotlar**

1. Белогай К.Н. Структурные компоненты родительского отношения личности: Автореф. дис... к.психол.н. – Кемерево: КГУ, 2006. – 24 с.

2. Грицкевич Т.И. Реформатор: социальная роль или особенности личностных черт//Вестник ВГУ. Серия «Философия». – 2009. – №2. – С.140-148.

3. Калодина В.А. Представления родителя о ребёнке как фактор детско-родительских отношений //Вестник Омского университета Серия «Психология». - 2016. - № 2. – С 69-77.

4. Ключко Ю.Н., Ермилова Н.Ю., Ключко А.Ю. Социализация личности, ее социальный статус и социальная роль// Вестник СевКавГТУ Серия «Гуманитарные науки». – 2004. - №1 (11). – С.45-53.

5. Никитина О.В. Трансформация традиционных социальных ролей женщины и ее влияние на семейную конфликтность.: Дис...к. социол. н. – М.: МГГУ, 2001. – 146 с.

6. Овчарова Р.В. Родительство как психологический феномен: Учебное пособие. – М.: Московский психолого-социальный институт, 2006. – 496 с.

7. Почебут Л.Т. Личность в группе // Психология: учебник / Отв. ред. А.А.Крылов. – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. – С.381-398.

8. Eisenhower A.S., Baker B. L, Blacher J Children`s delayed devolepment and behavior problems: Impaction mothers` perceived physical healtacross early childhood // Social Science and Medichine. – 2009. – №1.Vol. 68. – P.89-99.

9. Van Doorn Marleen M. E., Bodden D., Jansen M., Rapee R.M., Granic I. Linking Mother-child discrepancies to Behavioral Observations of Children's Anxiety//Child & Youth Care Forum. – 2018. – №4 (V.47). – P.481.

## **OILADA ER - XOTIN GENDER TENGLIGI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA**

**Saribayeva U.S. –Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha sohalaridagi faol ishtiroki va imkoniyatlarini ta'minlash muammosi yoritilgan. Oilalarda er-xotin gender tengligiga erishish, ijtimoiy tenglikni saqlanishida milliy, etnik qadriyatlar tizimi va psixologik bilimlarning roli haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit soʻzlar:** gender tenglik, oila, ayol va erkak psixologik moslik, milliy etnik xususiyat, imkoniyat, etnik qadriyatlar.

## **ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЬЕ КАК ОСНОВА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ**

**Сарибаева У. С. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат психологических наук**

**Аннотация.** В этой статье обсуждается проблема о равных правах и возможностях женщин и мужчин. Она также предоставляет информацию о достижении гендерного равенства, роли национальных и этнических характеристик в поддержании социального равенства и роли психологических знаний.

**Ключевые слова:** семья, женщины и мужчины, гендерное равенство, психологическая совместимость, национальность, возможности, этнические ценности.

## **GENDER EQUALITY IN THE FAMILY AS A BASIS FOR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT**

**Saribaeva U. S. - Associate Professor of Tashkent Pedagogical University, Psychology department, Candidate of Psychological Sciences**

**Annotatsion.** This article discussed the issue of equal rights and opportunities for women and men. It also provides information on the achievement of gender equality, the role of national and ethnic characteristics in the maintenance of social equality, and the role of psychological knowledge

**Key words:** family, women and men, gender equality, psychological compatibility, national ethnicity, opportunity, ethnic values.

Yangicha O‘zbekiston yangicha dunyoqarash ijtimoiy rivojlanishning barcha sohalarida, yangicha munosabatlarni shakllanishini taqozo etmoqda, bu o‘z o‘rnida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida xotin-qizlarimizni faolligini oshirish ularga shart-sharoitlar yaratish zarurligini ko‘rsatadi [1;]. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri, bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta‘minlanishini ko‘zda tutganidek, Respublikamizda ham bu borada ko‘plab qonunlar qabul qilinganligi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy mazmun mohiyatida amalda nafaqat gender tengligiga erishishni, balki, ijtimoiy tenglikni saqlanishini nazarda tutganligi ham ilmiy tadqiqot ishimizning dolzarbligini asoslaydi.

Rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan jamiyatning har bir sohasida erkaklar qatorida ayollar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishga harakat qilishmoqda. Bugun ayollar nafaqat uy ishlari, bola tarbiyasi bilan mashg‘ul, balki, “ham oilasini, ham o‘z sevgan ishini” uddalashga harakat qilishmoqda. Shunga qaramay, gender tengligiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan ayrim omillar sifatida yuzaga chiqayotgan, rivojlanishning eng o‘tkir muammolari mavjud bo‘lib, bu tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og‘ir masalalardan biridir. Ming yilliklar davomida hukm surib kelayotgan muammo, bu hozirda ham xotin-qizlar ko‘pincha rivojlanish jarayonidan chetda qolib, qiyinchiliklar va hatto yo‘qotishlar (ko‘pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar, oilaviy turmush qurmaslik, tirik yetim farzandlar tarbiyasi) evaziga erishib kelinmoqda.

Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi, balki har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Erkak va ayollar tengligi g‘oyasini yunon olimi Antifont o‘z asarlarida qo‘llagan holda: “Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi”, - deb ta‘kidlagan.

Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume’tirof etilgan talablaridan kelib chiqib, o‘z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda [2;]. Ammo, milliy qonunchiligimizda yoritilgan ayollar va erkaklar tengligini qonuniy kafolatlari ishlab

chiqilganligiga qaramasdan oilaviy nizolarning aksariyat sabablari erkaklar tomonidan ayol huquqlarini ayrim holatlarda paymol qilinishi, ko'p holatlarda ayollar huquqlarini tan olinmasligi sababli ziddiyatlarni kelib chiqayotganligi, fikrimizcha muammoning etnopsixologik jihatlarini ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Gender tenglikning huquqiy rivojiga bag'ishlangan, ya'ni uning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatlarini tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarni uchratish mumkin [3;]. Ammo muammoni milliy yoki etnopsixologik jihatdan yoritilmay qolayotganligi ilmiy tadqiqot ishimizning dolzarbligini asoslaydi.

O'zbek erkaklarini uy xo'jalik ishlari bilan, ayniqsa ayollarga tegishli mehnat bilan mashg'ul bo'lishlari ularni kamsitish, g'ururini pasaytirish tuyg'ularini his etishlarini, qarindosh urug'lardan, qo'ni-qo'shnilardan, mahalla-kuydan uyalishlarini bildirishgan. Vaholanki, qonunda uy mehnati jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas, uy mehnati ayollar va erkaklar tomonidan teng darajada amalga oshiriladi", - deb belgilangan bo'lsada, bu qonun normalari aholining aksariyat erkaklari tomonidan me'yor sifatida qabul qilishga ruhiy-psixologik tayyor emasliklari va muammoni etnopsixologik jihatlar mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, o'zbek oilasi aksariyat erkaklarida hozirda ham saqlanib kelinayotgan gender tenglik borasidagi mavjud ijtimoiy ustanovkalar va stereotiplar zamonaviy oilaviy munosabatlarni tartibga solinishiga monelik qilib, atributsiya nazariyasiga asosan erkaklar hamda ayollarga xos xulq-atvor, mehnat turlari o'rtasidagi farqlarni ajratishga urinishlar saqlanib kelinayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, erkaklarning aksariyat qismi tomonidan tenglikka intiladigan ayollarni qobiliyatlarini tan olmasliklari, ijtimoiy faolliklarini yoqtirmasliklari ko'p sabab, ishga kirish jarayonida yoki mehnat faoliyatida ayollarning gender diskriminatsiyasiga uchrashi, bu holatga ko'nikish stereotiplarini jamiyat ongiga singib ketgani bilan izohlash mumkin. Oila va ijtimoiy jamiyatda erkaklar tomonidan ayollarga zo'ravonlik ishlatilayotganining asl sababi nimadaligini aniqlash, avval mana shu sabablarni o'rganish va barham toptirish qonunan ayollarga zo'ravonlik ishlatgan, erkaklarni jazolashdan ko'ra jamiyat ravnaqi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur va aynan xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Olib borilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS) natijasida erkak kishi tomonidan xotinga nisbatan kuch ishlatilganda yoki tazyiq o'tkazilganligi isbotlanib, qonunan chora ko'rilganda va cheklovlar qo'llanilishi natijasida aksincha vaziyat va psixologik holatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlandi. Ya'ni bu kabi cheklovlar qo'llanilgan er va xotin o'rtasida psixologik sovish, befarqlik, loqaydlik, ayolidan bezish, ichki nafrat tuyg'ularini ortishi mumkinligi sinaluvchilarimiz

tomonidan tasdiqlandi. Shuningdek, ayol tomonidan erning asabiga oxirini o'ylamay tergayverish natijasida, erkakni ayolini tan olmasligiga sabab bo'ladigan psixologik motiv yaratilishi ham o'rganilmagan omil bo'lib qolmoqda. O'zbek oilalarida gender tenglik masalasiga to'g'ridan to'g'ri muammoning milliy etnik asoslarini tahlil qilmay yondoshish holati ham turmush tarzimizning shartli ravishda g'arblashayotganini ko'rsatadi, deyish mumkin. Bu holatda gender tenglik masalalari oilaviy ichki nizo va e'tirozlarga sabab bo'lib, muammo yillar davomida yechilmay qolaveradi. O'zbek oilasi er-xotinlar o'rtasidagi gender tenglik masalalari ijtimoiy rollar va ijtimoiy onglik, aqliy intellektual salohiyat, umuminsoniy qadriyatlar tizimi va shaxsning o'z-o'zini baholash darajasiga ham bog'liq deb hisoblaymiz.

Erkaklarga (ma'naviy) tazyiqlar va zo'ravonlik (ayollarni jo'yali sababsiz janjal qilishlari, doimiy oilaviy muhitni buzib, imkoniyatni hisobga olmay, o'ylamay, mulohaza qilmay talablar qo'yib erkakka noroziligini dushmanlik hissi bilan namoyish etish)lari vaziyatida erkakni kim tushuna oladi, degan fikrlar namoyon etildi.

Tekshiriluvchi erkaklar tomonidan bildirilgan bu kabi e'tirozlar fikrimizcha, muammoni ichki psixologik, hissiy-emotsional va milliy, etnik jihatlarini ham tadqiq qilinishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim oilalarda erkak va ayollarni gender tenglikni namoyon etishlarida ularning yuqori saviyadagi ijtimoiy va rivojlangan madaniy munosabatlarga tayyor emasliklari bilan izohlanadi. Shuningdek, ayollarga nisbatan har qanday zo'ravonlik barcha aqlli jamiyatlarda, jumladan, Islomda ham qoralanadi.

Ayollarga nisbatan kuch ishlatish tajovuz hisoblanadi. Ularga nisbatan hech qanday kuch, zo'ravonlik, urish, kaltaklashni ishlatib bo'lmaydi. Nasihat qilish, u kor qilmasa, sekin turtib ogohlantirish, u ham kor qilmasa, yotoqlaridan tark qilish ko'zda tutilgan (Said Komil) [4;].

Shuni qayd etib o'tish lozimki, soxta ko'rinishdagi hurmatga bo'lgan moyillikni kuchliligi, qadrtalablik stereotiplari o'zaro tushunish, qo'llab quvvatlash, hissiy yaqinlik kabi munosabatlar tiklashga xalal beradi. Qadrtalablik, hurmattalablik, o'ziga past baho berish, gina saqlash, inson qalbida yillar davomida blok-araz, alamlarni saqlanib qolinishiga olib keladi, muammolar yechilmay qolaveradi. Ayol kishining o'z qadr-qimmatini anglamasligi, o'ziga ishonchini yetishmasligi, o'zidan va yaqinlaridan qoniqmaslikka olib keladi. Bu o'z o'rnida oilada ijobiy psixologik munosabatlarini o'rnatilishiga xalal beradigan hissiy-psixologik omil sifatida yuzaga chiqadi, ya'ni aksariyat oilalarda er-xotin o'rtasida madaniy-psixologik, hissiy-emotsional munosabat o'rnatish saviyasini yetarli emasligi bilan izohlanadi.

## **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli farmoni.
2. ВМТТД, Inson rivojlanishi tugrisidagi ma’ruza, Tashkent, 1996.
3. Майерс Д. Социальная психология/пер. с англ. – СПб б.: Питер Ком, 1998. С.102.
4. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent, 2007.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ**

**Сулейманова А.Н. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Статья посвящена обзору основных теоретических подходов к формированию понятия «психологическое благополучие» в современной психологии. Выделяются конструкты «психологическое благополучие» и «субъективное благополучие». Методологические основания различий указанных конструктов связываются с существованием эвдемонистического и гедонистического подходов в теоретической концептуализации феномена благополучия в психологии.

**Ключевые слова:** благополучие, эвдемонистический подход, гедонистический подход, удовлетворенность качеством жизни, счастье.

## **ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA FANIDA PSIXOLOGIK XOTIRJAMLIK TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI**

**Suleymanova A. N. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqola zamonaviy psixologiyada “psixologik farovonlik” tushunchasini shakllantirishning asosiy nazariy yondashuvlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. “Psixologik farovonlik” va “subyektiv farovonlik” konstruksiyalari ajralib turadi. Ushbu konstruksiyalar o‘rtasidagi farqlarning uslubiy asoslari psixologiyada farovonlik hodisasini nazariy konsepsiyalashda evdemistik va gedonistik yondashuvlarning mavjudligi bilan bog‘liq.

**Kalit so‘zlar:** farovonlik, evdemonistik yondashuv, gedonistik yondashuv, hayot sifatidan qoniqish, baxt.



## FORMATION OF THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL WELL-BEING IN MODERN PSYCHOLOGICAL SCIENCE

**Suleymanova A.N. - teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article is devoted to an overview of the main theoretical approaches to the formation of the concept of "psychological well-being" in modern psychology. The constructs "psychological well-being" and "subjective well-being" are distinguished. The methodological grounds for the differences between these constructs are associated with the existence of eudemonistic and hedonistic approaches in the theoretical conceptualization of the phenomenon of well-being in psychology.

**Key words:** well-being, eudemonistic approach, hedonistic approach, satisfaction with the quality of life, happiness.

Психологическое благополучие - это интегральное системное состояние человека или группы, которое представляет собой взаимосвязь физических, психологических, культурных, социальных и духовных факторов [1;] и отражает восприятие и оценку человеком своей самореализации с точки зрения пика потенциальных возможностей. Психологическое благополучие рассматривается в работах зарубежных и российских психологов как приобретенное в процессе жизнедеятельности качество, предполагающее активность субъекта.

В психологии проблема понимания и аспектов психологического благополучия получила свое развитие с выхода в 1969 году работы Н.Бредберна «Структура психологического благополучия» [2;]. Рост интереса к проблеме психологического благополучия в современной науке связывают с развитием позитивной психологии. Основоположник позитивной психологии М.Селигман выделял субъективное ощущение счастья общей удовлетворенности, позитивные черты личности и позитивные социальные структуры и явления в качестве основных объектов изучения данного направления в психологии. В настоящее время утвердились два основных направления в исследовании психологического благополучия человека: эвдемонистическое и гедонистическое.

В рамках эвдемонистического направления понятие психологического благополучия рассматривается как реализация человеком собственного потенциала, развитие определенных психологических черт в соответствующей им деятельности.

Основоположником эвдемонистического направления в понимании психологического благополучия стала К.Рифф. По ее мнению,

психологического благополучие - это наличие у человека специфических, устойчивых психологическое черт, позволяющих ему функционировать значимо более успешно, чем при их отсутствии.

В качестве базовых составляющих психологического благополучия она выделила шесть основных компонентов:

- позитивные отношения с другими (забота о благополучии других, чувство удовлетворение от теплых и доверительных отношений с другими);
- автономия (независимость, внутренний контроль);
- управление средой (способность человека эффективно использовать внешние ресурсы);
- целенаправленность жизни (высокоразвитая способность к рефлексии, осмысленность);
- личностный рост (эффективное использование личностных черт, развитие талантов);
- самопринятие (признание себя, позитивное отношения к своим личностным чертам) [3].

На основании положений К.Рифф был создан опросник психологического благополучия, широко используемый в современной психологии.

С точки зрения гедонистического направления психологическое благополучие определяется как субъективное благополучие. В большинстве работ психологов-представителей данного направления определение психологического благополучия связывается с понятиями «счастье», «удовлетворённость жизнью», «позитивные эмоции» и т. д.

Теоретической основой понимания психологического благополучия в контексте гедонистического направления послужили работы Н.Бредберна для которого понятие благополучия неразрывно связано с общей удовлетворенностью жизнью и счастьем. Н.Брэдбёрн разработал модель структуры психологического благополучия, которая представляет собой баланс, достигаемый при непрерывном взаимодействии позитивного и негативного аффектов. Разница между этими двумя аффектами, согласно модели, является показателем психологического (субъективного) благополучия человека.

Одной из тенденций развития современной российской психологии также является обращение к понятию психологического благополучия. За последние 15-20 лет опубликовано достаточно большое количество работ, посвященных разным аспектам психологического благополучия.

Сторонники различных подходов акцентируют внимание на концептуализацию феномена, разработку моделей благополучия, анализ

соотношения понятий психологическое благополучие, субъективное благополучие, удовлетворенность качеством жизни, счастье и др.

Ряд авторов, опираясь на определенный вариант понимания благополучия, выбирают эмпирические направления исследований, изучают взаимосвязи благополучия с различными аспектами функционирования личности: толерантностью, самоактуализацией, суверенностью психологического пространства и др.

В качестве одного из классических в области психологического благополучия можно назвать исследование П.П.Фесенко, посвященное анализу связи между осмысленностью жизни, смысложизненными и ценностными ориентациями личности и психологическим благополучием [4;].

П.П.Фесенко, основываясь на концепции психологического благополучия, созданной американским психологом К.Рифф, а также, отмечая вслед за Э.Динер, что исследование психологического благополучия должно учитывать не только непосредственно измеряемый уровень благополучия, но и принимать во внимание внутреннюю, индивидуальную систему координат, с которой человек соотносит собственное психологическое благополучие, определяет психологическое благополучие как интегральный показатель степени направленности человека на реализацию основных компонентов позитивного функционирования (личностного роста, самопринятия, управления средой, автономии, цели в жизни, позитивных отношений с окружающими), а также степени реализованности этой направленности, субъективно выражающейся в ощущении счастья, удовлетворённости собой и собственной жизнью.

Опираясь на теорию К.Рифф, исследователь при анализе понятия «психологическое благополучие» делает акцент как на субъективной эмоциональной оценке человеком себя и собственной жизни, так и на аспектах позитивного личностного функционирования. П.П.Фесенко определяет психологическое благополучие как интегральный показатель степени направленности человека на реализацию основных компонентов позитивного функционирования (личностного роста, самопринятия, управления средой, автономии, цели в жизни, позитивных отношений с окружающими), а также степени реализованности этой направленности, субъективно выражающейся в ощущении счастья, удовлетворенности собой и собственной жизнью.

Ученый предлагает дифференцировать понятия психологическое благополучие и психическое здоровье, психологическое здоровье, качество жизни, рассматривая их как взаимосвязанные, но не синонимичные, акцентирующие внимание на различных аспектах функционирования личности.

В определении понятия «субъективное благополучие» наиболее цитируемыми являются исследования Е.Е.Бочаровой, Р.М.Шамянова и др [5].

Автор одного из вариантов теоретической концептуализации феномена субъективного благополучия Е.Е.Бочарова в самостоятельном исследовании представляет результаты эмпирического исследования внутренних детерминант субъективного благополучия, к которым относит: ценностные и смысловые образования личности, социально-психологические установки и стратегии поведения. В результате проведенного исследования Е.Е.Бочарова отмечает, что «...субъективное благополучие представляет собой сложное интегральное социально-психологическое образование, включающее эмоциональный, когнитивный и конативный компоненты, формирующееся в процессе социально-психологической деятельности, в системе реальных отношений личности к объектам окружающей действительности».

В работах Е.Е.Бочаровой благополучие рассматривается в различных аспектах: представлен историко-теоретический ракурс осмысления понятия благополучия в психологии, определяются методологические основания автономного использования конструктов «субъективное благополучие» и «психологическое благополучие», интерпретируются результаты многих эмпирических исследований в области субъективного благополучия личности. В частности, ученый подчеркивает существование связи между переживанием субъективного благополучия/неблагополучия и социально-психологической адаптацией, определяя благополучие в качестве и следствия, и критерия последней.

Возрастная специфика психологическом благополучии раскрывается в исследовательских работах отечественных психологов А.И.Подольской, О.А.Карабанова, О.А.Идובהвой, П.Хейманса, Д.М.Зиновьевой. Анализируя особенности психологического благополучия старшеклассников и определяя его в качестве одного из ресурсов для совладания с проблемами обучения, С.А.Водяха приводит данные эмпирического исследования, которые свидетельствуют о том, что «...на благополучие младших подростков и старшеклассников во многом влияют удовлетворенность отношений со сверстниками и с возрастом это влияние усиливается». Анализу психологического благополучия в пожилом и старческом возрасте посвящено исследование Ю.Б.Дубовик. На основании полученных данных сделаны выводы о специфике уровневых показателей по всей структуре психологического благополучия. Обнаружено, что снижение показателей происходит по шкале «личностный рост», а по шкалам автономии, управления средой, самопринятия и целей в жизни показатели не снижаются. В исследовании подчеркивается, что группы, имеющие контрастные показатели

по уровню психологического благополучия, не имеют различий по среднему возрасту, что, по мнению автора, позволяет утверждать, что возраст не является главным фактором, влияющим на психологическое благополучие.

Российский психолог А.Н. Лютая в своей работе обозначает следующие направления исследования психологического благополучия в связи с влиянием возрастных особенностей периода средней зрелости, направленностью личности на духовные ценности. В психологии, при рассмотрении понятия «духовность», наиболее распространенным является подход, где духовность предстает в утверждении высших нравственных ценностей, в контексте личностных ценностей и жизненных приоритетов, оценка предметов, поступков или событий происходит с позиции духовных ценностей, исключая их взвешивание с потребительской точки зрения. Духовное познание связано со смыслом собственной жизни личности, когда человек задается вопросом о смысле собственного существования. Вся история духовной культуры человечества есть такое вопрошание, такое очищение и выявление сути человеческого бытия в мире. Здесь духовность расходится с религиозным основанием и предстает, как субъективное осознание личностью своего бытия [6;]. В Узбекистане вопросы психологического благополучия рассматривались в работах таких специалистов как Э.Г.Газиев, Г.Б.Шаумаров, Р.И.Суннатова [7;], В.М.Каримова.

Таким образом, анализ исследований благополучия в современной отечественной и российской психологии позволяет сделать вывод о существовании сложившейся системы в определении благополучия как теоретического конструкта, безусловно, с учетом различных его интерпретаций, и эмпирической валидации данного феномена.

### **Литература**

1. Мэй Р. Искусство психологического консультирования. Как давать и обретать душевное здоровье М.: ЭКСМО-Пресс (2002).
2. Bradburn N. The Structure of Psychological Well-Being. Chicago: Aldine Pub. Co. (1969).
3. Ryff C. The Structure of Psychological Well-Being Revisited Journal of Personality and Social Psychology (1995)
4. Фесенко П.П. Осмысленность жизни и психологическое благополучие личности. Автореферат на соискание ученой степени кандидата психологических наук. Москва – 2005.
5. Шевеленкова Т.Д., Фесенко П.П. Психологическое благополучие личности (обзор основных концепций и методика исследования) // Психологическая диагностика. 2005. № 3. С. 95–123.

6. Лютая А.Н. Психологическое благополучие в период средней зрелости людей, занимающихся духовными практиками Екатеринбург 2017.

7. Суннатова Р.И. Кадырова Х.А., Абдуллаева И.Д., Бондаренко А.С. Психологическая диагностика духовно-нравственной сферы личности изд-во «Fanvatexnologiya», 2017.

## **BADIYLIK: DAVR VA INSON TALQINI**

**Nasirov A.N. – Samarqand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori**

**Annotatsiya.** Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida 80- yillarning ikkinchi yarmidagi murakkab hayot va badiiy qahramonlar fojiasi o‘z ifodasini topganligiga e’tibor qaratilgan. Asardagi voqealar silsilasida taqdir, qismat, fojialar girdobidaga inson xarakterini mahorat bilan talqin etganligi kuzatiladi. Davr muammolarining badiiy ifodasi asosida, haq va haqsizlak, adolat va adolatsizlikning qurboniga aylanayotgan inson fojialarini badiiy talqini haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** talqin, mahorat, muhit, qahramon, badiiy obraz, ifoda, inson konsepsiyasi, konflikt, epizodik obraz, xarakter.

## **ИСКУССТВО: ПЕРИОД И ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ**

**Насиров А.Н. - доцент Самаркандского государственного университета, доктор филологических наук**

**Аннотация.** В романе талантливого писателя Одила Якубова «Место правосудия» обращено внимание на то, что трагедия сложной жизни и творчества героев второй половины 80-х годов нашла свое выражение. В серии событий в произведении отмечается, что он умело интерпретировал человеческий характер в водовороте судьбы, судьбы и трагедии. Исходя из художественного выражения проблем того времени, мы говорим о художественном осмыслении человеческой трагедии, ставшей жертвой правды и несправедливости, справедливости и несправедливости.

**Ключевые слова:** интерпретация, мастерство, среда, герой, художественный образ, выражение, человеческая концепция, конфликт, эпизодический образ, персонаж.

## **ART: PERIOD AND HUMAN INTERPRETATION**



**Nasirov A.N. - Associate Professor of Samarkand State University, Doctor of Philology**

**Annatation.** In the novel by the talented writer Odil Yakubov "Place of Justice" attention is drawn to the fact that the tragedy of the difficult life and work of the heroes of the second half of the 80s found its expression. In a series of events in the work, it is noted that he skillfully interpreted the human character in the whirlpool of fate, destiny and tragedy. Based on the artistic expression of the problems of that time, we are talking about the artistic interpretation of human tragedy, which became a victim of truth and injustice, justice and injustice.

**Key words:** interpretation, skill, environment, hero, artistic image, expression, human concept, conflict, episodic image, character.

Har bir ijodkor hayotning ma'lum bir qirrasini, ziddiyatlarini, inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni badiiyat mezonlari asosida talqin etadi. Yozuvchi Odil Yoqubov 80-yillardagi xalqimiz hayotini, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni tasvirlovchi «Adolat manzili» romanini yaratdi. Asar «o'zbek ishi», «paxta ishi» muammolarini talqin etuvchi romandir. «...bizda «o'zbek ishi» to'g'risida yozmagan, fikr bildirmagan birorta ham yozuvchi, shoir qolmadi, desak mubolag'a bo'lmas. Bu mavzu yirik jiddiy asarlarda ham aks sadosini topdi» (1, 3-bet).

To'g'ri, turg'unlik davri voqealarini, ijtimoiy muhitning salbiy illatlarini, shaxsga sig'inishning fojiali tomonlarini badiiy talqin etuvchi O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» kabi epik asarlar ham yuzaga keldi. Ammo «Adolat manzili» romanida hayotdagi qarama-qarshiliklar bilan bir qatorda, yemirilib borayotgan imperiyaning ko'z o'ngimizda yuz berayotgan salbiy qirralarini badiiy tasvir orqali yoritib beradi. Chunki yozuvchi hayotdagi salbiy illatlarga har qanday davrda o'z munosabatini bildirib kelgan.

Shu nuqtayi nazardan, yozuvchi romanlaridagi ijodiy o'sishga nazar tashlasak, «Diyonat»da Normurod Shomurodov, Otaqo'zi, Qudratxo'ja, «Oq qushlar, oppoq qushlar»da Shorahim, Fotih Muzaffarov, Shoqosim, Mehriniso kabi obrazlar orqali «o'zi yashayotgan zamon, zamondoshlari» haqidagi o'y-mulohazalarini talqin etsa, «Adolat manzili»da Suyun burgut, Vetran bobo (Sherbo'ta Norbo'tayev), Marjonoy, Sharanovskiy, Mirjalolov kabi obrazlar orqali davr fojialarini, hayotda ro'y berayotgan voqealarning asl mohiyatini, xalqimiz boshiga tushayotgan zarbalarning sabablarini o'z fantaziyasi orqali talqin etadi.

Totalitar tuzum vujudga keltirgan sotsial muhit, xalq manfaati yo'lidagi sa'y-harakatlar shaxs fojiasiga olib keladi. Sherbo'ta Norbo'tayev o'z yurtida yuz berayotgan barcha yaramasliklarni, adolatsizliklarni, nohaqliklarni anglab yetadi, yurakdan his ham etadi, ammo bu holatga qarshi kurashsa-da, haqiqatni yuzaga chiqara olmasligiga ishonch hosil qiladi. «...yozuvchining niyati adolatni, adolat

uchun kurashni ko'rsatish. Shuning uchun u qiziqarli hayotiy qissalardan faqat o'z ijodiy maqsadi uchungina zarur bo'lgan voqealarni tanlab oladi» (2, -bet). Davrning murakkab muammolarini, inson taqdirini, adolatsizlik qurboniga aylanib borayotgan shaxs fojialarini badiiy asar uchun asos qilib oladi.

Romanda davr va tuzumning salbiy tomonlarini asoslash uchungina hayotiy real voqelikka murojaat etish orqali, xalqimiz boshiga tushgan og'ir kunlarni, o'z erkini tamoman yo'qotib borayotgan inson qiyofasini, haq va haqsizlik, adolat va adolatsizlik, baxt va baxtsizliklarning shaxs fojiasi orqali ko'rsatishga intiladi. Yozuvchi romanlarining barchasida adolat izlab, haqiqatni yuzaga chiqarish uchun, o'z haq-huquqini talab etuvchi obrazlar galeriyasini kuzatamiz. Bu xususiyat romanda yanada go'zalroq o'z ifodasini topganligiga kitobxon ishonch hosil qiladi.

To'g'ri, har qanday davr o'z muhrini badiiy adabiyotda u yoki, bu darajada qoldiradi. Ammo «o'zbek ishi», «paxta ishi» nomi bilan xalqimizning qancha asl farzandlari iztirob chekdi, yoki davr qurboniga aylandi. Bugungi kunda o'tmishning bunday illatlari haqida so'z yuritish juda osondek, ammo yozuvchining har bir romanida davr, muhit qurboniga aylangan shaxs fojiasini kuzatamiz. «Ulug'bek xazinasida Qalandar Qarnoqiy, «Diyonat»da Normurod Shomurodov, Quدراتxo'xa, «Adolat manzili»da Suyun Burgut obrazlari orqali hayotiy ziddiyatlarlar, shaxs qismatidagi fojiiyaviy holatlar badiiy mahorat bilan tasvirlanadi.

Roman markazida asosan Suyun Burgut obrazi yetakchilik qiladi. U o'z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo'yadi. Halol, kamtarin, adolatli inson sifatida gavgaldanadi. Asarda insonni faqat ulug'lash emas, uning mag'rurona holati bilan bir qatorda, ojiz tomonlarini ham yoritib beradi. Ijtimoiy muhitdagi shaxs fojiasining sabablari yoritilar ekan, bunga muhitni harakatga keltiruvchi shaxslarning sezilarli ta'siri mavjudligi asoslanadi.

Asar bosh qahromoni Suyun Burgut halol, vijdonli, tadbirkor, bilimli, xalq ko'ngliga yo'l topa oluvchi shaxs sifatida talqin etiladi. Bu xislatlari orqali chorvador sovxozlaridan biriga direktorlik darajasiga ko'tariladi. U o'z davrining shaxsi sifatida bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi. Marjonoy esa Suyun Burgutdagi shijoatdan, undagi qobiliyatdan mag'rurlanib yuradi. Hatto umri tog'-u toshda qo'y ketidan o'tgan pok, soddadil cho'pon Darvesh duduqning qo'rasiga o't ketganda ham, Suyun Burgut unga yordam qo'lini cho'zadi: «Nima qilib bo'lsayam bu ikki cho'ponni qamoqdan asrab qolmoq kerak. Qamab qo'yishsa, paloponlarini kim boqadi? Hammasi osh deb, non deb chirqillab yotgan jo'jachalar... Ammo-lekin... cho'ponlarni asrab qolish uchun qirilgan qo'ylarni tiklash lozim! Hukumatning bitta ham qo'yiga tegib bo'lmaydi. Men hozir xalqqa murojaat qilaman. Ammo xalqdan yordam so'raydurg'on odam avval o'zi ibrat ko'rsatmog'i darkor», - deya yuz bosh qo'yini beradi(3). Bu yaxshiligi evaziga keyinchalik boshiga og'ir kulfatlar tushadi, ammo shunda ham o'z insoniyligini saqlab qolishga intiladi. Odamlarning ham

Suyun Burgut desa og'zidan bol tomadigan bo'ladi. Biroq Suyun Burgut mudhish tuhmatga uchraydi: "Moskvadan "haqiqat qilgani", "adolat o'rnatgani" kelgan Sharanovskiy boshliq bottol desantchilar uni ko'zbo'yamachilik poraxo'rlikda ayblab hibisga oladilar» (4). O'z taqdirini xalq hayotiga baxshida qilmoq ilinjida harakat etayotgan Suyun Burgut adolatsizlikning qurboniga aylanadi.

Asar voqealari rivojida Mansur mesh obrazi ham yetakchilik qiladi, Marjonoyning ichki monologi orqali uning xarakteri namoyon bo'ladi: "Bu meshqorinning sassiq gaplariga qarang! Yemagan emish, ichmagan emish! Bir qo'yni o'n, o'n qo'yni ming qo'y qilaman deb, umri o'tgan emish! Ayron ichib meshqorin bo'lgandirsan! Odamlarga yomonlik qilmagan emish! Odamni odam qatori ko'rmaganlaring-chi? Birov qarshi gapirsa go'rga tiqquncha quvganlaring-chi? Arz qilganlarning yetti pushtigacha qorakuya surganlaring-chi?" (3, 39-bet). Bu o'rinda ichki monolog orqali badiiy xarakterlarni tavsiflash holatini kuzatamiz. Bu monolog orqali o'sha davr shaxslarining qiyofasi jonlantiriladi. Mansur mesh kabi shaxslarning ma'naviy qiyofasi ochib tashlanadi. Badiiy asarda monologlar ham yetakchi rol o'ynaydi. "Monolog personajlarning dialogidagi nutqidan tashqi jihatdan ham farq etadi: qahramon o'z ichki dunyosini keng ochib berar ekan, ancha uzoq gapiradi, shu sababli monologlar uzun bo'ladi" (5, 221-bet).

Marjonoy monologi orqali halol, mehnatsevar Suyun Burgutga qarama-qarshi bo'lgan, mansur mesh holati yoritiladi: «Insof-u adolat yo'q emish odamlarda! Qishloq qurgan bo'lsang... o'zingni ham esdan chiqarmading. Xudayorxonning saroyidan qolishmaydigan saroy qurding o'zingga!.. Yoshing yetmishga bordi! Endi senga mansab ne kerak, qari bo'ri?..»(3, 39-bet). Voqealar rivojida Suyun Burgut va Lochin dialogik nutqi orqali esa davrning ba'zi qirralari ham yoritiladi: «- Hozir Toshkentdan televizorchilar, shoirlar, muxbirlar kelishadi... Biz ular bilan bahs qilmoqchimiz, ota!.. Hayot to'g'risida... Bo'layotgan nohaqliklar, bo'htonlar qamaqamalar to'g'risida... Yo sizga to'hmahat qilishmadimi, ota?.. – O'g'lim!.. –Maboda yoshlik qilib, har xil xomxayollarga borib yurmanglar. Hukumat bilan hazillashib bo'lmaydi... - Bilaman!.. Quiloq qilib otishgan! Dushmansan deb chopishgan! O'z elini, xotin bola-chaqasini himoya qilgan o'g'lonlarni «bosmachi» deb osishgan!.. – Siz bilmaysiz!.. Butun o'zbek xalqi poraxo'r emish, o'g'ri emish!.. Bu sho'rpehona elni kim himoya qiladi? Kim bu bo'htonlarni rad etadi! Kim haqiqat qiladi!..» (3, 44-45-betlar)

Darhaqiqat, xalqimiz boshiga ne-ne og'ir kunlar tushmadi? Asrimiz boshidagi ayanchli kunlar, millat gullarini qirg'in qilishlar, Vatan uchun, o'z erki va ozodligi uchun kurashganlarning ayanchli qismati kitobxon ko'z o'ngida haqqoniy jonlanadi. Asar qahramoni Lochin tilidan yozuvchi yillar davomida qalbidagi armonli gaplarni o'quvchiga yetkazadi. Hayotning shafqatsizligini, xalqimizning parokandalik sari ketayotganligini badiiy tasvirlar orqali ko'rsatadi. Kitobxon esa saksoninchi yillar

hayotidagi bir yoqlama qarashlar bilan o'ртоqlasha boshlaydi. Xalqimiz boshiga tushayotgan bu musibatlarining sabablarini izlay boshlaydi. Lochin bayon qilgan fikrlarning qay darajada haqiqat ekanligini, nima uchun malum bir davrda faqat o'zbek xalqi boshiga ayanchli kunlar tushish sabablarini, totalitar tuzumning qay darajada salbiy iz qoldirganligini asardagi voqealar rivojidan aglab oladi: “-To'g'risini aytsam... gap faqat bizning sovxozda emas, shoir aka! Butun elimiz oyoqosti bo'ldi-ku, axir? Yo chiqayotgan maqolalarni o'qimayapsizlarmi? Chin poraxo'rlar, chin yulg'ichlar emas, butun o'zbek xalqi poraxo'rlik kasaliga muhtalo bo'lgan emish!.. Yo'q, el emasmiz biz!.. Na g'urur bor bizda, na izzat-nafs!.. Qani... gruzinlarga tegib ko'rsin-chi o'sha bo'htonchi jurnalistlar, allaqachon qo'zg'alon qilib yuborardi bu xalq!” (3, 65-bet). Lochinning fikrlarida asoslar yetarli edi. Shuning uchun shoir va muxbir itoatkorona bosh egib eshitishga majbur bo'lar, ammo yosh yigitning adolat, haqiqat izlab bayon qilayotgan fikrlaridan dahshatga tushar edi. “... faqat siz emas, boshqa adiblar, boshqa ziyolilar qayerda yurishipti? Nahot bu sho'rpehona xalqni himoya qiladigan mard topilmasa?!” - degan so'zlaridan fig'oni ko'kka chiqardi. Uning qalb so'zlarini, bor haqiqatni tinglamaslikning imkonini topa olmas edi. Salkam bir asrlik imperiya zulmi ostida kelayotgan xalqimizni parchalab, to'g'ri so'zni aytishga imkon bermay, mute qilib tarbiyalab kelayotganligiga urg'u beradi. “-Siz o'ylaysizki, bizni bu nohaqliklarga kuymaydi deb, achinmaydi deb! Biz ham shu elning farzandlarimiz. Ammo... masala siz o'ylagandan ming chandon murakkab, ming chandon qiyin!.. O'rmonga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonarkan. Na chora” (3, 66-bet).

Suyun Burgut adolatning qaror topishiga ishonch hosil qilgan. Ammo vaqt o'tsa-da, azob-u qiynoqlar tobora avj olar, “adolat o'rnatuvchi” shaxslarining haqiqiy qiyoqasini anglab yeta boshlaydi. Adolat o'rnini, adolatsizlik egallab olganligini tushunadi. Vyacheslav Sharanovskiy bu yerga kelgunga qadar Rossiyaning shimoliy viloyatlarida ishlar, hatto general bilan o'sha yerda tanishgan bo'lib, uning qattiqqo'l deb nom chiqara boshlagan bir davri edi. Shu boisdan generalning etiboriga tushdi, viloyat prokuraturasiga taklif etildi. General yaqin do'sti kabi uni esdan chiqarmadi, hatto markazga ko'tarilib do'vruq qozonganda ham yonida olib yuradi. Ikki yuz kishidan iborat tergovchilar guruhini tuzib, respublikamizga tashlanganda ham, tekshiruv ketayotgan rayondagi tergovchilar guruhiga rahbar qilib tayinlaydi va uning ish uslubini ko'klarga ko'tarib maqtaydi: “-Na chora? –dedi general, ovozi xayol ma'yus tortib. – Albatta, biror fuqaroni javobgarlikka tortishdan avval uning jinoyatlarini fosh etuvchi faktlar to'plash lozim. Bu, biz adolat posbonlari uchun oddiy xalqa, albatta. Lekin ba'zan shunday vaziyatga duch kelasizki, jinoyatchini darhol qamoqqa olib, gunohlarini tergov davomida isbotlashga to'g'ri keladi. Mana, masalan, Vyacheslav Sharanovskiy. U bu uslubga suyanib juda kata natijaga erishdiki, uning tajribasidan keng foydalanmoq zarur!” (3, 99-bet).

Shundan keyin u “adolat peshvosi”ning fikrlaridan rag‘batlanib, ko‘ngliga siqqan ishni bajarar, hamkasblarining fikrlarini inobatga olmaydi. Turli xil qiynoq usullarni o‘ylab topar va uni qo‘llardi. Suyun Burgut shu qiynoqlar girdobida qoladi, juda og‘ir sinovlarga mardona turib dosh beradi, undagi g‘ururni sindira olmaydi. Adolatni yuzaga chiqarish uchun Vetran bobo Sharanovskiydan umid qiladi, keyinchalik bu umidlar sarobga aylanadi. Tergovchi bilan suhbat davomida davrning murakkabliklari bilan bir qatorda, tuzumning o‘ziga xos salbiy tomonlari namoyon bo‘ladi. Adolatsizlik avj olganligini to‘liqroq anglaydi. Dilida kechgan fikrlar qalqib yuzaga chiqadi. “Haqiqat qilgani kelib, haqiqatni toptayapsanlar senlar! O‘ylaysanlarki, bilganimizni qilamiz, oyoqosti qilamiz bu yurtni deb! Qaytar dunyo bu! Hali javob berasanlar bu qilmishlaring uchun!” (3, 112-bet). Ammo qachon butun bir xalqni nomini badnom qilgandan keyinmi? Axir butun boshli bir xalqni poraxo‘rlikda ayblasa-yu, ularga qarshi hech kim gapira olmasa? Aslida, Veteran bobo nutqi orqali bu kabi savollarga javob beriladi. “-Sen... Senlar bu elga poraxo‘rlikka qarshi kurashgani kelgansanlar-u, o‘zlaring poraxo‘rlik bilan mashg‘ulsanlar”,- degan asosli fikrlarni hech ikkilanmasdan qayd qiladi.

Veteran bobo hayoti davomida adolatni ustun qo‘ydi. Haqsizlikka qarshi kurashdi, ammo hayot o‘zgardimi yoki odamlar hayotga, oqimga moslashdimi? Anglab, iztirob chekib oxiriga yeta olmas edi. Uning qalbida nafaqat Sharanovskiyga qarshi balki “adolat o‘rnatuvchi”larning maqsadini tushunib yetadi va cheksiz ularga nisbatan nafrat uyg‘onadi. “Ammo elning aybi nima? Qaysi gunohlari uchun bu kuylarga tushdi bu el? Paxta degan baloyi azim tufayli qulga aylangani yetmasmidi bu el!..”. Qalb iztiroblari o‘z ifodasini topadi.

Yozuvchi badiiy asar orqali o‘sha davr va shaxs fojiasini badiiy bo‘yoqlar orqali haqqoniy ko‘rsatib beradi. Saksoninchi yillarning ikkinchi yarmidagi adolatsizliklar, nohaqliklar badiiy tasvir orqali o‘z ifodasini topadi.

### **Adabiyotlar**

1. Normatov U. Burgut shijoati // O‘zbekiston ovozi, 1995-yil, 28-yanvar.
2. Ali Muhammad. Bu – hayot qonuni // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1996-yil, 11-oktabr.
3. Yoqubov O. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. Adolat manzili (roman). – T., «Sharq», 2005. – 272 b.
4. Mirzayev S. So‘nggi qatog‘on talqini. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2001-yil, 27-iyul.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T., «O‘qituvchi», 1986. – 408-b.



## ТРЕБОВАНИЯ К СОВРЕМЕННОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

**Хисматова Х.Ф. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Данная статья посвящена рассмотрению таких вопросов, как качество образования, процесс формирования кредитно-модульной системы в высших учебных заведениях, преподавание коллоидной химии.

Рейтинговая система оценивания результатов работы преподавателей становится необходимым требованием в повышении эффективности работы каждого вуза. Качество образования в современных условиях обуславливается факторами, характерными для многих образовательных заведений: происходит постепенное нацеливание от промышленности к информативности; образование и наука призваны восполнить высоким качеством обучения.

**Ключевые слова:** современное образование, требования, качество образования, формирование, научность, кредитно-модульная система, коллоидная химия, современные условия.

## PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY TA'LIMGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Xismatova X.F. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola quyidagi masalalarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan: ta'lim sifati, oliy o'quv yurtlarida kredit-modul tizimini shakllantirish jarayoni, kolloid kimyo o'qitish.

O'qituvchilar mehnatining natijalarini baholashning reyting tizimi har bir universitet faoliyati samaradorligini oshirishda zaruriy talabga aylanib bormoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim sifati ko'plab ta'lim muassasalariga xos bo'lgan omillar bilan belgilanadi: tarmoqdan to axborot mazmuniga qadar bosqichma-bosqich yo'nalish mavjud; ta'lim va fan ta'limning yuqori sifatini qoplash uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, shakllanishi, ilmiy xarakteri, reyting tizimi, kolloid kimyo, zamonaviy sharoit.

## REQUIREMENTS FOR MODERN EDUCATION IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS



**Khismatova K.F. - teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annatation.** This article is devoted to the consideration of such issues as: the quality of education, the process of forming a credit-modular system in higher educational institutions, teaching colloidal chemistry.

The rating system for assessing the performance of teachers is becoming a necessary requirement in increasing the efficiency of each university. The quality of education in modern conditions is determined by factors characteristic of many educational institutions: there is a gradual targeting from industry to information content; education and science are designed to make up for the high quality of education.

**Key words:** modern education, requirements, quality of education, formation, scientific character, credit-modular system, colloidal chemistry, modern conditions.

На сегодняшний день все больше требований к педагогическим вузам с целью повышения рейтинга в сфере образования, характеризующих лучшие вузы мира. Повысившиеся требования к высшей школе продиктованы необходимостью встроить высшее образование в мировое образовательное пространство. Все больше требований к преподавателям вузов. К таковым относят индексы цитируемости в публикациях, объемы финансирования научных проектов, участвующих в конкурсах, получение патентов на изобретения, а также инновационная деятельность в преподавании [1; с.61;23]

Рейтинговая система оценивания результатов работы преподавателей становится необходимым требованием в повышении эффективности работы каждого вуза [2;].

В основу рейтинговой системы вуза могут быть положены как уже названные критерии (публикационная активность преподавателя, его эффективность в подготовке научных кадров, участие в научных конференциях), так и методическая состоятельность преподавателя (разработка новых образовательных программ, рабочих программ модулей и дисциплин, карт компетенций, создание курсов для электронного и дистанционного обучения, написание учебников) [3; с.4]. Включены в рейтинговую таблицу и разделы, посвященные инновационной деятельности преподавателя. [5; с/6-7]

Результаты научной деятельности учитывают количество цитирований работ преподавателя за последние пять лет. При балльной оценке научных публикаций принимается во внимание не только уровень публикаций (статьи, учтенные системами Web of Science, Scopus, труды, изданные в центральной и зарубежной печати или университетском издательстве, публикации в журналах из перечня ВАК), но и импакт-фактор научного журнала, в котором

опубликована статья [8; с.31]. Необходимо учесть, что в университетах страны есть немало способов стимулирования преподавателей, имеющих высокий рейтинговый балл. Это приоритетность командировочного финансирования, возможности длительных научных стажировок и др. [8; с. 37].

Это такие явления как мониторинг, планирование и управление, т.е. совокупность различных мероприятий, процессов, а также документов, направленных на создание, в первую очередь у коллектива вуза, уверенности в том, что результаты, касающиеся качества образования будут получены. Важно добавить, что качество образования повышается, благодаря следующим целям:

1. подотчетность и прозрачность деятельности вузов;
2. повышение качества образования в экономическом, социальном и культурном понимании, а значит- повышение конкурентоспособности высших учебных заведений;
3. сопоставимость программ на национальном и международном уровне;

Данный перечень является необходимым условием для обеспечения качества образования в вузах.

Это, в свою очередь, связано с разработкой и эффективным использованием различных электронных технологий, что позволит изменить всю систему информационного, программно–методического обеспечения образовательного процесса (поиск справочного материала, осуществление оценивания, обработка результатов оценивания и др.). Вместе с тем, электронную систему качества образования можно создать только при условии четкого определения целей и задач оценивания качества образовательного процесса в вузе.

Благодаря анализу деятельности образовательного заведения и достигнутым результатам предлагаемой модели совершенствования деятельности вуза система качества обучения в вузе нацелена на поддержание высококачественного и конкурентоспособного уровня высшего образования. К таковым относят: качество планово-организационного обеспечения, преподавания, внедрение инновационных технологий обучения и т.д. Выполнение новых подходов в образовательном процессе вуза служит его стабильному развитию, поддержанию результативности инновационной деятельности в области подготовки конкурентоспособных и компетентных кадров [9; с. 10].

Система качества образования коллоидной химии в вузе может быть охарактеризована по нескольким признакам, как:

- социальная и личностная;
- динамическая;

- открытая (взаимодействие с внешней средой);
- целенаправленная;
- развивающаяся;
- ценностно–ориентированная (ценность профессиональной деятельности).

Эффективность внутренней системы оценивания качества образовательного процесса в вузе во многом определяется уровнем научно–преподавательского состава, его готовностью к внедрению педагогических инноваций в обучении, воспитании и развитии будущих специалистов [9].

Известно, что научно-исследовательская работа студента, предусмотренная программой, является важной составной частью учебного процесса. В нынешнее время научно- исследовательской работе студента отводится особое внимание, так как современное образование требует все большей самостоятельности и творчества обучающихся, ведь выпускники вузов должны уметь использовать полученные знания в своей профессии.

Система образования в вузах Узбекистана претерпевает большие изменения, а именно-переход на кредитно-модульную систему, поэтому научно-исследовательская работа студента является одной из основных пунктов учебного процесса. НИР должна способствовать развитию у обучающихся творческих личностей, способных адекватно и эффективно решать возникающие перед ними задачи.

«Основой успешного развития вуза является научно-исследовательская работа преподавательского состава, осуществление на практике интеграции науки и образования, сочетание фундаментальных и прикладных исследований в рамках научных тем вуза с современными тенденциями образования». [2; с. 10] Благодаря этому профессиональное мастерство преподавателей вузов должно наблюдаться в научном и педагогическом гранях. Научный аспект позволяет передать накопленные научные знания, а студенты получают передовые навыки и умения, что способствует развитию у студентов креативных интеллектуальных способностей.

Обучающаяся деятельность способствует тому, что студенты более широко изучают дисциплину, в данном случае-коллоидную химию, в результате которого формируются умения и навыки за счет использования методических средств и приемов.

Основной целью НИРС является формирование и усиление творческих способностей студентов, развитие и совершенствование форм привлечения молодежи к научной, конструкторской, технологической, творческой и внедренческой деятельности, обеспечивающих единство учебного, научного,

воспитательного процессов для повышения профессионально-технического уровня подготовки специалистов.

Основными задачами НИРС являются:

1. обучение методологии рационального и эффективного добывания и использования знаний;
2. совершенствование и поиск новых форм интеграции системы высшего образования с наукой и производственной деятельностью в рамках единой системы учебно-воспитательного процесса
3. повышение навыков научной, творческой и исследовательской деятельности;
4. участие студентов в научных исследованиях, реальных разработках и техническом творчестве;
5. создание и развитие молодежных творческих объединений; освоение современными технологиями в области науки, техники, производства;
6. знакомство с современными научными методологиями, работа с научной литературой;
7. выявление способной молодежи для дальнейшего обучения в аспирантуре, работы на кафедрах и в научных лабораториях; развитие технического творчества учащихся школ и техникумов, обеспечение отбора в вузы молодежи, проявившей склонность к технике, творчеству и науке[3; с. 43].

Коллоидная химия, как раздел физической химии, относится к базовым предметам из химических дисциплин необходимых для современной теоретической подготовки, а также научно-исследовательской работы студентов химической специальности.

В педагогическом вузе проходят обучение студенты I-IV курсов. Научно-исследовательская работа студентов основывается на полученных научных результатах.

Свои маленькие научные достижения студенты презентуют на различных конференциях на республиканском и международном уровнях, а также опубликовывают статьи и тезисы. Несомненно, это способствует продолжению научной работы в виде поступления в магистратуру и аспирантуру.

Итак, главной целью преподавателя-руководителя является работа в той или иной области научной деятельности, выбор научного направления исследований.

Обязательными компонентами научных достижений являются:

- научная статья, тезис (публикация в научных изданиях).
- научные доклады на студенческих научных конкурсах, конференциях, олимпиадах на уровне университета, а также на межвузовском уровне;

Примечательно, что НИРС могут участвовать в конкурсах на грантовое финансирование.

Таким образом, уровень развития и внедрения информационных технологий, многогранное обучение позволяют управлять качеством образовательного процесса. В нынешнее время содержание образования в высшем учебном заведении должно предоставлять:

- высокий уровень культуры личности - общей и профессиональной;
- слияние в национальную и мировую культуру.

Готовность вуза к созданию инновационных условий обучения будущих специалистов-химиков означает совокупную готовность к научно-исследовательской работе, информационно-аналитической и информационно-технической деятельности, включая систему оценки качества.

Новые технологии и систематическое использование развивающих упражнений является эффективным средством активизации учебной деятельности студентов, положительно влияющим на повышение качества знаний, умений и навыков студентов, развитие умственной деятельности. При подготовке будущих учителей необходимо снабжать их умением использовать развивающие упражнения и задачи и, конечно, научить их составлять подобные задания, развивающие у студентов химическое и логическое мышление, наблюдательность в ходе эксперимента, а также использовать свои полученные знания за время обучения в высшем учебном заведении в своей профессиональной деятельности.

Таким образом, формирование готовности студентов к профессиональному саморазвитию и самосовершенствованию требует от преподавателей вуза организации целенаправленной работы с обучаемыми, которая представляет собой систему подробнейшего планирования и активного руководства данным процессом.

Со стороны же завтрашнего выпускника, главным признаком его готовности к постоянному и непрерывному профессиональному росту, а также показателем того, что профессиональное обучение приобрело для него личностный смысл является устойчивое положительное отношение студента к себе как субъект у предстоящей профессиональной деятельности, что предполагает формирование и развитие у него ряда профессионально-значимых качеств личности, владение различными формами профессиональной активности, приобретение навыка рефлексии своего профессионального опыта и т.д.

## **Литература**

1. Александров И., Афанасьева А., Сагитова Э., Строкина В. Балльно–рейтинговая система оценки качества обучения в системе зачетных единиц // Высшее образование в России. 2007. № 7. С. 25–28.
2. Анищенко В.С., Елин Е.Г. Об опыте количественной оценки эффективности работы преподавателей в Саратовском Национальном Исследовательском университете // Alma mater. 2015. № 3. С. 30–37.
3. Ильминская С.А., Значение, цель и задачи научно-исследовательской работы студентов (НИРС). Казахстанский университет инновационных и телекоммуникационных систем С.43
4. Кошелева А.О., Ганжа Н.В., Краснослободцев А.В. Электронное обучение в высшем образовательном заведении на основе синергетического подхода // Психология образования в поликультурном пространстве. Елец: ЕГУ. 2016. № 34 (2). С. 120–125.
5. Кошелева А.О., Архипенко М.А., Шепетько Д.В. Педагогическая интеграция: монография. Академия ФСО России, 2013. 99 с.
6. Кошелева А.О., Шевченко О.И. Научно–исследовательская деятельность как фактор повышения профессионального мастерства преподавателя в современном вузе: коллективная монография / гл. ред. О.Н. Широков. Вып. Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2015. С. 153–167.
7. Михайлова О.Б. Психологическое сопровождение развития инновационного потенциала личности в высшей школе // Alma mater. 2012. № 10. С. 69–73.
8. Никулина И.Е., Соловьев М.Я. Образование в инновационном вузе: проблемы и перспективы развития // Alma mater. 2008. № 8. С. 16–18.
9. Подоляк О.С. Стимулирование готовности будущих преподавателей естественнонаучного профиля к профессиональному саморазвитию в период их обучения в вузе// Электронный научный журнал «Педагог XXI века» № 3/ Сборник материалов Второй Всероссийской Ассамблеи с международным участием «Педагог XXI века» Севастополь -2017 С.150
10. Скоробаготов А.В. Нормативно-правовое обеспечение образования. Учебное пособие. – Казань: Познание, 2014.- 288 с.[Электронный ресурс].
11. Солодова Е.А., Фасоля А.А., Ефимов П.П. Об актуальности создания ситуационных центров управления качеством образования в военных вузах // Военная мысль. 2015. № 10. С. 67–72.
12. Трубина А.И., Григораш О.В. Система оценки качества деятельности преподавателей и кафедр вуза // Alma mater. 2011. № 2. С. 60–64.



**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV-DIDAKTIK  
KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK  
AMALIYOTDAGI HOLATI**

**Kuchimova N.T. - Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada o‘qituvchilar kommunikativ-didaktik kompetentlikni shakllantirish jarayonining tashkilotchisi bo‘lishi, o‘zaro tushunish va talaba shaxsining hissiy, emotsional-axloqiy rivojlanishini ta’minlashi, tahsil oluvchi shaxsning tadqiqot-izlanish va bilish faoliyatini rag‘batlantirish didaktik jarayon ekanligining pedagogik ta’sir vositalari yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** kommunikativ, kompetentlik, didaktik, ahloq, emotsional, madaniyat, estetik, motivatsiya, diagnostik, individuall qobiyat

**СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ  
КОММУНИКАТИВНО - ДИДАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У  
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ**

**Кучимова Н. Т. - исследователь Ташкентского государственного  
педагогического университета**

**Аннотация.** В статье описан педагогический инструментарий, который необходим учителям в качестве организаторов процесса формирования коммуникативно-дидактической компетентности, взаимопонимания и эмоционального, эмоционально-нравственного развития личности учащегося, стимулирующих исследовательскую и познавательную деятельность учащегося.

**Ключевые слова:** коммуникативная, компетентность, дидактическая, моральная, эмоциональная, культурная, эстетическая, мотивационная, диагностическая, индивидуальные способности.

**THE STATE OF THE PROBLEM OF FORMATION OF  
COMMUNICATIVE-DIDACTIC COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS  
IN THE THEORY AND PRACTICE OF PEDAGOGY**

**Kuchimova N.T. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article describes the pedagogical tools that teachers need to be the organizers of the process of formation of communicative-didactic competence,

mutual understanding and emotional, emotional-moral development of the student's personality, stimulating research and cognitive activity of the student.

**Key words:** communicative, competence, didactic, moral, emotional, cultural, aesthetic, motivational, diagnostic, individual ability

O‘zbekiston respublikasida ta’lim-tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida bo‘lajak kadrlarni tayyorlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi hamda pedagogik faoliyatni amalga oshirish malakalarida, tajribasida, chuqur egallangan bilimlarida namoyon bo‘ladigan kasbiy tayyorlanganligi va uni egallaganining muayyan bir darajasini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida bo‘lajak kadrlar masalasiga to‘xtalar ekan: “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur”,- [1] deb ta’kidlaganlari ham bugungi kunda islohotlar jarayonida yosh va yetuk kadrlar masalasi davlat siyosatida muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi.

Chunki jamiyatda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar samarasini tahlil etar ekanmiz bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ-didaktik kompetentlikni shakllantirish muammosining pedagogik nazariy amaliyoti masalalariga olimlar N.A.Muslimov, V.A.Slastenin, L.Bruni, P.Verjerio, M.Monten, F.Rable, B.G.Ananyev, A.A.Bodalevlar o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tilgani ham bejizga emas.

Har qanday jamiyat taraqqiyotning istiqboli, kelajagi yetishib chiqayotgan yosh mutaxassislarining bilmi, ko‘nikmasi, amaliy faoliyatdagi tajribasi, kompetentsiyasi va kompetentligi shakllanganligi bilan belgilanadi.

N.A.Muslimov “kommunikativ kompetentliklikni shakllantirishda ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi tilni o‘zlashtirish, guruhlarda ishlash ko‘nikmalari, jamoada turli xil manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni, bilishni o‘z ichiga oladi”,- [2; 12-b] deb ifodalagan.

V.A.Slastenin “bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash hamda ularning kommunikativ kompetentligini shakllantirish vazifalari sifatida pedagog egallagan bilim, ko‘nikma, malakala va kasbiy kompetentlikni shakllantirishda tarbiya muhim o‘rin tutadi: analitik-refleksiv, konstruktiv-prognostik, tashkiliy, baholash-axborot, korreksiyalash-rostlash”[3.] ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Olimlar L.Bruni, P.Verjerio, M.Monten, F.Rablelar pedagogik uyg‘onish

davrining boshqa mutafakkirlari o'qituvchining ijodiy yondashuvi, sabr-matnati, mehnatsevarligi va talaba bilan muloqot qilish etikasi, qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga e'tibor qaratish kerakligiga to'xtalib o'tgan.

B.G.Ananyev - bo'lajak o'qituvchining muloqot va psixik dunyoqarashining shakllanishini tahlil qilish, muloqot va ta'lim jarayoni o'rtasidagi aloqaga e'tibori, o'qituvchi ta'lim berishda faqat axborotni uzatish va o'zlashtirish emasligi, ta'lim berish - jamiyat taraqqiyotiga mos keladigan muloqot, kommunikatsiya... [4; 339-b] ekanligi haqida aytib o'tgan. Olim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash g'oyasini didaktik jarayon sifatida shaxs munosabatlarining uch guruhini ko'rsatadi:

- o'qituvchi-talaba;
- talaba - talaba;
- o'qituvchi-o'qituvchi munosabatlariga alohida to'xtalib o'tgan.

Olim bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-kompetentligini shakllantirishda o'zaro munosabatlarga kirish doirasida kasbiy tarbiyani muhim deb ifodalaydi va uch guruhga ajratadi. Chunki, ikkinchi guruh doirasida talabalarning boshqa barcha shaxsiy xususiyatlari, birinchi navbatda, xulq-atvor tarzida xarakteri va individual xususiyatlarining eng faol shakllanishi ro'y beradi. Kommunikativ muloqotning uchinchi doirasi talabalar uchun shaxsiy va kasbiy munosabatlarning muayyan namunasi sifatida tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan.

A.A.Bodalev inson shaxsining predmetli-amaliy va kommunikativ muloqot faoliyatini tashkil qilish tabiati haqida tadqiqot olib borgan. Olimning yozishicha, "o'yinning ham, o'rganishning (o'rgatishning) ham, mehnatning ham tarbiyaviy natijasi, ta'siri ushbu o'yinni, o'rganishda va ish jarayonida shu ikki faoliyatning bir-biriga qanday aloqadorligiga (ya'ni, bolalar nafaqat qaysi o'yinni o'ynashlari, yoki nimani o'rganishlari va qanday ishlarga jalb qilinganliklari, balki bu jarayonda qanday muloqotda bo'lishlariga) bog'liq bo'lish jarayonlarini"[5; 272-b] tahlil qilgan.

O'qituvchi bilish jarayonining tashkilotchisi bo'lishi, o'zaro tushunish va talaba shaxsining hissiy, emotsional-axloqiy rivojlanishini ta'minlashda faol bo'lishi lozim. Chunki, tahsil oluvchining shaxsini shakllantirish, uning o'z tadqiqot-izlanish va bilish faoliyatini rag'batlantirishning didaktik jarayonda paydo bo'ladigan, rivojlanadigan munosabatlarga bog'liq bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-didaktik-kompetentligini shakllantirishda didaktik muloqot o'rni alohidadir. M.Stefanova didaktik muloqotning vazifalari qatori sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi:

- o'qituvchi professionalizm darajasining o'sishini va tahsil oluvchilar, o'quvchining ijtimoiy rolga qo'shilishini ta'minlovchi aniqlovchi identifikatsiya qiluvchi funktsiya sifatida qarash;

- ta'lim mazmunini hamkorlikda va birgalikda ishlab chiqishda o'qituvchi va o'quvchining rollari hamda nuqtayi nazarlarining pozitsiyalarining o'zaro o'rnini

bosa olishi jihatidan o'lovchov mezoniga tegishli didaktik kommunikatsiyaning tartibga soluvchi funksiyalarini keltirib o'tadi[6;].

Yuqorida keltirib o'tilgan didaktik muloqat funksiyalaridan tashqari didaktik kommunikatsiya funksiyalarini ta'lim-tizimida qo'llanishida quyidagilarni kiritishni ham zarur deb hisoblaymiz:

➤ talabalar o'qituvchi bilan o'zaro aloqa o'rnatish olish, axborotni qabul qilish va yetkazish, o'zlashtirish olish malakasi, tahsil oluvchilarni bilish jarayoniga jalb qila olish (qiziqtirish olish), ularni nutqlarini oshirish malakasidan iborat kommunikativ funksiyasining o'zini shakllantirish;

➤ tahsil oluvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv axborot ma'lumotlarni chiqarish, olish va qayta ishlash, kommunikativ maqsadni-oldindan belgilaydigan xatti-harakat, pedagog va tahsil oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning eng samarali usullarini funksiyasini shakllantirish;

➤ kommunikativ-didaktik vaziyatni tahlil qila olish, boshqalarning va o'zining nutqini obyektiv tarzda baholay olish, kommunikativ-didaktik o'zaro faoliyatning ehtimoliy variantlarini oldindan ko'ra bilish malakalaridan iborat kommunikativ-gnostik funksiyani oshirib borish muhim o'rin tutadi.

O'Q.Tolipov bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida kasbiy-pedagogik malakalarning o'zlashtirilishi maslalariga to'xtalar ekan:

1. Talabalar kompetentligini shakllantirish.
2. Talabalarning mehnat ta'limi faoliyatini shakllantirish.
3. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.
4. Ta'limning shakl va metodlarini tanlash.
5. Pedagogik rejissorlik.
6. Har xil nostandart pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish malakalari.
7. Ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish.
8. Texnik-texnologik (umummuhandislik, konstruktiv-texnikaviy, tashkiliy-texnologik va maxsus) jihatlarini bo'lajak mehnat o'qituvchisi misolida tahlil qilib o'tgan [7; 314-b].

Shunday qilib, turli yillarda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini olimlar o'rganib, uning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagilarda ko'rsatadilar:

- pedagogik, psixologik, fanga xos bilimlar va ularning integrativ tabiati;
- ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, pedagogik mahoratga ega bo'lish malaka va ko'nikmalari;
- tahsil oluvchilar bilan samarali muloqot qilish malaka va ko'nikmalari, axborot almashish jarayonida ular bilan aloqa o'rnatish;
- o'quvchi shaxsining qadriyatini/qadrini tan olishni taqozo etadigan shaxsga-qaratilgan o'zaro faoliyat malakalari va ko'nikmalari, hamkorlik va birgalikda ijod asosida o'zaro faoliyat;

- kasbiy-pedagogik faoliyat tajribasi;
- o‘qituvchi shaxsining tarkibida o‘zini tahlil qilish, kasbiy o‘zini anglash va o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan qobiliyati mavjud kasbiy ahamiyatli sifatлари.

Demak, ta’lim jarayonida o‘qituvchilar talabalarni chuqur bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar bilan qurollantirishi, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy shakllanishida bor bilim va ko‘nikmalarini ayamasi lozim ekan.

### **Adabiyotlar**

1. Xalq so‘zi gazetasi. 2020-yil 24-yanvar soni.
2. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. T.: 2013-y. 12-b.
3. Слостенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. – М., 1997
4. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - Л.: Изд-во Ленингр.ун-та, 1968.-339с
5. Бодалев А.А. Личность и общение: Избр. тр. - М.: Педагогика, 1983. - 272с.
6. Стефанова М. Дидактическая коммуникация / Челябин. обл. ин-т усовершенствования учителей. - Челябинск: Челябинский рабочий, 1992.
7. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ...ped.fan.dokt. – T.: 2004. – 314-b.

## **ANALITIK KIMYO FANINI O‘QITISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH**

**(pedagogika oliy o‘quv yurtlari misolida)**

**Ishmanova Z.U. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarining kimyo ta’lim yo‘nalishi talabalarida analitik kimyo fanini o‘qitish jarayonida innovatsiyalardan, “Kvest” topshiriqlar, “Muammoli” vaziyat texnologiyalari, Kontekst matnli topshiriqlar tuzish metodlaridan va vositalaridan unumli foydalanish haqida ma’limotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsion ta’lim, kontekst matnli topshiriqlar, kvest topshiriqlar, kimyoviy estafeta, muammoli vaziyat

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИЙ В ОБУЧЕНИИ  
АНАЛИТИЧЕСКОЙ ХИМИИ  
(на примере педагогических вузов)**

**Ишманова З. У. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматривается использование нововведений в преподавании аналитической химии в области химии в педагогических вузах, использование нововведений «Квестовые» задачи, «Проблемные» ситуационные технологии, методы и инструменты для создания контекстных задач.

**Ключевые слова:** инновационное образование, контекстные текстовые задания, квестовые задания, химическая эстафета, проблемная ситуация.

**TO USE OF INNOVATIONS IN TEACHING ANALYTICAL  
CHEMISTRY  
(on the example of pedagogical universities)**

**Ishmanova Z. U. - teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article focuses on the use of innovations in the teaching of analytical chemistry in students of pedagogical higher education institutions in the field of analytical chemistry, "Quest" tasks, "Problem" situation technologies, methods and tools for creating contextual text tasks.

**Key words:** innovative education, contextual text assignments, quest assignments, chemical relay, problem situation

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsiyalardan foydalanish bugungi kunda keng miqyosda qo'llanilayotgan jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Ayni paytda interaktiv ta'lim muhitini yaratish, talabalarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini takomillashtirish, elektron ta'lim muhitini fanga oid elektron darslik va resurslar, ta'limiy dasturlar, ta'lim oluvchilarning bilimlarini avtomatlashtirilgan nazorat tizimi va trenajerlarni ishlab chiqishni qamrab oluvchi interaktiv dasturiy vositalar bilan ta'minlangan holda takomillashtirish dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim muassasalarining elektron o'quv-metodik resurslari bazasini keng qamrovli innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash



bo'yicha amalga oshirilgan tizimli islohotlar doirasida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy vositalarni joriy etish va qo'llab-quvvatlash darajasi oshdi.

Yaratilgan shart-sharoitlar analitik kimyo ta'limida innovatsion dasturiy vositalardan samarali foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini ta'minlash va kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. [; 123-b]

Oliy ta'limda analitik kimyo fanini o'qitishda tayyorgarlikni asosan ikkiga bo'la olamiz:

1. Fundamental tayyorgarlik.
2. Maxsus tayyorgarlik.

Fundamental tayyorgarlik qismiga davlat ta'lim standartida keltirilgan bazaviy bilimlarni berishni oladigan bo'lsak, maxsus tayyorgarlik qismida esa biz kimyoni hayot bilan bog'lab o'qitishni, ya'ni kompetensiyaviy yondashuvni analitik kimyoni o'qitishda qo'llashni tushunamiz [1-rasm].

Analitik kimyoni o'qitishda o'qituvchi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

1. Fan yuzasidan asosiy nazariy bilimlarni eng qulay usulda o'quvchiga yetkazib bera olish.
2. Fan yuzasidan barcha ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
3. O'z fanini tushuntirish bilan bir qatorda o'quvchilarda ijobiy sifatlarni rivojlantirish va tarbiya berish.
4. Berilayotgan barcha nazariy bilimlarni shunchaki, yo'l-yo'lakay emas, balki ularda hayotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.



## **1-rasm. Analitik kimyoni o'qitishni takomillashtirish vositalari**

Faol metodlardan analitik kimyoni o'qitishda darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin:

1-bosqich. Dastlabki bilimlarni egallash bosqichi. Bunda yevristik suhbatlar, muammoli ma'ruza usullaridan foydalanish mumkin;

2-bosqich. Bilimlarni nazorat qilish jarayonida - ekspress testlar va topshiriqlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

3-bosqich. Olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bosqichida-turli xil didaktik o'yinlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Metodlarni maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Bilim olishga ishtiyoqni oshiradigan metodlar. Bularga test metodini misol qilib keltirish mumkin. Test natijasi sifatida talaba o'z bilimlarining yetarli emasligini va yanada ko'proq bilim olishi kerakligini tushunadi.

2. Fanga bo'lgan qiziqishni oshiradigan metodlar. Bularga ko'rgazmali metodlar va o'yinli metodlar misol bo'la oladi.

3. Olingan bilimlarni noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladigan metodlar. Bularga asosan jarayonli topshiriqlar ko'rinishidagi metodlar kiradi.

4. Olingan bilimlarni mustahkamlaydigan metodlar. Bularga aniq jarayonlarni tahlil qiladigan va misollar yechish ko'rinishidagi metodlar kiradi.

5. Olingan bilimlarni amalda qo'llashga imkon beradigan metodlar. Bularga ishbop o'yinli metodlar kiradi.

**Kontekst matnli topshiriqlar tuzish metodi:** Kontekst matnli topshiriqlar bugungi kunda talabalarni qiziqitira oladigan asosiy muammoli topshiriqlarni o'z ichiga olgan matnli topshiriqlar majmuidir. Kontekst matnli topshiriqlarni tuzish bosqichlari quyidagilardir:

1. Navbatdagi darsning mavzusini aniqlab olib, ushbu mavzuga talabalar hayotda duch kelganliklarini va nimalarni bilishlarini aniqlab olamiz. Balki, o'rganilayotgan mavzuni oldin ham maktabda o'qigandirlar.

2. Talabalar uchun yangi ma'lumotlarni aniqlashtirib olish kerak.

3. Ushbu mavzuni to'laroq yoritib berishga imkon bera oladigan birorta hayotiy misolni o'ylab ko'ring. Ushbu hayotiy jumboqni yechish orqali mavzuning mohiyatini talabalar to'liq anglab yetadilar.

4. Ushbu jarayonni o'z ichiga olgan matnli, rasmlil, yoki video ko'rinishidagi topshiriqni tuzing, yoki tayyor materiallardan foydalaning.

**1-topshiriq.** Hasharotlarni bir-birini xavf-xatardan ogohlantiradigan maxsus moddalar ishlab chiqiladi (ogohlantiruvchi feromonlar). Masalan, ba'zi chumolilarda ushbu vazifani umumiy formulasi  $C_{10}N_{16}O$  sitral moddasi bajaradi. Ushbu modda quyidagi xususiyatlarga ega:

a) kumush ko‘zgu reaksiyasini beradi.

b) brom bilan ta‘sirlashib, 2,3,6,7-tetrabrom-3,7-dimetil oktanal-1 ni hosil qiladi.

Ushbu modda haqida qanday xulosaga kelish mumkin?

**2-Topshiriq.** Aniqlanishicha, krapiva o‘simligi qonda gemoglobin miqdorini oshiradi va eritrotsitlar sonini ko‘paytiradi. Qonni tozalovchi vosita sifatida u turli xil kasalliklarga davo hisoblanadi. Gemoglobin tarkibida gem- $C_{34}H_{32}O_4N_4Fe$  moddasi bo‘lib, u o‘pkada o‘ziga kislorodni biriktirib olish xususiyatiga ega bo‘ladi. Gem moddasining molekulyar massasini hisoblang. (Javob:616).

**3-topshiriq.** Aytishlaricha, 1862-yili F. Vyoler kalsiy oksidini ko‘mir bilan qizdirib, kalsiy olgan. Bu reaksiyada u hosil bo‘lgan kulrang mahsulotni olib, chiqindiga tashlab yuborgan. Yomg‘ir yog‘gan vaqtida axlatga tashlangan kulrang modda suv bilan ta‘sirlashib, gaz modda ajralgan. Organik kimyo tarixida bu kashfiyot “Axlat chiqindisida ochilgan kashfiyot” sifatida qoldi. Ajralgan gazning formulasini aniqlang. (Atsetelen)

**4-topshiriq.** Oblepixa o‘simligi tarkibida olein kislota mavjud bo‘ladi. Shuning uchun bu o‘simlik sovuqda ham muzlab qolmaydi. Agar olein kislota tarkibida uglerod-76,6 %, vodorod-12,06%, kislorod-11,34% bo‘lsa, ushbu moddaning eng oddiy formulasini aniqlang.

**Kvest topshiriqlar.** Pedagogikada “kvest” atamasi maxsus ko‘rinishda tashkil qilingan tadqiqotchilik faoliyati natijasi sifatida namoyon bo‘luvchi, o‘z ichiga topshiriqlar, shaxs, obyekt va manzillarni oladigan topshiriqlar majmui sifatida ishlatiladi. “Kvest”lardan foydalanishning naqadar ahamiyatli ekanligini bugungi kunda deyarli barcha mutaxassislar tushunib yetmoqdalar. Chunki zamonaviy ta‘lim tizimi talabalarni faoliyatli yondashuvga undaydigan metodlarni qo‘llashni talab etadi. “Kvest”lardan foydalanish shaxsda turli sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradi. Uning ta‘limda turli xil ko‘rinishlari ishlatiladi: ta‘limiy veb-kvestlar, sarguzashtli, o‘yinli va jonli ko‘rinishda. Bulardan eng ahamiyatlisi ta‘limiy-tarbiyaviy maqsadda qo‘llaniladigan jonli kvestlardir. Darslarda muvaffaqiyatga erishish uchun loyiha-kvestlardan foydalanish ham ahamiyatlidir. Ushbu metoddan guruhli ko‘rinishda, ham individual tarzda ham foydalanish mumkin. Bu metod makon va joy tanlamaydigan metodlardan biri bo‘lib, uni auditoriyaning ichida, darsda, darsdan tashqari muzeylar, sayohatlarda, yashirin joylarni topishga yordam beradigan, manzilni aniqlaydigan aralash ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.[3; 137-b]

Tarkibiga ko‘ra kvestlarning bir necha turi bor:

1. Chiziqli. Bunda o‘yin zanjir ko‘rinishida bo‘ladi: bitta topshiriqni bajarib, ikkinchisiga o‘tiladi. Barcha topshiriqlarni bajarib bo‘lguncha shu taxlit davom etiladi.

2. Hujumli. Bunda barcha ishtirokchilar asosiy topshiriqni oladilar, lekin mustaqil ravishda har biri har xil usulda yechimni topadilar.

3. Halqali. Chiziqli kvest bilan deyarli bir xil, faqat bunda o'yin yopiq halqa ko'rinishida bajariladi.

Kvestning bajarish tartibi:

1. Kirish.
2. Topshiriq.
3. Baholash.

Analitik kimyoni o'qitishda kvestlardan foydalanish uchun o'qituvchi quyidagilarni bilishi kerak:

1. Kvestning maqsadi va vazifalarini aniqlashtirib olish.
2. Ishtirokchilar ro'yxatini shakllantirishi.
3. Kvest uchun ssenariy yozishi.
4. Kvestni bajarish uchun joyni aniqlashtirishi.
5. Yordamchilar jamoasini tashkil qilish.
6. Sanani belgilab olish.
7. Talabalarni hayron qoldirish usulini topishi kerak.

Kimyo darslarida kvestlardan foydalanish natijasida talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlari sezilarli darajada oshganini ko'rish mumkin. Kvest usuli darslarni xilma-xilligini oshirishga, uni esda qolarli shaklda tashkil qilishga yordam beradi. Kvest so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, kvest-sarguzasht axtarish degan ma'noni anglatadi.

Kvest ko'rinishidagi dars tashkil etilganda, talabalar guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh uchun topishmoq savollar beriladi. Talabalar topishmoqning javobini topib, guruhlarining nomini aniqlashtirib oladilar. So'ngra birin-ketin analitik kimyo fanidan topshiriqlarni bajaradilar:

**1-topshiriq.** "Kimyoviy estafeta" Bunda o'quvchilar quyidagi savollarga javob berishlari kerak:

1. Nima uchun qo'rg'oshin kationi bir vaqtning o'zida II va III analitik guruhga kiradi?
2. Qo'rg'oshin ionini analitik reaksiyalarini yozing va tenglang. "Oltin yomg'ir" reaksiyasi deb nimaga aytiladi?
3. Nima uchun ammoniy ioni ishtirokida kaliy va natriy ionlarini aniqlash mumkin emas?
4.  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{NH}_4^+$  ionlarini aniqlashda ishlatiladigan reagentlarning nomlarini va formulalarini yozing.

Keyingi topshiriqlarda o'qituvchi talabalarga kontekst matnli topshiriqlar yozilgan kartochkalarini topshiradi. Talabalar bu topshiriqni javobini topadilar. Keyin analitik kimyodan har bir guruh uchun krossvordlar, sinkveynlar berish mumkin

bo‘ladi. Oxirida talabalarning yig‘gan ballari hisoblanib, g‘oliblar aniqlanadilar. Talabalar har bir topshiriqni bajargach, ularga bittadan jeton berib boriladi. Barcha jetonlarni yig‘gan guruh g‘olib sanaladi.

“**Muammoli vaziyat**” Aluminiy neytral muhitda alizarin bilan aniqlashning analitik samarasi salt tajribadan farq qilmaydi. Aluminiy alizarinatning qizil dog‘i filtr qog‘ozini ammiak bug‘lari bilan to‘yintirgandagina hosil bo‘ladi. Kuzatiladigan natijani kimyoviy reaksiya tenglamasi bilan asoslang.

“**Muammoli vaziyat**” Rangsiz eritma ikki qismga bo‘lindi. Birinchi qismdan filtr qog‘ozida alizarin bilan kuchsiz ishqoriy muhitdagi reaksiyasi natijasida qizil dog‘ hosil bo‘ldi. Ikkinchi qismidan 1 tomchi buyum oynachasiga olinib, FeSO<sub>4</sub> quruq tuzi hamda konsentrik H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> qo‘shilganda, qo‘ng‘ir halqa hosil bo‘ldi. Tuz tarkibi qanday.

“**Muammoli vaziyat**” Laboratoriyada oq kukun turibdi. Undan laborant probirkaga ozroq olib qizdirgan edi u qoraya boshladi. Bir necha minutdan keyin batamom qora kukunga aylandi. Probirka devoriga rangsiz suyuq tomchilar paydo bo‘ldi. Oq kukunning eruvchanligini bilish maqsadida suvga aralshtirilgan edi erimasdan suv loyqalandi. Loyqa eritma qizdirilganda asta-sekin tiniqlashdi. Lekin kolloid eritma bo‘ldi. Unga bir necha tomchi sulfat kislota tomizib qaynatilganda chin eritma bo‘lib qoldi. Bu eritmaga ozroq Feling suyuqligi tomizib ko‘rilganda oldin sariq, so‘ng qizil cho‘kma hosil bo‘ldi. Laborantga bankadagi moddani topishga yordam bering? [5; 90-b]

### **Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri**

Har bir ishtirokchi bir varaq qog‘ozda o‘rganilayotgan yoki o‘rganilgan mavzu bo‘yicha uchta to‘g‘ri fikr va bitta noto‘g‘ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to‘planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto‘g‘ri bo‘lgan ekanligini aniqlaydilar.

Bu metod talabalarda kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko‘nikmasini ishlab chiqadi, xato topish va fikrlarni ifodalashga o‘rgatadi, o‘qituvchiga talabalarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

### **Namuna: Kationlarning klassifikatsiyasi (vodorod sulfidli usul)**

<b>Gu ruh reagenti</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>I</b>	<i>Guruh reagenti yo‘q</i>	Ba <sup>+2</sup> , Sr <sup>+2</sup> , Ca <sup>+2</sup>	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> C O <sub>3</sub>	Cu <sup>+2</sup> , Cd <sup>+2</sup> , Bi <sup>+2</sup>
<b>II</b>	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> S	Cu <sup>+2</sup> , Cd <sup>+2</sup> , Bi <sup>+2</sup>	K <sup>+</sup> , Na <sup>+</sup> , NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	Guruh reagenti yo‘q

III	NH <sub>4</sub> OH	Al <sup>+3</sup> , Cr <sup>+3</sup> , Zn <sup>+3</sup>	Al(OH) <sub>3</sub>	HCl
IV	H <sub>2</sub> S	Cu <sup>+2</sup> , Cd <sup>+2</sup> , Bi <sup>+2</sup>	HCl	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> S
V	Ca(OH) <sub>2</sub>	Ag <sup>+</sup> , Pb <sup>+2</sup> , Hg <sup>+2</sup>	Guruh reagenti yo‘q	Ba <sup>+2</sup> , Sr <sup>+2</sup> , Ca <sup>+2</sup>

### “Moslikni toping”

Bunda analitik kimyoda 4 guruh kationlarining sifat reaksiyalari berilgan siz hosil bo‘lgan cho‘kmalarning ranglarini moslab joylashtiring:[4, 139-b]

#### 1–guruh kationlari sifat reaksiyalari:

- $KCl + H_2C_4H_4O_6 = KHC_4H_4O_6\downarrow + HCl$
- $NaCl + UO_2(CH_3COO)_2 + CH_3COOH = Na(UO_2)(CH_3COO)_3\downarrow + HCl$
- $2K_2[HgJ_4] + 4KOH + NH_4Cl = [OHg_2NH_2]J\downarrow + 7KJ + KCl + 3H_2O$

#### 2–guruh kationlari sifat reaksiyalari:

- $Pb(NO_3)_2 + K_2CrO_4 = PbCrO_4\downarrow + 2KNO_3$
- $Hg_2(NO_3)_2 + 2HCl = Hg_2Cl_2\downarrow + 2HNO_3$
- $NaCl + AgNO_3 = AgCl\downarrow + NaNO_3$

#### 3–guruh kationlari sifat reaksiyalari:

- $CaCl_2 + (NH_4)_2C_2O_4 = CaC_2O_4\downarrow + 2NH_4Cl$
- $Sr(NO_3)_2 + H_2SO_4 = SrSO_4\downarrow + 2HNO_3$
- $BaCl_2 + K_2CrO_4 = BaCrO_4\downarrow + 2KCl$

#### 4–guruh kationlari sifat reaksiyalari:

- $3ZnCl_2 + 2K_3[Fe(CN)_6] = Zn_3[Fe(CN)_6]_2\downarrow + 6KCl$
- $2CrCl_3 + 3(NH_4)_2S + 6H_2O = 2Cr(OH)_3\downarrow + 3H_2S\uparrow + 6NH_4Cl$
- $2AlCl_3 + 3(NH_4)_2S + 6H_2O = 2Al(OH)_3\downarrow + 3H_2S\uparrow + 6NH_4Cl$

1-(oq suzmasimon), 2-(yashil), 3-(oq), 4-(jigarrang–sariq), 5-(sariq), 6-(qizil–qo‘ng‘ir),

Xulosa qilib shuni alohida ta’kidlaymizki, yuqorida keltirilgan innovatsiyalardan oliy ta’lim analitik kimyo kursini o‘qitish jarayonida foydalanilganda talabalar fanga qiziqish bilan yondashadilar, kimyo fanlarini (analitik kimyo) bir-biri bilan bog‘liqligini o‘rganadilar, hamda analitik kimyodagi sifat va miqdoriy analizlarning farqli reaksiyalari chuqur egallashlariga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

- Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.123-b.
- Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metod.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.



3. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b.
4. Gulamova M.T., Norov Sh.Q., Turobov N.T.; O'z. R. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — T.: “Analitik kimyo” «Voris nashriyot», 2009. – 139-b.
5. M. Primqulov va boshq. Biz bilgan va bilmagan kimyo/— Toshkent: “O'qituvchi”, NMIU, 2011.- 90-b.
6. Raxmatullayev N.G'., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish metodikasi . – Toshkent: ”Iqtisod – Moliya”,2013.
7. Abduqodirov A.A. Hayitov A.G', Shodiyev R.R. Axborot texnologiyalari/ akademik litsey va KHK lari uchun darslik.-T.:o'qituvchi, 2002.- 144-b
8. Olimova Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari:.Dissertatsiya-T.:TDPU; 2005-212-b.

## **O'QUV FAOLIYATIDA PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURTI TALABALARI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Mamatqulova M.V. - Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quv jarayonida pedagog tomonidan pedagogika oliy o'quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlanishning modeli va uning asosiy va sistema hosil qiluvchi komponentlari bayon etilgan. Talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlari kuchga kirishiga olib keladigan asosiy pedagogik omillarga to'xtalgan.

**Kalit so'zlar:** determinatsiya, genetik, genotip, pedagogik ijod, ijodiy faoliyat, gnoseologik fenomen, pedagogik qonuniyat, pedagogik prinsip, muammoli vaziyat, intellektual malakalar.

## **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ**

**Маматкулова М.В. - преподаватель Кокандского государственного  
педагогического института**

**Аннотация.** В данной статье изложены модель обеспечения развития педагогом творческих способностей студентов педагогических вузов и ее основные и системообразующие компоненты. Студенты акцентировали внимание на основных педагогических факторах, которые приводят к вступлению в силу законов развития творческих способностей.

**Ключевые слова:** детерминация, генетика, генотип, педагогическое творчество, творческая деятельность, гносеологический феномен, педагогический закон, педагогический принцип, проблемная ситуация, интеллектуальные способности.

## **DEVELOPMENT OF CREATIVE METHODS OF STUDENTS BY PEDAGOGICAL EDUCATION IN EDUCATIONAL ACTIVITIES THEORETICAL BASES**

**Mamatkulova M.V. - teacher of Kokand State Pedagogical Institute**

**Annotation.** In the learning process, the teacher describes a model for ensuring the development of creative abilities of students of pedagogical universities and its main and system-forming components. Students focused on the main pedagogical factors that lead to the entry into force of the laws of the development of creative abilities.

**Key words:** determination, genetics, genotype, pedagogical creativity, creative activity, epistemological phenomenon, pedagogical law, pedagogical principle, problem situation, intellectual abilities.

Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichida mutaxassislarning kasbiy ijodiy saviyasiga, fanning soʻnggi yutuqlarini hamda ilgʻor texnologiyalarni ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaga tadbiq etish muddatlarini qisqartirishga qoʻyiladigan talablar oshib bormoqda.

Bugungi kunda oliy oʻquv yurtlari oldiga hayotda oʻz oʻrnini topa oladigan, istiqbolli, kasbiy faoliyatini ijodiy amalga oshirishga tayyor, yaʼni nafaqat yetarli murakkab vazifalarni hal qilishga, balki muammolarni ilgari surishga, prinsipial yangi ijodiy yechimlarni topishga qodir boʻlajak mutaxassisni rivojlantirish vazifasi qoʻyilgan.

Psixologiyada shaxs rivojlanish yoʻllarini tushuntirishda bir-birini toʻldiradigan uchta yondashuv mavjud:

1) genetik, psixik xossalar determinatsiyasida asosiy rolni nasliylikka ajratadigan yondashuv;

2) muhitli, uning vakillari psixik qobiliyatlarning rivojlanishida hal qiluvchi omil tashqi sharoitlar deb biladi;

3) genotip – muhit o‘zaro hamkorligi, bu yondashuv tarafdorlari individ muhitga moslashishining nasliy qirralarga bog‘liq turli tiplarini farqlaydi.

O‘quv jarayonida pedagog tomonidan pedagogika Oliy o‘quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ta‘minlanishi manzarasini yaratish uchun modellashtirish metodidan foydalandik. Modellashtirishning asosiy afzalligi o‘rganilayotgan obyekt haqida qilingan axborotning yaxlitligidir. Modelni qurishda pedagogik tadqiqotlar tajribasi, modellashtirish jarayoniga taalluqli bo‘lgan umumilmiy talablarga asoslandik.

O‘quv jarayonida pedagogika Oliy o‘quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning biz ishlab chiqqan modeli qator o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Modelning asosiy va sistema hosil qiluvchi komponentlaridan biri maqsadli komponent sanaladi. Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda, o‘rganilayotgan sistemaning maqsadi pedagogika Oliy o‘quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishdan iborat bo‘ladi.

Belgilangan maqsadning muvaffaqiyatli realizatsiyalash uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak bo‘ladi:

- talabalarni ijod, pedagogik ijod, ijodiy faoliyat mexanizmlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish;
- bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda ijodiy faoliyatga pozitiv munosabatni shakllantirish;
- faoliyatni ijodiy darajada amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shaxs sifatleri, shuningdek, ko‘nikmalarni shakllantirish.

Sistemaning nazariy – metodologik komponentini ishlab chiqishda pedagogik omillar, qonuniyatlar, pedagogik jarayonni tashkil qilish prinsiplariga asoslandik.

Ma‘lumki, pedagogik omil har qanday pedagogik jarayonning harakatlantiruvchi kuchi sanaladi. O‘quv – tarbiya jarayonida konkret omillarni realizatsiyalashda o‘qitish va o‘qish faoliyati yo‘nalishi va xarakterini, oxir – oqibatda o‘quv jarayoni natijalarini o‘zgartirishning ma‘lum qonuniyati obyektiv zarurat bilan namoyon bo‘ladi. Qonuniyatlarni aniqlash istalgan ilmiy nazariyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Pedagogik jarayon qonuniyatlari pedagogik faoliyatni tashkil qilishda asosiy talablarni o‘z ichiga olgan; uning yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan rahbarlik qoidalarida, ya‘ni prinsiplarda o‘zining konkret ifodasini topadi. Qonuniyatlar obyektiv tarzda mavjud, prinsiplar esa qonuniyat mohiyatini normativ shaklda aks ettiradigan gnoseologik fenomen sanaladi. Ya‘ni pedagogik qonuniyat va pedagogik prinsip «mavjud» va «lozim» kabi nisbatlanadi.

Adabiy manbalar va pedagogik ish tajribasi tahlili asosida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlarining kuchga kirishiga olib keladigan asosiy pedagogik omillar guruhiga to'xtaldik. Aniqlangan qonuniyatlar talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan pedagogik faoliyatni tashkil qilish prinsiplarini shakllantirish imkonini beradi.

1-omil. O'quv faoliyatining ijodiy xarakteri.

Ijodiy qobiliyatlar ijodiy faoliyat uchun zarur, biroq S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha: " Inson o'z hayot yo'lida bajaradigan, amalga oshira boradigan faoliyatda shaxsning barcha psixik xususiyatlari nafaqat namoyon bo'ladi, balki shakllanadi ham ".

Qobiliyatlar u yoki bu sifatlarga ega bo'lgan insonning dunyo bilan o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi.

Inson faoliyati natijalari umumlashtirib, «qurilish materialli» misol uning qobiliyatlari qurilishiga kiradi. Demak, o'quv faoliyatining ijodiy xarakterini ta'minlash omili asosiy bo'lishi kerak. Yetakchi tadqiqotchilar shunday fikr bildiradi.

Ijodiy faoliyat ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, degan qonuniyatni keltirish mumkin. Ijodiy faoliyatning protsessual tomoni muammoni topish va hal qilishdan iborat. O'qitish haqida gap borar ekan, o'quv muammosi deganda nimani tushunishni aniqlashtirib olishimiz lozim bo'ladi.

Biroq har qanday vazifa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi. O'quv muammosi deganda «aqliy izlanish yo'nalishini belgilaydigan, noma'lum bo'lganning mohiyatini tadqiq qilish (tushuntirishga) qiziqish uyg'otadigan va yangi tushuncha yoki harakat usulini aniqlashtirishga olib keladigan o'zlashtirish jarayonining mantiqiy – psixologik qarama-qarshiligining aks etishi (namoyon bo'lishi) tushuniladi»

Muammoli o'qitish sharoitlarida muammoli vaziyat yaratishga katta ahamiyat beriladi. U o'quv muammosini shakllantirishdan oldin, uni hal qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Psixolik va pedagoglar muammoli vaziyat mohiyatini turlicha ta'riflaydi, biroq har ikkala tomon ham uning uchun xarakterli bo'lgan ayrim belgilarni ko'rsatadi. Bular: 1) intellektual qiyinchilik holati yuzaga keladi; 2) ziddiyatli vaziyat yuzaga keladi; 3) o'quvchi ega bo'lgan hamda masalani tushunish, tushuntirish, yechish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar mos kelmay qoladi.

Muammoli vaziyatni yaratish usullari ma'lum:

tanlov, qaror qilish, vaziyatni yaratish;

fakt, hodisalarni qiyoslash, taqqoslash;

kashfiyotlar, ixtirolar tarixiga ekskursiyalar. Hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi sabab oqibat aloqalarini, munosabatlarni aniqlashni taklif qilish;

nazariya va o'quvchining hayotiy tajribasi o'rtasidagi nomuvofiqliklarni ko'rsatib beradigan usullar, faktlarni namoyish qilish;

odatiy hodisaga prinsipal yangicha qarash;

aynan bir hodisani tushuntirishga ikki yoki ortiq yondashuvni taqqoslash;

turli fanlar nuqtai nazaridan eksperiment, tushuntirishni talab qiladigan masalalarni qo'yish. Muammoli vaziyat o'quvchilar ijodiy faolligining «akkumulyatori» sanaladi. O'quv faoliyati ijodiy xarakterini ta'minlash uchun u muammoli o'qitish uchun xarakterli bo'lgan muammolilik prinsipi asosida tashkil qilinishi lozim.

2-omil. Ijodiy faoliyat uchun zarur bilim va malakalarni o'zlashtirish. Biz o'rganayotgan ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijodiy malakalar bu iyerarxiyaning oliy darajasiga taalluqli. Bu ixtisoslashuv doirasida bevosita ijodiy jarayonni ta'minlaydigan malakalar jami (yig'indisi). Bu malakalar, eng avvalo, asosiy pisixik jarayonlar xarakteri va ularning odatda, kasbiy faoliyat doirasidan tashqari bo'lgan tobora umumiy qonunlari bilan bog'liq. O'rganayotganimiz ijodiy qobiliyatlar bilan ularning rivojlanishi uchun maqul malakalar o'rtasidagi muvofiqlikni umumlashgan.

Ijodiy qobiliyatlar

Ijodiy malakalar

Muammoni ko'rish

Qarama qarshiliklarni aniqlash, muammoli savollarini qo'yish, vazifani fondan ajratish, muammoni reprezentatsiyalashning boshqa usullarini izlash, kichik muammolarga bo'lish

Idrokning to'liqligi

Obyektning aloqa va munosabatlarini ko'rish, obyekt strukturasi ko'rish, obyekt (hodisaning) jiddiy va jiddiy bo'lmagan belgilarini ajratish, turli obyekt (hodisa)larda jiddiy umumiy qirralarni ko'rish, anchagina o'xshash obyekt (hodisa)larda jiddiy farqni ko'rish

Xotiraning tayyorligi bilimlarni sistemalashtirish, bilimlar sistemasini to'ldirish va qayta qurish (bilimlar dinamikligi) bilimlarni yangi vaziyat-larga ko'chirish. Abstraksiyalash (mavhumlashtirish), analogiyalarni izlash, ma'lum bo'lgan bilim va harakat metodlarini mavjud sharoitlarga nisbatan baholash, yengil assotsiatsiyalash va tasavvur obyektlarni detalizatsiyalash elementlari bilan taqqoslash, obyektning qism sifatida butunga kiritib taqqoslash, mos kelmaydigan elementlarni qiyoslash asosida «bevosita» taqqoslashlar, turdoshlik bo'yicha aloqalarni aniqlash, obyektlarni boshqa ko'rinishda tasavvur qilish; agglyutinatsiya yo'li bilan yangi obrazlar yaratish.

Nozik fikrlash, boshqa g'oyaga ko'chish, odatiy vaqt aloqalarini o'zgartirish, odatiy makon aloqalarini o'zgartirish, odatiy umumiylik aloqalarini o'zgartirish.

Fikrlash dialektikligi, qarama-qarshilik munosabatlarini aniqlash, dialektik birlashtirish, dialektik vositalash, dialektik murojaat, dialektik aylantirish. Fikrlashning originalligi, ma'lum usul yoki nazariyadan voz kechish, faoliyatning

qo‘shimcha mahsullaridan foydalanish. Bashoratlash (prognozlash) istiqbolli rejalashtirishni amalga oshirish, qarorning har bir qadami natijalarini bashorat qilish. Fikrlashning tanqidiyligi g‘oyani baholash mezonlarini tanlash, g‘oyalarni mezonlar nuqtai nazaridan tahlil, optimal qaror g‘oyasini tanlash.

Ajratilgan ijodiy malakalar ijodiy faoliyat mexanizmlarini amalda realizatsiyalash uchun zarur, ulardan ayrimlari esa ta’rifda evristikalar bilan to‘liq mos keladi, bu ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi. Faoliyat maqsad va vazifalariga muvofiq harakatlarni bajarishning muvaffaqiyatliligini kafolatlaydigan malakalar shakllangan sanaladi. Psixologik – pedagogik adabiyotlarda malakalar shakllanishining turli bosqichlari farqlanadi. Ijodiy malakalarga ko‘proq yaqini intellektual malakalar sanaladi. Ular ham (A.V, Usova tasnifiga ko‘ra) bilish va (R.F.Krivoshanova tasnifiga ko‘ra) fanlararo malakalarga kiradi. Ijod uchun zarur malaka va bilimlarni bu masalaga bag‘ishlangan tadqiqotlarni o‘rganish asosida aniqlashtirib, quyidagi qonuniyatni to‘la ishonch bilan aytishimiz mumkin: ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish ijodiy faoliyat uchun zarur bilim va malakalar bilan dialektik o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi. Uni amalda realizatsiyalash pedagogik faoliyatni tashkil etishga asosiy talablardan biri - ijodiy faoliyatga tayyorlashda sistemalilikka amal qilish orqali amalga oshiriladi.

3-omil. Ijodiy qobiliyatlarning erishilgan darajasini hisobga olish, ta’lim jarayonida uning barcha shakllari va metodlarida, qanday xususiyatlar va qay darajada hisobga olinishidan qat’iy nazar, ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni ta’limni individuallashtirish deyiladi.

Shu sababli har bir talabaning rivojlanish darajasini aniqlash zarur, rivojlanish darajalarini nivelirlashga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, ya’ni individuallashtirish butun ta’lim davri davomida saqlanadi; rivojlantiruvchi topshiriqlar optimal murakkablikda bo‘lishi kerak. Bu barcha xulosalarni ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga nisbatan ham keltirish mumkin. Shu asosda keyingi qonuniyatni shakllantirish mumkin: ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlariga, ularning namoyon bo‘lish darajasiga bog‘liq. Ushbu qonuniyat ijodiy qobiliyatlar rivojlanishining erishilgan darajasini hisobga olish asosida individuallashtirish prinsipi orqali realizatsiyalanadi.

4-omil. Shaxsning ijodiy faoliyatini rag‘batlovchi va boshqaruvchi.

Psixologiyada ma’lumki, shaxs bir butunlik sifatida rivojlanadi. «Madaniy rivojlanishning mohiyati insonning o‘z xulq atvor jarayonlarini egallashidan iborat, biroq buning zaruriy omili shaxsning bo‘lishi sanaladi, shu bois u yoki bu funksiyaning rivojlanishi shaxsning umumiy rivojlanishi hosilasi va u bilan belgilangan bo‘ladi», shu sababli ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini ijodkor shaxsning bosh qismlaridan ajralgan holda o‘rganishimiz mumkin emas. Aytilganlardan quyidagi qonuniyat kelib chiqadi: ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish



ijodkor shaxsning boshqa komponentlari tomonidan rag'batlantiriladi va boshqariladi.

Pedagogik sharoitlarning quyidagi kompleksi o'quv faoliyatida pedagogika Oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi:

- motivatsion sharoitlar: pedagogning kasbiy faoliyatida ijodning o'rni va ro'lini asoslash; muammolar yechimi uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lishini anglab yetish;

- konstruktiv sharoitlar: talabalarga ijodiy faoliyat mexanizmlari haqida bilim berish; ta'lim mazmuniga ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni kiritish; tegishli metodik ta'minot;

- tashkiliy sharoitlar: o'quv – ijodiy faoliyatni tashkil qilish metod va shakllaridan foydalanish; ta'limni tashkil qilishning gurux va individual shakllaridan foydalanish;

- kommunikativ sharoitlar: o'qituvchi kommunikativ madaniyati ancha yuqori darajada shakllanganligi; o'qituvchi va talabalarining subyekt – subyekt o'zaro hamkorligi sifatida dialogdan foydalanish.

- Ishlab chiqilgan modelning o'quv faoliyatiga tadbiiq qilishning yakuniy natijasi bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosida oshirish.

## **Adabiyotlar**

1. Абрамов С.А., Зима Е.В. Начала информатики. М.: Наука. Гл. ред. физ.-мат. лит., 1989.-256 с.
2. Абульханова, Славская К.А. Деятельность и психология личности. - М.:Наука, 1980.-335 с.
3. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М.:Мысль,1995.-160с.
4. Адамар Ж. Исследование психологии процесса изобретения в области математики. Франция. 1959 г. Пер. с франц. М.: Изд-во «Советское радио», 1970.-152 с.
5. Белкин А.С. Ситуация успеха. Как её создать: Кн. для учителя. М.: Просвещение, 1991. - 176 с.
6. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.- 190 с.
7. Педагогика и психология высшей школы/ под ред. С.И. Самыгина. - Ростов н/д, 1998. 544 с.

## NAVOIY ASARLARI TILIDA TUB VA YASAMA SO‘ZLARNING QO‘LLANILISH O‘RINLARI

**Egamova Sh.D. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi**

**Narimova G.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti  
vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Navoiy tilida iste’molda bo‘lgan qadimgi turkiy til leksikasining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari, eski o‘zbek adabiy tili, shuningdek keyingi davr va hozirgi davr o‘zbek adabiy tili leksik tarkibidagi faol leksemalarning qo‘llanilishidagi farqlar, Navoiyning o‘zbek adabiy tiliga qo‘shgan beqiyos hissasi haqida gap boradi.

**Kalit so‘zlar:** Ona tili, turkiy tillar, g‘azaliyot, dostonlar, ilmiy-badiiy, leksema, arxaiklashgan, semema, sema, eski o‘zbek adabiy tili, millat.

## ПРИМЕНЕНИЕ ПРОИЗВОДНЫХ И НЕПРОИЗВОДНЫХ СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НАВОИ

**Эгамова Ш. Д. - доцент Ташкентского государственного  
педагогического университета, кандидат филологических наук**

**Наримова Г.А. - и.о. доцента Ташкентского государственного  
педагогического университета, кандидат филологических наук**

**Аннотация.** В данной статье речь идет об особенностях лексики древнетюркского языка, используемой в языке Наваи, различиях использования активной лексики в составе староузбекского литературного языка, а также в узбекском литературном языке позднего и современного периода, бесценном вкладе Наваи в узбекский литературный язык.

**Ключевые слова:** родной язык, тюркские языки, газели, поэмы, научно-литературный, лексема, архаика, семема, сема, староузбекский литературный язык, нация.

## PLACES OF APPLICATION OF ORIGINAL AND ARTIFICIAL WORDS IN THE LANGUAGE OF NAVOI'S WORKS

**Egamova Sh.D. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical  
University, Candidate of Philological Sciences**

**Narimova G.A. - Acting Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Philological Sciences**

**Annotation.** In this article, the peculiarities of the lexicon of the ancient Turkic language in use in the Navoi language, the differences between the use of active lexemes in the lexical structure of the old Uzbek literary language, as well as the lexical structure of the later and modern Uzbek literary language, It is about Navoi's invaluable contribution to the Uzbek literary language.

**Key words:** Mother tongue, Turkic languages, ghazals, epics, scientific-artistic, lexeme, archaic, semema, sema, old uzbek literary language, nation.

E'tirof etish lozimki, jamiyatda sodir bo'lgan har qanday o'zgarish yoki yangilik tilda, ayniqsa, uning so'z boyligida o'z ifodasini topadi. Shunday ekan, lisoniy hodisalarni, jarayonlarni tahlil etishda tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yuz bergan voqeliklarni nazardan qochirmaslik, ularning til shakllanishi va rivojidadagi muhim o'rnini belgilash talab qilinadi. Zero, xalq tarixining til tarixi va aksincha, til tarixining xalq tarixi ekanligi allaqachon o'z isbotini topgan [1].

Har qanday milliy til kabi o'zbek tili ham o'zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir. Chunki Respublika birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Ona tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar" [2].

Muayyan millatning tili uzoq davom etgan tarixiy voqea-hodisalar negizida shakllanadi, sayqallanadi, meyorlashadi. Unda ajdodlarga xos xususiyat, xarakter, bebaho bisot ma'lum darajada ko'zga tashlanib turadi.

Uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga moyillik tilga xos bosh jihat bo'lib, u ajdodlar va avlodlar o'rtasida o'ziga xos rishta yoki boshqacharoq qilib aytganda, ko'prik vazifasini o'taydi.

Ona tilining shakllanishi, rivojlanishi va sayqal topishida, shubhasiz, buyuk shaxslar – allomalar, shoirlar, yozuvchilar, mutafakkirlar, davlat arboblari, olimlarning salmoqli o'rnini bor. Bir necha ming yillik o'z taraqqiyot yo'liga ega o'zbek adabiy tili ham bundan mustasno emas. Bugungi kunda uning nafaqat qardosh turkiy tillar, shuningdek, rivojlangan jahon tillari qatoridan munosib joy egallashida Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Zamaxshariy, Nosiruddin Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Oybek kabi ko'plab adiblarning ulkan xizmati mavjud.

O'zbek adabiy tilining shakllanishi va bugungi holatga chiqishida, mubolag'asiz, uning tom ma'nodagi asoschisi Alisher Navoiyning roli beqiyos.

Shoir dahosiga mansub nazmiy va nasriy asarlar ham badiiy, ham g'oyaviy-ma'naviy jihatdan yuksak saviyada bo'lganligi sababli, yashin tezligida o'zga mintaqalarga yoyildi, ilm ahlining diqqatini qozondi. Natijada uning asarlari asosida tuzilgan qator lug'atlar va grammatika yuzaga keldi [3].

Butun ongli hayotini el-ulus birligi, xalq va millat farovonligi, tinchligi yo'liga baxshida etgan Navoiy o'zining o'lmas g'azaliyoti, dostonlari, ilmiy-badiiy asarlari bilan nafaqat Xitoydan Xurosongacha, balki Dashti Qipchoq, Volgabo'yi, Kavkaz ortidan to Kichik Osiyo-yu Yevropagacha bo'lgan hududlarni "cherik chekmay o'z taxti farmoniga" oldi, turkiy (eski o'zbek) tilning o'zga rivojlangan, xususan, arab va fors-tojik tillaridan hech bir sathi bo'yicha zaif emasligini, aksincha, ba'zi jihatlari bilan ustunligini, turkiyda ajoyib she'riy devonlar bitish, "Xamsa" yaratish mumkinligini amalda isbotlab berdi.

Qayd etish joizki, har bir adabiy tilning so'z boyligi shu tilning shakllanish va taraqqiy etish bosqichlarida turli-tuman lingvistik yoki ekstralingvistik jarayonlar ta'siriga bardosh berishga muvaffaq bo'lgan, qo'llanish darajasini susaytirmagan, til leksik fondining asosini tashkil qiluvchi leksik birliklardan iborat bo'ladi. Navoiy tilida iste'molda bo'lgan qadimgi turkiy til leksikasining salmoqli qismi aynan mana shunday so'zlar ekanligi bilan diqqatni jalb etadi. Bu tub qatlam nafaqat eski o'zbek adabiy tili, shuningdek, keyingi davr o'zbek adabiy tili, jumladan, hozirgi o'zbek adabiy tili leksik tarkibidagi faol leksemalar sanaladi.

Ayni paytda qadimgi turkiy tilda faol ishlatilgan muayyan tub turkiy so'zlar Navoiy davriga kelib ma'lum darajada arxaiklashgan, ularning o'rnini ma'nodoshlari yoxud chet tillardan o'zlashgan leksemalar egallay boshlagan. M.: "Qariya, chol" ma'nosidagi abushqa leksemasi qadimgi turkiy tilda abuchqa, avinchg'a, avichg'a, avuchg'a (DTS, 69) kabi fonetik shakllarga ega bo'lgan va faol qo'llangan. Navoiy tilida leksemaning qo'llanish chastotasi ancha susaygan va o'z o'rnini qadimgi turkiy tilda o'ta faol bo'lgan ma'nodoshi qari leksemasiga bo'shatib bera boshlagan.

O'rxun-Enasoy bitiklari hamda XI-XIV asrga oid eski turkiy til yozma obidalari tilida "Alloh, Xudo" ma'nosi Ug'an, Täңri, Idi/Izi terminlari bilan ifodalangan. "Ega, Xo'jayin" hamda "Yaratgan, Tangri" semalariga ega bo'lgan idi/izi keyinchalik egä fonetik shaklida "xo'jayin, ega" semasini saqlab qoladi. Navoiy asarlarida bu tub so'z, asosan, "ega, sohib" hamda "podshoh, hukmdor" ma'nolari kasb etadi: ... goyáki mulk egäsiz qaldikim, ul zálím=u nádán kishi erdi (TMA, XIV, 217). "Qudratli, Xudo" ma'nosigagina ega bo'lgan Ug'an monosemantik so'zi Navoiy tilida faqat bir marta qayd etiladi:

*Bukÿn yÿz shukrkim qildi Ug'anım,*

*Seni miğ anchakim bolg'ay gumánım (FSH, 65).*

Ushbu soʻzning eski oʻzbek tilida isteʼmoldan chiqib boshlashining maʼnodoshi Tāhri hamda Allāh, Xudā, Parvardigār kabi arabcha, forsha-tojikcha oʻzlashmalarining faollashuvi oqibatida roʻy berganligiga shubha yoʻq.

“*Qoʻshinni notanish joylardan boshlab boruvchi, unga yoʻl koʻrsatuvchi*” [4] sememasini anglatuvchi “qulavuz” harbiy termini XI asrdan eʼtiboran keng ishlatilgan:

Bu kökdaki yulduz bir ancha bezäk

Bir ancha qulavuz bir ancha yezäk (QB, 12a).

Leksemaning “Gul va Navroʻz” matnida mavjud boʻlganligini kuzatamiz:

Qulavuz-Bulbul, Navroʻz-payrav,

Qilib ayyārliq birlä tak-u dav(378-1).

Navoiy asarlarida uning yordamida yasalgan qulavuzsiz “yoʻlboshchisiz” (Munshaot, XIII-98) va qulavuzlugʻ “yoʻlboshchilik” (SI, X-197) sodda yasama soʻzlarning mavjudligi tahlil etilayotgan terminning XIV-XV asrlarda ham ancha keng ishlatilganini koʻrsatsa-da, lekin keyinchalik “Boburnoma”, “Shajarai turk” yoki Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlarda ishlatilmaganligi uning Sohirqiron Amir Temur tarixiga bagʻishlangan fors-tojik tilidagi manbalarda faol qoʻllangan moʻgʻulcha *qacharchi // gʻajarchi* [5] oʻzlashmasim tomonidan isteʼmoldan siqib chiqarilganligini isbotlaydi.

Keltirilgan leksemalar taqdirida yuz bergan hodisaga oʻxshash vaziyatni yana bir qancha soʻzlar misolida davom ettirish mumkin. Lekin yuqorida bayon qilingan mulohazalar Navoiy davriga kelib oʻz ishlatilish faoliyatini jiddiy tarzda “susaytirgan” yoki butunlay umrini “yashab” boʻlgan baʼzi qadimgi turkiy leksik birliklar borasida umumiy taassurotga ega boʻlish uchun yetarli boʻlsa kerak. Zero, prof. X.Doniyorov taʼkidlaganidek: “Hayotdagi doimiy oʻzgarish va yangilanish bilan bogʻliq ravishda hamma narsa oʻz vaqti bilan oʻzgaradi, eskiradi, hatto oʻz hayotini tugatib, asta-sekinlik bilan isteʼmoldan chiqib boradi. Tilda va shevalarda ham shunday hodisa uzluksiz ravishda yuz berib turadi” [6].

Maʼlumki, har qanday lugʻat tarkibining harakati asosan ikki jarayon - leksikaning boyib borishi hamda muayyan soʻz guruhlarining eskirishi yoki asta-sekin isteʼmoldan chiqib ketishi bilan oʻlchanadi. Leksemalarning arxaiklashuvi yoki lugʻat tarkibidan butunlay tushib qolishi soʻz boyligidagi keragidan ortiqlikka barham berish anʼanasi bilan bevosita aloqadordir. Eski oʻzbek adabiy tili davrida ushbu anʼana keng koʻlamli tus olgan boʻlib, bu jihat soʻz qoʻllashdagi maʼlum meyorlarning shakllanishi va qaror topishini koʻrsatadi.

Soʻzlarning qoʻllanishdan tushib qolishining ikkinchi sababini Navoiy davri uchun ular ifodalagan tushunchaning eskirganligi, oʻziga xos boʻlmaganligi orqali izohlash mumkin boʻladi.

Atoqli adib asarlaridagi sof turkiy leksik qatlamni qadimgi turkiy til soʻz boyligi bilan qiyoslash yuqorida qayd etilgan jihatlar qatori VII-XII asrlarga oid baʼzi soʻzlarning Navoiy leksik xazinasidan oʻrin olmaganligini koʻrsatadi. Masalan, qadimgi turkiy run bitiklarida inson ramzi boʻlgan diniy marosim toshlari balbal: ...qirqiz qagʻanigʻ balbal tikdim ... Qirgʻiz xoqoni uchun balbal oʻrnatdim (KT=25) leksemasi bilan ifodalangan. Turk xoqonligi siyosat sahnasidan ketgach, balbal leksemasi qoraxoniylar davri eski turkiy til manbalarida qayd etilmaydi. Leksemaning eski oʻzbek tili, xususan, Navoiy asarlari tilida ishlatilishi haqida umuman gap boʻlishi mumkin emas.

Qarluq etnonimi Mahmud Qoshgʻariy lugʻatining har uch jildida jami toʻqqiz bor tilga olingan va u "...turklarning bir turi boʻlib, vabarlilar (koʻchmanchilar) va oʻgʻuzlardan boshqadir. Ular aslida turkmanlardandir" tarzida izohlangan (DLT, I, 370). Professor S.Mutallibov qarluqlar xususida mulohaza yuritib: "Til jihatdan qarluqlarning bir qismi oʻgʻuzlarga, bir qismi yagʻmo, chigillarga qoʻshilishi mumkin. Tarixiy asarlarda qarluqlar nomi boshqa qabilalarning nomiga nisbatan mashhurroq ekanligini nazarga olsak, ularning ilgarilari mashhur boʻlgani va devon yozilgan davrda ikkinchi darajali qabilalarga birikib ketgani anglashiladi" [7],- deganda haqli edi. Zero, "ikkinchi" darajali qabilalarga birikib ketgani" oqibatida qarluq etnonimi anglatgan qabila-urugʻ assimilyatsiyaga yuz tutgan. Natijada etnonim isteʼmoldan chiqib keta boshlagan. Garchand qarluq etnonimi Boburning "Boburnoma" va Abulgʻoziy Bahodirxonning "Shajarai turk" asarida mavjud boʻlsa-da [8], u Navoiy asarlarida uchramaydi. Leksemaning Navoiy tilida ishlatilmaganligini qisman shu jihat, shuningdek u ifodalagan qabila – urugʻning Xurosondagi turkiy qabilalari ichida yuqori mavqega ega boʻlmaganligi bilan tushuntirish mumkin.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Navoiy asarlari tilida ishlatilishda davom etgan tub turkiy soʻz boyligining asosini zamon sinovidan oʻtgan, turli jarayonlar taʼsirida boʻlishiga qaramay, lugʻat tarkibidan muhim oʻrin olgan leksemalar tashkil qilgan.

Shu bilan birga til qonuniyatlari negizida maʼlum maʼnoda eskirib, arxaiklasha boshlagan, oʻz oʻrnini yangi yoki chetdan kirib kelgan soʻzlarga boʻshatib berishga majbur boʻlgan leksik birliklar ham adib asarlari tarkibidan joy olgan.

### **Adabiyotlar**

1. Кодухов В.И. Общее языкознание. -М., 1977. -Б.7-8.
2. Karimov I. A. Adolat, Vatan va xalq manfaatini har narsadan ulugʻ. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1998. –B.59.
3. Abdurahmonov Gʻ., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. –Toshkent: Fan, 1984. -B.3.



4. Dadabayev X., Nasirov I., Xusanov N. Problemi leksiki starouzbekskogo yazika. - Tashkent: Fan, 1990. -B.21.
5. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. -Toshkent: Yozuvchi, 1996. -B.20.
6. Doniyorov X. Qipchoq dialektining leksikasi. -B.75.
7. Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. Uch tomlik. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – Toshkent: O‘zSSR FA nashriyoti, 1960. – 498-b.
8. Abulg‘oziy. Shajarai turk.- Toshkent: Cho‘lpon, 1992.- B.22; Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. -166-b.

## **ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ СТРАТЕГИИ ПОРТФОЛИО В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУППАХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ**

**Курбанова Ш.И. – старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Данная статья представляет разработку модели и методической системы по русскому языку (учебная тема: “Древние города России”) в формате технологической стратегии портфолио в иноязычных группах высшего образовательного учреждения. Разработанная модель в формате технологической стратегии портфолио позволит учителям школ и преподавателям ВОО интенсифицировать учебный процесс по русскому языку.

**Ключевые слова:** технологическая стратегия, портфолио, модель, профессиональная деятельность, самооценивание, методические установки, рефлексия.

## **OLIV TA'LIM MUASSASASINING O'ZGA TILLI GURUHLARIDA RUS TILINI O'RGANISH JARAYONIDA PORTFOLIO TEXNOLOGIK STRATEGIYASINING QO'LLANILISHI**

**Qurbonova Sh. I. – Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola ta'lim muassasasi o'zga tilli guruhlarda portfolio texnologik strategiyasi formatida rus tili bo'yicha (o'quv mavzu: “Rossiya qadimiy shaharlari”) model va metodik tizimning ishlab chiqilishini yoritadi. Portfolio texnologik strategiyasi formatida ishlab chiqilgan model, maktab o'qituvchilari va

oliy t'lim muassasasi o'qituvchilariga rus tili bo'yicha o'quv jarayonini jadallashtirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** texnologik strategiya, portfolio, model, kasbiy faoliyat, o'z-o'zini baholash, uslubiy ko'rsatmalar, refleksiya.

## **APPLICATION OF THE PORTFOLIO TECHNOLOGY STRATEGY IN THE PROCESS OF LEARNING RUSSIAN IN FOREIGN LANGUAGE GROUPS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Kurbanova Sh. I. - Senior teacher of the Tashkent State Pedagogical  
University**

**Annotation.** This article presents the development of a model and methodological system for the Russian language (educational topic: "Ancient cities of Russia") in the format of a technological strategy portfolio in foreign-language groups of higher educational institutions. The developed model in the format of the technological strategy portfolio will allow school teachers and HEU teachers to intensify the educational process in the Russian language.

**Key words:** technological strategy, portfolio, model, professional activity, self-assessment, methodological guidelines, reflection

Отношение к человеку как к субъекту предполагает признание его уникальности (неповторимости), активности (реализация права на инициативу и самостоятельность), внутренней свободы (реализация права на выбор), духовности (реализация права на любовь, уважение, развитие, творчество) которые по праву определяют главное направление образовательных проектов, принятых в Узбекистане за последние годы - развитие интеллектуально развитой личности обучаемого, его самореализации и неповторимости.

Новое поколение преподавателей, работающих в высших образовательных учреждениях, должно обладать высокой общей и профессиональной культурой, творческой и социальной активностью, уметь самостоятельно ориентироваться в общественно-политической жизни, быть способным ставить и решать задачи на перспективу.

В условиях непрерывно возрастающих возможностей реального доступа к информации из любой страны мира и на любом языке с помощью глобальных систем телекоммуникации для каждого человека становится необходимым самостоятельно уметь разрабатывать рациональную стратегию поиска смысловой информации из множества существующих. И в этом случае обучение предусматривает развитие информационной компетентности субъектов педагогического процесса.

Сегодня проблема развития интеллектуальной личности, умеющей самостоятельно принимать решение, отстаивать свою точку зрения на проблему дня, быть активным субъектом в плане организации своей деятельности, умение утверждать себя как личность, способной освоить любую созидательную технологию на профессиональном уровне, является актуальной.

Практика показала, что в качестве возможного и достаточно эффективного инструмента по организации и управлению образовательным процессом следует рассматривать технологию «Портфолио», с помощью которой складывается наглядная и целостная картина, отражающая систему оценки качества образования.

Этимология понятия «портфолио» имеет свою давнюю историю и разностороннюю направленность. Оно появилось в Западной Европе еще в XV-XVI вв. Архитекторы эпохи Возрождения представляли заказчикам готовые работы и наброски своих строительных проектов в особой папке, которую называли «портфолио». Документы, представленные в этой папке, позволяли составить впечатление о профессиональных качествах претендента.

Идея создания и использования портфолио в сфере образования возникла в середине 80-х годов в Соединенных Штатах Америки. Далее, после Америки и Канады данная идея становится все более популярной в Европе и Японии. Уже в начале XXI в. идея портфолио получает широкое распространение и реальное практическое применение в России. Технология портфолио также заняла прочное место в практике образовательного пространства Республики Узбекистан.

Еще совсем недавно в образовании портфолио принято было рассматривать как продукт деятельности выпускника “на выходе” конкретной образовательной ступени, а также степень готовности педагога к профессиональной деятельности, представленной в “портфеле” (“папке специалиста”).

В результате углубления в сущность понимания термина “портфолио” было выявлено, что в переводе с итальянского языка слово портфолио означает “папка специалиста” или “папка с документами”. Вместе с тем “Портфолио” может рассматриваться и как “учебный портфель”, “рабочий портфель”, “портфель достижений”, “профессиональный портфель” и др. Это связано с разными факторами, обуславливающими целесообразность его создания, а именно: цель формирования самого портфолио; возрастная категория исполнителей участников, которой предстоит его создать; тип и вид учебного заведения, которое представляет свой продукт предметного или профессионального образования обществу.

Следовательно, “портфолио” – есть отчет или портфель достижений, с помощью которого фиксируются, накапливаются и оцениваются индивидуальные достижения учащегося в определенный период его обучения при определенных условиях.

Задачи стратегии портфолио направлены на процесс самооценивания обучаемым своей деятельности на занятии. Процесс самооценивания может осуществляться в разных форматах, в том числе и в электронном. В составе электронного портфолио могут быть выложены материалы из Интернета, представляющие альтернативные точки зрения.

Исходя из вышеуказанного, представляем модель алгоритма стратегии портфолио.

Алгоритм предусматривает три этапа работы и обучаемого и обучающего.

#### 1 этап - Создание портфолио

Обычно он запускается в аудитории ВОУ до изучения основной темы (определение темы исследования, выделение обязательных рубрик по изучаемой теме и проверочная);

#### 2 этап - Оформление портфолио

На данном этапе осуществляется самостоятельная поисковая деятельность обучаемого. Например, продумывается титульный лист, привлекаются цитаты из журналов или же стихотворений поэтов классиков (Пушкина, Лермонтова, Блока и др.), мысли и изречения великих ученых Востока (Наваи, Руми, Накшбанди, Бухари, Гиждувани и др.).

#### 3 этап - Оценка портфолио

Оценка портфолио является новой формой контроля полученных знаний, позволяющая обучаемым учиться видеть свою деятельность, замечать свои ошибки.

Действия обучаемого на третьем этапе обучения заключается в следующем:

- а) отобрать лучшие материалы из своих работ по изученной теме;
- б) составить отчет о проделанной работе;
- в) самому себе выставить оценку.

После выполнения трех (ответственных) действий, обучаемые оформленные в файловую папку (мы обозначили их по нумерации 1-14), передаются обучающему (однокурснику по столу), который пишет на них критический отзыв и ставит свою оценку, принимая во внимание оценку, которую обучаемый поставил перед этим себе сам.

Стратегия портфолио основывается на принципах обучения:

- \* системности материалов;

- \* достоверности положений;
- \* открытости диалога;
- \* прозрачность обучения;
- \* простоты изложения материалы;
- \* доступности предлагаемого материала;
- \* полноты представления каждого обучаемого своей деятельности и

пр.

Методические установки по русскому языку в процессе применения стратегии портфолио в иноязычной группе ВОУ:

- 1) на занятии определяется тема проекта: «Древние города России»;
- 2) выделяются знаковые тексты: Псков, Суздаль, Смоленск, которые будут в центре изучения;
- 3) каждая малая группа получает задание: подготовить свою информацию, связанную с историей указанных городов России;
- 4) малые группы презентуют свои материалы со своими иллюстрациями, комментариями и др.;
- 5) представленные материалы систематизируются и оформляются в папке-накопителе;
- 6) портфолио каждой группы оценивается на этапе рефлексии.

Цели учебного занятия:

1. Формирование новых знаний и умений, раскрыть специфические особенности текста, формировать представление о концептуальности текста как единого целого, вырабатывать у студентов навыки работы в интерактивном режиме обучения “в малых группах”.

2. Развитие навыков говорения в диалогической и монологической форме на основе страноведческой темы с опорой на зрительную наглядность, развитие внимания и познавательного интереса к предмету, активизация в речи конструкций, обозначающих место действия.

3. Пробуждение в студентах чувства патриотизма, любви и гордости за свою Родину, расширение их лингвистического кругозора.

Средства обучения: раздаточные материалы, наглядно-изобразительные иллюстрации, маркеры, листы ватмана, слайды, компьютер, лазерный

Вводная часть занятия.

а) оформление учебных журналов и индивидуально-календарных планов, проверка посещаемости студентов;

б) преподаватель сообщает тему и цель занятия и знакомит с критерии (эталон) деятельности студента на занятии русского языка.

Актуализация знаний.

В аудитории с целью актуализации знаний студентов проводит Блиц-опрос в формате следующих вопросов и заданий:

1. Что вы знаете о древних городах России?
2. Назовите общие функции городов-музеев России и Узбекистана.

б) вхождение в учебную тему:

1. Знакомство с содержанием знаковых текстов («Самарканд», «Бухара», «Хива»).
2. Почему для анализа мы взяли эти города?
3. Почему их называют музеями-городами?

Основная часть.

Обсуждение темы в аспекте применения современной стратегии обучения русскому языку в иноязычной группе – портфолио.

Преподаватель делит группу на 3 малые группы. Группам раздаются карточки с разными заданиями, у каждой группы своя тема: 1 малая группа - подбор иллюстраций для оформления портфолио по учебной теме; 2 малая группа - презентация материалов, связанных с учебной темой «Древние города России», 3 малая группа рефлексировать (отслеживает и дает оценку) работы малых групп.

Преподаватель осуществляет контроль над деятельностью всех малых групп и помогает студентам правильно оформить задание.

В аудитории осуществляется показ слайдовой презентации малыми группами, подготовленными самостоятельно.

В результате активного выступления трех групп у преподавателя складывается мнение о том, что студенты 1 курса с интересом отнеслись к изучению темы «Древние города России».

Этап творческой работы студентов в режиме работы в малой группе:

1. Составьте свой микротекст, используя глаголы движения на тему «Суздаль – олов России».

2. Подготовьте иллюстрации и комментарии к древнейшим памятникам Пскова.

3. Составьте хронологическую таблицу передвижения вашей группы по Новгороду.

4. Составьте вопросы экскурсоводу города Псков «В корзину идей...».

5. Подготовьте текст на тему: «Ярославль – жемчужина России» (информация, иллюстрации с комментариями).

6. Подготовьте текст на тему: «Древний Владимир глазами современников» (история, слайды с комментариями).

7. Подготовить сообщение на тему: «Величие псковского монастыря».

Заключительный этап занятия.



а) студенты сами подводит итоги, оценивает свои выступления и выступления своих однокурсников. Творческая работа осуществляется в процессе заполнения “Рефлексивной анкеты”.

Студенты получают задание на дом: выучить стихотворение, посвященное одному из древних городов Узбекистана и написать сочинение-эссе “Что я нового и интересного узнал о древних городах России”.

Таким образом, портфолио является современной эффективной формой оценивания, дополняет традиционные контрольно-оценочные средства, направленные на проверку репродуктивного уровня усвоения информации, фактологических и алгоритмических знаний и умений, включая рейтинги, и может в перспективе стать реальной альтернативой традиционным формам оценивания.

### **Литература**

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Т., 2003.- 192с.
2. Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Т.: 2009. -159 с.
3. Ахмедова Л.Т. Методика преподавания русского языка. – Т.: 2008.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. М.: 1999.
5. Магдиева С.С., Курбанова Ш.И., Джалилова Ф.Н. Методика преподавания русского языка и литературы. –Т.: Фан ва технология, 2019. - 220 с.

## **MILLIY YUKSALISH SHAROITIDA FUQAROLIK MAS’ULIYATINI OSHIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI**

**Xakimov A.O. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Chet tillar fakulteti dekani o‘rinbosari**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy yuksalish sharoitida talaba-yoshlarning fuqarolik mas’uliyatini oshirish, ijtimoiy faol fuqaro, tashabbuskor, intellektual salohiyatli, fuqarolik burchi va majburiyati, huquqlarni bilish, unga rioya etish, huquqiy munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda erkin demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida talabalarni professional kasb egasi bo‘lib voyaga yetishining, ijtimoiy – falsafiy jihatlari yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** yuksalish, fuqarolik mas’uliyati, islohot, ta’lim, ijtimoiy faollik, fuqarolik, ijtimoiy, yetuk, barkamol, shaxs, jamiyat, demokratiya, adolat

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В КОНТЕКСТЕ НАЦИОНАЛЬНОГО РОСТА

**Хакимов А.О. - Заместитель декана факультета Иностранных языков  
Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Статья посвящена повышению гражданской ответственности студентов в контексте национального развития, социально-активному гражданину, предпринимателю, интеллектуальному потенциалу, гражданскому долгу, знанию прав, их соблюдению, обращению в правоотношениях и правовой культуре, социально-философским аспектам развития студентов как профессионалов в процессе построения свободного демократического государства, гражданского общества в воспитании гармонично развитой личности.

**Ключевые слова:** продвижение, гражданская ответственность, реформа, образование, социальный активизм, гражданство, социальное, зрелое, гармоничное, личность, общество, демократия, справедливость.

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF INCREASING CIVIL RESPONSIBILITY IN THE CONTEXT OF NATIONAL GROWTH

**Khakimov A.O. - Deputy Dean Foreign Languages Faculty Tashkent State  
Pedagogical University**

**Annatation:** The article is devoted to increasing the civic responsibility of students in the context of national development, socially active citizen, entrepreneur, intellectual potential, civic duty, knowledge of rights, their observance, treatment in legal relations and legal culture, socio-philosophical aspects of the development of students as professionals in the process of building a free democratic state, civil society in the upbringing of a harmoniously developed personality.

**Key words:** promotion, civic responsibility, reform, education, social activism, citizenship, social, mature, harmonious, personality, society, democracy, justice.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi milliy yuksalish sharoitida talaba-yoshlarning fuqarolik mas’uliyatini oishirish maqsad qilib olingan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis palatalarining 2020-yil 24-yanvardagi yig‘ilishida qilgan murojaatlarida bu masalaga alohida to‘xtalib o‘tgan edi: “Jamiyatda tinchlik va

osoyishtalikni ta'minlashda hech kim chetda turmasligi, "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" degan shior odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi kerak. Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o'ta sharaflı vazifadir",- [1;] deb ta'kidlagan.

2020-yil 29-dekabrda xalqqa qilingan murojaatlarida ham mamlakatimizni milliy yuksaltirishda yoshlarning-fuqarolik mas'uliyatini oshirish masalalarini ta'kidlar ekan: "jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[2;] deb ta'kidlaganlarida ham yoshlarda fuqarolik burch va mas'uliyatini oshirish ijtimoiy sohadagi islohotlarning asosiy maqsadi ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi islohotlar jarayonida mamlakatning bosh maqsadi yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning fuqarolik mas'uliyatini oshirish muhim o'rin tutmoqda. Chunki, jahonda globallashtirish jarayoni ketayotgan bir vaqtda jamiyatni milliy yuksaltirish, fuqarolarini milliy g'oya asosida tarbiyalash o'ta dolzarb vazifaga aylanmoqda. globallashtirish jarayonlarining kuchaygan va texnika-texnologiyalar taraqqiyotining yanada yangi bosqichga ko'tarilgan davrida jamiyat fuqarolarining Vatanga sadoqat, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish, ma'naviy dunyoqarashini ajdodlardan qolgan yuksak ma'naviy va madaniy meros manbalari hamda an'analardan ozuqa olgan, zamon bilan hamnafas fikrlay oladigan, ma'naviy jihatdan fuqarolarimizni mas'uliyatini shakllantirish, davlatimiz uchun ahamiyatli masala hisoblanadi.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o‘z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarish bo‘yicha qat’iy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi kerak. Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta‘minlashdan iborat bo‘lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam[3;] deb ta‘kidlagan edi.

Milliy yuksalish sharoitida fuqarolik mas‘uliyatini oshirishda jamiyatda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuvchilik, norkomaniyaga qarshi kurash, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas‘uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar paydo bo‘layotganligi bu borada ishlarni samarali tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Chunki jamiyat taraqqiyotida yoshlarning fuqarolik mas‘uliyatini oshirish ijtimoiy hayotida, xususan fuqarolarning tafakkurida mas‘uliyatning namoyon bo‘lish shakllarini tizimli tahlil qilish asosida kompleks tarzda o‘rganish, umumlashtirish, rivojlanish dozarb vazifalardan biridir.


Bugungi kunda axloqsizlikni madaniyati deb talqin etilayotgan ma‘naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko‘pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini hayotning o‘zi ta‘kidlamoqda.

Globalashuv sharoitida milliy yuksalishda fuqarolik mas‘uliyatini oshirishda yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, ahloqiy tarbiya, fuqarolik ma‘naviyati muhim o‘rin tutadi. Jamiyat hayotiga globalashuv jarayonning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma‘naviyatiga ta‘sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta‘siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Maxatma Gandining quyidagicha ta‘kidlagan edi. “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va

derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman,-[4;]” deb ifodalangan.

Olim S.Otamuratov “...globallashuv tushunchasi haqidagi qarashlar turli-tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki uning makon va zamonda sodir bo‘lish xususiyatlari turlicha bo‘lib dunyoning o‘zgarishiga o‘tkazayotgan ta’sirida ham yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo‘lmoqda” deb ifodalagan. Globallashgan jamiyat sharoitida fuqarolarning mas’uliyatini yuksaltirish tarbiyalash, ularni ularning ma’naviyatini ajdodlardan qolgan ma’naviy va madaniy meros namunalariga sodiqlik ruhida shakllantirish kabi masalalarning konseptual asoslari O‘zbekiston Respublikasi prezidentining nutqlarida jamiyat hayotini har tomonlama rivojlantirish, fuqarolarimizning faolligini davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning bevosita ishtirokchisiga aylantirishga yo‘naltirilganligini ko‘ramiz. Bu esa ularda ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan salbiy hurujlarga nisbatan immunitet hosil qilinishiga, fuqarolar mas’uliyatini vujudga kelishiga imkoniyat yaratildi.

Yoshlarda fuqarolik mas’uliyati va pozitsiyasini rivojlantirish masalalariga olimlar D.Z.Ernazarov o‘z ilmiy ishlarida yoshlarning innovatsion tafakkurini shakllantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kuchaytirish masalalariga to‘xtalar ekan: “Yoshlar ongida innovatsion tafakkurning rivojlanishida o‘z maqsadlariga erishishda resurslardan maqsadli foydalanish, professional tayyorgarlikni oshirish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, ilmiy izlanishlar olib borishda yangi usul va vositalardan erkin foydalana olish, manfaatdorlik va jamiyatga foyda keltirish hissi vujudga keladi. Shuning uchun ham yoshlarimiz ongida ilmiy tafakkurni rivojlantirish davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi” [6;] deb ifodalagan edi.





### **1-rasm. Milliy yuksalish sharoitida fuqarolik mas'uliyatini oshirishda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi**

N.Jurayev yoshlar iborasi masalalariga to'xtalar ekan: "yoshlar siyosati tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biriga aylangan vaqtdan boshlab, mazkur tushuncha ijtimoiy gumanitar fanlarda institutsionallasha boshladi. O'tgan asrning 90 yillar boshlaridan boshlab mazkur tushunchaning bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan keng, tor va muassasaviy ma'nodagi talqinlari muhokama qilinib kelinmoqda"[7;] deb ifodalagan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish asosiy maqsad qilib olingan - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishlari" bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonida ta'lim-tarbiya, fuqarolarning qonunga hurmat qilib tarbiyalash borasida muhim vazifalar qo'yilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolarning mas'uliyatini oshirishdagi muammolariga bag'ishlangan bir qator asarlar, tadqiqotlar, ilmiy maqolalar yaratildiki, bular o'z navbatida mavjud muammolarni aniqlash va yechimlarini topishning nazariy asoslarini muayyan darajada o'z ichiga oladi. Jamiyatda fuqarolarning mas'uliyatini vujudga kelishi va uni rivojlantrishning mohiyatini ochishga qaratilgan ilmiy ishlar, maqola, monografiya va boshqa adabiyotlar tahlili bu sohada uzviylik ta'minlangan ilmiy ishlar yo'qligini hamda bu borada ilmiy izlanishlar bilan real amaliy jarayonlar o'rtasida tafovut borligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda bu turdagi ijtimoiy yondashuvlar ko'proq pedagogika fanlari tizimida ishlab chiqilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Bu borada ham juda ko'p yondashuvlar bo'lib, ularning asosiylari institutsional va funksional mezonlar asosida shakllangan. Fuqarolarning mas'uliyatini ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini aniqroq tushunish uning mazmuni va mohiyatini makon va zamon nuqtai nazaridan tahlil etish talab etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi zamonaviy sharoitda yoshlar tafakkurini vujudga kelishi mumkin bo'lyotgan ma'naviy begonlashuvni oldini olish muhim o'rin tutadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar.



2. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020 yil 29 dekabr.
3. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.
4. Qo'chqorov D., Qo'chqorov V. Oila ma'naviyat qo'rgoni. –T.: Akademiya, 2010. –B. 36
5. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T.,Yangi asr avlodi, 2008. – 13 b.
6. D.Z.Ernazarov “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami 2019 y.152 b.
7. N.Jo'rayev. Yangilanish konsepsiyasi: yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti. –T.:Ma'naviyat, 2002. – B. 43

## **BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA KASBIY TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK ZARURIYATI**

**Ahmedova N.M. - Toshkent davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini integrativ yondashuvlar asosida olib borish, kadrlar tayyorlash jarayonini xalqaro standartlar darajasida tashkil etish, ta'lim mazmuni, sifatini tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan hamohang tarzda ta'minlash hamda pedagogik, didaktik imkoniyatlarni chet tillarni o'rganishning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash asosida kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy tayyorgarlik, pedagogik imkoniyat, integrativ yondashuv, pedagogik zaruriyat, pedagogik omillar, uzluksiz ta'lim, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ madaniyat.

## **СОЦИАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

**Ахмедова Н.М. - Ташкентский Государственный Педагогический  
Университет, доктор философских наук (PhD) по педагогическим наукам**

**Аннотация.** В статье рассматривается качество обучения иностранным языкам в высшей школе на основе интегративных подходов, организация учебного процесса на уровне международных стандартов, обеспечение гармонии содержания и качества образования с культурой страны, где изучается язык. Особое внимание уделяется расширению возможностей, основанному на обеспечении непрерывности и непрерывности изучения иностранного языка.

**Ключевые слова:** профессиональная подготовка, педагогические возможности, интегративный подход, педагогическая необходимость, педагогические факторы, непрерывное образование, социальная компетентность, коммуникативная культура.

## **SOCIAL PEDAGOGICAL IMPORTANCE TO IMPROVE THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH TEACHERS**

**Akhmedova N. M. - Tashkent State Pedagogical University Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences**

**Annotatsion.** The article examines the quality of teaching foreign languages in higher education on the basis of integrative approaches, to organize educational process at the level of international standards, ensuring the harmony of the content and quality of education with the culture of the country Particular attention is paid to expanding pedagogical and didactic opportunities on the basis of ensuring the continuity and continuity of foreign language learning.

**Key words:** professional training, pedagogical opportunities, integrative approach, pedagogical necessity, pedagogical factors, social competence, communicative culture.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy manaviy taraqqiyoti, jihatidan rivojlangan mamlakatlar, hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilayotgan muammoning yuzaga kelishi va tiklanishi omillari va asoslarini aniqlash tendensiyasi kuzatildi va ular tadqiq qilinayotgan predmet haqida ilmiy-nazariy tasavvurlarni belgilaydigan obyektiv mavjud bo‘lgan (yoki hozirda mavjud) shart-sharoitlar sifatida tushuniladi.

Ta’lim o‘z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so‘z bilan aytganda, hayot bilan bog‘lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integrasiyaga kirishgan taqdiridagina o‘z oldiga qo‘ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta’lim-tarbiya va iqtisodiyotning o‘zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta’minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan

davlat taraqqiyotga erishadi. Bu borada mamlakatimiz ta'lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm-fan va ta'lim, ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi bejiz emas. Modomiki, ta'lim tizimining markazida inson kapitali, uni to'g'ri taqsimlash, undan samarali foydalanish va maqsadli yo'naltirish turar ekan, bunda maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta'lim jarayonining barcha subyektlari bilan yaxlit bir butunlikda bugungi kun talablari asosida tashkil etish hamda ta'limning to'liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan muhim vazifalardandir[1;].

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminini mustahkamlash ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik, ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan qobiliyatlari qanaqa darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liqdir. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa ushbu sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

Pedagogik ta'lim tizimi, zamon talablariga javob beradigan, talabalarni turli kasbiy sohalarda faoliyat olib borishga tayyorlash uchun chet tili o'qitishning yangi, ilmiy asoslangan model va texnologiyalarini taklif qilgan holda, rivojlanib boradi. Zamonaviy sharoitlarda tobora ortib borayotgan chet tilining maqomi, shu fan bo'yicha malakali mutaxassislariga talabni orttirib, oliy pedagogik ta'limning yaxlit tizimida ularning kasbiy tayyorgarligini modernizatsiyalash zaruratini belgilaydi. Oliy ta'limda chet tili o'qitishni modernizatsiyalash jarayoni Vatanimiz ta'lim tizimini modernizatsiyalashning umumiy qoidalariga asoslanadi.

Ta'limni modernizatsiyalash mohiyati, ta'limning doimiy yangilanishini ta'minlovchi mexanizmlarini o'zlashtirish sifatida tushuniladi. Ta'limni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ishlarda ta'kidlanishicha, zamonaviy ta'lim muammolarini hal qilishda yetakchi yo'nalish sifatida rivojlanishning mohiyatini ochib beruvchi tushunchalar – uning sifati va innovatsionligi tushuniladi. Bunda tadqiqotchilar ta'limning ijtimoiy, madaniy, shaxsni rivojlantirish ahamiyati nuqtayi nazaridan uning asosiy xarakteristikalarini e'tiborga oladi.

Inoyatov U.I. ijtimoiy pedagogik zaruriyatdan kelib chiqib o'z qarashlarini quyidagicha belgilaydi. Pedagogik innovatsiya – bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir. Bunday tizimning maqsadi deganda, ta'limning mazmun-mohiyati, belgilarini, imkoniyatlarini, vazifalarini, taraqqiyot bosqichlari va tamoyillarining rivojlanish mexanizmlarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar hamda bu borada pedagoglarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya tizimi sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishish tushuniladi [2;]. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog'liq. O'rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor rivojlanayotgan ta'lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko'rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta'limni rivojlantirish va uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog'liq muammolarning dolzarbligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarning jiddiyligi shubhasizdir – muntazam o'tkazilayotgan monitoring jarayonlarida ta'lim tizimining tezkor yangilanishi natijasida yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish va ulardan o'zib ketishga yetarli tayyor bo'lmagan pedagog kadrlar mavjudligi, ta'limga, shaxsga va o'qituvchilar faoliyatiga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga yetarli darajada javob bermaydigan pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining holati aks etmoqda.

Zamonaviy ta'limning juda muhim tavsifi uning tizimli xarakteri bo'lib, u gumanitar, pedagogika va madaniyatga muvofiq tizim belgilari bilan ajralib turadi. Sanab o'tilgan belgilarni qisqacha tavsiflaymiz, fikrimizcha, ular oliy ta'lim muassasasida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bevosita aloqador.

Mazkur muammoning ba'zi jihatlari respublikamiz metodist olimlari tomonidan ham tadbiq etilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashning lingvodidaktik xususiyatlari ochib berilgan. Jumladan, metodist olim T.K.Sattarov tadqiqotlarida chet tilini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbga yo'naltirishning muhimligini quyidagilar bilan izohlaydi[3;]:

- talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarligidagi uzilish oson bartaraf qilinadi;
- bo'lajak chet tili muallimiga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni yaxlit o'zlashtirishga yo'l ochiladi, bu, o'z navbatida muallim pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi;
- sotsiolingvistik-pedagogik maqsadga muvofiq ravishda oliy ta'limdagi chet tilini o'rgatuvchi o'quv predmetlarining maqsad va vazifalariga aniqlik kiritishga imkon beradi;

- muallimning pedagogik ehtiyojini qondira oladigan ta’lim mazmunini oqilona tashkil qilishga mo’ljallanadi;
- muallim shaxsining sotsiologik hislatlari va zaruriy lingvo-metodik ko’nikma va malakalarini shakllantirishga sharoit yaratiladi;
- talaba o’zini muallim sifatida his etishi va o’zligini anglashga yo’l ochiladi;
- talabaning mustaqil ta’lim olishi va o’z-o’zini tarbiyalashga e’tibor kuchayadi;
- talabadagi umuman o’qishga bo’lgan va kasbiga oid motivasiyasini kuchaytirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi;
- o’z-o’zini nazorat qilish va kamchiliklarini tuzatib borishga o’rgatiladi;
- bilim, ko’nikma va malakalarini ijodiy o’zlashtirish orqali talabalar aqliy tarbiya oladilar va hokazo.

Pedagogika fanida ta’lim dinamik va yaxlit, ochiq va rivojlanadigan tizim sifatida qaraladi uning pirovard maqsadi – “insonda insonni kashf qilish” insonni hosil qilish (K.E.Bezukladnikov, E.N.Gusinskiy, I.A.Zimnyaya, V.P.Zinchenko, V.V.Kraevskiy). Insonga yo’налganlik ta’limning gumanitar mohiyatini tushunishga olib keladi. E.N.Gusinskiy gumanitar tizimlarning quyidagi xossalarini ajratadi: a) gumanitar tizimlar o’zida anglashilgan va anglashilmagan komponentni ajratmagan holda jamlagan dunyo modullari tizimini yaratadi; b) gumanitar tizimlarning o’zgarish yo’nalishlari uning mavjud holati va tashqi muhitning sharoitlari butun jami bilan belgilanadi; v) gumanitar tizimning tili mantiqiy va obrazli tarkibiy qismlarni ajratmagan holda o’zida mujassam qiladi; g) gumanitar tizim tomonidan yaratilgan matnlar ko’p ma’noli, ularning mazmuni kontekstdan kuchli farq qiladi [4;].

Bo’lajak o’qituvchining kasbiy tayyorgarligining madaniyatga muvofiqligi ta’lim institutining madaniy mohiyati bilan mantiqan belgilangan. Madaniyat bilan ta’lim munosabatlari murakkab, ko’p planli xarakterga, demak, o’rganishning turli aspektlari (jihatlari) ga ega. Ulardan chet tili o’qituvchisining kasbiy integrativ tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga aloqador bo’lgan ayrimlarinigina aytib o’tamiz.

Madaniyat avlodlar almashinuvi chog’ida qayta yaratiladigan odamlarning ongi, xulq-atvori, shuningdek, jamiyat hayotidagi predmetlar va hodisalar namunalari tizimi sifatida tushuniladi. Madaniyat va ta’lim munosabatlari – shunchaki butun va qism munosabatlari emas, balki o’zaro belgilanganlik va o’zaro bir-biriga kirib borishning murakkab munosabatlaridir. “O’zi uchun” ta’lim – madaniyat obrazi, madaniyat uchun u – madaniyatni hosil qilish, uni ta’lim vositasida qayta yaratish. U butun madaniyatni o’ziga qamrab, bu bilan ijodiy qayta yaratish uchun mazmun va predmetga ega bo’ladi, bunda madaniyatning alohida shakli va obrazi bo’ladiki, u keyinchalik qayta yaratiladi, sotsiumga madaniy shakl va muomalaga layoqatlilik beradi.



Shaxs madaniyatining tiklanishi taniqli olimlar tomonidan yangi asrda ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi; bunda madaniyat shaxsning o'zini o'zi tashkil qilishi va o'zini o'zi rivojlantirishining sharti sifatida namoyon bo'ladi. Bu kontekstda zamonaviy ta'limda shaxsning funksional madaniyatini shakllantirish muammosi birinchi planga chiqadiki, u shaxs nafaqat madaniyatshunoslikka oid ma'lum fundamental bilimlar yig'indisini o'zlashtirganligi, balki ularni kasbiy-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarda, oilada, turmushda, dam olishda, muloqotda va o'zi bilan o'zi yolg'iz qolganda samarali realizatsiyalashini anglatadi[5;].

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, xulosaga kelish mumkinki: bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik tizimining madaniyatga muvofiqlik prinsipi asosiga quyidagi ilmiy qarashlarni qo'yish to'g'ri bo'ladi: umuman ta'lim rivojlanishining madaniy konteksti, jumladan uning tarkibiy qismi sifatida integrativ tayyorgarlik haqidagi; professional shaxsini rivojlantirish va bo'lajak o'qituvchining til ta'limi davomida uning kasbiy tayyorgarligi manbalarining ijtimoiy-madaniy tabiati haqidagi masalani o'rganishning zarurati to'g'risidagi; shuningdek, shaxsning qadriyatli-mazmunli ta'rifi haqida.

Ta'limni ijtimoiy-pedagogik amaliyot sohasi sifatida, kasbiy tayyorgarlikni esa ijtimoiy muhit bilan rang-barang o'zaro ta'sirda bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy lingvota'limi yaxlit tizimning murakkab kichik tizimi sifatida tushunish kasbiy ta'limdagi asosiy yo'nalishlarni belgilab berayotgan va tadqiqotimizda qo'yilgan muammoni ishlab chiqishning ijtimoiy-pedagogik omillarini tavsiflaydigan zamonaviy jamiyat va ta'lim rivojining tobora ahamiyatli tendensiyalarini ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu omillar qatorida jiddiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- globalashuv jarayoni, mamlakatimizda va butun dunyoda butun ijtimoiy-madaniy amaliyotga ta'sir ko'rsatib, individ va ta'lim tizimi o'zini indentifikatsiyalaydigan umumiyliklar makonining kengayishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonning mohiyati pedagogik madaniyat va ta'lim jarayonlarining yopiqligini bartaraf qilish, dialog, hamkorlik, o'zaro bir-birini boyitish va hamkorlik uchun ochiqlik imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Umuman pedagogika fani va xususan chet tili o'qitish metodikasida "variativlik" va xilma-xillik" tushunchalari metodologik ahamiyat kasb etib bormoqda. Identifikatsiya muhitining xilma-xilligi ortib borgani, yangi hayotiy imkoniyatlarning yuzaga kelgani sari inson uning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan bilimlar va qadriyatlarga tobora ko'proq tayanmoqda. Natijada, jumladan, chet tillarni, shu qatorda kasbiy ta'lim tizimida o'rganish natijasida shakllantiriladigan madaniy o'xshashliklar (identikliklar) ning dinamik yig'indisi tufayli o'zini xilma-xil indentifikatsiyalashga qodir bo'lgan inson



individualligining yangi mazmuni shakllanmoqda. Bu yig'indi komponentlarining katta qismi kasbiy tayyorgarlik jarayonidan kelib chiqadi;

- ijtimoiy jarayonlarning subyektlanishi yoki istalgan subyekt (etnos, shaxs, kasbiy guruh) ning ko'proq erkinlik, insonning ijtimoiy-madaniy mavjudligini identifikatsiyalash asosida xilma-xil madaniyatlarning teng huquqliligi, uning kundalik xulq-atvorini detenminatsiyalashda madaniyat yutuqlarining ahamiyatligini oshirishga tomon harakati. Subyektivizatsiya dialog va o'zaro hamkorlik madaniyatiga asoslangan jamiyatning tizimligi, yaxlitligining yangi tipini ta'minlaydigan individ faoliyatini detenminatsiyalash (belgilash) ning mutlaqo yangi mexanizmiga o'tish bilan bog'liq;

- zamonaviy O'zbekistonning ta'limga oid siyosati zamon talablariga muvofiq ta'limning yangi, tobora yuqori sifatini ta'minlash, uning rivojlantirishga ham kasbiy sohalar, ham shaxsning manfaatlariga rioya qilgan holda umumiy maqsadli yo'nalganlik berishga intilish bilan ajralib turadi[6;]. Shu bilan birga ta'limning qator ustuvor vazifalarini ham belgilanadi:

- ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorligi;
- ijtimoiy amaliyotning boshqa sohalariga nisbatan ta'limning ilgarilovchi rivojlanishi;
- ta'lim - ijtimoiy kelishuv (birdamlik) sohasi;
- ta'limning qulayligi va uzluksizligi;
- ta'limning dunyoviyliigi;
- ta'lim milliy o'ziga xoslik va madaniyatni saqlab qolish mexanizmi sifatida;
- mintaqaviy, milliy xususiyatlarni hisobga olish;
- ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat xarakteri;
- ta'lim va uni yangilashning uzluksizligi;
- ta'lim – ijtimoiy va kasbiy mobillik quroli;
- ta'limning ichki va tashqi resurslarini safarbar qilish;
- ta'lim subyektlarining zamonaviy maqomini belgilash, ularning roli va mas'uliyatini oshirish;
- ta'lim xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim standartlari va etalonlarini joriy qilish (standart ta'limning bazaviy asosi va ta'lim oluvchi salomatligini saqlash kafolati sifatida, etalon ijtimoiy buyuurtma yoki ta'limiy faoliyat maqsadi, pedagogik va boshqaruvchilik kompetentligining zamonaviy darajasi sifatida).

Pedagogik tizimning mohiyatli tavsiflarini o'rganish qayd qilish imkonini beradiki, oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchining uzluksiz integrativ kasbiy tayyorgarligini pedagogik tizim belgilariga ega bo'lgan va madaniyatga muvofiqlik hamda gumanistik xarakteri bilan ajralib turadigan tizim sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. U pedagogik tizim uchun xos bazaviy tavsiflarga ega va ayni vaqtda kasbiy

lingvistik ta'lim tizimida kichik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bunday holat uning jamiyat rivojlanishining umumiy ijtimoiy-madaniy tendensiyalari va pedagogika fani hamda ta'limning zamonaviy metodologiyasi bilan determinatsiyalanganligini belgilaydi. Tashkiliy planda uzluksiz tayyorgarlik integratsiyalangan xarakterdagi ta'lim jarayoni, sifat-natija nuqtayi nazaridan bo'lajak o'qituvchining kasbiy-integrativ tayyorgarligini shakllantirish sifatida gavdalanadi.

Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko'pchiligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini chuqur anglamoqdalar. Shu sababli, ular o'z mahoratlarini uzluksiz oshirib borishga, bugungi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchining individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi. Barcha qiyinchilik va sinovlarga bardosh bera oladigan yigit-qizlargina mazkur tanlangan kasbga nisbatan yarog'li deb topiladi [7;].

Mehnat ta'limi esa xuddi ana shuning amaliy tomonini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega. Ta'limni oqilona, optimal yo'l bilan tashkil qilish va olib borish turli yoshdagi maktab o'quvchilarida mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirib, kasb-hunarga nisbatan qiziqish hissini uyg'otadi. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni milliy istiqloq g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqillik g'oyalari, Vatan, oila, tabiatga mehr va insonparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Talabalar o'quv amaliyotlarini kasb-hunar kollejlari yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritgan holda o'tkazilishni tashkil etish va ta'minlash, oliy o'quv yurti, kasb-hunar kollejlari, fan va ishlab chiqarishning amaliy tizimlarini yaratish va amaliyotga kiritish, ilmiy-pedagogik kadrlar va mutaxassislar talablarining ilmiy-tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, respublika kasb-hunar kollejlari talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, o'zaro hamkorlik bitimlari asosida texnika ta'limining yangi yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish va amalga oshirish, kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari bilan hamkorlik, darslik, o'quv qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar yaratish talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning asosiy negizi hisoblanadi. Bunda, albatta, universitetning oliy ta'lim sohasida xalqaro miqyosda hamkorlik olib borayotgan oliy o'quv yurtlari va markazlar bilan malakali mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish va tajribalar almashish muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak

o'qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda kasbiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladigan fanlarning o'rni benihoyadir.

Pedagogika fanini o'qitish jarayonida kasbiy ta'lim yo'nalishida pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, kasbiy ta'lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan aloqasi, kasbiy ta'lim metodologiyasi va ilmiy tadqiqot metodlar, didaktika, tarbiya nazariyasi haqida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Didaktik vositalar kompleksi fanidan didaktika ta'lim nazariyasi, o'qitish jarayoni, ta'lim prinsiplari va qonuniyatlari, ta'lim mazmuni, kasb-hunar kollejlarda o'qitish metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari haqida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Kasbiy mahorat fanida kasbiy mahoratning falsafiy-metodologik asoslari, kasbiy mahoratda izlanish metodlari, malakaviy bilim berishda asosiy rivojlanish tizimining tendensiyalari, chet el kasbiy mahorati haqida ma'lumotlar beriladi. Yangi pedagogik texnologiyalar fanida pedagogik texnologiya fanining maqsad va vazifalari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'rganish, qo'llash, o'quv – tarbiyaviy jarayonni uslublari, talabalarga pedagogik texnologiya haqida to'liq ma'lumot berish va ta'lim texnologiyalari rivojlanishining bosqichlari, o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish haqida bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi.

Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo'lgan muloqot har qanday kasbiy faoliyatning barcha turlarida mavjud. Biroq bir qator kasb egalarida (chunonchi, pedagog, shifokor, san'atkor va hokazo) u kasbiy faoliyatga shunchaki hamroh bo'lgan oddiy omil emas, balki kasbiy ahamiyat kasb etuvchi, uning asosini tashkil etuvchi muhim kategoriya sanaladi. Bu holda muloqot insonlar orasidagi odatiy o'zaro hamkorlik shakli emas balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Aksariyat holatda, pedagogik faoliyatda muloqot kerakli funksional, bo'lajak o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o'zaro ta'limiy tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida namoyon bo'ladi, bunda muloqotning muhim shartlari va qonuniyatlari, qo'shimcha vazifalariga rioya qilishga to'g'ri keladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o'zaro muloqot tizimidagi jarayoni shunchaki o'z-o'zicha sodir bo'ladi.

Ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda esa muloqot ijtimoiy vazifaga aylanadi, natijada bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo'lishi talab qilinadi. Pedagogikada bo'lajak o'qituvchi faoliyatining muhim mikroelementlari nostandart yechimlardan iborat, garchi ular faoliyatida pedagogik vaziyatlar bir qarashda bir-biriga o'xshash ko'rinsa-da, bo'lajak o'qituvchining ushbu vaziyatlardagi har bir xatti-harakati mutlaqo noyob va betakroridir.

## **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’limi Tizimini 2030-Yilgacha Rivojlantirish Konsepsiyasini Tasdiqlash to‘g‘risida PF-5847-son Farmoni.
2. Inoyatov U.I. Zamonaviy elektron didaktik vositalarni yaratish, ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo// Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollari// Xalqaro ilmiy konferensiya T.: 27-aprel, 2018-yil.
3. Sattarov T. “Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini uslubiy texnologiyasi” – Toshkent, 2003-yil.
4. Безукладников К.Э. Формирование лингводидактических компетенций будущего учителя иностранного языка: Монография / К.Э. Безукладников. – Перм: Изд. ПГПУ, 2008. – 270 с.
5. Абдуллаева Ю.Н. Коммуникативная методика обучения иностранным языкам и зарубежный педагогический опыт. - Самарканд, 2001.
6. Axliddinov R. Sh. Umumiy o‘rta ta’lim sifatini boshqarishning ijtimoiy – pedagogik asoslari (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida) Ped. Fan.dok... diss. Toshkent. 2002. 338-b.:
7. Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: Фан ва технология. -2009. 159 с.

## **SAMARQAND KASHTACHILIGINING O‘ZIGA XOSLIGI**

### **Махкамova G. A. - Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi**

**Аннотасија.** Mazkur maqolada amaliy san’at turlaridan biri bo‘lgan kashtachilik tarixi, kashtachilik buyumlari, undagi bezaklar haqida fikr yuritilgan. Samarqand kashtachiligi, uning o‘ziga xosliklari va bu buyumlardagi bezaklar xalqning urf-odatlarini bilan bog‘liq ekanligi haqida gap ketgan va Samarqand kashtachiligining boshqa kashtachilik yo‘nalishiga o‘xshamagan o‘ziga xosligi haqida xulosa qilingan.

**Калит со‘злар:** so‘zana, joypo‘sh, bolinpo‘sh, takiyapo‘sh, oynadon, shonadon, girix, islami, stilizatsiya, lo‘labosh, bo‘g‘joma, tuz xalta, zardevor, kashta, joynomoz, gulko‘rpa, palak, kirpech, naqsh motivlari, kelinlar sarposi, xosildorlik, oila va ko‘payish, qalampir, anor, yovuz ruhlar va jodu kuchlari.

## **СВОЕОБРАЗНОСТЬ САМАРКАНДСКОГО ВЫШИВАНИЯ**

**Махкамova Г. А. - преподаватель Самаркандского государственного университета**

**Аннотация.** В статье рассказывается об одном из видов прикладного искусства –вышивке, о её истории, вышивальных изделиях, орнаментах в ней. Было отмечено, что история самаркандской вышивки, ее уникальность и орнаменты на этих изделиях связаны с традициями народа. Сделан вывод об оригинальности самаркандской вышивки.

**Ключевые слова:** сюзане, джайпош, болинпуш, такияпуш, ойнадон, шонадон, гирихи, ислими, стилизация, лулабаш, бугжома, мешок с солью, стена для игры в кости, вышивка, джайнамоз, гулкурпа, палак, кирпич, узорные мотивы, свадебные вещи и размножение, плодородие перец, гранат, магические силы.

## **SPECIFICITY SAMARKAND EMBROIDERY (CHARACTERISTICS OF SAMARKAND DISTRICT)**

**Makhkamova G.A. – teacher of Samarkand State University**

**Annotation.** The article tells about the history of embroidery, one of the types of applied art, embroidery products, ornaments in it. It was noted that the history of Samarkand embroidery, its uniqueness and ornaments on these products are associated with the traditions of the people. The conclusion is drawn about the originality of the Samarkand embroidery.

**Key words:** sozana, jaiposh, bolinposh, takiyaposh, oinadon, shonadon, giriks, islimi, stylization, lolabash, bogjoma, bag of salt, dice wall, embroidery, jainamoz, gulkorp, palak, brick, patterned motifs, wedding sarpos and breeding, fertility pepper, pomegranate, evil spirits and magical powers.

Kashtachilik – amaliy san’atning qadim turlaridan biri bo‘lib, ipak va paxta matoga tabiiy bo‘yoqlardan olingan iplar bilan mevalar, gul(lola, gunafsha, chinnigul, atirgul)lar va barglar, daraxt va butalar, hayvon va qushlar tasviri tikilgan. Kashtachilikda xona interyeri va kiyimlarni bezatishda foydalanilgan. Bu buyumlar-so‘zana, joypo‘sh, oy palak, zar devor, yostiqpo‘sh, lo‘labosh, bo‘g‘joma, oyna xalta, tuz xalta va boshqa buyumlardir [1].

Xalqimiz azal-azaldan uylarni so‘zanalar bilan bezatishgan. Uylarning deraza va eshik pardalariga, kelinchak uylarining devorlariga rang-barang naqshli so‘zanalar ilishgan. Dasturxon va joynamozlar, erkak va ayollarning liboslari: belbog‘, do‘ppi, kelinlar libosidagi betakror bezakli kashtalar, popurlari bilan yanada bejirimlashib insonni ko‘zini quvontiradi. Kashtaga tikilgan bu bezaklar va naqshlarning, undagi ranglarning ramziy ma’nosi bor. Masalan, anor mevasi – hosildorlik, oila va ko‘payish; qalampir tasviri – yomon ko‘zdan saqlash; bo‘tako‘z –



yigitlik ramzi, makka novdasi yosh qizlar, tovus qushi – baxt ramzidir. Bu kashtalarda onaxon va xotin-qizlarimizning orzu va istaklari, pok niyati va havaslari namoyon.

“Bezak san’atida kashtachilik – eng yorqin va qiziqarli san’atdir. Musulmon olamida, jumladan, O’rta Osiyoda islom dini qonuniyatlariga binoan odam tasvirini ifodalash ta’qiqlanganligi sababli, kashtachilik san’ati namunalari naqsh bezaklari bilan yuksak cho’qqiga ko’tarildi.

Sharq ayollari o’z ijodlarida kashtachilik san’atida yuksak yutuqlarni qo’lga kiritdi. Asrlar davomida kashta naqshlariga mohir ustalar tomonidan turli usullar o’ylab topildi, turli belgi va ramzlar bilan boyitildi.

Kashtachilikda katta bezakli kashtalar (devor va pardalar, joy po’shlar, joynamoz,) mayda kashta buyumlari (ayol va erkak buyumlari, bolalar buyumlari, beshik anjomlari, kelin sarposi bo’lgan bo’xjama, yostiq qoshlarda) namoyon bo’ldi ” [1;].

O’zbekiston - boshqa xalqlarga o’xshamagan qobiliyatli insonlarning, qobiliyat egalari va ustalar, ko’p asrlik tarix shundan dalolat beradiki, xalqning durdona ijodi o’z ildizlarini, betakror etnik madaniyatini unutilishga izn bermaydi. Bu zaminda ko’plab buyuk ustalar va yuzlab hunarmandlar o’z mehnati bilan dunyoda shuhrat qozondilar. Asrlar davomida go’zal naqshli kashtalarga xalq mehr berdi. Bu ijod ayollar tomonidan amalga oshirildi. Onalardan qizlarga ajobtovur kashta tikish, naqshlar va usullar bilan o’tib keldi. Qiz bolalar bolaligidan mazkur san’atni o’rganib, kelajakda yaxshi usta bo’lish uchun intilganlar. Har bir oilada o’z kuchi bilan bezakli kashtalar tikilgan. Oilada qiz farzand bo’lsa ona uning yoshligidan kelinlik sarposi uchun kashtalar tikkan. Agar to’y muddatigacha bu kashtalar bitmagan bo’lsa, qo’shni va qarindosh ayollardan yordam olingan [2;].

Shuni ta’kidlash kerakki, o’zbek xalq amaliy san’atida turli tuman naqshlarning yuksalishida ayollarning hissasi katta. Erkak hunarmandlar ijodida, binolar bezaklarida girix naqshlarining qurilishi asosiy o’rin egallalagan bo’lib, erkin tasviriy motivlar kamdan kam kuzatiladi. Ammo ayol hunarmand ustalar bu borada erkin ijod qilishgan. Ular o’z asarlarida individual xususiyatlarni kengaytirib, erkin naqsh motivlarini tasvirleydilar. Dunyo haqidagi tasavvurlarini, orzu-niyatlarini kashta naqshlarida aks ettirganlar[3;].

Odamlar - kashtalar o’zbek xonadolarini devorlarini bezaydi deb o’ylashi bilan bir qatorda, tinchlik, xotirjamlik olib keladi va oilani yomon ko’zlardan saqlaydi degan tushunchada ham bo’lishgan. Kelinlar sarposidan turli kashtali buyumlar o’rin olgan. So’zana, gulko’rpa, palak, joypo’sh, kirpech v.x.o. Kashtadagi bezak va naqshlardan kelinning qaysi hududdan ekanligini bilib olganlar. Toshkent, Samarqand, Jizzax, Surhondaryo kabi O’zbekiston viloyatlarida kashtachilik buyumlari turlicha, bir-biriga o’xshamagan bezaklari bor[2;].



Bundan tashqari bu san'atning rivojiga xalqning turmush tarzi, shug'ullanadigan mashg'ulotlari, yashash iqlimi ham ta'sir qilgan. Kashtachilik san'ati bilan asosan o'zbek ayollari shug'ullanar ekan naqshlarni cheksiz hayol kabi yangi motivlar bilan boyitdi. Bu naqshlarda ezgulik, muhabbat, oila himoyasi, yomon ko'zlardan asrash, hayotga intilish va uning bardavomligi, urf odatlarga sadoqat kabi tushunchalarni anglash mumkin.

Bu borada sharqshunos olimi Olga Suxoreva shunday deydi:- "O'rta Osiyo ayollari xaqli ravishda jahon bezak san'atida o'z kashtalari bilan badiiy did, ustakorlik va ijdoiy tasvirlash badiiy qimmatini bilan o'rin oldilar". Samarqand kashtalarida juda kup islmiy naqshlar uchraydi. Hatto, Buxoro va Nurota kashtachiligidan ham bu qadar ko'p emas. Olimlarning fikricha naqsh san'atini o'rganishda ham Samarqand kashtachiligi juda ahamiyatlidir.

Samarqand dunyo madaniyati tarixiga Amir Temur davrida yorqin shahar sifatida kirib keldi. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at yuksak darajada rivojlangani bois, bu davr haqli ravishda "Temuriylar renessansi" deb ataladi. Ayni shu vaqtda davlat amaliy san'atning kuchli homiysi bo'lgan. Kulolchilik, koshinkorlik, kandakorlik, zargarlik, gilamdo'zlik, kashtachilik sohalari rivojlangan.

Samarqandning kashtachiligi, undagi yorqin ranglar, o'ziga xos shakllari bilan asosiy e'tiborni tortadi. Unga qo'shni bo'lgan hududlar – Buxoro, Nurato, Shahrisabz kabi mintaqalarga qaraganda Samarqand maktabida o'z usuli, tasvirlarning mahobatli yechimga bo'ysundirilishi, ranglarning jiddiyligi, qisqa va aniqlik, shakllardagi kuchli dinamikligi bilan ajralib turadi[1;].

Samarqandda kashtaga gul tikuvchi ko'plab mohir ustalar faoliyat yuritganlar va ular ba'zan ko'chirib, ba'zan esa yangi ijodiy namuna yaratganlar. Butun umrini shu kasbga bag'ishlagan ustalar mavjud bo'lgan.

Urgut kashtachiligida – issiq ranglar yorqin tarzda qora ranglardan yo'l-yo'l ichiga naqshlar tikilgan. 1980-yillarda kashtachilik bilan shug'ulanib kelgan Urgutlik Sabohat Rahmatullayeva ijod namunalari bo'lgan joynamoz, tokchapo'sh ( parda o'rnida ishlatilgan) kabi namunalarda to'rt tomoni yo'l ichiga qora rangli ip bilan quyruq islmiy naqshli, turli bezaklarn qizil fondan foydalangan [4;].

Nurota kashtachiligida esa zaminni oq, sarg'ish matoga rangli iplardan anor novdasi, guli, mevasi va kichik barglari mayda jimjimador qilib tikilgan. "Bu kashtalar xuddi tabiatning tug'ilish ramzi va hayotni madh etuvchi ovoz kabi. Bunday usulning yorqin qiyofalari Nurota, Buxoro, Samarqand so'zanalarida gavdalanadi" [5;].

Nurota kashtalari guldastalar bilan bezatilgan. Nurota kashtalari gulli motivlarning boyligi yoki rang-barangligi bilan ajralib turadi. Sepni tikayotgan yosh kashtado'z sochiq, kuyovdasturxon, devor choyshab, yostiqlik, ro'molcha kabi

kashta buyumlari tikadi. Shahrisabz soʻzanalarining ayrim namunalarida arab yozuvli naqshlar uchraydi. Buxoro joypush va joynamozlari chetlariga Qurʼoni karim oyatlari, Hadisi Sharif namunalari bilan birga pok tilak, ezgu niyatlar, goʻzal sheʼriy bitiklar yozib bezatilgan[6;].

XX asr boshlarida Samarqand kashtachiligida oʻzgarishlarni koʻrish mumkin. Har bir namunadagi naqshlar betakror. Biri-birini takrorlamas va oq fonli kashtalar urfga kirgandi. Kashtalardagi palak naqshi (Bu Toshkent kashtachiligidagi palak emas) ingichka, yegʻiluvchan daraxt va gul, meva ramzli - islmiy naqshlardan iborat boʻlib, bu naqshlardan foydalanish hozirda ham davom etib kelmoqda.

Samarqand kashtalari gulida ham asosiy oʻrinni moviy yaproq gulchambaridan koʻk rangli qismlari boʻlgan katta toʻpgul egallaydi. Baʼzi kashtalarda markazdagi maydonlarda islmiy naqshlari boʻlgan kompozitsiya aks ettirilgan [1;].

Nafaqat gul, barg, meva balki samarqandliklarning kundalik hayotidagi zargarlik buyumlari, uy-roʻzgʻor, samovar kabi buyumlar shakllari ham naqshli tarzda kashtalarga kiritilgan.

Bu ramziy tasvirlar xalqning dunyoni bilishi tushunchasidan kelib chiqib paydo boʻlgan. Xalq hayotidagi kasalliklar, befarzandlik, omadsiz ishlar kabi hodisalarni sirli, turli yovuz ruhlar va jodu kuchlari bilan bogʻlaganlar. Kashtachilikdagi ramziy tasvirlarni yovuz kuchlardan himoya qilish vositasi deb ham qarashgan. Shuning uchun kashta buyumlarini uyning turli joylariga ilishgan. Xalqning ishonishicha, inson tugʻilgandan soʻng dastlabki 40 kunni “chilla” vaqti deyishgan (tojikcha “chilla” – “qirq”). Qirq kunda chaqaloq himoyasiz boʻlib, yovuz kuchlarning yomonligiga muhtalo boʻladi,-deb tushunishgan. Shu sababli barcha matoli anjomlarni kashtalar bilan bezatganlar. Bundan tashqari olov, oʻtkir tigʻli buyumlarni ham yovuz kuchlardan himoya qiladi,- deb tushunishgan [7;].

Buni bola yotadigan beshik yostigʻi tagiga pichoq qoʻyilishidan bilsak boʻladi. Turmushga chiqayotgan qizlarning sepida zargarlik buyumlaridan “koʻz tumor” lar qilinishi shart boʻlgan. Kelinlarning uy roʻzgʻor buyumlari ichida ruyidjo, joypush, bolinpoʻsh, takiyapoʻsh, yastiqpoʻshlar oʻrin olgan. Samarqandda kelinni kuyovning uyiga otda olib kelishgan, otdan tushgach esa uning ustiga toʻrt tomondan toʻrt kishi kashtali soʻzana, yaʼni yopinchiq bilan kuyovning uyiga olib kirganlar. Ana shu yopinchiqda ham kashtachilik bezaklaridan foydalanilgan. Toʻydan keyin kelin bu anjomni sandiq ustida yigʻilgan koʻrpa yostiq ustiga yopinchiq sifatida yopib, buni “bolinpoʻsh” deb ataganlar [3;].

Tarixiy taraqqiyotni, rivojlanishni boshidan oʻtkazgan kashtachilik sanʼati mustaqillik davrida oldingidanda yuksaldi. Barcha jihatlarida oʻzgarishlar boʻlgani kabi, kashtachilik buyumlari turlari keskin oshdi. Masalan, qadimda oyna xalta, tuz xalta, shona xalta kabi buyumlar mavjud boʻlgan boʻlsa, endilikda kundalik hayotimizda ishlatiladigan buyumlar: mobil telefonlar uchun gʻiloflar, turli katta

kichiklikdagi shahar ramzlari va nomlari tushirilgan sumkachalar, hamyonchalar, turli do‘ppilar, oyoq kiyim turlari (tapochka, tufli, etik), buyumlarga g‘iloflar, xona interyerini bezatish uchun dasturxon va joynamozlarni, chik yostiqlar, milliy qo‘g‘irchoqlar, zargarlik buyumlari bilan ham aralashgan taqinchoqlargacha tayyorladi. Liboslarning yeng va etak qismi, turli ramziy belgichalar bilan bezatiladi. Bu buyumlarda oldingi naqsh an‘analari (islamiy va girix naqshlar, stilizatsiyali tasvirlar) ga qo‘shimcha holda turli shriftdagi yozuvlar, hayvonlar tasviri, hatto portretgacha tasvirlar uchraydi. Masalan, Samarqand zamonaviy kashtachiligida Registon tasviri tushirilgan naqshlar liboslar va buyumlarda uchraydi. Ranglari ham rang-barang, yorqindir. Gul, barg, hayvonlar, turli shakllar tasviri uchraydi. Matolar rangi ham turlichadir. Bu o‘sha buyumlarni suvenir sifatida haridorgiriligini oshiradi. Zamonaviy kashta buyumlarning bunday boyishiga sabab, xalqaro va Respublika miqyosidagi ko‘rgazmalarning o‘tkazilishi, chet eldan turli ashyolarning kirib kelishi, hunarmandlarga yaratlayotgan imkoniyatlardandir. Maqolamiz boshida aytib o‘tganimizdek, o‘zbek kelinlarining sepida bu san‘at qo‘llanilgan bo‘lsa, endilikda kelinlar sepidan bu buyumlar chiqib keta boshladi. Ammo zamonaviy kiyinish madaniyatida kashta bilan bezatilgan liboslarni turli yoshdagi xotin-qizlar kiyishi, buyumlarni ishlatishi urfga aylandi. Chunki, millat ichida o‘z merosini qadrlash, ardoqlash, asrash kuzatildi. Qoleversa, suvenir sifatida sayyohlarni jalb qilib kelmoqda.

Biz ushbu maqolani yozish davomida Olga Suxareva, Elmira Gul, Akbar Xakimov, Djuraeva Taxmina kabi san‘atshunos va izlanuvchilar ma‘lumotlari va xulosalarini o‘rgandik. Ularga qo‘shimcha qilgan holda aytish mumkinki, kashtadagi bezaklar xalqning urf-odatlarini, fikrlashi, diniy tushunchalari bilan bog‘liq holda shakllandi va rivojlandi. Kashtado‘zlar odatda kashtaning bir qismini chala tashlab, tikmasdan qoldirganlar. Bu ham ularning o‘y- hayollari bilan bog‘liq. Bu bir kam dunyoda yagona o‘lloh kamu ko‘stsiz degan tushunchalar yoki baxt va xursandchilikning davomli bo‘lishini istaganliklaridandir.

Temur va temuriylar davrida kashtachilik buyumlari islamiy naqshlar bilan boyidi va keng miqyosda tayyorlandi. XIX asrga kelib har bir o‘zbek xonadoni maishiy buyumiga aylandi.

Mustaqillik davriga kelib esa bu buyumlar turi nihoyatda kengaydi va zamonaviylik kasb etdi. Kelinlar sepida sanoqligina buyumlar namoyon bo‘lsada, boshqa turdagi buyumlarga kashtalar ishlandi. Ya‘ni insonlarning kundalik liboslari: koftalar, kostyumlariga, sharflar, ro‘molchalar, ko‘ylaklar yeng-u-yoqasiga, etagiga, oyoq kiyimlar, mobil telefon uchun g‘iloflar, do‘ppilarda, hamyonchalar shular jumlasidandir. Nafaqat mato yoki ko‘nga balki, zargarlik buyumlariga ham kashta bezaklari ta‘siri sezildi. Namuna ranglari serjilo, kompozitsiyalari murakkab, naqshlarda islami va girix, hayvonlar tasviri, yozuvlar, ramziy belgi va shakllar turli

ranglardagi matolarga aks etgan. Kashta iplarining turli tuslaridan foydalanishni ko‘rish mumkin. Masalan, Samarqand shahrini ramzi bo‘lgan Registon maydonining simvolik tasviri sumkalar, hamyonlar, erkak va ayollar liboslari, do‘ppilarga tushirilgan. Bir so‘z bilan ytganda Samarqand kashtachiligi turizmning rivojlanish manbalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Kashtachilikning bunday rivojlanishi yurtimizda amaliy san‘atga bo‘lgan e‘tibor, hunarmand ustalarning xalqaro va Respublika tanlovlarida ishtirok etishi bo‘lsa kerak. Kashta buyumlar o‘zining tuzilish kompozitsiyasi, rang koloriti, bezaklar ramzi insonni jalb qilishi sababi oddiy xalqning noyob ijodi, mashaqqatli qo‘l mehnati va ko‘z nuri sarfi, asosiysi qaynoq qalbning cheksiz mehr va muhabbat bo‘lsa kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Akbar Hakimov, Zilola Nasirova, Binafsha Nodir, O‘zbek xalq amaliy, san‘ati, o‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2019. 90-bet.
2. Джураева Тахмина Саидовна. Шедевры народного творчества узбеков. Молодой учёный научный журнал выходит два раза в месяц № 9 (89) / 2015
3. О. А. Сухарёва. “Орнамент декоративных вышивок Самарканда и его связь с народными представлениями и верованиями (вторая половина XIX-начало XX вв.)” макола 68-бет
4. Художники Самарканда. Москва / Союз художников. 1992. Каталог выставки
5. Д. А. Фахретдинова. Декоративно - прикладное искусство Узбекистана. Т.1972.г. 22 с.
6. Milliy kashtado‘zlikda fanlararo spektral – variativ komponentlarning o‘ziga xos jihatlari. Pedagogik mahorat /2019/ 3-son . Maxmatmurod Shomirzayev - Termiz davlat universiteti umumtexnika fanlari va texnologiya kafedراس dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
7. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. Утверждено к печати Ордена Дружбы народов институтом этнографии, Москва «НАУКА» 1989.

**Bosh muharrir:**

Umarov Alisher Yusubjanovich

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

**Tahrir hay‘ati:**

Asqarov A. A., Djurayev R. X., Begimqulov U. Sh., Muslimov N. A.,  
Xaliqov A. A., Djamilova N. N., Mamarajabova Z. N., Masharipova U. A.,  
Ishquvvatov V. T., Xalilova N. I., Nurullayev M. E.,  
Djurakulova E. S., Axmedova N. M., Kurbanova Sh. I., Xo‘janazarov O‘.E.,  
Abdug‘aniyev O.T., Isakulova N. J.

**Tahriryat manzili:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy

**e-mail: [tdpuia@mail.ru](mailto:tdpuia@mail.ru)**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tahrir va nashr”  
bo‘limida chop etildi. Adadi 10 nusxa. Hajmi 15 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1/8</sup>  
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy